

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**12/2-son (dekabr 2024)**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal  
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

**Urganch – 2024**

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ABDULLAYEV O'tkir**, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ATADJANOV Ilxam**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**ATAYEV Shokir**, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent (UrDU),  
**AHMEDOV Oybek Saporbayevich**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DO'SCHONOV Tangribegan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ERMETOVA Jamila**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),  
**JUMANAZAROV Doniyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich**, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OTAMURODOV Sa'dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RUZMETOV Surojbek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**RO'ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zZMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O'zZMU),  
**SALAYEV San'atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SATIPOV G'oiqnazar**, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**O'ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**O'ROZBOYEV G'ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),  
**G'AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 12/2-son (dekabr 2024)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

Baltayeva Umida Ismoilovna (Xorazm Ma'mun Akademiyasining bosh ilmiy xodimi, f.-m.f.d.;  
[umida\\_baltayeva@mail.ru](mailto:umida_baltayeva@mail.ru));

Babajanova Yulduz Ikromboyevna (Xorazm Ma'mun Akademiyasi tayanch doktoranti;  
[yulduzb90@gamil.com](mailto:yulduzb90@gamil.com))

### O'ZGARUVCHI KOEFFITSIYENTLI YUKLANGAN INTEGRODIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY MASALA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada parabologiperbolik tipdagi o'zgaruvchi koeffitsiyentli ikkinchi tartibli yuklangan differensial tenglama uchun qo'yilgan chegaraviy masalaning bir qiymatli yechimi o'rganilgan. Tadqiqot davomida masala Koshi masalasiga keltirilib, uning yechimini Riman funksiyasi orqali topish metodikasi qo'llanilib, bunday usul orqali uni Volterra tipidagi integral tenglamaga ekvivalentligi isbotlangan. Bundan tashqari, Grin funksiyasi va uning rezolventa usuli yordamida tenglamaning yechimi topilgan va bu hosil qilingan yechimning yagonaligi isbotlangan. Maqolada ko'rsatilgan yondashuvlar matematik modellashtirish va fizik jarayonlarni aniq ifodalashda muhim ahamiyatga egadir.

**Kalit so'zlar:** yuklangan tenglama, o'zgaruvchi koeffitsiyent, parabologiperbolik operator, integral tenglama.

#### КРАЕВАЯ ЗАДАЧА ДЛЯ НАГРУЖЕННОГО ИНТЕГРОДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ С ПЕРЕМЕННЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ

**Аннотация.** В данной статье исследуется единственность решения краевой задачи для нагруженного дифференциального уравнения второго порядка с переменными коэффициентами параболо-гиперболического типа. Задача преобразуется в задачу Коши, а ее решение выводится с использованием функции Римана. Этот подход также устанавливает эквивалентность интегральному уравнению типа Вольтерра. Кроме того, решение получено с использованием функции Грина и метода резольвенты, а его единственность доказана. Представленные в статье подходы играют значительную роль в математическом моделировании и обеспечивают точное описание физических процессов.

**Ключевые слова:** нагруженное уравнение; переменный коэффициент, парабологиперболический оператор; интегральное уравнение.

#### BOUNDARY VALUE PROBLEM FOR A LOADED INTEGRODIFFERENTIAL EQUATION WITH VARIABLE COEFFICIENT

**Annotation.** In this work, we study the single-valued solution of the boundary value problem for a second-order loaded differential equation with variable coefficients of parabola-hyperbolic type. The problem is transformed into a Cauchy problem, and its solution is derived using the Riemann function. This approach also establishes the equivalence to a Volterra-type integral equation. Additionally, the solution is obtained through the Green's function and the resolvent method, and its uniqueness is demonstrated. The approaches presented in this article play a significant role in mathematical modeling and provide an accurate description of physical processes.

**Key words.** loaded equation, variable coefficient, parabolichyperbolic operator, integral equation.

**Kirish (Introduction).** Maqolada o'zgaruvchi koeffitsiyentli yuklangan integrodifferensial tenglama uchun qo'yilgan chegaraviy masalaning analitik yechimi mavjudligi va uning yagonaligi isbotlangan. Bu turdagi masalalar matematik modellashtirishning muhim qismi bo'lib, ular orqali real dunyodagi fizik jarayonlarni aniqlik bilan ifodalash mumkin. Ushbu maqolada olingan natijalar, o'zgaruvchi koeffitsiyentli yuklangan integrodifferensial tenglamasi uchun qo'yilgan chegaraviy masalaning yechimini aniqlashda qo'llaniladigan usullar va metodlarni o'z ichiga oladi. Bu masalalar kanalda suyuqlik va gazlarning harakati, o'tgazgichdagi elektr tebranishlari, g'ovok muhitda gaz va suyuqlik filtratsiyasi masalalarining matematik modellari fizik jarayonlarning matematik modellari uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada olingan natijalar, ilmiy tadqiqotlarda va amaliy masalalarni yechishda foydalanish uchun juda katta ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida asosan aralash tipdagi o'zgaruvchi koeffitsiyentli yuklangan integrodifferensial tenglama uchun chegaraviy va ular bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha o'rganishlar keltirilgan. Bunda Т.Д. Джураев, А.Сопуев, М.Мамажанов "Краевые задачи для уравнений парабологиперболического типа" kitobida foydalanilgan metodlar, usullar va yondashuvlar asosida shakllantirilgan. Shuningdek, qo'yil-

gan masalaning yagonaligini isbotlashda, M.Salohiddinov Matematik fizika tenglamalari kitobidagi Volterra tipidagi integral tenglamalar mavzusida keltirilgan teoremlardan keng foydalandik.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu maqoladagi tadqiqot metodologiyasi matematik modellashtirish va analitik yondashuvlarga asoslanib keltirilgan. Asosiy masala giperbolik tarafdin Koshi masalasiga keltirilgan bo‘lib, bu orqali yuklangan hadli giperolik tipdagi tenglamani integral tenglamaga ekvivalentligi isbotlangan. Volterra tipidagi integral tenglamasi yordamida yechim topilib, uning yagonaligi yordamchi funksiyalar orqali baholangan. Rezolventa usuli bilan integral tenglamaning yagona yechimi topilgan va keltirilgan yechim yordamida Koshi masalasining yechimi aniqlangan. Ushbu yondashuvlar giperbolik tipdagi tenglamalarning analitik yechimlarini topishda qo‘llanilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ushbu maqolada keltirilgan natijalar, o‘zgaruvchi koefitsiyentli yuklangan integrodifferensial tenglamasi uchun qo‘yilgan chegaraviy masalaning yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu aralash turdagi tenglamalar uchun yechimni topish uchun alohida tarafdin yechimlar qidirilib, ularni ulash shartlari yordamida umumlashtirish usuli muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, maqolada taklif etilgan yondashuvlar amaliy masalalarni hal qilishda juda foydalidir.

$D$  orqali  $y = 0$ ,  $x = 1$ ,  $x = -1$ ,  $y = 1$  segmentlar bilan chegaralangan sohani belgilaymiz. Shuningdek, quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$D_1 = D \cap \{x > 0\}, \quad D_2 = D \cap \{x < 0\}, \\ I = \{(x, y) : x = 0, 0 < y < 1\}. \quad D = D_1 \cup D_2 \cup I.$$

$D$  sohada quyidagi

$$0 \equiv \begin{cases} u_{xx} + a_1(x, y)u_x + b_1(x, y)u_y + c_1(x, y)u - \sum_{i=1}^n d_i(x, y)D_{\alpha_i}^{\alpha_i}u(0, y), & (x, y) \in D_1 \\ u_{xx} - u_{yy} + a_2(x, y)u_x + b_2(x, y)u_y + c_2(x, y)u - \sum_{i=1}^n e_i(x, y)D_{\beta_i}^{\beta_i}u(0, y), & (x, y) \in D_2 \end{cases} \quad (1)$$

yuklangan integrodifferensial tenglama berilgan bo‘lsin, bu yerda  $a_1(x, y)$ ,  $a_2(x, y)$ ,  $b_1(x, y)$ ,  $b_2(x, y)$ ,  $c_1(x, y)$ ,  $c_2(x, y)$ ,  $d_i(x, y)$ ,  $e_i(x, y)$  ( $i = 1, 2, \dots, n$ ) – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.  $D_{\gamma}^{\gamma}$  orqali  $\gamma$  ( $\gamma = (\alpha_i, \beta_i)$ ) tartibli Riman-Liuvill ma’nosidagi integral operator belgilangan.

**Masalaning qo‘yilishi.** Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $u(x, y)$  funksiyani aniqlang:

- 1)  $u(x, y) \in C(\bar{D}_k) \cap C^1(D_k \cup I)$ ;
- 2)  $D_k$  ( $k = 1, 2$ ) sohada (1) tenglamaning regular yechimi bo‘lsin va quyidagi

$$\begin{cases} \tau_1(y) = \mu(y)\tau_2(y) + \sigma(y) \\ v_1(y) = \int_0^y \gamma(y, \eta)v_2(\eta)d\eta + \sigma(y)v_2(y) + \xi(y)\tau_2(y) + \theta(y) \end{cases} \quad (2)$$

ulash shartlarini qanoatlantirsin, bunda

$$D_1 : \tau_1(y) = u(+0, y), \quad v_1(y) = u_x(+0, y),$$

$$D_2 : \tau_2(y) = u(-0, y), \quad v_2(y) = u_x(-0, y),$$

quyidagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin

$$u(x, y)|_{y=0} = \psi_1(x), \quad u_y(x, y)|_{y=0} = 0, \quad -1 \leq x \leq 0, \quad (3)$$

$$u(x, y)|_{y=0} = \psi_2(x), \quad 0 \leq x \leq 1, \quad (4)$$

$$u(-1, y) = \varphi_1(y), \quad u(1, y) = \varphi_2(y), \quad 0 \leq y \leq 1, \quad (5)$$

bu yerda  $\varphi_1(y)$ ,  $\varphi_2(y)$ ,  $\psi_1(x)$ ,  $\psi_2(x)$ ,  $\mu(y)$ ,  $\sigma(y)$ ,  $\delta(y)$ ,  $\gamma_y(y, \eta)$ ,  $\xi(y)$ ,  $\theta(y)$  – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

Ushbu integral ulash shartli masalaning bir qiymatli yechimining mavjudligini isbotlaymiz.

1. Dastavval, masalani sohaning giperbolik qismida qaraymiz.

Ushbu

$$u_{xx} - u_{yy} + a_2(x, y)u_x + b_2(x, y)u_y + c_2(x, y)u - \sum_{i=1}^n e_i(x, y)D_{oy}^{\beta_i}u(0, y) = 0 \quad (6)$$

tenglamaga mos bir jinsli tenglamani (3) shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topuvchi yordamchi masala yechimini quyidagi

$$w(x, y) = \frac{1}{2} \left[ R(x, y; x + y, 0)\psi_1(x + y) + R(x, y; x - y, 0)\psi_1(x - y) \right] - \frac{1}{2} \int_{x-y}^{x+y} \left[ R_\eta(x, y; \xi, 0) + b_2(\xi, 0)R(x, y; \xi, 0) \right] \psi_1(\xi) d\xi.$$

ko'rinishda yozish mumkin, bu yerda  $R(x, y; \xi, \eta)$  – Riman funksiyasi [2]

Bir jinsli bo'lmagan qismining yechimini esa Duyamel prinsipi yordamida keltiramiz va bu yechimni  $v(x, y)$  deb belgilaymiz. U holda (3)-(6) Koshi masalasining yechimi quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$u(x, y) = \frac{1}{2} \left[ R(x, y; x + y, 0)\psi_1(x + y) + R(x, y; x - y, 0)\psi_1(x - y) \right] - \frac{1}{2} \int_{x-y}^{x+y} \left[ R_\eta(x, y; \xi, 0) + b_2(\xi, 0)R(x, y; \xi, 0) \right] \psi_1(\xi) d\xi + \frac{1}{2} \int_0^y \int_{x-y+\eta}^{x+y-\eta} R(x, y; \xi, 0) f(\xi, \eta) d\xi d\eta, \quad (7)$$

bu yerda

$$f(\xi, \eta) = \sum_{i=1}^n e_i D_{0s}^{\beta_i} \tau_2(s) = E_i(\xi, \eta) D_{0\eta}^{\beta_i} \tau_2(\eta)$$

ga teng. Bu hosil qilingan (7) yechimdagi  $\psi_1(\xi)$  funksiya uchun (3) shartdan foydalanib, quyidagi

$$\psi_1(y) - \int_0^y Q(0, y, \xi) \psi_1(\xi) d\xi = F(y),$$

Volterra tipidagi integral tenglamani hosil qilamiz, bu yerda

$$Q(0, y, \xi) = R_\eta(0, y; \xi, 0) + b_2(\xi, 0)R(0, y; \xi, 0),$$

$$F(y) = 2\tau_2(y) - R(0, y; -y, 0)\psi_1(-y) +$$

$$+ \int_{-y}^0 Q(0, y, \xi) \psi_1(\xi) d\xi - \frac{1}{\Gamma(-\beta)_i} \int_0^y \tau_2(s) ds \int_s^y (\eta - s)^{-1-\beta_i} R(0, y; \xi, 0) E_i(\xi, \eta) d\eta$$

Ushbu integral tenglamani yechimini quyidagi ko'rinishda aniqlaymiz:

$$\psi_1(y) = 2\tau_2(y) + \int_0^y X_1(y, s) \tau_2(s) ds + g_1^*(y), \quad 0 \leq y \leq 1,$$

bu yerda

$$X_1(y, s) = 2Z_1(y, s) - H(y, s) - \int_s^y Z_1(y, \xi) H(\xi, s) d\xi,$$

$$g_1^*(y) = \int_0^y Z_1(y, s) g_1(\xi) d\xi + g_1(y).$$

Shuningdek, umumiy (-1, 1) intervalda biz quyidagi funksiyaga ega bo'lamiz:

$$\tilde{\psi}_1(y) = \begin{cases} 2\tau_2(y) + \int_0^y \tau_2(s)Z_1(y,s)ds + g_1^*(y), & 0 \leq y \leq 1, \\ \psi_1(y), & -1 \leq y \leq 0. \end{cases}$$

Ushbu usulda butun o'qda davom qildirib,  $\tilde{\psi}_1(y)$  funksiyani aniqlash mumkin.

Demak, (6) tenglamani quyidagi

$$u(x, 0) = \tilde{\psi}_1(x), \quad u_y(x, 0) = 0, \quad -1 \leq x \leq 0.$$

shartlar bilan olingan yechimini quyidagicha yozamiz:

$$\begin{aligned} u(x, y) = & \frac{1}{2} [R(x, y; x+y, 0)\tilde{\psi}_1(x+y) + R(x, y; x-y, 0)\tilde{\psi}_1(x-y)] - \\ & - \frac{1}{2} \int_{x-y}^{x+y} [R_\eta(x, y; \xi, 0) + b_2(\xi, 0)R(x, y; \xi, 0)] \tilde{\psi}_1(\xi) d\xi + \\ & + \frac{1}{2} \int_0^y \int_{x-y+\eta}^{x+y-\eta} R(x, y; \xi, 0) f(\xi, \eta) d\xi d\eta. \end{aligned} \quad (8)$$

Endi (8) yechimga

$$u_x(-0, y) = v_2(y),$$

shartni qo'llab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} v_2(y) = & \tau_2'(y) + \tau_2(y) [R_x(0, y; y, 0) - R_\eta(0, y; y, 0) - b_2(y, 0)] + \int_0^y T(y, s)\tau_2(s)ds + g_{11}(y), \\ & 0 \leq y \leq 1, \end{aligned} \quad (9)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} T(y, s) = & \frac{1}{2} [R_x(0, y; y, 0)X_1(y, s) + X_{1x}'(y, s) - X_1(y, s)] + \\ & + \frac{1}{2\Gamma(-\beta_i)} \int_s^y (\eta-s)^{-1-\beta_i} [R(0, y; y-\eta, 0)E_i(y-\eta, \eta) - \\ & - R(0, y; -y+\eta, 0)E_i(-y+\eta, \eta)] d\eta ds + \\ & + \frac{1}{2\Gamma(-\beta_i)} \int_s^y (\eta-s)^{-1-\beta_i} d\eta \int_{-y+\eta}^{y-\eta} R_x(0, y; \xi, 0)E_i(\xi, \eta) d\xi + \\ & + (-2Q_x(0, y, s) - \int_s^y Q_x(0, y, \xi)X_1(\xi, s) d\xi), \\ g_{11}(y) = & \frac{1}{2} [R_x(0, y; y, 0)g_1^*(y) + g_1^*(y) + R_x(0, y; y, 0)\psi_1(y) + R(0, y; -y, 0)\psi_1'(y) - \\ & - (R_\eta(0, y; y, 0) + b_2(y, 0))g_1^*(y) + (R_\eta(0, y; y, 0) + b_2(y, 0))R(0, y; -y, 0)\psi_1(y)] - \\ & - \int_{-y}^0 Q_x(0, y, \xi)\psi_1(\xi) d\xi - \int_0^y Q_x(0, y, \xi)g_1^*(\xi) d\xi. \end{aligned}$$

2. Masalani sohaning parabolik qismida qaraymiz.

Ushbu

$$u_{xx} + a_1(x, y)u_x + b_1(x, y)u_y + c_1(x, y)u - \sum_{i=1}^n d_1(x, y)D_{ox}^{\alpha_i}u(0, y) = 0 \quad (10)$$

tenglamada agar  $b_1(x, y) = -1$  bo'lsa va quyidagi

$$u(x, y)|_{x=0} = \tau_1(y), \quad u_x(x, y)|_{x=1} = \varphi_2(y), \quad u(x, y)|_{y=0} = \psi_2(x),$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini quyidagicha yozib olamiz:

$$\begin{aligned} u(x, y) = & \int_0^1 \psi_2(\xi) G(x, y; \xi, 0) d\xi + \int_0^y \tau_1(\eta) G_\xi(x, y; 0, \eta) d\eta + \\ & + \int_0^y \varphi_2(\eta) G(x, y; 1, \eta) d\eta - \int_0^y \int_0^1 G(x, y; \xi, \eta) V(\xi, \eta) d\xi d\eta \end{aligned} \quad (11)$$

$$\begin{aligned} \text{bu yerda } G(x, y; \xi, \eta) = & \frac{1}{2\sqrt{\pi(y-\eta)}} \sum_{n=-\infty}^{+\infty} \left\{ \exp\left(-\frac{(x-\xi-4n)^2}{4(y-\eta)}\right) - \exp\left(-\frac{(x+\xi-4n)^2}{4(y-\eta)}\right) + \right. \\ & \left. + \exp\left(-\frac{(x+\xi-2-4n)^2}{4(y-\eta)}\right) - \exp\left(-\frac{(x-\xi-2-4n)^2}{4(y-\eta)}\right) \right\} \end{aligned}$$

Grin funksiyasi [2]

$V(x, y)$  quyidagi integral tenglamaning yechimi

$$\begin{aligned} V(x, y) - \int_0^y \int_0^1 W(x, y; \xi, \eta) V(\xi, \eta) d\xi d\eta = \\ = p_1(x, y) + \int_0^y L_1(x, y; \eta) \tau_1'(\eta) d\eta - \int_0^y W(x, y; 1, \eta) \varphi_2(\eta) d\eta. \end{aligned}$$

bu yerda

$$L_1(x, y; \eta) = a_1(x, y) N(x, y; 0, \eta) - \int_\eta^y c_1(x, y) G_\xi(x, y; 0, t) dt,$$

$$W(x, y; \xi, \eta) = a_1(x, y) G_x(x, y; \xi, \eta) + c_1(x, y) G(x, y; \xi, \eta),$$

$p_1(x, y)$  – berilgan uzluksiz differensiallanuvchi funksiya,

$$N(x, y; 0, \eta) = \frac{1}{4\sqrt{\pi(y-\eta)}} \sum_{n=-\infty}^{+\infty} \left\{ \exp\left[-\frac{(x-4n)^2}{4(y-\eta)}\right] - \exp\left[-\frac{(x-2-4n)^2}{4(y-\eta)}\right] \right\}.$$

Ushbu Volterra tipidagi integral tenglama bo'lib, uning yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$V(x, y) = \tilde{p}_1(x, y) + \int_0^y \bar{L}_1(x, y; t) \tau_1'(t) dt, \quad (12)$$

bu yerda

$$\tilde{p}_1(x, y) = \bar{p}_1(x, y) + \bar{W}(x, y; t)$$

(12) ifodani (11) yechimga keltirib qo'yamiz va quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} u(x, y) = & \int_0^1 \psi_2(\xi) G(x, y; \xi, 0) d\xi + \int_0^y \varphi_2(\eta) G(x, y; 1, \eta) d\eta - \\ & - \int_0^y \int_0^1 G(x, y; \xi, \eta) \tilde{p}_1(x, y) d\xi d\eta + \int_0^y \tau_1(\eta) G_\xi(x, y; 0, \eta) d\eta - \\ & - \int_0^y \tau_1'(t) dt \int_t^y \int_0^1 \bar{L}_1(\xi, \eta; t) G(x, y; \xi, \eta) d\xi d\eta. \end{aligned} \quad (13)$$

Endi (13) tenglamaga

$$u_x(0, y) = v_1(y)$$

shartni qo'llab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$v_1(y) = \int_0^y \tau_1(t) G_{\xi x}(0, y; 0, t) dt - \int_0^y \tau_1'(t) \Phi_{1x}(y, t) dt + \Phi_{0x}. \quad (14)$$

2. Aralash masalani qaraymiz.

Aralash masalani yechishda parabolik va giperbolik tarafdin hosil qilingan noma'lumlarga nisbatan olingan (9) (14) ifodalar va (3) ulash shartlardan foydalanib, quyidagi integro differensial tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} v_1(y) &= \int_0^y \tau_1(t) G_{\xi x}(0, y; 0, t) dt - \int_0^y \tau_1'(t) \Phi_{1x}(y, t) dt + \Phi_{0x}, \\ v_2(y) &= \tau_2'(y) + \tau_2(y) \Pi(y) + \int_0^y T(y, s) \tau_2(s) ds + g_{11}(y), \\ \tau_1(y) &= \mu(y) \tau_2(y) + \sigma(y), \\ v_1(y) &= \int_0^y \gamma(y, \eta) v_2(\eta) d\eta + \delta(y) v_2(y) + \xi(y) \tau_2(y) + \theta(y). \end{aligned}$$

Tenglamalar sistemasidan, ekvivalent tarzda  $\tau_2(y)$  funksiyaga nisbatan Volterra tipidagi integral tenglamaga keltirishimiz mumkin. Hosil bo'lgan integral tenglamani yechimining mavjudligi va yagonaligidan barcha noma'lumlar ketma-ket aniqlanadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ushbu maqolada o'zgaruvchi koeffitsiyentli yuklangan integrodifferensial tenglama uchun qo'yilgan chegaraviy masalaning analitik yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlandi. Bunday yechimlarning mavjudligi va yagonaligi, matematik modelning ishonchliligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- [1]. Т.Д.Джураев, А.Сопуев, М.Мамажанов. Краевые задачи для уравнений парабологиперболического типа. Ташкент, "Фан", 1986.
- [2]. Baltava U., Babajanova Y., Agarwal P., Ozdemir N. Solvability of a mixed problem with the integral gluing condition for a loaded equation with the Riemann–Liouville fractional operator. June 2023 Journal of Computational and Applied Mathematics 425(11):115066 DOI:10.101
- [3]. Nakhushiev, AM. Loaded Equations and Their Applications. Moscow, "Nauka" (2012).
- [4]. А.Зоммерфельд. Дифференциальные уравнения в частных производных физики. Москва, 1950.
- [5]. Babajanova Y.I., Egamberganova Z.A., Jumanazarov O. O'zgaruvchan koeffitsiyentli yuklangan integrodifferensial tenglama uchun chegaraviy masala. Nukus, 24–25-may, 2024.
- [6]. M.Salohiddinov. Matematik fizika tenglamalari. "O'zbekiston", Toshkent, 2002.

Usmonov Anvarjon Abdiqodir o'g'li (Toshkent davlat Texnika universiteti, PhD, katta o'qituvchi;  
u-anvarjon@mail.ru)

### FOSFOR VA BOR ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN KREMNIYNING MORFOLOGIK VA STRUKTURAVIY TAHLILI

**Annotatsiya.** Bugungi kunda energetika muammolarini hal etishda yangi xususiyatlarga ega bo'lgan materiallarni olish hamda ularning xossalari tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Yuqoridagi muammoni hal etishga qaratilgan mazkur ishda kremniyga bor va fosfor atomlarini kiritib, kremniyda bor va fosfor atomlarining birikmalari hosil qilingan. Olingan materialning morfologik va rentgen strukturaviy tahlillari keltirilgan. Rentgen strukturaviy tahlil asosida olingan materialning panjara doimiysi hisoblab topilgan.

**Kalit so'zlar:** kremniy, legirlash, morfologiya, birikma, panjara doimiysi.

### МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ И СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ КРЕМНИЯ, ЛЕГИРОВАННОГО АТОМАМИ ФОСФОРА И БОРА

**Аннотация.** Сегодня получение материалов с новыми свойствами и исследование их свойств являются актуальными при решении энергетических задач. В данной работе, направленной на решение поставленной задачи, в кремний были введены атомы бора и фосфора и образовались соединения атомов бора и фосфора в кремнии. Представлены морфологический и рентгеноструктур-

ний анализ полученного материала. Постоянная решетки полученного материала рассчитана на основе рентгеноструктурного анализа.

**Ключевые слова:** кремний, легирование, морфология, соединение, постоянная решетки.

## MORPHOLOGICAL AND STRUCTURAL ANALYSIS OF SILICON DOPED WITH PHOSPHORUS AND BORON ATOMS

**Annotation.** Today, obtaining materials with new properties and studying their properties are relevant in solving energy problems. In this work, aimed at solving the problem, boron and phosphorus atoms were introduced into silicon and compounds of boron and phosphorus atoms in silicon were formed. Morphological and X-ray structural analysis of the obtained material are presented. The lattice constant of the obtained material was calculated based on X-ray structural analysis.

**Key words:** silicon, doping, morphology, compound, lattice constant.

**Kirish (Introduction).** So‘nggi yillarda kremniy kristal panjarasida kirishma atomlarini kiritib, birikmali yarimo‘tkazgichlarning hosil bo‘lishi asosida kremniy materialining fundamental xususiyatlarini o‘zgartirishga asoslangan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bor va fosfor kirishma atomlarining birikmalarini kremniy hajmida hosil qilib, ularning fizik xususiyatlarini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Binobarin, kremniyda bor va fosfor kirishma atomlarining o‘zaro birikmalarini hosil bo‘lishining texnologiyasini o‘rganish va bu materialni amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, kremniy hajmida bor va fosfor kirishma atomlarni birikmalarini shakllanish mexanizmlarini va olingan materialning xossalari o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.


**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Kremniy materialining kristall panjarasida kirishma atomlarining birikmalarini hosil qilish va bu materialning yangi fizik xossalari tadqiq etish katta qiziqish uyg‘otmoqda [1].

Bor hamda fosfor kirishma atomlarining kremniyga kiritish yangi nanostrukturali kremniy ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning sababli kremniydagi, ayniqsa,  $(BP)_xSi_{1-x}$  kabi birikmalarda kirishma atomlari konsentratsiyasini boshqarish amaliy qiziqish uyg‘otadi. Bor hamda fosfor kiritilganda kirishma atomlarining birikmalari hosil bo‘lishida yuqori konsentratsiyada ishtirokini ta‘minlash uchun qulay termodinamik sharoitlarni aniqlash kerak [2,3].


Fosfor hamda bor kirishma atomlari bilan ligerlangan kremniy panjarasida  $(BP)_xSi_{1-x}$  kabi birikmalarni hosil qilish uchun diffuzion texnologiyani ishlab chiqish va olingan materiallarning morfologik va fizik xossalari tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Diffuziya jarayonida kremniyda fosfor hamda bor atomlarining diffuziya koeffitsiyentlari va eruvchanligini hisobga olgan holda, konsentratsiya taqsimotining nazariy hisoblari shuni ko‘rsatdiki, bunday termodinamik sharoitlarni hosil qilish murakkab texnologik jarayon hisoblanadi [4;5-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tarkibida fosfor konsentratsiyasi  $N_p \sim 5 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$  ga teng bo‘lgan [6;10-b.] KEF-1 markali monokristalli boshlang‘ich kremniy tanlab olingan. Tadqiqot uchun namunalar 2 guruhga bo‘lingan. 1-guruh boshlang‘ich kremniydir. 2-guruh kremniy fosfor hamda bor atomlari bilan ketma-ket diffuziya usulida legirlangan. Kislotada yordamida kimyoviy usuli orqali boshlang‘ich kremniy sirtiga ishlov berildi. Diffuziya jarayonidan keyin olingan namunaning sirti AFM yordamida hamda element tarkibi markasi JSM-IT200 bo‘lgan elektron mikroskop yordamida o‘rganildi.




1-rasm. 2-guruh namunaning element tarkibi.



**2-rasm. Atom kuch mikroskopida olingan kremniy sirtining morfologiyasi; a) 1-guruh namuna; b) 2-guruh namuna.**

AFM yordamida obyektlarni sakkiz marotabagacha kattalashtirish mumkin. Atom kuch mikroskopi bir nechta ish maromiga ega. Biz ilmiy izlanishlarimizda sirt morfologiyani olishda statik kuch maromidan foydalandik.

2-rasmdan ma'lumki, kremniy sirtining notekisligi  $\sim 79,05$  nm (a), fosfor hamda bor atomlari bilan ketma-ket legirlangan kremniy, sirt notekisligi 90 nm ga tengligi ko'rinib turibdi (b).



**3-rasm. 2-guruh namunaning rentgen tahlili.**

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Fosfor hamda bor atomlari bilan ketma-ket legirlangan kristallografik yo'nalish o'qi bo'lgan kremniy namunalarning rentgen tahlili ko'rsatilgan. 3-rasmda, kremniyning spektriga tegishli bo'lgan difraksiyon cho'qqilarga qo'shimcha ravishda, kremniy, hamda kirishma atomlari bilan bog'liq bo'lgan yangi  $34,1^\circ$  burchakda cho'qqi paydo bo'ladi. Asosiy kremniy atomlariga tegishli cho'qqi.  $34,1^\circ$ da bor-fosfor birikmasiga to'g'ri keladigan diffraksiya cho'qqisida hosil bo'lgan birikmalarining panjara doimiysi hisoblab chiqilgan. Bragg qonuniga asoslanib hisoblanganda panjara doimiysi 0,4538 nm.ni tashkil etadi.

Adabiyotlardan ma'lumki, kremniyda fosfor hamda bor kirishma atomlari kremniy panjarasi tugunlarida Kulon kuchi ta'sirida birikma hosil qiladi [8;12-b.]. Natijada  $(BP)_xSi_{1-x}$  kabi birikmalar hosil bo'ladi kremniy panjarasida u elektroneytral holatda bo'ladi, birikma atomlari o'zaro ion-kovalent bog'lanish hosil qiladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**  $(BP)_xSi_{1-x}$  turdagi tuzilishga ega birikmalar hosil bo'lishi tadqiq etilgan, bunda fizik xususiyatlari boshlang'ich kremniyning fizik xususiyatlaridan farq qiladi. Ushbu izlanish natijalari kremniyga asoslangan yangi fizik xossalarga ega birikmali materialni olish imkoni ko'rsatildi. Kristall panjara doimiysi kremniy kristall panjara doimiysidan farq qiladigan yangi birikmali yarimo'tkazgich material hosil bo'lishiga erishildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). М.К.Бахадырханов, С.Б.Исамов. Физические основы формирования гетероваризонной структуры на основе кремния, ЖТФ, 91 (11), 1678 (2021).
- (2). Н.Ф.Зикриллаев, О.Б.Турсунов, М.М.Шоабдурахимова. Фотоэлектрические свойства варизонных структур на основе кремния с нанокластерами примесных атомов Zn и Se, Физика полупроводников и микроэлектроника, 2 (2), 15 (2020).

- (3). М.К.Бахадирханов, З.Т.Кенжаев, С.В.Ковешников, А.А.Усмонов, Г.Х.Мавлонов. Образование комплексов примесных атомов фосфора и бора в кремнии, Неорг. матер., 58 (1), 3 (2022).
- (4). М.К.Бахадирханов, Н.Ф.Зикриллаев, С.Б.Исамов, Х.С.Турекеев, С.А.Валиев. Влияние наличия достаточно высокой концентрации фосфора на концентрационное распределение галлия в кремнии, ФТП, 56 (2), 199 (2022).
- (5). Х.Ф.Зикриллаев, Қ.С.Аюпов, Г.Х.Мавлонов, А.А.Усмонов, М.М.Шоабдурахимова, Особенности электрофизических параметров кремния, легированного последовательно примесными атомами фосфора и бора, ФТП, 2022, том 56, вып. 6 DOI: 10.21883/0000000000
- (6). Б.И. Болтакс. Диффузия и точечные дефекты в полупроводниках. Л., “Наука”, 1972.
- (7). О.В.Александров. Модель высоко- и низкотемпературной диффузии фосфора в кремнии по дуальному парному механизму ФТП, 35 (11), 1289 (2001).
- (8). Г.В.Гадияк. Диффузия бора и фосфора в кремнии при высокотемпературной ионной имплантации ФТП, 31 (4), 385 (1997).
- (9). Е.Г.Тишковский, В.И.Ободников, А.А.Таскин, К.В.Феклистов, В.Г.Серяпин. Перераспределение атомов фосфора, имплантированных в сильно легированный бором кремний ФТП, 34 (6), 655 (2000).
- (10). T.Udagawa, G.Shimaoka, Heteroepitaxial growth of boronphosphide III–V semiconductor on silicon by organometallic chemical vapor deposition, Journal of Ceramic Processing Research. Vol. 4, № 2, pp. 80–83 (2003).
- (11). Minoru Fujii, Kimiaki Toshiyuki, Yuji Takase, Yasuhiro Yamaguchi, Shinji Hayashi, Below bulk-band-gap photoluminescence at room temperature from heavily P- and B-doped Si nanocrystals, Journal of applied physics, volume 94, number 3, 1 august 2003.
- (12). I.L.Shul’pina, R.N.Kyutt, V.V.Ratnikov, I.A.Prokhorov, I.Zh.Bezbakh, M.P.Shcheglov. X-ray study of dopant state in highly doped semiconductor single crystals Semiconductor Physics, Quantum Electronics & Optoelectronics, 2011, V. 14, № 1, p. 62–70.

**Davletov Davronbek Egamberganovich (Renessans ta’lim universiteti “Matematika va tabiiy fanlar” kafedrasida dotsenti; [davletovdavron74@gmail.com](mailto:davletovdavron74@gmail.com))**  
**ELEMENTAR GEOMETRIYA MASALALARIDA BARISENTRIK METODNING BA’ZI TATBIQLARI**

*Аннотация. Ushbu maqolada og‘irlik markazi, baritsentrik koordinatalar tushunchalarini tatbiq qilishning rivojlanish tarixi, elementar geoetriya masalalarida og‘irlik markazi va baritsentrik koordinatalar tushunchalaridan foydalanishning o‘ziga xos tomonlari ochib berilgan. Baritsentrik koordinatalarni og‘irlik markazi yordamida kiritishdan tashqari bu koordinatalarni uchburchak yuzalari orqali ham ifodalash mumkinligi ko‘rsatilib, masalalarda tatbiqlari keltirilgan.*

**Кали со‘злар:** og‘irlik markazi, moddiy nuqta, baritsentrik koordinatalar, ko‘pburchaklar.

**НЕКОТОРЫЕ ПРИМЕНЕНИЯ БАРИЦЕНТРИЧЕСКОГО МЕТОДА В ЗАДАЧАХ ЭЛЕМЕНТАРНОЙ ГЕОМЕТРИИ**

*Аннотация. В данной статье описана история развития применения понятий центра тяжести и барицентрических координат, особенности использования понятий центра тяжести и барицентрических координат в задачах элементарной геометрии. Помимо ввода барицентрических координат с помощью центра тяжести показано, что эти координаты можно выразить и через площади некоторых треугольников, и приведены примеры на их применения в задачах.*

**Ключевые слова:** центр тяжести, материальная точка, барицентрические координаты, многоугольники.

**SOME APPLICATIONS OF BARYCENTRIC METHOD IN PROBLEMS OF ELEMENTARY GEOMETRY**

*Annotation. This article describes the history of the development of the use of the concepts of center of gravity and barycentric coordinates, the features of the use of the concepts of center of gravity and barycentric coordinates in problems of elementary geometry. In addition to entering barycentric coordinates using the center of gravity, it is shown that these coordinates can also be expressed through the areas of some triangles, and examples of their application in problems are given.*

**Key words:** center of gravity, material point, barycentric coordinates, polygons.

**Kirish.** Ma’lumki, muntazam ravishda masalalar yechib borish nazariyani ongli va puxta o‘zlash-tirishga yordam beradi, uning amaliy qiymatini ko‘rsatadi, shu bilan birga, masala yechish o‘quvchining mantiqiy tafakkurini, ijodiy tashabbuskorliklarini, fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda hamda ularga bir qancha zarur amaliy mahorat va malakalar beradi. Jumladan, og‘irlik markazi va baritsentrik koordinatalaridan foydalanish ba’zi geometrik masalalarning yechimini ancha soddalashtiradi va o‘quvchilarda bu tu-

shunchalarning tatbiqiy tomonlarini ochib beradi. Massalar markazining bir qancha oddiy xossalari geometriya va algebradan turli masalalarni yechishga imkon beradi. Jumladan, bu usulda bir nechta to'g'ri chiziqlarning bitta nuqtani kesishadimi, bir nechta nuqtalar bir chiziqqa (yoki bir tekislikka) tegishlimi yoki yo'qmi, degan savollarga javob berish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Barisentrik usulning asoschisi buyuk qadimgi yunon mutafakkiri Arximeddir. Miloddan avvalgi 3-asrda u massa markazining xususiyatlaridan foydalangan holda, yangi matematik faktlarni isbotlash usulini kashf etdi. Xususan, shu usulda u uchburchakning uchta medianasining bir nuqtada kesishishi haqidagi teoremani asoslab berdi. Arximed g'oyalari, keyinchalik, ko'plab geometriklar (Pappus, Cheva, Gulden, Lhuillier va boshqalar) tomonidan qo'llanilgan va rivojlantirilgan. Arximed yashagan va ishlagan vaqtdan ikki ming yil o'tgach, yana bir ajoyib matematik Leonard Eyler aylanma harakatni o'rganish bilan bog'liq holda inersiya momenti tushunchasini kiritdi. Bu holatda ham massa markazida bo'lgani kabi, bu tushuncha yordamida qiyin va qiziqarli geometrik faktlarni isbotlashning ajoyib usullari topildi. Barisentrik koordinatalar haqida dastlabki ma'lumotlarlar Avgust Ferdinand Myobusning 1827-yilda nashr qilingan "Der barycentrische Calcul" kitobida keltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Geometrik masalalarni barisentrik metod yordamida yechishda biz alohida olingan nuqtalarga massa yuklaymiz. Olingan moddiy nuqta yoki uning qismlarining xossalari barisentr usulidan foydalanish shundan iboratki, nuqtalar va bu nuqtalarga joylashgan massalar elementar geometriyada oddiy kesmalar nisbatidek tanlanganda masalalar oson va chiroyli yechiladi.

Masalani yechishda barisentrning quyidagi asosiy xossasi juda muhim:

1. Ixtiyoriy moddiy nuqtalar sistemasida barisentr mavjud va yagonadir.
2. Ikkita moddiy nuqtaning barisentri bu nuqtalar joylashgan kesmada yotadi.
3. Moddiy nuqtalar sistemasida umumiy sistemaning barisentri vaziyatini o'zgartirmay turib bu nuqtalarni o'rnini almashtirish imkoniyati mavjud.

**Tahlil va natijalar.**  $A_1, A_2, \dots, A_n$  nuqtalarga  $m_1, m_2, \dots, m_n$  massalar qo'yilganda  $m_1 A_1, m_2 A_2, \dots, m_n A_n$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi uchun quyidagi teorema o'rinli.

**Teorema.**[1] Agar  $m_1 A_1, m_2 A_2, \dots, m_n A_n$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi  $Z$  nuqta bo'lsa, fazodan olingan ixtiyoriy  $O$  nuqta uchun quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$\overrightarrow{OZ} = \frac{m_1 \overrightarrow{OA_1} + m_2 \overrightarrow{OA_2} + \dots + m_n \overrightarrow{OA_n}}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}$$

va aksincha fazodan olingan ixtiyoriy  $O$  nuqta uchun yuqoridagi tenglik bajarilsa,  $Z$  nuqta  $m_1 A_1, m_2 A_2, \dots, m_n A_n$  sistemaning og'irlik markazi bo'ladi.

Endi og'irlik markazi va barisentrik koordinatalarning tatbiqlariga masalalar ko'rib chiqamiz.


**1-masala.**  $ABC$  uchburchakning  $AC$ -tomonidan shunday  $M$ -nuqta olinganki bunda  $|AM| = \frac{1}{3}|AC|$   $CB$ -tomonining davomida shunday  $N$ -nuqta olinganki,  $|BN| = |CB|$  tenglik o'rinli.  $MN$ -chiziq  $AB$ -tomonni  $P$ -nuqtada kessa bu nuqta  $AB$  tomoni va  $MN$  kesmani qanday nisbatda bo'ladi.

**Yechish.**  $A, C, N$ -nuqtalarda shunday massalar joylashtiramizli bu uchta massaning og'irlik markazi  $P$ -nuqtada bo'lsin.  $N$  va  $C$  nuqtalarga teng massalarni joylashtirganda ularning og'irlik markazi  $B$ -nuqta bo'ladi. Shuning uchun  $A$ -nuqtaga kerakli massani joylashtirib, uchta moddiy nuqtaning og'irlik markazini  $AB$  kesmada yotadigan (aniqrog'i,  $P$  nuqtada) qilish mumkin.

Demak  $N$  va  $C$ -nuqtalarning har biriga bir birlikdan massa joylashtiramiz va  $1N, 1C$  moddiy nuqtalarni olamiz.  $|CM| = 2|AM|$  tenglik o'rinli bo'lgani uchun richak qoidasiga ko'ra,  $M$ -nuqta  $1C$  va  $2A$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi bo'ladi.  $1N, 1C, 2A$ -moddiy nuqtalarning og'irlik markazi  $Z$  nuqta ekanligidan,  $1N$  va  $3M$  nuqtalarning ham og'irlik markazi ham  $Z$  nuqta ekanligi kelib chiqadi, ya'ni  $Z \in MN$ . Demak,  $Z$ -nuqta  $MN$  va  $AB$  kesmalarining kesishish nuqtasi, ya'ni,  $Z = P$ .  $Z$  nuqta  $1N, 3M$  moddiy nuqtalarning va  $2B, 2A$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi ekanligidan richag qoidasiga ko'ra,

$$[NP]:[PM]=3:1, [AP]:[PB]=1:1.$$

tengliklarga ega bo‘lamiz.



Yuqoridagi masalani vektorlar yordamida ham yechimi mavjud. Bunda ixtiyoriy  $O$  – nuqtani olib,  $|CM|=2|AM|, |BN|=|CB|$  tengliklarni vektorlar orqali ifodalaymiz  $2\overrightarrow{MA}+\overrightarrow{MC}=\vec{0}$ ,  $\overrightarrow{BC}+\overrightarrow{BN}=\vec{0}$  bo‘lib, ular quyidagi tengliklarga teng kuchli

$$\overrightarrow{OM} = \frac{2\overrightarrow{OA} + \overrightarrow{OC}}{3}, \quad \overrightarrow{OB} = \frac{\overrightarrow{OC} + \overrightarrow{ON}}{2}.$$

Berilgan misol shartiga ko‘ra,  $Z$  – nuqtani qaraymiz:

$$\overrightarrow{OZ} = \frac{2\overrightarrow{OA} + \overrightarrow{OC} + \overrightarrow{ON}}{4}.$$

Xuddi shuningdek,


$$\overrightarrow{OZ} = \frac{3\overrightarrow{OM} + \overrightarrow{ON}}{4} \Rightarrow 3\overrightarrow{ZM} + \overrightarrow{ZN} = \vec{0} \Rightarrow Z \in [MN];$$

$$\overrightarrow{OZ} = \frac{2\overrightarrow{OA} + (\overrightarrow{OC} + \overrightarrow{ON})}{4} = \frac{2\overrightarrow{OA} + 2\overrightarrow{OB}}{4} \Rightarrow \overrightarrow{ZA} + \overrightarrow{ZB} = \vec{0} \Rightarrow Z \in [AB].$$

Shunday qilib,  $Z$  –  $AB$  va  $MN$  kesmalarining kesishish nuqtasi, ya’ni  $Z = P$ , shuning uchun  $|PN|:|PM|=3, |PA|=|PB|$ .

**2-masala.**  $ABC$  – uchburchakning  $AB$  – asosidagi  $F$  nuqta uning  $B$  – uchidan hisoblaganda  $3:1$ ,  $AB$  va  $AC$  yon tomonlarida esa  $M$  va  $P$  nuqtalar  $A$  va  $C$  uchidan boshlab hisoblaganda, mos ravishda, bu tomonlarning  $1:6$  qismini ajratadi ( $|AM|=\frac{1}{6}|AB|, |CF|=\frac{1}{6}|CB|$ ).  $MP$  va  $AF$  kesmalar kesishish nuqtasida qanday nisbatda bo‘linadi.

**Yechish.**  $B$  va  $C$  nuqtalarga shunday massalar yuklaymizki, ularning og‘irlik markazi  $F$  nuqtada bo‘lsin. Buning uchun  $B$  uchiga bir birlik,  $C$  uchiga uch birlik massalar qo‘yamiz. Endi  $A$  uchiga esa  $x$  massani shunday tanlaymizki,  $IB$  va  $xA$  moddiy muqtalarning og‘irlik markazi  $M$  nuqta bo‘lsin. U holda richag qoidasiga ko‘ra,  $1|BM|=x|MA|$ . Bundan  $x=|BM|:|MA|=5$ .  $C$  va  $A$  nuqtaga ham  $P$  ni og‘irlik markazi bo‘laidan qilib,  $3$  va  $y$  massalarni qo‘ysak,  $3|CP|=y|PA|$  bundan  $y=3|CP|:|PA|=0.6$ .



Bu holatda bizda  $1B$  va  $3C$  moddiy nuqtalardan tashqari,  $A$  nuqtada ikkita  $5$  va  $0.6$  massalarga ega bo'ldik.

Endi to'rtta moddiy nuqtadan tashkil topgan  $5A, 1B, 3C$  va  $0.6A$  sistemani qaraymiz. Ularning og'irlik markazini  $Z$  orqali belgilaymiz.  $1B$  va  $5A$  moddiy nuqtalarni ularning og'irlik markazi  $M$  nuqtaga ko'chiramiz.  $3C$  va  $0.6A$  moddiy nuqtalar esa ularning og'irlik markazi  $P$  nuqtaga ko'chiramiz. U holda  $Z$  nuqta faqat ikkita  $6M$  va  $3.6P$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi bo'lib qoladi. Demak  $Z \in [MP]$ , yani  $Z$  nuqta  $MP$  kesmada yotadi.

Agar biz  $5A, 1B, 3C$  va  $0.6A$  moddiy nuqtalarni boshqacha guruhlasak, ya'ni,  $1B, 3C$  moddiy nuqtalarni ularning og'irlik markazi  $F$  nuqtaga joylashtirib,  $5A$  va  $0.6A$  moddiy nuqtalarning o'rniga bitta  $5.6A$  moddiy nuqtani qaraymiz. U holda  $Z$  nuqta  $4F$  va  $5.6A$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi bo'ladi. Shuning uchun  $Z \in [AF]$ . Demak  $Z$  nuqta  $MP$  va  $AF$  kesmalarning kesishgan nuqtasi bo'ladi.  $Z$  nuqta  $4F$  va  $5.6A$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi bo'lgani uchun  $5.6|AZ| = 4|FZ|$  bo'lib, bundan  $|AZ| : |ZF| = 5 : 7$ . Yuqoridagidek mulohaza yuritib,  $6|MZ| = 3.6|PZ|$  va bundan  $|MZ| : |ZP| = 3 : 5$  ga ega bo'lamiz.

Endi barisentrik koordinatalat tushunchasini kiritamiz. Agar  $M$  nuqta  $\triangle A_1A_2A_3$  uchburchak ichidagi nuqta bo'lsa u holda yuqoridagi teoremaga ko'ra,  $m_1, m_2, m_3$  musbar sonlarni shunday tanlash mumkinki,  $M$  nuqta  $m_1A_1, m_2A_2, m_3A_3$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi bo'ladi. Ravshanki, bu xossaga ega bo'lgan  $m_1, m_2, m_3$  massalar bir qiymatli aniqlanmagan bo'lib,  $gm_1, gm_2, gm_3$  massalar ham xuddi shunday xossaga ega. Ya'ni  $(gm_1)A_1, (gm_2)A_2, (gm_3)A_3$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi ham  $M$  nuqta bo'ladi. Bu hossadan massalarning yig'indisini  $1$  ga teng qilishda foydalaniladi. Haqiqatan ham,

$$g = \frac{1}{m_1 + m_2 + m_3} \text{ da}$$

$$\mu_1 = gm_1, \mu_2 = gm_2, \mu_3 = gm_3$$

massalarga ega bo'lamiz va ularning yig'indisi  $1$  ga teng bo'lib,  $\mu_1A_1, \mu_2A_2, \mu_3A_3$

moddiy nuqtalarning og'irlik markazi  $M$  nuqta bo'ladi.

Boshqacha aytganda,

$\triangle A_1A_2A_3$  ning ixtiyoriy ichki  $M$  nuqtasi uchun  $\mu_1 + \mu_2 + \mu_3 = 1$  (1) shartni qanoatlantiradigan shunday musbat  $\mu_1, \mu_2, \mu_3$  sonlar topiladi va bunda  $M$  nuqta  $\mu_1A_1, \mu_2A_2, \mu_3A_3$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi bo'ladi, ya'ni  $M = \mu_1A_1 + \mu_2A_2 + \mu_3A_3$  (2).

Yuqoridagi (1) va (2) shartlarni qanoatlantiruvchi  $\mu_1, \mu_2, \mu_3$  sonlar  $M$  nuqtaning  $A_1A_2A_3$  bazis uchburchakka nisbatan *barisentrik koordinatalari* (yoki *B-koordinatalari*) deyiladi [3].

Masalan,  $A_1A_2A_3$  uchburchakning medianalari kesishgan  $Z$  nuqtasi  $1A_1, 1A_2, 1A_3$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi bo'ladi, demak,  $\frac{1}{3}A_1, \frac{1}{3}A_2, \frac{1}{3}A_3$  moddiy nuqtalarning ham og'irlik markazi bo'ladi. U holda  $\mu_1 = \frac{1}{3}, \mu_2 = \frac{1}{3}, \mu_3 = \frac{1}{3}$  sonlari  $Z$  nuqtaning *B-koordinatalari* deyiladi [2].

Agar  $\mu_1, \mu_2, \mu_3$  sonlarni musbat demasdan ixtiyoriy haqiqiy sonlar deb olsak, nafaqat  $A_1A_2A_3$  uchburchakning ichki nuqtalari uchun, balki bu uchburchak tekisligining ixtiyoriy nuqtasi uchun barisentrik koordinatalarni aniqlash mumkin.

Barisentrik koordinatalarni og'irlik markazi yordamida kiritishdan tashqari geometirik yondashgan holda, bu koordinatalarni qandaydir uchburchak yuzalari orqali ham ifodalash mumkin. Bu, birinchidan, og'irlik markazi tushunchasining qiziqarli geometirik talqini beradi (tekislikdagi uchta moddiy nuqta holati uchun). Ikkinchidan, barisentrik koordinatalarni geometirik masalalar yechishda qo'llashning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

Biz  $P$  nuqtaning bazis uchburchak ichida joylashish holatini ko'rib chiqamiz.

**Teorema.**  $P$  nuqta  $A_1A_2A_3$  bazis uchburchak ichida yotsin va  $S, S_1, S_2, S_3$  lar, mos ravishda,  $A_1A_2A_3, PA_2A_3, A_1PA_3, A_1A_2P$  uchburchaklarning yuzalari bo'lsin. U holda  $P$  nuqtaning *B-koordinatalari* quyidagiga teng:

$$\mu_1 = \frac{S_1}{S}, \quad \mu_2 = \frac{S_2}{S}, \quad \mu_3 = \frac{S_3}{S}$$


Boshqacha aytganda, bazis uchburchakning  $A_1, A_2, A_3$  uchlarida  $S_1, S_2, S_3$  yuzalarga son jihatdan teng massalarni joylashtirsak, u holda uchburchakning og'irlik markazi  $P$  nuqta bo'ladi [2].

Endi *B-koordinatalar*ning tatbiqlariga masalalar ko'rib chiqamiz.

**3-masala** [3]. Tomonlari  $a, b, c$  bo'lgan  $ABC$  bazis uchburchakka ichki chizilgan aylana markazi  $O$  ning *B-koordinatalari*ni toping.

**Yechish.** Ichki chizilgan aylananing radiusini  $r$  orqali belgilaymiz. U holda  $S_1 = \frac{1}{2} \cdot a \cdot r$ ,  $S_2 = \frac{1}{2} \cdot b \cdot r$ ,  $S_3 = \frac{1}{2} \cdot c \cdot r$ ,  $S = \frac{1}{2} \cdot (a + b + c) \cdot r$  bo'ladi. Bundan  $O$  markazning *B-koordinatalari*  $\frac{a}{a+b+c}, \frac{b}{a+b+c}, \frac{c}{a+b+c}$  lar ekanligi kelib chiqadi.

**4-masala.**  $A_1A_2A_3$  uchburchakning  $A_1A_3$  va  $A_2A_3$  tomonlarida  $\overrightarrow{A_1N} = l\overrightarrow{A_1A_3}$ ,  $\overrightarrow{A_2M} = k\overrightarrow{A_2A_3}$ , shartlarni qanoatlantiruvchi  $N$  va  $M$  nuqtalar olingan.  $A_1M$  va  $A_2N$  to'g'ri chiziqlar kesishgan  $Z$  nuqtaning *B-koordinatalari*ni toping.




**Yechish.**  $\mu_1, \mu_2, \mu_3$  lar  $Z$  nuqtaning *B-koordinatalari* bo'lsin, ya'ni,  $Z = \mu_1A_1 + \mu_2A_2 + \mu_3A_3$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi.  $A_1Z$  to'g'ri chiziq  $A_2A_3$  tomonni  $\mu_2A_2$  va  $\mu_3A_3$  moddiy nuqtalarning og'irlik

markazi bo'lgan nuqtada kesib o'tadi. Boshqacha qilib aytganda,  $\mu_1 \overline{MA_2} + \mu_3 \overline{MA_3} = \vec{0}$ , ya'ni,  $-\mu_2 \overline{A_2M} + \mu_3 (\overline{A_2A_3} - \overline{A_2M}) = \vec{0}$ . Bu tenglikni  $\overline{A_2M} = \frac{\mu_3}{\mu_2 + \mu_3} \overline{A_2A_3}$  ko'rinishda yozib,  $k = \frac{\mu_3}{\mu_2 + \mu_3}$  ekanligini aniqlaymiz. Shunga o'xshash  $l = \frac{\mu_1}{\mu_1 + \mu_3}$  ni ham topamiz.

Bu munosabatdan  $\mu_1$  va  $\mu_2$  ni topib,  $\mu_1 + \mu_2 + \mu_3 = l$  ifodaga qo'ysak, quyidagi tenglik hosil bo'ladi:  $\frac{1-l}{l} \mu_3 + \frac{1-k}{k} \mu_3 + \mu_3 = l$ . Bundan  $\mu_3$  ni keyin esa  $\mu_1$  va  $\mu_2$  ni topamiz:

$$\mu_3 = \frac{kl}{k+l-kl}, \quad \mu_1 = \frac{k(1-l)}{k+l-kl}, \quad \mu_2 = \frac{l(1-k)}{k+l-kl}.$$

**5-masala** [6].  $A_1A_2A_3$  uchburchak tomonlaridan shunday  $B_1, B_2, B_3$  nuqtalar olinganki, bunda  $|A_2B_1| = \frac{1}{4}|A_2A_3|$ ,  $|A_3B_2| = \frac{1}{4}|A_3A_1|$ ,  $|A_1B_3| = \frac{1}{4}|A_1A_2|$ .  $A_1A_2A_3$  uchburchakning yuzasi  $S$  bo'lsa, u holda  $A_1B_1, A_2B_2, A_3B_3$  to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan  $PQR$  uchburchakning yuzini toping.



**Yechish.** Masala shartiga ko'ra  $S_{PQR} = S_{A_1A_2A_3} - S_{A_1RA_2} - S_{A_2PA_3} - S_{A_3QA_1}$ .

4-masaladan foydalanib,  $R$  nuqtaning  $B$ -koordinatalari  $\left(\frac{1}{13}, \frac{9}{13}, \frac{3}{13}\right)$  ni hosil qilamiz va


yuqoridagi teorema ko'ra,  $\frac{S_{A_1A_2R}}{S} = \frac{3}{13}$ ,  $\frac{S_{A_2A_3P}}{S} = \frac{3}{13}$ ,  $\frac{S_{A_3A_1Q}}{S} = \frac{3}{13}$  larni topamiz. Demak,

$$S_{\triangle PQR} = S - 3 \cdot \frac{3}{13} S = \frac{4}{13} S.$$

**6-masala.** O'tkir burchakli  $ABC$  uchburchakni bazis sifatida olib, uning balandliklari kesishgan  $H$  nuqtaning baritsentrik koordinatalarini toping. Bunda  $A, B, C$  burchaklari, mos ravishda,  $\alpha, \beta, \gamma$  ga teng.

**Yechish.**  $AA_1, BB_1, CC_1$  balandliklarni o'tkazamiz.  $B$  va  $C$  uchlariga shunday  $m_2$  va  $m_3$  massali yuklarni qo'yamizki, natijada  $A_1$  massa markaziga aylansin. Richag qoidasiga ko'ra,  $m_2|BA_1| = m_3|A_1C|$  bo'lib, bundan  $m_2c \cos \beta = m_3b \cos \gamma$ .

Xuddi shunday,  $m_3C$  va  $m_1A$  moddiy nuqtalarning og'irlik markazi  $B_1$  nuqtada bo'lishi uchun  $m_3a \cos \gamma = m_1c \cos \alpha$  tenglik bajarilishi kerak.



Bu tengliklardan sinuslar teoremasini qo‘llagan holda quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\frac{m_1}{\sin \alpha \cos \beta \cos \gamma} = \frac{m_2}{\cos \alpha \sin \beta \cos \gamma} = \frac{m_3}{\cos \alpha \cos \beta \sin \gamma}$$

Bundan  $\frac{m_1}{\operatorname{tg} \alpha} = \frac{m_2}{\operatorname{tg} \beta} = \frac{m_3}{\operatorname{tg} \gamma}$  munosabatlarga ega bo‘lamiz.

Demak, uchburchak balandliklari kesishgan  $H$  nuqta baritsentrik koordinatalari

$$\operatorname{ktg} \alpha, \operatorname{ktg} \beta, \operatorname{ktg} \gamma \text{ bo‘lib, bunda } k = \frac{1}{\operatorname{tg} \alpha + \operatorname{tg} \beta + \operatorname{tg} \gamma}.$$

**Xulosa va takliflar.** Ma‘lumki, geometriyani o‘rganishda masalalarning ahamiyati kattadir. Masala yechish jarayonida o‘quvchilar olgan nazariy bilimlarini tatbiq qilish malakalariga ega bo‘ladilar. Geometrik masalalarni yechishning turli usullarini bilish turli qiyinliklardagi masalalarni yechishning maqbul usullarini tanlash imkonini kengaytiradi. Biz ushbu maqolada og‘irlik markazi, baritsentrik koordinatalar tushunchalari yordamida ayrim elementar geometriya masalalarini oson yechish mumkinligini ba‘zi masalalarda ko‘rsatdik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Эвнин А.Ю. Метод масс в геометрии треугольника. “Математика в школе”, 2014, № 8, с. 59–67.
- (2). Понарин Я.П. Элементарная геометрия. Т. 3. Треугольники и тетраэдры, М., МЦНМО, 2009, 192 с.
- (3). Мякишев А.Г. Элементы геометрии треугольника. М., МЦНМО, 2002, 32 с.
- (4). А.А.Заславский, В.Ю.Протасов, Д.И.Шарыгин. Геометрические олимпиады им. И.Ф.Шарыгина, Москва, издательство МЦНМО, 2007.
- (5). В.Прасолов. Задачи по планиметрии. М., МЦНМО, 2006.

Xoliqov Yunus Ortiqovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Falsafa va milliy g’oya” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc); [xolikovyunus88@gmail.com](mailto:xolikovyunus88@gmail.com))  
**AXLOQ MILLATLARARO MADANIYATNI TARTIBGA SOLUVCHI IJTIMOYIY NORMA SIFATIDA**

**Annotasiya.** *Bugun zamonaviy dunyoda ko‘p madaniyatlilik, madaniyatlar xilma-xilligi tushunchalari kengayib bormoqda. Turli xil madaniyatlarning mavjudligi mamlakatimiz yoshlarining turli madaniyatlardan xabardor bo‘lishi bilan birgalikda, ma‘naviy axloqiy dunyoqarashlari ham kengayib borishiga zamin yaratish holatlari tadqiq qilingan. Bu boradagi islohotlarimiz xalqaro miqyosda ham o‘zining o‘rniga ega bo‘lib, bunda yoshlarimizning faol ishtirokini yuksaltirish mumkin. Ularning birligi, millatlararo munosabatlarda tengligi, barqaror siyosatni ta‘minlashda hamfikrligi yutug‘i sanalish jarayonlari ijtimoiy falsafiy ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *axloq, ijtimoiy, norma, millat, madaniyat, jamiyat, shaxs, kodeks, ta‘lim, tamoyil, bag‘rikenglik, pazitsiya, taraqqiyot, milliy, tolerantlik, insoniyat, ratsional, qadriyat, elat, millat, tarbiya, millatlararo, muhit, mehr-oqibat, or-nomus, mehmondo‘stlik, saxovatpeshalik, baxt-saodat.*

### **О СОЦИАЛЬНЫХ НОРМАХ УПОРЯДОЧЕНИЯ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ПРАВСТВЕННОСТИ**

**Аннотация.** *Сегодня в современном мире понятия культурного многообразия и разнообразия культур становятся все более актуальными. Существование различных культур создает условия для расширения духовно-нравственного мировоззрения молодежи нашей страны, наряду с их осведомленностью о разных культурах. Реформы в этой сфере имеют международное значение и могут способствовать активному участию нашей молодежи. Их единство, равенство в межнациональных отношениях и совместные усилия по обеспечению стабильной политики рассматриваются как достижения, которые раскрываются в социально-философском контексте.*

**Ключевые слова:** *нравственность, социальный, норма, нация, культура, общество, личность, кодекс, образование, позиция, развитие, национальный, толерантность, человечество, рациональный, ценности, народ, воспитание, межнациональный, среда, добро, честь, гостеприимство, благотворительность, счастье.*

### **ON SOCIAL NORMS OF ORDERING INTERNATIONAL CULTURE OF MORALITY**

**Annotation.** *Today, in the modern world, the concepts of multiculturalism and cultural diversity are expanding. The existence of various cultures creates conditions for the youth of our country to become more aware of different cultures, which in turn broadens their moral and ethical worldview. The reforms in this area have gained international significance, and it is possible to enhance the active participation of our youth in this process. Their unity, equality in interethnic relations, and shared perspectives in ensuring stable policies are revealed as significant achievements in these ongoing processes.*

**Keywords:** *ethics, society, norm, nation, culture, community, individual, code, education, principle, tolerance, position, development, national, humanity, rationality, values, people, upbringing, interethnic, environment, kindness, honor, hospitality, generosity, happiness.*

**Kirish.** Millatlararo madaniyatning turli darajalari va turli sohalari juda ko‘p axloqiy talab va qoidalarni talab etadi. Umuman olganda, insonlar tabiatan axloqiy jihatdan yaxshimi yo yomonmi? Insonlarni tarbiyalash fikriy va amaliy ravishda madaniyat, diniy va dunyoviy ilmlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiyasiga asoslangan. Shuning uchun biz yoshlarni tarbiyalashda barcha ilmlarning mukamalligini ta‘minlashimiz kerak. Bunda axloq o‘ziga xos ijtimoiy norma sifatida jamiyatdagi har bir millat vakilining faoliyatini tartibga soladi, ijtimoiy ideallarini madaniyatlarda ifodalaydi. Yoshlarning ongida axloq tuzilmasi shakllanar ekan, u bevosita millatlararo madaniyat bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lib, jamiyatning yangilanish jarayonlarida boyiydi.

Shaxs kamoloti barcha davrlarda turli ijtimoiy tuzumlarning eng asosiy maslaklaridan biri hisoblana-di. Zero, insonlar shaxs sifatida taraqqiy etmaydigan davlat va jamiyatning taraqqiyoti bo‘lmaydi. Azalazaldan aynan shu masala har bir jamiyatni o‘ylantirgan muammolardan biri bo‘lib kelgan hamda ushbu masalaga har bir millat o‘ziga xos tarzda yondashgan. Bu haqida so‘z yuritganda esa “bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini” [1;118-b.] alohida ta‘kidlab o‘tishimiz mumkin. Masalan, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida tilga olingan, o‘z davrida jamiyat a‘zolarining

axloqiylik darajasini belgilab berish vazifasini bajargan o'n ikki xislat haqidagi qarashlarni bugungi kunning dolzarb mavzularidan biriga aylantirishimiz zarur. Axloqiy me'yorlarning ijtimoiy normalari haqida so'z yuritish bilan subyektivlikka erishib bo'lmaydi. Buni Forobiy "fozil jamoa" g'oyalari orqali millatlarni hamjihatlikka chorlash asosida ochib bergan.

**Adabiyotlar tahlili.** Axloqiy me'yorlarning ijtimoiy normalarining millatlararo bag'rikenglik munosabatlariga oid o'z asarlarida millatlararo madaniyatini shakllantirishning falsafiy va axloqiy tafovutlari, millatlararo madaniyatning bag'rikenglikka asoslanishida axloqiy tafakkur unsurlarini tadqiq etishgan qadimgi davrda Mesopotamiyada "Xamurapi qonunlari", Xitoyda Konfutsiy ta'limoti, hindlarda "Mahabhorat", "Ramayana" dostonlari, Markaziy Osiyoda "Avesto"da o'ziga xos millatlararo bag'rikenglik hodisaning barqarorligini ta'minlash asosi bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik, bu masala bo'yicha shug'ullangan taniqli chet ellik olimlar qatorida D.Lokk, J.J.Russo, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turiman, L.Drobijeva, A.Karnishev U.Altermatt B.Freyxof, Y.Altermatlar millatlararo madaniyat va bag'rikenglikning axloqiy jarayonlari o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Millatlararo madaniyat va bag'rikenglikni rivojlantirishning axloqiy va falsafiy ildizlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlaridan O'.Mirzayev, I.Saifnazarov, A.Obidov, F.Abdurahmonov, M.Nurmatova, N.Abdullayeva, E.Qodirov, A.Ochildiyev, R.Murtazayeva, O.Musayev, C.Yusupova, A.Hasanov, B.Iminov, B.Karimov, S.Karimov, I.Karimov, E.Karimova, N.Mamanazarov, T.Maxmudov, A.Ochildiyev, S.Otamuratov, V.Qo'chqorov, Z.Qodirova [2.], U.Saidov, J.To'lanov, X.Xonnazarov, Z.Xusniddinov, X.Yunusova, E.Yusupovalar o'rganishgan. O'.Mirzayev: "O'zbekistonda millatlararo totuvlik siyosatini mustahkamlashda milliy madaniy markazlar o'rni" deb nomlangan maqolasida O'zbekiston milliy siyosatida bag'rikenglik tamoyillari amal qilib, "har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi va suverenitetiga bo'lgan huquqlarini tan olishi, shuningdek, millatlar va xalqlarning integratsiyasi – barcha muhim sohalar – bu natijalar uchun zarur" [3.], degan xulosaga keldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, nazariyalarni qiyoslash, dala etnografik ishi, tarixiylik, mantiqiylik, ketma-ketlik va tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Yurtimizda millat mavjudligini ta'minlovchi qadriyatlar milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan yangi avlodga o'tib kelmoqda. "U inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi" [4;16–18-b.]. Buni biz faqatgina ta'lim-tarbiya maskanlari deb biluvchi joylardagina emas, balki yurtimizning barcha jabhalarida, ijtimoiy sohada maishiy dam olish maskanlarida OAVlarida, radio va shu kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham ma'naviy targ'ibot ishlarini olib borishimiz kepkligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi.

Axloq millatlararo bag'rikenglik tamoyili namoyon bo'lishiga imkon beradi, chunki u o'zaro ta'sir qiluvchi subyektlarning pazitsiyalari tengligini ichiga oladi. Ilmiy tamoyil, eng avvalo, ijtimoiy normalarning jamiyat taraqqiyotdagi obyektiv qonuniyatlarga mos kelishini talab qiladi. Bag'rikenglik esa uning ijtimoiy darajasini ko'rsatib, tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishini mustahkamlaydi. Bag'rikenglikda zamonaviy qadriyatlar inqirozi asosan relyativizm inqirozi sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, nisbiylik botqog'idan xalos bo'lishga va ijtimoiy normalarni umumlashtirishga axloq yordam beradi.

Professor Q.Xonazarov millatning bir maqsad atrofida uyushishini tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bog'lab: "X–XX asrlar oralig'ida xalqimiz uchinchi marta millat bo'lib uyushib, XX asrning oxirgi o'n yilligidan boshlab to'rtinchi marta eng yuksak darajadagi hozirgi zamon millati sifatida yuzaga chiqayotgani har birimizni mag'rurlantirmasdan iloji yo'q" [5], deb yozadi. Bu esa millatning milliy ongi, milliy bag'rikenglik tizimi mavjudligini tasdiqlaydi. Jamiyatda tolerantlik intolerantlik bilan dialektik birlikda ham namoyon bo'lishi mumkin. Pluralizm jamiyatda xilma-xillik mavjudligini anglatadi, tolerantlik esa butun tizimning ishlashini va mavjudligini ta'minlaydigan birlik tamoyilini joriy etadi. Shu bilan birga, tolerantlik g'oyalari ham har bir millatga xos tarzda shakllanib, keyin shu hududda yashayotgan xalqlar, elatlar hamkorligi natijasida millatlararo yaxlitlikda rivojlanib borishi o'z tasdiqini topadi.

Axloqiy me'yorlar jamiyatda insonlarni hushyorlik, sodiqlik kabi mezonlari bilan muvozanatning ta'minlanishi yo'li bilan yordam beradi. Bundan tashqari, axloq kodeksi nafaqat ayrim subyektlarning bevosita manfaatlari ehtiyojlarini qondirishi kerak, u muayyan subyektlarning uzoq muddatli manfaatlari va kelajakdagi manfaatlari ehtiyojlarini qondirishi kerak, bu ham axloq kodeksini universallashtirishni talab qiladi.

Ikkinchidan, axloqiy me'yorlarning umuminsoniy tamoyili ko'rsatilgan obyektlarning talablari va cheklovlari ham universal bo'lishi kerakligini talab qiladi. Har bir ijtimoiy sohada o'ziga xos axloqiy me'yorlar va kodekslar bo'ladi. Ushbu soha subyektlari – shaxslar, korxonalar, xodimlari, soha mutaxas-

sislarining hamkorligi, shuningdek, jamiyatni ijtimoiy tashkil etuvchi institut a'zolari uchun amal qilish shartini bildiradi. Bunday me'yoriy usullar yordamida ijtimoiy subyektlar rivojlanishga, insoniyatga hurmat ko'rsatishga, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga, ishonch va unvonning mustahkamlanishiga muvaffaqiyat qilishi xarakter bo'lishi kuchayadi.

Bundan tashqari, millatlararo madaniyatni yoshlarda rivojlantirish uchun, nihoyatda, diniy, ratsional va axloqiy qadriyatlar birgalikda ishlaydi. Bu borada oilaviy institutning roli juda katta, chunki o'zaro munosabatlar, sevgi, xizmatkorlik, sifat, mehribonlik va xayriya vaqtining ko'proq qismini olib qo'yadi. Bu tarbiya, xalqimizning qadriyatlari, adabiyotimiz, musiqamiz, o'yinlarimiz va insoniyatni hurmatlashning alomatlari bilan bog'liq tajribalarni o'rgatadi. Demak, oila barkamol avlod poydevori bo'lib, oilada farzandlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, adolat, burch, vatanparvarlik kabi axloqiy qadriyatlarni singdirish o'ta muhimdir.

Nemis faylasufi Immanuel Kant bu borada shunday fikr bildiradi. "Tangri to'g'risidagi tushuncha bizlarni boqib, parvarish qilayotgan tasavvur bilan muqoyasa qilingan holda tushuntirib berilsa, oila misolida kishilarning birligi, birdamligi, yakdilligi, hamjihatligi va o'zaro ahilligi ajoyib tarzda o'z ifodasini topgan bo'lar edi" [6;61-b.]. Shu munosabat bilan, xalqning tarixiy o'zligi bilan hamohang bo'lgan tasavvur shakli – diniy dunyoqarash elementlari ekanligini tushuntirish zarur. Uning axloqqa oidligi, inson hayotida o'z faoliyatini axloqiy me'yorlarga monand tashkil qilishi bilan ifodalanadi.

"Jamiyatda dinlararo bag'rikenglik g'oyasi poymol bo'lib, uning o'rnini diniy bag'ritorlik g'oyasi egallasa, unda bir mamlakat miqyosida ham turli millat va elat vakillari va davlatlar o'rtasida ham, ixtilof va urush-adovatlar vujudga kelishi kuzatiladi. Bunga misol sifatida ma'lum darajada, hozirgi Misr, Suriya, Eron, Afg'oniston, Ukraina va Iroq davlatlari miqyosidagi munosabatlarda bo'lib o'tayotgan ayanchli hodisa va voqealarni olishimiz mumkin" [7;123-b.]. Bir mamlakatda dinga qarshi kurash davlat siyosati darajasida olib borilsa, unda turli dinlarning jamiyatda tutgan o'rni va roli qisqarib va kamayib borishi natijasida dinlararo bag'rikenglik g'oyasining odamlarga bo'lgan ta'siri ham sustlashib boradi.

Mamlakatda vujudga kelgan bunday ma'naviy-ruhiy holat, jamiyat a'zolarining, turli millat va elat, dinlar vakillari o'rtasidagi do'stona va xayrixohlik munosabatlari o'rniga, salbiy tafakkur tarzini shakllantiradi. Bu yo'nalish bilan, insonlar orasida kelishmovchilik, qo'llab-quvvatlash va ko'plab qo'llanishlardan foydalanib, eng muhim vazifalardan biri hamda xalqaro hamkorlikning asosiy omiliga aylandi. Bir mamlakatning ichki ishlariga tashqi aralashuv bevosita uning tanazzul tomon harakatlanishini namoyon qiladi.

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi jamiyatda turli millat va din vakillarining bahamjihat yashashiga oid muhim va chuqur o'zgarishlarga olib keladi. Bizning fikrimizcha, bu mazmun va o'zgarishlar jamiyat hayotining muhim ahamiyatini kasb etishi mumkin. Jamiyatdagi o'zaro aloqalar, tartib va ishonch muhim omillar hisoblanadi, shuning uchun dinlararo bag'rikenglik va taraqqiyotni hamkorlikda rivojlantirish, tashqi o'zgarishlarni takomillashtirish muhim.

Bu borada jahonda har bir xalq o'zining mustahkam e'tiqodi bilan fuqarolarining iymon erkinligini ta'minlashi, azaliy qadriyatlarini e'zozlashi, dinga nisbatan ijobiy tafakkurni shakllantirishi lozim. "Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz" [8;253-b.]. Demak, barchamiz ota-bobolarimizning e'tiqodiga sodiq bo'lib, bu yuksak millatlararo bag'rikenglik madaniyatini asrashimiz, o'zligimiz bilan jahonda namuna bo'lishimizga haqqimiz bor. Bu yo'ldan xalqimiz hech qachon ortga qaytmaydi, o'z oldiga qo'ygan maqsad-muddaolarini izchillik bilan amalga oshiradi va o'z dini, qadriyati, iymoni, e'tiqodi va milliy g'oyasini dunyo xalqlari orasida ulug'lab boraveradi.

Islom ta'limotiga ko'ra, farzand ota-ona zimmasida omonat bo'lib, ular bu omonatga mas'uldirlar. Farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizlik ulkan xato, omonatga xiyonat va kishi dinining nuqsoni hisoblanib, ota-ona farzandining birinchi murabbiylari hisoblanadi. Qur'oni karimda oila a'zolariga e'tiborning qanchalik zarurligini Alloh taolo shunday bayon qiladi: "Ey mo'minlar, sizlar o'zlarining va ahli-oilalaringizning o'tini odamlar-u va toshlar bo'lgan do'zaxdan saqlangizki, u (do'zax) ustida qattiqdil va qattiqqo'l, Alloh o'zlariga buyurgan narsaga itoatsizlik qilmaydigan, faqat o'zlariga buyurilgan narsani qiladigan farishtalar turur" [9;560-b.]. (Tahrim, 6-oyat). Axloq go'zal tarbiya bilan ijtimoiy normalar insondagi barcha axloqiy tamoyillarni tartibga solib turadi. Ko'p millatli mamlakatlarda ham axloq millatlararo madaniyatni tartibga solib turadi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini va axloqiy yuksalishning boshlang'ich nuqtasidir. Xalqimizning an'anaviy oilaviy muhitdagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ilgari surish, zamonaviy oila konsepsiyasini targ'ib qilish hamda insonparvarlik, bir-biriga muhabbat, vatanparvarlik, yuksalish va mehr-oqibat, ornomus, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, bag'rikenglik oilaviy sivilizatsiya yo'nalishini shakllantirishga ko'maklashish kerak. Turli usullar yordamida ko'pchilik oilalarning mehr-oqibatliklarini tarbiyalash; oila

va oila a'zolarining bir-biriga ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun sadoqat, mas'uliyat, mehr-oqibat kabi tushunchalarini takomillashtirish; oila uchun baxt-sodat, mehr-muruvvatli bo'lish.

**Xulosalar.** Xulosa qilib aytganda axloqiy normalar, insonlar o'rtasidagi axloqiy qadriyatni o'stirish va insonlararo aloqalarni inkor etib borishdan iborat. Axloqiy me'yorlarning ijtimoiy normalari haqida so'z yuritish bilan subyektivlikka erishib bo'lmaydi. Insonlar erkinligi bag'rikenglik qadriyatiga yetishi uchun avvalo, axloqiy me'yorni shakllantirish, insonning shaxsiy hayotini hurmat qilish, unga munosib hayot kechirishi uchun birinchi o'rinda ijtimoiy muhit zarurdir.

Mamlakatda millatlararo madaniyatni shakllantirishda axloqiy qadriyatlar sohasidagi tadqiqotlar doirasini kengaytirishni bugungi kunning o'zi taqozo etmoqda. Bu borada jahonda har bir xalq o'zining mustahkam e'tiqodi bilan fuqarolarining iymon erkinligini ta'minlashi, azaliy qadriyatlarini e'zozlashi, dinga nisbatan ijobiy tafakkurini shakllantirishi lozim. Bu yo'ldan xalqimiz hech qachon ortga qaytmaydi, o'z o'ldiga qo'ygan maqsad-muddaolarini izchillik bilan amalga oshiradi va o'z dini, qadriyati, iymoni, e'tiqodi va milliy g'oyasini dunyo xalqlari orasida ulug'lab boraveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 118-бет.
- (2). Қодирова. З.Р. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Тошкент, Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2006.
- (3). Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. Тошкент, “O'zbekiston”, 2013.
- (4). Sayfullayev B.S., Rustamov V.K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2016, 16–18-betlar.
- (5). Хоназаров К. Миллат назариясига танқидий назар. “Миллий тикланиш”, 1998 йил 16 июнь.
- (6). Кант И. Педагогика тўғрисида. Тошкент, “Нисо Полиграф”, 2013, 61-бет.
- (7). Холиков Ю.А. Ўзбекистонда миллатларaro бағрикенглик инсонпарварликнинг асосий тамойили сифатида. “Философия и жизнь”, международный журнал SI-1, Toshkent, с. 123.
- (8). Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2018, 253-бет.
- (9). Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Тошкент, Тошкент ислом университети, 2018, 560-бет.
- (10). Yaxshilikov L.Y., Muxammadiyev N. Falsafa. Samarqand, 2021, 277 bet.

**Sayidova Muhabbat G'afforovna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi; [jayronmalika@mail.ru](mailto:jayronmalika@mail.ru); <https://orcid.org/0009-0008-2498-5533>)**

#### **AXBOROT KATEGORIYASI, UNI YUZAGA KELTIRUVCHI OBYEKTIV VA SUBYEKTIV SABABLAR**

***Annotatsiya.** Maqolada bugungi globallashuv sharoitida axborot turlari, kategoriyalari, axborot transformatsiyasi, uning imkoniyatlari, shuningdek, kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan samarali foydalanish usullari tahlil etiladi*

***Kalit so'zlar:** axborot kategoriyalari, kommunikatsion texnologiyalar, dezinformatsiya, axborot xurujlari.*

**Сайидова Мухаббат Гаффоровна (старший преподаватель Навоийского государственного горно-технологического университета; [jayronmalika@mail.ru](mailto:jayronmalika@mail.ru); <https://orcid.org/0009-0008-2498-5533>)**

#### **КАТЕГОРИЯ ИНФОРМАЦИИ, ОБЪЕКТИВНЫЕ И СУБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЧИНЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ЕЕ**

***Аннотация.** В статье анализируются виды, категории информации, информационная трансформация в условиях современной глобализации, ее возможности а также способы эффективного использования достижений коммуникационных технологий.*

***Ключевые слова:** категории информации, коммуникационные технологии, дезинформация, информационные атаки*

**Sayidova Mukhabbat Gaforovna (senior lecturer of the Navoi State Mining and Technological University [jayronmalika@mail.ru](mailto:jayronmalika@mail.ru); <https://orcid.org/0009-0008-2498-5533>)**

#### **THE CATEGORY OF INFORMATION, OBJECTIVE AND SUBJECTIVE REASONS CAUSING IT**

***Annotation.** The article analyzes the types, categories of information, information transformation in the context of modern globalization, its capabilities, as well as ways to effectively use the achievements of communication technologies in the context of the information flow.*

**Keywords:** *information categories, communication technologies, disinformation, information attacks*

**Kirish (Introduction).** Global o'zgarishlar davri sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kun – inson ongi-shuurida “jiddiy revolyutsiya”ni boshlab berdi. Bu virtuallashuv bo‘lib, u o‘zining jozibadorligi, jilovlanmasligi, har qanday qatlamga (yoshi, jinsi, millati, irqi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘iy nazar) mosligi bilan umumiylik kasb etmoqda. Zero, virtuallashuv natijasida “axborot uzatishda tezkorlik, oshkoralik va real voqelikni iste‘molchilarga o‘z vaqtida yetkazish ommalashmoqda” [1;78–83]. Bundan xulosa shuki, makon va zamon o‘zgarimoqda va shu orqali ijtimoiy ongda kechayotgan axborot transformatsiyasi sezilarli darajada oshmoqda. Demak, biz axborotlashgan zamonga o‘tdik, bundan keyingi hayotimizning har bir jarayonida uni, ya‘ni axborot ta‘sirini his etib turamiz. Uning auditoriyasi va imkoniyatlarini ochiqlashga qaratilgan munosabatlar ham vaqt o‘tgan sari yanada dolzarblashib boraveradi.

Amerikalik olim Blez Kronin haqli ravishda ta‘kidlab o‘tganidek, “axborot bugungi jamiyatda asosiy rol bo‘lib, unga bo‘lgan jamoatchilik munosabati”, [2] uning keyingi bosqichini belgilab beradi. Ya‘ni, har qanday axborot haqiqiy yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat‘iy nazar, uning auditoriyasi hamisha mavjuddir. Virtual makonda har bir xabar, o‘z manziliga muammosiz yetib borishi ta‘minlanadi. Bunda voqelikning biron bir qismining umumiylikda emas, aksincha reallikda ko‘rinishi muhim hisoblanib, odatda, shunday bo‘ladi ham. Shu sababli uning kuchiga baho berishda alohidalikka kategoriya sifatida emas, aksincha, maxsuslik sifatida qaramaslikka hech birimizning ma‘naviy haqqimiz yo‘q. Bugungi kunda axborot fenomeniga ijtimoiy kategoriya sifatida qarash tendensiyasi ham oshib bormoqda. Xususan, axborot klassifikatsiyasi bilan shug‘illangan professor Maykl Baklendning qayd etishicha, har qanday “axborot”ni [3; 351–360] uch qismga ajratish mumkin:

1) axborot – jarayon sifatida. Ya‘ni, “axborot”dan informatsion deb hisoblangan narsalarni bildirish uchun atributiv foydalanish nazarda tutilmoqda;

2) ma‘lumot – bilim sifatida. Bu yerda qaysi ma‘lumotni saqlash va qidirish tizimlari saqlaydigan va oladigan bo‘lishidan qat‘i nazar, “ma‘lumot”ni yaratilishi ma‘lum bir bilimga asoslanishi ko‘rsatilmoqda;

3) axborot – narsa sifatida. Masalan, axborot – narsa sifatidagi tabiati va xususiyatlari bilvosita yondashuvdan foydalangan holda muhokama qilinadi. Bunda uning turlari, matn, hujjatlar, obyektlar va hodisalarni o‘z ichiga oluvchi “axborot” aloqalari ko‘riladi. Olimning ushbu xulosalariga qo‘shimcha ravishda aytish mumkinki, axborot tushunchasi serqirra bo‘lib, unga nisbatan ijtimoiy falsafiy yondashuv, bu kategoriyaning alohidalikdan umumiylikka, undan xususiylikka o‘tish mohiyatini yanada ochiqlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** S.Oripovaning keltirib o‘tishicha, global axborot oqimi sharoitida axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan samarali foydalanish natijasida ulkan yaratuvchanlik vazifalari bajarilmoqda. Shu bilan bir qatorda, “millatninga milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, an‘analari, tarixiy va madaniy meros barqarorligini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkura targ‘ibotchilari faoliyatining muvofiqlashtirish zarurati ham ko‘rinib qolmoqda” [2; 221–225].

J.Saidov, M.Matmusayeva, Z.To‘rayeva kabi olimlarning xulosasiga ko‘ra, sotsial-texnik nuqtayi nazardan axborot tizimlari to‘rt komponentdan iborat. Bular: vazifa, odamlar, tuzilma (yoki rollar) va texnologiya. Bundan ko‘rish mumkinki, “axborot tizimlarini ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash va qayta ishlash, ma‘lumotlarni axborot bilan ta‘minlash, bilimga hissa qo‘shish, shuningdek, qaror qabul qilishni osonlashtiradigan raqamli mahsulotlar komponentlarining integratsiyasi sifatida ta‘riflash mumkin” [6; 66–69].

Q.N.Amanovna hozirgi kunda aloqa tizimi – jamiyat rivojining asosi bo‘lib qolmoqda. Birgina “aloqa xizmatini oladigan bo‘lsak, oddiy telefondan keng polosali internetgacha bo‘lgan talab doimiy o‘sib bormoqda degan fikrni ilgari surib, bu zamonaviy axborot tizimi va tarmoqlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi”,<sup>1</sup> degan xulosaga keladi.

L.Floridi fikriga ko‘ra, tobora unumdor va keng tarqalib borayotgan axborot yangi va hayotiy muhim soha sifatida o‘z o‘rnini mustahkamladi. Chunki falsafiy qonuniyat orqali axborot tabiatini tizimli tahlil qilishga bo‘lgan urinishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, (PI) axborotning konseptual tabiati va asosiy tamoyillari, uning dinamikasidagi ayrim mutanosibliklarni ochishga turtki bo‘lmoqda. Masalan, falsafiy muammolarga axborot-nazariy va hisoblash metodologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash bilan bog‘liq yondashuv orqali falsafiy yechim topish mumkin. Men (PI) uchta sababga ko‘ra, yetuk intizom ekanligini ta‘kidlayman deb olim, quyidagi gipotezani ilgari suradi:

<sup>1</sup> Amanovna Q.N. Aloqa tizimida axborot xavfsizlik va rivojlanish istiqbollari. Scientific Impulse, 2023, t. 1, №. 11. c. 471–476.

1) falsafiy xulosa orqali har qanday axborotni mohiyatan “avtonom”ligini ifodalash mumkin;  
2) an’anaviy va yangi falsafiy mavzularga innovatsion yondashuvni ta’minlaydi axborot kategorial asos bo‘lib, bu orqali muammoning umumiyligini topish mumkin;

3) falsafaning boshqa sohalar bilan bir qatorda turib, axborot olami va axborot jamiyatining konseptual asoslarini tizimli ko‘rib chiqishda aksiologik yondashuv – axborotli qadriyatlarni yuzaga keltirib,<sup>1</sup> natijada dezinformatsion axborotlar oqimini kamaytirish mumkin. Demak, axborotning umumiy rivojlanish qonuniyati, uning xarakteri, ichki va tashqi ta’sir vositachiligiga mos ravishda tashkillashtirilsa, axborot jamiyat taraqqiyoti uchun foydali hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Axborot oqimini tashkiliy jihatdan samarali olib borish, uning obyektiv imkoniyatlarini topish qaysi muhitda bo‘lishidan qat’iy nazar tizimli faoliyatni talab qiladi. Axborot obyektivligini ta’minlash uchun bu juda muhimdir. Masalan, xalqaro maydonda mamlakat nufuzini oshirishda axborot siyosati birlamchi omildir. Agar u (axborot siyosati) obyektiv voqelikka asoslanmagan bo‘lsa, o‘z mavqeyini ushlab turishi qiyin kechadi. Chunki real makonda axborot oqimini filtrlash imkoniyati juda kam bo‘lib, mavjud kommunikativ vositalarning darajasi ijobiy yoki salbiy natijaga ta’sir ko‘satishi ko‘proq ko‘riladi. Shu sababli mamlakat salohiyatini dunyoga ko‘rsata olish uchun axborot alohida o‘ringa ega deb qaraydigan bo‘lsak, uning xarakterini baholash zarurati o‘z-o‘zidan o‘rtaga chiqadi. Aks holda, axborotning obyektivligi buzilib, negativ xarakteri oshadi, bu albatta barcha uchun zarardir. Bu qanday amalga oshadi? Uning namoyon bo‘lish shakllari qanday kechadi? Xavflilik darajasi qanday? Bu kabi savollarga G.G.Pochepsov tadqiqotlarida quyidagi kriteriyalarga e’tibor qaratiladi:

– axborot katta kuch bo‘lib, uning harakatlanish mexanizmi doim nazoratda bo‘lishi kerak yoki axborot resurslarini boshqalardan xuddi yadro qurolini himoya qilgan kabi himoyalash lozim;

– axborot resurslari kuchlar nisbatini buzib yuborishi mumkin emas, aks holda, tuxtatib bo‘lmas darajaga keladi;

– axborot xurujlari o‘zining boshlanish pallasida unchalik ko‘zga tashlanmasligi sababli har doim ham ularning oldini oluvchi choralarni qo‘llab bo‘lmaydi;

– axborot xurujlari ekologik xavf-xatar tug‘dirmaydi, shu bois dushmanga axborot hujumini uyushtirish yadro qurolini qo‘llashdan ko‘ra samaraliroq hisoblanadi;

– axborot xurujlari mavjud voqelikni buzib ko‘rsatib, mamlakatning noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga yoki qarorlar qabul qilish jarayonini buzishga sabab bo‘lishi mumkin” [4; 58–59].

Bundan xulosa shuki, axborot sofligi, uning obyektiv xarakteri bir tomondan pozitiv axborot maydonini shakllantirsa, ikkinchi tomondan unga bepisandlik bilan qarash jamiyatda tanazzulli bosqichni olib keladi. Demak, axborotning obyektivligini ta’minlovchi asosiy elementlarga quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

1) har qanday axborotni tayyorlash, o‘zgartirish yoki uzatish his-tuyg‘udan, shaxsiy istakdan ustun bo‘lib, fikr va mulohaza birlamchi maqsadga ko‘tarilishi zarur. Masalan, axborot yetkazuvchi subyekt xolislik tamoyiliga qattiq rioya etgan holda boshqalarning qarorlarini ham inobatga olishi, ularning faoliyatiga obyektiv baho bergan holda eshitishi, his qilish organlari tomonidan hidlanishni anglash mavjud bo‘lganda maqsadli harakat yuzaga keladi;

2) axborotni ongli ravishda anglashi uchun kishi, avvalo, jamoatchilik fikrida kechayotgan his-tuyg‘ularni ongli irdok etishi yoki tashqi obyektini e’tiborga olish talab etiladi. Masalan, axborotni idrok etmasangiz uzatiladigan xabar va qabul qiluvchi subyekt o‘rtasidagi shartli aloqa yo‘qoladi;

3) hech qanday aloqa vositasi axborot yaratuvchi emas, u saqlash yoki uzatish qurilmasi ham emas. Virtual makon ma’lumot aylanmasini tashkil etib, uning manzilini hisobga olmaydi. Shunday ekan, axborotning obyektivligini saqlashda inson omili birlamchi hisoblanadi;

4) axborot, avvalo, jamiyatning milliy manfaatlariga mos ravishda uzatilishi kerak. Xususan, auditoriyani ma’lumot bilan ta’minlanishida ikkita omilga e’tibor qaratish zarur: chiquvchi ma’lumotni kim uzatmoqda, kiruvchi axborot qanday qabul etilmoqda. Shu ikki “axborot elementi” xabarning ishonchlilik darajasini belgilaydi. Buning oqibatida davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga solishga xizmat etuvchi axborot obyektivligi yuzaga keladi;

5) jamiyat ehtiyojiga ko‘ra yuzaga kelgan axborot manbayi obyektivdir. Bu jarayonga xususiy manfaatlarining aralashuvi, ma’lumotlardan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanishga urinish subyektivdir. Ya’ni, ma’lumot bir guruh qarashlariga moslangan ma’lumotlar oqimi subyektiv axborot deyiladi.

<sup>1</sup> Floridi L. What is the Philosophy of Information? *Metaphilosophy*. 2002, t. 33, №. 12, p. 123–145.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin:

*Birinchi*dan, axborot umumfalsafiy kategoriya bo'lib, kishilik jamiyatining ajralmas qismidir. U xabarlarini voqelikda aks ettirish tizimi sifatida birlik yoki ko'plikda keladigan ma'lumotlarni tizimli jamlash va uzatishga ixtisoslashgan virtual omillar majmuyidir.

*Ikkinchi*dan, har qanday axborot obyektiv xarakter kasb etib, o'z yo'nalishiga, auditoriyasiga egadir. Ammo harakatlanish davriga kelib, tashqi ta'sir doirasiga ko'ra, turlarga bo'linib ketadi. Jumladan, lokal, regional va global masshtabda kechadigan axborotlarni ko'rsatish mumkin.

*Uchinchi*dan, jamiyat manfaatlariga xizmat etishi belgilangan ma'lumotlar keysi obyektiv axborotlar bo'lsa, subyektiv axborotga merkantilistik xarakter kasb etuvchi yakka tartibdagi kuchlarni (shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlar) ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. Ular, odatda, axborot ishlab chiqaruvchi sifatida emas, balki uni boshqatuvchi yoki nazorat qiluvchi subyektlar qiyofasida gavdalanadi.

*To'rtinchi*dan, axborot ijtimoiy ong mahsuli bo'lib, u tashkillashtiriladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Uning rivojlanish tendensiyalari umumfalsafiy qonuniyat shakliga buysunib, oddiylikdan umumiylikka o'tish, ehtiyoj, talab va takliflarga ko'ra, maxsuslik chegarasini belgilovchi murakkab tizimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). Дехканов Н. Жамоатчилик билан алоқа жараёнларининг виртуаллашув хусусиятлари. Journal of Fun-amental Studies. 2023, т. 1, №. 10, 78–83-бетлар.
- (2). Capurro R., Hjørland B. The concept of information. 2003.
- (3). Buckland M.K. Information as thing. Journal of the American Society for information science. 1991, T., 42, №. 5, p. 351–360.
- (4). Г.Г.Почепцов. Психологические войны. М., Рефл-бук, 2000, с. 58–59.
- (5). Oripova S. Axborot olamidagi muammolar. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. 2022, т. 1, №. 27, 221–225 с.
- (6). Saidov J., Matmusayeva M., To'rayeva Z. Axborot tizimlari va ularning rivojlanishi omillari. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 2024, т. 1, №. 4, с. 66–69.

**Ergashev Ozodbek Shavkatovich (Andijon Mashinasozlik instituti tayanch doktoranti;  
ozodbek.ergashev1980@gmail.com)**

#### **IJTIMOYIY-ANTROPOLOGIK VA ZAMONAVIY INSONNING IJTIMOYILASHUV JARAYONLARI**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ijtimoiy normalar, qadriyatlar va xatti-harakatlar evolutsiyasini ta'kidlab, ijtimoiy-antropologik va zamonaviy insonning sotsializatsiya jarayonlari ko'rib chiqiladi. U turli xil nazariy asoslar va zamonaviy tadqiqot natijalariga asoslanib, individual o'ziga xoslik va ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirishda sotsializatsiyaning ahamiyatini o'rganadi. Tahlil sotsializatsiya jarayonida madaniy kontekst va individual agentlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi.

*Kalit so'zlar:* ijtimoiylashuv, ijtimoiy antropologiya, zamonaviy inson, madaniy kontekst, shaxsni shakllantirish, nazariy asoslar.

**Эргашев Озодбек Шавкатович (Базовый докторант Андижанский машиностроительный институт)  
СОЦИАЛЬНО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЕ И ПРОЦЕССЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ  
СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА**

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются процессы социализации социально-антропологического и современного человека с акцентом на эволюцию социальных норм, ценностей и поведения. Он исследует значение социализации в формировании индивидуальной идентичности и социальных структур на основе различных теоретических основ и результатов современных исследований. Анализ подчеркивает взаимодействие между культурным контекстом и индивидуальным агентством в процессе социализации.

*Ключевые слова:* социализация, социальная антропология, современный человек, культурный контекст, формирование личности, теоретические основы.

**Ergashev Ozodbek Shavkatovich (Andijan Institute of Machine building, PhD student)  
SOCIALIZATION PROCESSES OF SOCIAL ANTHROPOLOGY AND MODERN MAN**

*Annotation.* This article examines the processes of socialization of social anthropological and modern man, emphasizing the evolution of social norms, values and behavior. Based on various theoretical

*foundations and the results of modern research, he studies the importance of socialization in the formation of individual identities and social structures. The analysis emphasizes the interrelationship between cultural context and individual agency in the process of socialization.*

**Keywords:** socialization, social anthropology, modern man, cultural context, personality formation, theoretical foundations.

**Kirish.** Ijtimoiylashuv shaxslar o'z jamiyatida ishlash uchun zarur bo'lgan me'yorlar, qadriyatlar va xatti-harakatlarni o'rganadigan va o'zlashtiradigan asosiy jarayon. Ushbu jarayon shaxsni shakllantirish va madaniy amaliyotlarni davom ettirish uchun juda muhimdir. Ijtimoiylashuvni ijtimoiy antropologik nuqtai nazardan o'rganish dastlabki insoniyat jamiyatlari zamonaviy ijtimoiy tuzilmalar va individual xatti-harakatlarga qanday ta'sir qilganligi to'g'risida tushuncha beradi. Zamonaviy inson tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy landshaftlarni kezar ekan, ushbu jarayonlarni tushunish zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir.

Ijtimoiy antropologiya. Ijtimoiy antropologiya atamasi nomidan kelib chiqib turibdiki, ijtimoiy tashkilotlar va ijtimoiy institutlarni yuzaga kelishini tadqiq qilish demakdir. Antropolog olim Fertga ko'ra, "Ijtimoiy antropologiyani asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy jarayonlarni taqqoslash bo'lishi lozim" Tabiiy antropologiya va madaniy antropologiya bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Tabiiy antropologiyadagi ba'zi faktlar ijtimoiy antropologiyadagi jumboqlarni yechish uchun yordam beradi. Ijtimoiy antropologiya antropologiyani muhim bir yo'nalishi hisoblanadi. Ijtimoiy antropologiya boshqa yo'nalishlardan farqli ravishda insoniyat hayotini ijtimoiy jihatdan tahlil etib berishi bilan farqlanadi.

Ijtimoiy antropologiyani olimlar quyidagicha ta'riflaydilar:

1. R.Piddingtonga ko'ra, "Ijtimoiy antropologiya ibtidoiy jamiyatlardagi madaniyatni o'rganadi". Ijtimoiy antropologiyaga bunday ta'rif tor doirada tushunishdir. Chunki antropologiya faqatgina ibtidoiy madaniyat shakllariga emas, zamonaviy jamiyatdagi madaniyatni o'rganadi. Bu borada antropolog olim S. Dyubening yondashuvi ko'proq mos keladi.

2. S.Dyubening fikriga ko'ra, "Ijtimoiy antropologiya – madaniy antropologiyani bir qismi bo'lib, birinchi navbatda madaniyatning moddiy ko'rinishlarini emas, ijtimoiy struktura va diniy e'tiqod bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etishga e'tibor qaratadi". Shundan ma'lumki, ijtimoiy antropologiya ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy hodisa bilan bog'liq ijtimoiy strukturalarni tadqiq etadi.

3. S.Pennimanning fikriga ko'ra, "Madaniy antropologiyani bir qismi bo'lib, ijtimoiy hodisalarni yuzaga kelishi tadqiq qiluvchi bolimdir.

4. Hind olimi M.Shirinivasga ko'ra, "Bu insoniyat jamiyatlarini taqqoslab tadqiq etish imkonini beruvchi fan yo'nalishidir".

5. Charlz Vinik: "Ijtimoiy antropologiya ijtimoiy xulq-atvomi o'rganuvchi ayniqsa ijtimoiy shakllar va ijtimoiy institutlarni tizimli taqqoslab o'rganuvchi fan yo'nalishidir".

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Sotsializatsiya tushunchasi keng o'rganilgan ijtimoiy antropologiya, ayniqsa, madaniy amaliyotlar inson xatti-harakatlarini qanday shakllantirishi bilan bog'liq [1]. Shunday dastlabki antropologlar Bronislav Malinovskiy va Margaret Mead shaxsni shakllantirishda madaniy marosimlar va amaliyotlarning roliga e'tibor qaratdi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar ushbu doirani kengaytirdi, psixologiya va sotsiologiyadan individual Agentlikning madaniy ta'sirlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish uchun tushunchalarni o'z ichiga oldi (Dyurkgeym. 1912; Bourdieu. 1977). Bundan tashqari, globalashuv va raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi sotsializatsiya jarayonlarini o'zgartirib, an'anaviy nazariyalarni qayta baholashni talab qildi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada sotsializatsiya jarayonlari bo'yicha mavjud tadqiqotlarni sintez qilish uchun adabiyotlarni ko'rib chiqishdan foydalangan holda sifatli yondashuv qo'llaniladi [3]. U turli xil manbalardan, shu jumladan, antropologik matnlar, sotsiologik nazariyalar va zamonaviy tadqiqotlar sotsializatsiya raqamli asrda. Tahlil tarixiy va zamonaviy kontekstlarga e'tibor qaratib, sotsializatsiyaning asosiy mavzulari va tendentsiyalarini aniqlashga qaratilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ijtimoiylashuv–bu shaxslar o'z madaniyati va jamiyatining qadriyatlarini, e'tiqodlarini, me'yorlarini va xatti-harakatlarini o'rganadigan va o'zlashtiradigan asosiy jarayon. Ijtimoiy antropologiya va zamonaviy insonni o'rganish sharoitida sotsializatsiyani turli xil linzalar orqali tushunish mumkin:

1. Ijtimoiy antropologiya istiqboli:

– madaniy uzatish: ijtimoiy antropologlar madaniyatning avlodlarga qanday o'tishini o'rganadilar. Bunga jamiyatni belgilaydigan marosimlar, urf-odatlar va ijtimoiy amaliyotlar kiradi. Ijtimoiylashuv jamiyat ichida ishlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni beradigan oila, jamoat yig'ilishlari va madaniy muassasalar orqali sodir bo'ladi;

– institutlarning roli: oila, ta’lim, din va tengdosh guruhlar kabi institutlar ijtimoiylashuvda muhim rol o‘ynaydi [4]. Har bir muassasa ijtimoiy rollar, umidlar va madaniy me’yorlar haqida turli xil saboqlarni beradi. Masalan, oilalar, ko‘pincha, asosiy axloqiy qadriyatlarni singdiradilar, ta’lim muassasalari esa bilim va ijtimoiy ko‘nikmalarni beradi;

– ijtimoiy identifikatsiya: ijtimoiylashuv ijtimoiy kontekstda individual identifikatsiyani shakllantirish uchun juda muhimdir. Antropologlar shaxslarning o‘z rollarini jinsi, millati, yoshi va sinfiga qarab qanday o‘rganishini o‘rganadilar, bu ularning tajribalari va jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarini shakllantiradi.

## 2. Zamonaviy inson istiqboli:

– globallashuv va texnologiya: zamonaviy jamiyatda globallashuv sotsializatsiya jarayonlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Zamonaviy insonga texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar va global aloqa tufayli ko‘p-lab madaniy ma’lumotlar ta’sir qiladi. Bu madaniyatlarning aralashishiga (madaniy gibridlik) yoki yangi ijtimoiy me’yorlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin;

– individualizm va kollektivizm: ko‘pgina zamonaviy jamiyatlarda individualizm tendentsiyasi mavjud bo‘lib, unda shaxsiy identifikatsiya va o‘zini namoyon qilish jamoaviy identifikatsiyadan ustun turadi. Ushbu siljish sotsializatsiya qanday sodir bo‘lishiga ta’sir qiladi, chunki shaxslar o‘zlarining shaxsiy qadriyatlarini va manfaatlarini aks ettiradigan turli xil ijtimoiy guruhlar va tajribalarni izlashlari mumkin;

– oila tuzilmalarining o‘zgarishi: zamonaviy oila tuzilmalari rivojlanib, oila dinamikasining xilma-xil shakllari (masalan, to‘liq bo‘lmagan oilalar, bir jinsli ota-onalar) mavjud. Ushbu diversifikatsiya bolalarning ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi, chunki ular oilaviy sharoitda turli xil namuna va qadriyatlarga duch kelishadi.

## 3. Qiyosiy tahlil:

– o‘zgarishga moslashish: an’anaviy va zamonaviy sharoitlarda sotsializatsiya jarayonlari moslashuvchan. An’anaviy jamiyatlarda sotsializatsiya ko‘pincha qat’iy va tuzilgan bo‘lib, zamonaviy jamiyatlar ko‘proq oqim va ijtimoiy me’yorlar va kutishlarning o‘zgarishiga imkon berishi mumkin;

– texnologiyaning ta’siri: zamonaviy sharoitda texnologiya sotsializatsiyada ikki tomonlama rol o‘ynaydi muloqotni kuchaytirishi va ijtimoiy tarmoqlarni kengaytirishi bilan birga, yuzaki munosabatlarga va chuqurroq ijtimoiy aloqalar uchun muhim bo‘lgan yuzma-yuz o‘zaro ta’sirlarning eroziyasiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiylashuv madaniy, institutsional va texnologik omillar ta’sirida murakkab va dinamik jarayondir. Ijtimoiy antropologik va zamonaviy insonning sotsializatsiya jarayonlarini tushunish shaxslarning o‘zlarining madaniy sharoitlarida o‘zlarining shaxsiyatlarini va munosabatlarini qanday boshqarishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi [5]. An’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik insoniyat jamiyatlarining davom etayotgan evolyutsiyasini aks ettiruvchi sotsializatsiyani chuqur shakllantirishda davom etmoqda.

Sotsializatsiya jarayonlarining evolutsiyasi kengroq ijtimoiy o‘zgarishlarni, shu jumladan, texnologiya, globallashuv va individualizmdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. An’anaviy antropologik istiqbollari madaniyatning o‘ziga xoslikni shakllantirishdagi rolini ta’kidlasa, zamonaviy yondashuvlar globallashgan dunyoda o‘zlikning ravonligini ta’kidlaydi [6]. Shaxsiy agentlik va madaniy kontekst o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ayniqsa, sotsializatsiya jarayonlari turli jamiyatlarda ijtimoiy birdamlik va nizolarga qanday ta’sir qilishini tushunish uchun muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

**Xulosa.** Ijtimoiy antropologik va zamonaviy insonning sotsializatsiya jarayonlari dinamik va ko‘p qirrali. Ushbu jarayonlarni tushunish zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilish va inkluziv jamiyatlarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Kelajakdagi tadqiqotlar identifikatsiya qilish va jamiyatni qurish uchun raqamli o‘zaro ta’sirlarning ta’sirini yaxshiroq tushunish uchun texnologiyaning sotsializatsiyaga, xususan, marginallashgan jamoalarga ta’siriga qaratilishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Forrester J. (1987). Nonlinearity in high-order models of social systems. *European Journal of Operational Research*, 30, p. 104–109. [https://doi.org/10.1016/0377-2217\(87\)90086-5](https://doi.org/10.1016/0377-2217(87)90086-5).

(2). Andersson K., Zhang, W. (1997). Nonlinearity in social dynamics – order versus chaos. *Discrete Dynamics in Nature and Society*, 1, p. 111–126. <https://doi.org/10.1155/S1026022697000125>.)

(3). Schiepek, G., Kowalik, Z., Schutz, A., Köhler, M., Richter, K., Strunk, G., Mühlhnickel, W., Elbert, T. 1997. Psychotherapy as A Chaotic Process I. Coding the Client–Therapist Interaction by Means of Sequential Plan Analysis and the Search for Chaos: A Stationary Approach. *Psychotherapy Research*, 7, 173–194. <https://doi.org/10.1080/10503309712331331953>.

(4). Warren, K., Franklin, C., Streeter, C. (1998). New Directions in Systems Theory: Chaos and Complexity. Social Work, 43, 357–372. <https://doi.org/10.1093/SW/43.4.357>.)

(5). Tajima S., Yanagawa T., Fujii N., Toyozumi T. (2015). Untangling Brain-Wide Dynamics in Consciousness by Cross-Embedding. PLoS Comput Biol 11(11), e1004537. <https://doi.org/10.1371/journal.pcbi.1004537>

(6). Стриганкова Е.Ю. Коммуникация и социализация в формирующемся информационном обществе социально-философская рефлексия процессов взаимодействия. Вестник Поволжского института управления. № 2.

**Yusupova Ra'noxon Tolibjonovna (Andijon Mashinasozlik instituti tayanch doktoranti;  
yusupovar99@gmail.com)**

### **TALABALAR ONGIDA MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARINI O'RGANISH MASALASI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola talabalar o'rtasida muhandislik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradigan ijtimoiy va falsafiy omillarni o'rganadi. Muhandislik tafakkuri texnik ko'nikmalar va ijtimoiy ehtiyojlarni falsafiy tushunishni talab qiladigan murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir. mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va empirik tadqiqotlar orqali maqola muhandislik fikrlash jarayonlariga, shu jumladan, ta'lim amaliyotiga, ijtimoiy qadriyatlarga va falsafiy asoslarga asosiy ta'sirlarni aniqlaydi. Topilmalar o'qituvchilar va siyosatchilar uchun muhandislik ta'limini oshirish va innovatsion mutafakkirlarni rivojlantirish uchun tushuncha berishga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** muhandislik tafakkuri, talaba-yoshlar, texnik bilimlar, ijtimoiy omillar, falsafiy omillar, ta'lim, mutaxassislar, innovatsiya, analitik fikrlash.*

**Юсупова Ранохан Талибжоновна (Андижанский Машиностроительный институт, докторант)  
ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ФАКТОРОВ  
ФОРМИРОВАНИЯ ИНЖЕНЕРНОГО МЫШЛЕНИЯ В СОСТАВЕ СТУДЕНТОВ**

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются социально-философские факторы, способствующие развитию инженерного мышления у студентов. Инженерное мышление имеет решающее значение для решения сложных социальных проблем, требующих технических навыков и философского понимания общественных потребностей. Посредством анализа существующей литературы и эмпирических исследований в статье определяются ключевые факторы, влияющие на инженерные мыслительные процессы, включая образовательные практики, социальные ценности и философские основы. Результаты призваны предоставить преподавателям и политикам информацию для улучшения инженерного образования и развития новаторского мышления.*

***Ключевые слова:** инженерное мышление, студенческая молодежь, технические знания, социальные факторы, философские факторы, образование, эксперты, инновации, аналитическое мышление.*

**Yusupova Ranokhan Talibjonovna (Andijan Institute of Machine building, PhD student)  
THE PROBLEM OF STUDYING THE SOCIAL PHILOSOPHICAL FACTORS OF THE  
FORMATION OF ENGINEERING THINKING IN THE MINDS OF STUDENTS**

***Annotation.** This article examines the social and philosophical factors that contribute to the development of an engineering mindset among students. Engineering thinking is critical to solving complex social problems that require technical skills and a philosophical understanding of societal needs. Through an analysis of existing literature and empirical research, the paper identifies key influences on engineering thought processes, including educational practices, social values, and philosophical underpinnings. The findings are intended to provide insights for educators and policymakers to improve engineering education and develop innovative thinkers.*

***Key words:** Engineering thinking, student-youth, technical knowledge, social factors, philosophical factors, education, experts, innovation, analytical thinking.*

**Kirish.** Talaba-yoshlarda muhandislik tafakkurini shakllantirish bugungi texnologiyaga asoslangan jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muhandislik sohalari rivojlanib borishi bilan texnik bilimlarni ijtimoiy dinamikani chuqur anglash bilan birlashtira oladigan mutaxassislarga ehtiyoj birinchi o'ringa chiqdi. Muhandislik tafakkuri muammolarni hal qilish, ijodkorlik, analitik fikrlash va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish majburiyatini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada talabalar o'rtasida muhandislik tafakkurining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va falsafiy omillar ko'rib chiqilib, ushbu elementlarni ta'lim amaliyotiga qo'shish muhimligi ta'kidlangan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ushbu maqolada talabalar o'rtasida muhandislik tafakkurining shakllantirishga amaliy muammolarni hal qilishda ilmiy bilimlar amaliyotning turli sohalariga kiritiladi. Bunday faoliyatning xususiyati uning ijodiy xususiyatidir. Diqqat markazi insonga, uning ijodiy aqliy faoliyatiga qaratiladi. Ilmiy ijod va ilmiy tafakkur mavzulari azaldan olimlar, faylasuflar va psixologlarning e'tiborini o'z tortib kelgan [1]. Ushbu tadqiqotlarda muhim o'rinni amaliy savolga javob izlash egallaydi. Muammolarni qanday hal qilish kerak. Bilimlarni rasmiylashtirish va bilimlar bilan ishlashning rasmiylashtirilgan usullaridan foydalanish, ishonchlilik va xatolar muammosini bartaraf etishning eng kuchli vositasi hisoblanadi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot sifatli va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Turli universitetlardagi muhandislik talabalariga ularning fikrlashiga ijtimoiy va falsafiy ta'sirlar haqidagi tasavvurlarini baholash uchun so'rov o'tkazildi. Muhandislik tafakkurini targ'ib qiluvchi o'quv amaliyoti va o'quv dasturlarini loyihalash to'g'risida tushuncha olish uchun o'qituvchilar bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi. Ma'lumotlar so'rov natijalari uchun statistik metodlar va intervyu javoblari uchun tematik tahlil yordamida tahlil qilindi.

Talaba-yoshlarida muhandislik tafakkurini shakllantiruvchi ijtimoiy falsafiy omillarni o'rganish qiziqarli va murakkab mavzudur. Bu yerda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy jihatlari:

Ta'lim falsafasi:

– konstruktivizm: ushbu falsafa bilim tajriba va o'zaro ta'sir orqali qurilishini ta'kidlaydi. Amaliy loyihalarni va birgalikda o'rganishni rag'batlantiradigan muhandislik dasturlari tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin [3];

– pragmatizm: fikr bashorat qilish va harakat qilish vositasi ekanligiga ishonish muhandislik talabalariga o'z bilimlarini amaliy qo'llashga, nazariyani real muammolar bilan birlashtirishga ta'sir qilishi mumkin [4].

Madaniy ta'sirlar:

– ijtimoiy kontekst: texnologiya, innovatsiya va ta'lim atrofidagi ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlar o'quvchilarning muhandislikni qanday qabul qilishiga ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, STEM maydonlarini birinchi o'ringa qo'yadigan madaniyatlar ko'proq talabalarni muhandislik bilan shug'ullanishga undashi mumkin;

– globallashtirish: xalqaro istiqbollari va amaliyotga ta'sir qilish talabalarning muhandislik muammolari haqidagi tushunchalarini kengaytiradi va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

Murabbiylik va rol modellarining roli:

– o'qituvchilarning ta'siri: o'qituvchi va murabbiylar o'quvchilarning muhandislik tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning rahbarligi ijodkorlik, axloq va mas'uliyat hissi kabi qadriyatlarni singdirishi mumkin;

– tengdoshlarning ta'siri: talabalar bilan o'zaro munosabatlar fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish, muhandislik tafakkurining muhim tarkibiy qismlariga olib kelishi mumkin.

Texnologik muhit:

– texnologiyalarga kirish: zamonaviy vositalar va resurslarning mavjudligi talabalarning o'quv tajribalarini oshirishi va innovatsion fikrlashni osonlashtirishi mumkin;

– raqamli savodxonlik: talabalar texnologiya bilan shug'ullanar ekan, axborotni tahlil qilish va ularidan foydalanish qobiliyati ularning muhandislik tafakkurini shakllantiradi.

Etika va ijtimoiy javobgarlik:

– muhandislik etikasi: muhandislik qarorlarining axloqiy oqibatlarini tushunish juda muhimdir. Ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha munozaralar muammolarni hal qilishda vijdonan yondashishga olib kelishi mumkin;

– barqarorlik: muhandislik o'quv dasturlariga barqarorlikni kiritish talabalarni o'z dizaynlari va ularning jamiyat va atrof-muhitga ta'siri haqida tanqidiy fikrlashga undaydi.

Fanlararo yondashuvlar:

– gumanitar fanlar integratsiyasi: falsafa, sotsiologiya va psixologiya bilan shug'ullanish talabalarga muhandislikning ijtimoiy ta'siri haqida kengroq tushuncha berish, ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini boyitish imkonini beradi.

– hamkorlikdagi loyihalar: muhandislikni boshqa sohalar bilan birlashtirgan fanlararo loyihalar innovatsion yechimlarga va muammolarni hal qilishda yanada yaxlit yondashuvga olib kelishi mumkin [5].

Talabalarda muhandislik tafakkuriga ta'sir qiluvchi ijtimoiy falsafiy omillarni tushunish o'qituvchilarga yanada samarali o'quv dasturlari va o'quv muhitini yaratishda yordam beradi. Ushbu yondashuv na-

faqat talabalarni texnik jihatdan malakali, balki ijtimoiy jihatdan xabardor va axloqiy jihatdan mas'uliyatli muhandislarga tayyorlaydi. Ushbu omillar bilan shug'ullanish murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan yangi avlod muhandislariga olib kelishi mumkin.

Muhandislik ta'limi ijtimoiy va falsafiy o'lchovlarni faol ravishda birlashtirish uchun rivojlanishi kerak. O'qituvchilar o'quvchilarni o'z ishlarining kengroq konteksti haqida tanqidiy fikrlashga undaydigan o'quv muhitini yaratishni maqsad qilishlari kerak. Bunga talabalarni axloq, barqarorlik va muhandislik yechimlarining ijtimoiy ta'siri haqidagi munozaralarga jalb qilish kiradi. Bundan tashqari, hamkorlikdagi ta'lim muhitini rivojlantirish tengdoshlarning ta'sirini va muhandislik tafakkurini rivojlantirishni kuchaytirishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy va falsafiy omillar talaba yoshlarda muhandislik tafakkurini shakllantirishning ajralmas qismidir. Ushbu omillarni tan olish va ta'lim amaliyotiga qo'shish orqali muassasalar talabalarni zamonaviy muhandislik muammolarining murakkabliklariga yaxshiroq tayyorlashlari mumkin [6].

Talabalar o'rtasida muhandislik tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi takliflar taklif etiladi:

O'quv dasturining integratsiyasi. Texnik ko'nikmalar uchun kontekstni ta'minlash uchun muhandislik kurslariga ijtimoiy va falsafiy munozaralarni kiritish.

Hamkorlikda o'rganish. Guruh loyihalari va fanlararo ishlar orqali tengdoshlarning hamkorligini rivojlantirish, talabalarga turli nuqtai nazardan o'rganish imkonini beradi.

Jamiyatni jalb qilish. Talabalarni muhandislik tamoyillarini real muammolarga qo'llashni talab qiladigan jamoaviy loyihalarda ishtirok etishga undash.

O'qituvchilar uchun malaka oshirish. O'qituvchilarni muhandislikning ijtimoiy va falsafiy o'lchovlari bo'yicha munozaralarni osonlashtirish uchun zarur vositalar bilan jihozlash uchun treninglar o'tkazing. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali ta'lim muassasalari nafaqat texnik jihatdan malakali, balki ijtimoiy ongli va falsafiy xabardor bo'lgan muhandislar avlodini tarbiyalashi mumkin.

**Xulosa,** Muhandislik tafakkurining falsafiy tushunchasi, o'zida muqarrar ravishda ijtimoiylik tamoyillarini, uning o'ziga xosliklari va farqlarni aks ettiradi. Shuningdek, yaxshi shakllangan tizimlar, fan va ilmiylikning tubdan o'zgartiradigan zamonaviy falsafiy qarashlar ham kiradi. Muhandislik tafakkuri, texnika fanlari, muhandislik faoliyati va muhandislik fikrlash texnologiyalari bilan bog'liqdir [7]. Fan va ijtimoiylikning yangi epistemologik, semiotik, topologik va boshqa bilimlar ham muhandislik tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi.

Muhandislik tafakkuri kognitiv va instrumental darajada amalga oshiriladigan konstruktiv, ilmiy-nazariy, transformativ, ijodiy, ijtimoiy omillar sifatida tavsiflangan texnik ob'ektlar bilan faoliyatni ta'minlashga qaratilgan fikrlashdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Салимов, Б.Л., Аъзамжонов, А.Б.Ў., & Қодиров, Ш.Қ.Ў. (2023). Бирдамлик ва ҳамжихатлик–ижтимоий муносабатларнинг келажакдир. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), p. 83–88.

(2). Салимов, Б.Л. (2023). Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3).

(3). Lutfullaevich, S.B. (2023). The Importance of Sea Transport in the Communication System. *WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(1), p. 272–275.

(4). Lutfullaevich, S.B., Muradkabilovich, E.Z., & Abdurahimovich, S.A. (2023). The Influence of the Transport and Communication System on Social Relations. *Web of Semantic. Universal Journal on Innovative Education*, 2(2), p. 209–212.

(5). Lutfullaevich, S.B., Sheralievich, A.A., & Zafarovich, Z.D. (2023). Reforms in the Fields of Communication and Transport and their Social Impact. *Web of Semantic. Universal Journal on Innovative Education*, 2(2), p. 227–230.

(6). Салимов, Б.Л. (2022). Ўзбекистон тараққиётида коммуникация ва транспорт тизимининг ўрни. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), p. 403–407.

(7). Peshkova V. Phenomenon of genius. Rostov on Don, Phoenix, 2006, p. 7.

Ashirov Odilbek Maxsudovich (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası o‘qituvchisi)

**O‘ZBEK TILI TARIXIGA OID MANBLARADA QIPCHPOQ TILI TUSHUNCHASI YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR**

*Annotatsiya.* Maqolada dunyo turkologiyasida mavjud qipchoq tili tushunchasiga oid ayrim mulo hazalar tahlil qilingan. Muallif bu borada o‘z munosabatini ba‘zi birlamchi manbalar orqali ham bayon qiladi.

*Kalit so‘zlar:* qipchoq tili, mamluklar, Oltin O‘rda adabiy tili, tarixiy leksika.

**КОММЕНТАРИИ К ПОНЯТИЮ КИПЧАКСКИЙ ЯЗЫК В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

*Аннотация.* В статье анализируются некоторые комментарии к понятию кипчакский язык в мировой тюркологии. Свое отношение по этому поводу автор выражает через некоторые первоисточники.

*Ключевые слова:* кипчакский язык, мамлюки, литературный язык Золотой Орды, историческая лексика.

**COMMENTS ON THE CONCEPT OF THE KYPCHAK LANGUAGE IN HISTORICAL SOURCES OF THE UZBEK LANGUAGE**

*Annotation.* The article analyzes some comments on the concept of the Kipchak language in world Turkology. The author expresses his attitude in this regard through some primary sources.

*Key words:* Kipchak language, Mamluks, literary language of the Golden Horde, historical lexicon.

**1. Kirish.** Qipchoq tilining eng qadimgi yozma yodgorliklari XII asrning o‘rtalariga tegishli. Bu davrda Sirdaryoning quyi oqimida Ahmad Yassaviyning tasavufiy she‘rlari keng tarqalgan. Istambulda saqlanadigan Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ining eng qadimgi nusxasi 1105-yilga tegishli. Mutaxassislar Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”i tilini, asosan, qipchoq tili deb hisoblab, uni *j* guruhiga kiritadilar, biroq shu bilan birga, u o‘g‘uz qabilalari tilining ma‘lum bir ta‘sirini bosib o‘tgani va Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig” asari yaratilgan davrda shakllangan adabiy an‘ananing ta‘siridan xoli emasligini ta‘kidlaydilar [1;16–17-b.]. Shuning uchun uni aralash o‘g‘uz-qipchoq (A.K.Borovkov), qipchoq-o‘g‘uz (E.N.Najip), sharqiy turkiy (Fuod Ko‘prulizoda) va hokazo deb baholaydilar. 1212-yilda Qul Alining “Yusuf va Zulayho” (“Qissayi Yusuf”) nomli birinchi original turkiy tilli poetik asari paydo bo‘ladi. Y.Brokkelman “Qissayi Yusuf” dostonini birinchi bo‘lib tadqiq qilib, bu yodgorlikni janubiy, ya‘ni o‘g‘uz tillariga mansub deb hisoblaydi. Tatar olimlari esa buni bulg‘or turkiy tillari tarkibiga kiritadilar [2;426–494-b.], A.K.Borovkov bu yodgorlikning O‘rta Osiyodan kelib chiqqaniga shubha qilmaydi. Bu asar o‘z asosida o‘g‘uz tili bo‘lgan, lekin qipchoq dialektining kuchli ta‘siri seziladigan dastlabki yozma yodgorliklardan biri deb taxmin qilish mumkin.

**2. Metodologiya.** Tilshunoslikda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-genetik, matnshunoslikni o‘rganish usullari kabi tadqiqot metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Qipchoq tiliga oid manbalarni o‘rganishda ham yuqoridagi usullar yordamida tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

**3. Natijalar.** XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar bilan birga O‘rta Osiyo va Sharqiy Yevropani yangi kelgan turkiy tilli ko‘chmanchi qabilalar, jumladan, qipchoqlar to‘ldirishgan. Oltin O‘rdaning etnik va til tarkibi juda ham xilma-xil edi, shuning uchun ham Oltin O‘rda davrida bu katta hududda yaratilgan adabiy yodgorliklarning aniq etnolingvistik mansubligini aniqlash har doim ham mumkin bo‘lmaydi. Mutaxassislar, odatda, Oltin O‘rda davrining turkiy yozma yodgorliklari tillarini aralash o‘g‘uz-qipchoq yoki qipchoq-o‘g‘uz deb hisoblaydi. XIV asrda Oltin O‘rdada madaniyat rivojlanib, turli mazmundagi ko‘plab adabiy yodgorliklar yaratilgan bo‘lib, bular ham yana aralash, lekin bir-biridan ancha farq qiladigan turkiy adabiy tillarda bo‘lgan. Adabiy turkiy tillarni tadqiq qiluvchilar odatda bir qator aralash tillarni ajratib ko‘rsatadilar, ularning shakllanishida qipchoq dialekti shu yoki bu darajada ishtirok etgan: 1. Saljuqlar, ayniqsa, ayyubiylar davrida Misrga kelgan o‘g‘uz qabilalari tilining xususiyatlarini va shu yerga o‘g‘uzlar bilan birga kelgan qipchoq qabilalari tilini aks ettiruvchi aralash o‘g‘uz-qipchoq yozma tili. 2. XII asrda Sirdaryoning quyi oqimida shakllangan aralash qipchoq-o‘g‘uz yozma tili mamluklar Misrida rivojlandi va tarqiy topdi. 3. Volganing quyi oqimi va Shimoliy Xorazmda o‘g‘uz-turkman qabilalari tili asosida turkiy

tillar guruhining o'ziga xos yozma tili shakllangan bo'lib, bu til qipchoq qabilalari tili va Qoraxoniylar davridagi uyg'ur adabiy an'anasining ta'sirini bosib o'tgan va hokazo.

Qipchoq tiliga oid arab tilidagi manbalardan biri sifatida 1245-yilda Misrda tuzilgan va 1894-yilda golland turkologi M.T.Xoutsma tomonidan Leydenda nashr etilgan "Turkiy-arabcha lug'at"ni qayd etish mumkin [3]. Ba'zi olimlar "Qipchoq" atamasini "Qipchoq tillari" lingvonimining bir qismi sifatida sof lingvistik ma'nodan ko'ra ko'proq jug'rofiy xarakterga ega deb hisoblashadi [4;10-b.]. Shunday qilib, bu yozma yodgorliklar tili qipchoq tillarining janubi-g'arbiy (kuman, ponto-kaspiy) guruhi tarkibiga kiruvchi maxsus til sifatida qaraladi. Mahalliy olimlar orasida ushbu yozma yodgorliklar tiliga nisbatan *kuman* ("Толовциан") atamaları ishlatilgan [5].

Misrda mamluklar hukmronligi davridagi 250 yil davomida yaratilgan mamluk-qipchoq yodnomalari deb ataladigan yodgorliklar qipchoq tillari tarixini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, o'zbek olimasi Z.Aripova masalaga tarixiy jarayon bilan bog'liq ravishda yondashadi. Umuman olganda, mamluklar davrida mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotida va madaniy hayotida turkiy omillar ko'paydi. X.Doniyorov yozishicha, "Ba'zi tarixchilarning fikriga ko'ra, o'sha davrda qipchoqlarning mavqeyi va ta'siri shunchalik katta bo'lganki, ba'zi arab tarixchilari o'sha davrda Misrda yashagan turkiy xalqlarning hammasini qipchoqlar deb bilganlar va ularga qo'shib sanaganlar. Masalan, tarixchi N.A.Aristovning "Turkiy qabila va xalqlarning etnik tarkibi" [6;29–36-b.] kitobida bergan ma'lumotiga ko'ra, arab tarixchilaridan bo'lgan Amir Rukniddin Beybars va Ibn Xaldunlar o'sha davrda Misrda yashagan qipchoqlarni 11 ta katta qabilaga bo'lib ko'rsatgan. "Birinci mamluk sultonlari – bahriylar eski turkiy tilning o'g'uz-qipchoq shevasida gaplashar edi. Devonxonalarda ham qipchoq tili muomalada bo'ldi. Eski turkiy tillar bo'yicha mutaxassislar shu davrda Misrda qipchoq tilini o'rganishga alohida e'tibor berilgan hamda qipchoq tilining grammatikasi, xususan, leksik boyligini o'rganishga bag'ishlangan asarlar yozilganligini ta'kidlaydilar. Ushbu tadqiqotchilarning fikricha, mamluklar davlatida yashagan qipchoqlar tili o'zbek tilining qipchoq shevasiga yaqin bo'lgan [7;30-b.].

**4. Muhokama.** Qipchoq etnolingvistik komponentlari turli vaqtlarda va turli yo'llar bilan, ularning dastlabki yashash hududlarining turli mintaqalaridan Misrga kirib borgan. Uzoq Misrda qipchoq tilli turkiylarning birinchi to'liqlinining paydo bo'lishi ularning janubiy rus dashtlaridan qullikka sotilishi bilan izohlanadi. Ikkinchi qipchoq to'liqini Misrda mo'g'ullar davrida paydo bo'lgan. Mo'g'ul bosqinchilaridan qochib, Dashti Qipchoqning keng qatlamli Qipchoq aholisi Misr va Yaqin Sharqning boshqa mamlakatlari qochib ketishgan. Va, nihoyat, uchinchi katta Qipchoq to'liqini mamluklar hokimiyatga kelishi va ular tomonidan Misr, Suriya va Kichik Osiyoning ayrim Anatoliya hududlarini qamrab olgan keng davlat barpo etilishidan so'ng Misrga kirib borgan. Mamluklar davlatining kuchayish davrida (1260–1517-yillar) Oltin O'rdaning keng hududlaridan qipchoq tilli aholining katta guruhi Misrga ko'chib kelgan bo'lib, ular orasida hokim mamluk sulolasining qarindoshlari ham bo'lgan [8;17–19-b.].

Davlat hukmdorlarining ona tili sifatida turkiy (qipchoq) tili mamluklar davlatida keng tarqalgan edi. Shuning uchun ko'plab mahalliy arablar hukmdorlarning e'tiborini qozonish maqsadida qipchoq tilini o'rganar edilar. Shuningdek, mamluklar davlati hukmdorlari ham arab tiliga zarurat tug'ilganda tarjimonlarsiz ishlay olmas edilar. Natijada mamluklar davlatida bunday murakkab lingvomadaniy munosabatlarning shakllanishi natijasida ko'plab arab tilidagi asarlar turkiy tilga, aksincha, turkiy tildan arab tiliga tarjima qilingan. Shu tariqa, arab-qipchoq grammatikasi va lug'atlari paydo bo'lgan. Mutaxassislar fikricha, mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari tili bir xil, bir-biridan farqsiz emas edi. Mamluklar davlatida qipchoqlarning asosiy qismidan tashqari, o'g'uzlar, turkmanlar va boshqa turkiy qabilalar ham yashagan. Masalan, "Tarjumon" muallifi o'ziga bir nechta turkiy lahjalar ma'lum ekanligini ta'kidlaydi: *toza turkcha* (التركي), *turkcha-qipchoqcha* (القفجاقى) va *turkmancha* (التركمانية). Muallif *toza turkcha* yoki *turkcha-qipchoqcha* deb aslida qipchoq tilini ataydi, asosan, shu til bilan shug'ullanadi, ikkinchi tilni esa arab va fors tillaridan ko'plab so'zlar olingan aralash til sifatida baholaydi va unga qo'shimcha tadqiqot obyekti sifatida qaraydi [9;16-b.].

Ta'kidlash joizki, XIII asrda *qipchoq* va *turk* terminlari, ko'pincha, teng ma'noli sinonimlar sifatida ishlatilgan va bir-birining o'rnida ishlatilgan [10;83-b.]. Venger olimi T.Halashi-Kun mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari tilida turkiy tillarning kamida uch dialektini aniqlaydi: 1) sof qipchoq; 2) sof o'g'uz va 3) aralash: qipchoq-o'g'uz [11;80–83-b.]. Mamluk-qipchoq yodgorliklari tilini o'rgangan boshqa tadqiqotchilar, jumladan, O.Pritsak [12;74–75-b.], A.K.Qurishjanov [13;53–54-b.] va boshqalar ham shu xulosaga kelganlar. O'rta asrlardagi turkiy tillarga oid mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari, birinchi navbatda, mamluklar davlatida yaratilgan va XIII – XIV asrlarga oid leksikografik va grammatik asarlardir. Ular mamluklar davlatida yashagan arab va turk olim-filologlari tomonidan yaratilgan. Bu betakror qipchoq va

o'g'uz turkiy tillariga oid yodgorliklar praqipchoq (qadimgi qipchoq tilining rekonstruksiya qilingan shakli) tilining fonetik tizimini qayta tiklash va qipchoq va o'g'uz guruhlariga kiruvchi bir qator zamonaviy turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi tarixini o'rganish uchun muhim manbalardir.

**5. Xulosa.** XIII – XV asrlarga oid mazkur yozma yodgorliklarda qayd etilgan dialekt xususiyatlari, bir tomondan, zamonaviy qipchoq tillarining fonetik tuzulishi tarixi va rivojini o'rganish uchun, boshqa tomondan esa, praqipchoq tilining ichki rekonstruksiya tuzatish va tasdiqlash uchun muhim manbalar hisoblanadi. Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari tilini tarix-tilshunoslik jihatdan o'rganish ular bilan polovsiy (kuman, qipchoq) va zamonaviy tillar o'rtasidagi tarixiy uzviylikni ko'rsatadi, bu tillar to'g'ri va asoslangan holda, turkiy tillar oilasining yagona qipchoq tarmog'iga birlashtiriladi [14:78–81-b.]. Shu munosabat bilan, mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari tilining o'ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtalish lozim. Bu kabi filologik tahlil praqipchoq fonetik tizimini qayta tiklashga bag'ishlangan mazkur ish doirasida juda muhimdir, chunki mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari tili, asosan, aralash qipchoq-o'g'uz hisoblanadi va praqipchoq fonemalarini taxmin qilish uchun empirik materialning tozaligi va ishonchligi muammosi juda dolzarbdir.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Наджип Э.Н. Тюркоязычный памятник XIV века “Гулистан” Сейфа Саран и его язык. Алма-Ата, “Наука”, 1975.
- (2). Кол Гали. Кыйссаи Йосыф: Йосыф турынды кыйсса. Казан, Тат. кит. нәшр., 1983.
- (3). Houtsma M.Th. Ein türkisch-arabisches Glossar. Leiden, 1894.
- (4). Deny J. L'armeno-coman et les Ephemérides' de Kamieniec (1604–1613). Paris, 1957.
- (5). Грунин Т.И. Документы на половецком языке XVI века. Судебные акты каменецподольской армянской общины. М., “Наука”, гл. ред. вост. лит., 1967; Гаркавец А.Н. Кыпчакские языки: куманский и армяно-кыпчакский. Алма-Ата, “Наука”, 1987.
- (6). Дониёров Х.Д. Эски ўзбек адабий тили ва кыпчоқ диалектлари. Тошкент, Ўзбекистон ССР Маориф министрлиги, Низоми номидаги Тошкент Давлат педагогика институти, 1976.
- (7). Арипова З. Ўрта асрларда Марказий Осиё-Миср муносабатлари. Тошкент, Ўзбекистон халқаро илм академияси нашриёти, 2021.
- (8). Курьшжанов А.К. Исследование по лексике старокыпчакского письменного памятника XIII в. “Тюркско-арабского словаря”, Алма-Ата, 1970.
- (9). Зайончковский А. Арабско-кыпчакский словарь эпохи мамлюков. Сообщения польских ориенталистов. М., 1961, вып. 2, с. 37–38; Курьшжанов А.К. Исследование по лексике “Тюркско-арабского словаря”. Алма-Ата, “Наука”, 1970.
- (10). Зайончковский А. К изучению средневековых памятников тюркской письменности (XI–XVI вв.), “Вопросы языкознания”, М., 1967, № 6.
- (11). Halasi-Kun T. Die mameluk-kiptschakischen Sprachstudien und die Handschriften in Stambul. Korosi Csoma, Archivum. Budapest, 1940, Bd. 3, Th. 1, s. 80–83.
- (12). Pritsak O. Das kiptschakische. Philologiae Turcaicae Fundamenta. Wiesbaden, 1959, t. 1, s. 74–75.
- (13). Курьшжанов А.К. К истории изучения разговорной речи кыпчаков XIII–XIV вв. // Известия АН Казахской ССР, серия общественная, Алма-Ата, 1970, № 6, с. 53–54.
- (14). Сауранбаев Н.Т. Некоторые черты древнекыпчакского языка. Вестник АН Казахской ССР, Алма-Ата, 1948, № 12, с. 11–18; Тенишев Э.Р. Место кыпчакского языков (половецкого, куманского и печенежского) среди современных тюркских языков. Известия АН Казахской ССР, серия общественная, Алма-Ата, 1970, № 5, с. 78–81.

**Bayriyeva Maryam Janabayevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida assistenti)**

#### **EMOTIVLARNING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONDA TOIFALANISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz hissiyotlarning leksik-semantik jabhada tasnifini ko'rib chiqdik. Leksik-semantik jabhadan, bu alohida tartib, tarkibga ega bo'lgan va uning tarkibiy elementlari paradigmatik munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir tushunchani yorituvchi tarkib to'plamidir.*

***Kalit so'zlar:** leksik-semantik maydon, emotsiya, undovlar, emotiv, semantik dominant, maydon.*

**Байриева Мариям Жангабаевна (ассистент кафедры теории и практики перевода,  
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха)**

#### **КАТЕГОРИЗАЦИЯ ЭМОЦИЙ ПО ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ ОБЛАСТИ**

***Аннотация.** В статье мы рассмотрели классификацию эмоциональных эмоций в лексико-семантическом аспекте. В лексико-семантическом аспекте это совокупность содержаний, имеющих*

щих особый порядок, содержание слов, освещающих определенное понятие, структурные элементы которого связаны с парадигматическими отношениями

**Ключевые слова:** лексико-семантическое поле, эмоция, междометие, эмотив, семантическая доминанта, поле.

**Bayrieva Maryam Janabaevna (Assistant of the Department of Theory and Practice of Translation, Karakalpak State University named after Berdakh)**

### CATEGORIZATION OF EMOTIONS ON THE LEXICAL-SEMANTIC AREA

**Annotation.** In this article, we considered the classification of emotional feelings on the lexical-semantic front. From the lexical-semantic point of view, it is a set of content that has a specific order, content, and its constituent elements are related to paradigmatic relations.

**Key words:** lexical-semantic field, emotion, interjection, emotive, semantically dominant, field.

**Kirish.** Qiyosiy tipologiya obyektini sifatida leksik-semantik maydon tadqiqining muammosi lingvomanadaniy aspektida eng muhim hisoblanadi. Filologlarning zamonaviy g'oyalariga ko'ra, leksik-semantik maydonda so'zning keng ma'nosidagi ma'lum bir tushunchani anglatuvchi leksemalar majmuyi shakllanadi, xususan, turli gap bo'laklarini ifodalovchi so'zlar o'z ichiga oladi. Leksik-semantik maydonning sinxron rejasi bir qator tizimli farqlar bilan tavsiflanadi (maydonni o'zaro "bo'luvchi" leksemalarning semantik xususiyati, giponimlar va giperonimlarning mavjudligi), genetik-diaxron nuqtayi nazardan esa ma'lum bir tartibda amalga oshirilgan motivatsion modellar, so'z yasash modellarining takrorlanishi, maydonni yarata-digan etimologik ma'lumotlardan foydalanadi.

Leksika, ko'pqirrali va ko'p aspektli, shu bilan birga, integral sistema obyektini sifatida uning imkoniyatlari har xil, lekin o'zaro bog'langan kishi tizimlarini qurish mumkinligini tushundirdi. Tilning leksik tizimini tadqiq qilish, odatda, har xil ko'rinishdagi va hajmdagi leksik guruhlarni aniqlash, ularning bir-biri bilan aloqalarini o'rnatish shaklida amalga oshiriladi. Leksik tarkibning tizimli aloqalarini o'rganish semantik maydon nazariyasining paydo bo'lishiga olib keldi.

Hozirgi zamon tilshunosligida mahalliy va xorijiy tilshunos olimlar tomonidan "maydon" masalasini o'rganishga oid turli nazariy tushunchalar va metodologik yondashuvlar mavjud. Maydon nazariyasi ma'nosi jihatidan umumiy g'oyaning juda muhim variantlarini – tildagi so'zlarning bir-biri bilan semantik aloqasini tushuntiruvchi ko'plab qarashlarni o'z ichiga oladi. Maydon nazariyasi samarali bo'lib, bunda "maydon" tushunchasi tufayli tilshunos olimlarning til birliklarining leksik-semantik tizimga kirishishida ma'lum bir struktur qonuniyati mavjudligi g'oyasini amalga oshirishga imkon berdi, bunda har bir leksema dominant semaga ega leksik ma'no sifatida ochib beriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** "Maydon" tushunchasi ko'proq fizika fanining tavsifi bo'lgani bilan boshqa tabiiy fanlarda keng qo'llanilib kelmoqda. Biroq tilshunos olimlar tilshunoslikda yangi tushuncha bo'lganligi sababli uning ta'rifi va qo'llanish doirasi haqida aniq bir qarorga kelmaganlar. Masalan, "semantik maydon – bu tilda o'z o'rnini topuvchi ekstralingvistik hodisa; semantik maydon – til hodisasi bo'lib, bunda til birliklari lingvistik ma'lumotlar doirasida bo'linishi hisobga olinadi", deb tilshunos olimlar turli ta'riflar keltiradi. "Semantik maydon" atamasi til ta'limiga G.Ipsen tomonidan kiritilgan bo'lib, u o'zining "Der Alte Orient und die Indogermanen" nomli ilmiy asarida "...umumi ma'noga ega so'zlar majmuasi", deb ta'riflaydi [4;30–45-b.].

G.S.Cho'ring fikriga ko'ra, filologiyada "maydon" komponentli keng tarqalgan so'z dizbeklar bu-lar: funksional-semantik maydon, morfemali maydon, fonemali maydon, derivatsion maydon, leksik maydon, semantik maydon, mikro va makromaydon, ko'plik maydon, daraja maydoni, modallik maydoni, qiyosiy maydon, jonli maydon, jonsiz maydon, ko'rsatish maydoni, vaqt maydoni, taxmin mikromaydoni, son mikromaydoni, tasdiqiy maydoni, bekorlash maydoni, shaxs maydoni, grammatik-leksik maydon va boshqalar [3;21–22-b.]. Bunday maydonlar ko'p sonli bo'lishiga qaramay, ular o'z oldiga funksional vazifa bajargani uchun ular til bilimida alohida o'rin tutadi. Biroq ular umumlashtirilib ma'lum bir sifat vositasida bog'lanadigan atamasi – bu leksik-semantik maydon. Chunki bu maydondan tashqari leksikologiya masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, sinonimiya, antonimiya, polisemiya va so'z ma'nosining tushunchalar bilan aloqasini ko'proq o'rganadi.

Albatta, til ta'limidagi "maydon" atamasi haqida so'z yuritilganda V.G.Admoning fikrini qayd etib o'tishimiz lozim, ya'ni, u fizikadan o'zlashtirilgan "maydon" tushunchasining til ta'limiga o'tishini taqozo etadigan bir qator o'xshashliklarni belgilaydi: "grammatik kategoriyalarda yadro (markaz) va periferiya (chegara)ning mavjudligi, qo'shni maydonlar periferiyalarining ta'siri, maydon komponentlarining turli darajadagi o'zaro bog'liqligi" [1;77–78-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Leksik-semantik guruhni yaratish – bu soʻz maʼnolarining oʻxshashligi yoki hayotning maʼlum bir tarafiga, eskirgan tarafiga, obyektlar, hodisalar yoki jarayonlarning tavsifiga koʻra guruhlarga ajratish hisoblanadi. Bu jarayonni bir necha bosqichlarga boʻlish mumkin: 1) semantik mezonning taʼrifi (soʻzlarni guruhlarga ajratish uchun tayanch tushuncha yoki mavzu, masalan, tabiat, hissiyot, texnologiya), soʻz shahobini aniqlash (muayyan bir mavzuga oid nom, feyil, kelishik), funksional maqsad (muayyan bir sifat turi bilan bogʻliq soʻzlar) yoki semantik sifat (masalan, harakat, vaziyat oʻzgarishi, sifat xususiyatlarini tushuntiruvchi soʻzlar); 2) soʻzlar majmuyi (maʼlum bir mezonga javob beradigan soʻzlar toʻplanadi: lugʻatlar, ensiklopediyalar, maʼlumotlar bazalari va boshqa maʼlumotlar); 3) soʻzlarning tasnifi (toʻplangan soʻzlarni leksik-semantik guruh ichidagi kishi guruhlarga ajratish); 4) tahlil hamtirilib (tahlil qilinadi va har bir soʻz tanlangan mezonga qanchalik toʻgʻri kelishi tekshiriladi, qabul qilib boʻlmaydigan soʻzlar chiqarib tashlanadi va yigʻish bosqichida oʻtkazib yuborilgan yangi soʻzlar ham qoʻshiladi); 5) tizimlashtirish (leksik-semantik guruh va uning kishi guruhlarini tavsiflash, taʼriflar ishlab chiqish, xarakterli misollar va soʻzlardan foydalanish, sinonim, antonim va boshqa semantik xususiyatlarni koʻrsatish).

**Tahlil va natijalar.** “Emotsiya” leksik-semantik guruhni yaratish uchun kishi guruhlarini hissiy holatlarga qarab farqlash mumkin: quvonch, qaygʻu, xavotir, yoqimsiz va boshqalar. His-tuygʻulardan foydalanib, “his-tuygʻu” mavzusida leksik-semantik guruh yaratishda turli emotsional holatlarni izohlovchi emotsional taajjublar tanlanadi, bunda ular his-tuygʻularga tegishib ajratiladi va har bir guruhdagi his-tuygʻularning tavsifi bilan toʻldiriladi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Leksik maʼno	Undov gaplar	Tavsif
Quvonch	Way! ux! Wow! Yabba! Dabba! Eureka! Yo-ho! Yay! Woohoo! Haha! Hee-hee! Ho-ho!	excitement, happiness, satisfaction, laughter, amusement, light-hearted, quwanish, baxt, quwangan halda hayran qalw, tabisqa erisiw
Tanlanish	Oxo! Bay-bay! Ma, sagʻan! I-im! Huh!? Gee! Imma! Wow! Oh! Whoa!	surprise, amazement, disbelief, yapirmay, hayran qalw, taʻlaniw
Azob	Эх! Пax! Ouch! Phooey! Alas! Sigh! Oh no!	sorrow, disappointment, despair, azap, qaygʻu, umidsizlik,
Gʻazab	Ha, seni! Darn it! Ugh! Grr! Argh!	frustration, anger, annoyance, ızalanıw, unatpaw, jiyirkeniw yamasa gʻazep
Jirkanish	Fuu! Ay! Qoy, oʻydeme! Aw! Yuck! Bah! Ick! Ew! Yuck! Ugh!	disgust, distaste, revulsion, xavotir, betob boʻlish, kutilmaganda betob boʻlish, jirkanish
Antek	Way! Uyattagʻay! Aʻttenʻ! Dʻoh! Baloney! Eek! Yireks! Blimey! Ugh! Fiddle de dee! Oh my!	fear, alarm, or shock

Maydon nazariyasi leksik qatlamning tizimli shakllanishiga koʻmak beruvchi jarayon boʻlib, bunda, yuqorida aytib oʻtilganidek, bir tematik va semantik mazmun doirasida jamlangan soʻzlar muhokama qilinadi. Albatta, bu jarayonni amalga oshirish uchun bir necha bosqichlar bosib oʻtiladi, bu bosqichlar ilmiy ish mavzusi doirasida taʼriflanadi: 1) maydonni ifodalovchi tushuncha yoki mavzuni aniqlash (hissiyot, kuch, ona, muhabbat va h.k.); 2) mavzuga oid soʻzlarni toʻplash, bunda diqqatni shu tushuncha yoki mavzu bilan bogʻliq soʻzlar, ularning sinonimlari, antonimlari, frazeologik birliklar, funksiyasi, sifatleri, boʻlimlari kabi xarakterlari bilan bogʻliq birliklar. Bunda lugʻatlar, ensiklopediyalar, tezaurus va boshqa maʼlumotlardan foydalaniladi; 3) jamlangan soʻzlarni muhokama qilish va tasniflash bosqichi; 4) leksik-semantik maydon strukturasi yaratish (diagramma, jadval, rasm va h.k.); 5) leksik-semantik maydon tavsifi (markaziy tushuncha bilan chegaralarda joylashgan soʻzlarning bogʻliqligi muhokama qilinadi); 6) tayanch soʻzlarga aniq matnlardan misollar keltirish. Yaʼni, xatti-harakatda olib borilgan bu bosqich maʼlum bir mavzu doirasidagi soʻzlarning tizimlashuviga va har bir madaniyatning oʻziga xos xususiyatlarini chuqur anglashga yordam beradi.

*‘Well!’ thought Alice to herself. ‘After such a fall as this, I shall think nothing of tumbling down stairs!’ [5;10 p.].*

*‘Ugh!’ said the Lory, with a shiver [5;25 p.].*

*'Oh dear! Oh dear! I shall be too late!'* (when she thought it over afterwards, it occurred to her that she ought to have wondered at this, but at the time it all seemed quite natural) [5;9 p.].

Leksik-semantik maydondan sinxron tarzda maydonni o'zaro "ajratib turuvchi" leksemalarning semantik aloqasini muhokama qilishga yordam beradi. Genetik-diaxron plandagi tadqiqotda bir qator tizimli o'zgarishlar bilan amalga oshirilgan motivatsion modellar, so'z yasalish modellarining takrorlanishi, maydonning tarkibini yaratuvchi so'zlarning etimologik asoslarini foydalanuvchi ma'lumotlar o'rganiladi. Leksik-semantik maydondan maxsus tartibga soluvchi birlik sifatida tarkibiy va alohida tuzilishga ega, uning struktural elementlari paradigmatic xususiyatlar orqali o'zaro bog'langan. Emotivlar tahlili leksik maydonning ko'p qirrali va hajmli ekanligini dalillaydi. Leksik-semantik maydonni o'zgartirish leksik birliklarning tartiblangan sinflariga, turli tipdagi leksik paradigmalariga, semantik maydonni vertikal va gorizontal tarzda tartibga solishga mo'ljallanadi. Leksik maydonning markazi, uning semantik dominant retinada umuman o'zgarishligi ma'nosini anglatuvchi leksik birlik orqali yuzaga keladi. Leksik-semantik maydon strukturasi asosiy xususiyatlaridan biri uning yaxlitligidir, u murakkab bo'lmagan birliklarni murakkabroq birliklar tarkibiga kiritishni o'z ichiga olgan xususiyatlar bilan ta'minlanadi. Bu izertledeg maydonning orasi "emotsiya" so'zi hisoblanadi. Bu umumlashtiriladigan so'zning semantik tuzilishi hissiyot tushining doirasi butun spektrini ifodalaydi (2.2.3-jadval).

### 2.2.3-jadval

#### His-tuyg'u leksik-semantik maydoni

Interjection/Таъ-лақлаб	His-tuyg'u	Sezimlarni bildiruvchi so'zlar	Harakatlar va ifodalar
Wow!	Joy	Inspired, happy, joyful, glad	Jumping, running, crying
Ўай!	Quwanish	Kewilli, ğayratlı, jeñimpaz	Quwanishtan sekiriw, qushaqlawğa asıǵıw, shappat shertiw
Ай!	Jirkeniw	tañlanıw, qorqip ketiw, kesel	Bası shayqalaw
Imma!	Certainty	I'm going to, anticipation	Eager, waiting for, future, anticipating

**Xulosa va takliflar.** Emotiv birliklar V.I.Shaxovskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rganilgan, u his-tuyg'ularni tilning leksik-semantik sistemasida guruhlariga ajratib tadqiq qilgan, shu bilan birga, uning fikrincha taajjublar va taajjub so'zlar tashqi qo'zg'atuvchisi sifatida reaksiya quroli bo'lgan affekt deb tasniflaydi [2;65-b.]. Ta'sir – bu ma'lum bir so'z uchun ma'nosi ifodalangan hissiyot atamasi, anglashning yagona usuli bo'lgan hissiyot tarzida aniqlanadi. Sezim leksik-semantik maydon (SLSM) – bu tilning leksik vositalarining majmuasi bo'lib, uning semantikasi emotsional komponentga ega (ma'no yoki konnotatsiya sharoitida).

Shunday qilib, leksik-semantik maydon bahsli sinxron va genetik-diaxron hodisa sifatida sistemali farqlar bilan tavsiflanadi. Bu farqlar maydon tarkibiga kiruvchi leksik-semantik guruhlarining leksik birliklariga bog'liq bo'ladi, bu ishning misolida ular his-tuyg'uni ifodalovchi emotiv birliklar hisoblanadi. Shu bilan birga, maydon chegaralari juda moslashuvchan va o'zgaruvchan sifatga ega bo'lib, ularning bunday xususiyatlari emotiv birliklarni o'rganishda undov gaplar asosida dalillandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Адмони, В.Г. Грамматический строй как система построения и общая теория грамматики. В.Г. Адмони. Л., 1988, с. 77–78.
- (2). Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. Воронеж, 1987, с. 25; "Культурная жизнь Юга России", № 2 (49), 2013.
- (3). Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. Г.С.Щур. М., "Наука", 1974, 255 с.
- (4). Ipsen, G. Der Alte Orient und die Indogermanen. Festschrift für W.Streitberg. Heidelberg, 1924, p. 30–45.
- (5). LEWIS CARROLL. "Alice's Adventures in Wonderland and Through the Looking-Glass and what Alice found there. Oxford Press, 2009, 352 p.

Yusupova Gulchexra Alisherovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti v.b., PhD; [uzsejonguli@gmail.com](mailto:uzsejonguli@gmail.com))

## KOREYS TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY ETIKET MASALALARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi koreys tilshunosligida nutq madaniyati, nutqiy etiket kabi masalalarni yoritish ko'zda tutilgan. Bunga, dastavval, tarixga murojaat qilingan holda, koreys madaniyatida chuqur ildiz otgan konfutsiychilik ta'limotiga nazar tashlangan. Binobarin, koreys madaniyatini konfutsiychilikdan ayri holda tushunish mumkin emas, chunki Koreya zaminida qabul qilingan va o'zlashtirilgan "koreys" konfutsiychiligini tushunmasdan turib, koreys hayoti va madaniyatiga hamroh bo'lgan axloqiy ong va marosimlarning ma'nosini, hozirgi koreys jamiyati, madaniyati, siyosati va tarixini tushunish imkonsizdir.

**Kalit so'zlar:** nutqiy etiket, konfutsiychilik, ta'limot, sotsiolingvistika, muloqot, xulq-atvor.

Юсупова Гулчехра Алишеровна (ТГУВ. Высшая школа корееведения, н.о.доц., PhD; [uzsejonguli@gmail.com](mailto:uzsejonguli@gmail.com))

### ПРОБЛЕМЫ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как культура речи и речевой этикет в современном корейском языкознании. Прежде всего, обращая внимание на историю, обращён взгляд на конфуцианство, глубоко укоренившееся в корейской культуре. Безусловно, невозможно понять корейскую культуру без конфуцианства, потому что без понимания «корейского» конфуцианства, принятого в Корее, нельзя понять смысла морального сознания и ритуалов, сопровождающих корейскую жизнь и культуру, современное корейское общество, культуру, политику и его историю.

**Ключевые слова:** речевой этикет, конфуцианство, учение, социолингвистика, общение, поведение.

Yusupova Gulchekhra (Tashkent State University of Oriental Studies. Higher School of Korean Studies. Associate professor, PhD; [uzsejonguli@gmail.com](mailto:uzsejonguli@gmail.com))

### PROBLEMS OF SPEECH ETIQUETTE IN KOREAN LINGUISTICS

**Annotation.** This article examines such issues as speech culture and speech etiquette in modern Korean linguistics. First of all, paying attention to history, a look at Confucianism, deeply rooted in Korean culture, is drawn. Of course, it is impossible to understand Korean culture without Confucianism, because without understanding the "Korean" Confucianism adopted in Korea, it is impossible to understand the meaning of moral consciousness and rituals accompanying Korean life and culture, modern Korean society, culture, politics and its history.

**Keywords:** speech etiquette, Confucianism, teaching, sociolinguistics, communication, behavior.

**Kirish.** Koreyslar bilan muloqot qilish amaliyotida koreys tilini juda yaxshi biladigan kishi ham kutilmaganda koreyslar tomonidan "Koreyscha gapira olmaysiz" degan tanqidga uchrashi mumkin. Koreys tili sohibining bunday "past baho"si mutlaqo asossiz ko'rinadi. Ko'pincha, buning sababi ijtimoiy maqomga xos tilni bilmaslikdir, ya'ni, shaxslararo muloqot voqeligiga inson munosabatlaridagi murakkab iyerarxik tizimning ta'sirini tushunib yetmaslikdir. Bu lisoniy muhitda shakllangan muloqot uslublari, aslida, asrlar davomida shakllangan nutqiy etiket an'analarning majmuasi hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Koreys nutqiy etiket an'analarning asosi konfutsiychilik ta'limotiga borib taqaladi. Konfutsiychilik nafaqat qadimgi Xitoyning, balki Koreyaning ham yetakchi mafkuraviy ta'limotlaridan biridir.

Koreys madaniyatida chuqur ildiz otgan konfutsiychilik 500 yil davomida Joseon sulolasi hukmronlik qilgan davrda (1392–1910) hukmdor davlat ta'limoti sifatida qo'llanilgan. Shuning uchun koreys madaniyatini konfutsiychilikdan ayri holda tushunish mumkin emas, chunki Koreya zaminida qabul qilingan va o'zlashtirilgan "koreys" konfutsiychiligini tushunmasdan turib, koreys hayoti va madaniyatiga hamroh bo'lgan axloqiy ong va marosimlarning ma'nosini, hozirgi koreys jamiyati, madaniyati, siyosati va tarixini tushunish imkonsizdir. Darhaqiqat, "koreys" konfutsiychiligi ham jamiyatda, ham madaniyatda chuqur ildiz otgan [1;5-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Uch Qirollik davrida koreys konfutsiychiligi Konfutsiy qonuniga asoslangan siyosiy mafkuraga aylanib, ma'naviyat va ma'rifatni tarqatish, uni kishilar ongiga singdirish, ularni tarbiyalashning asosiy tamoyiliga aylandi.

Joseon davrida konfutsiychilik siyosat, ma'muriy tizim, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solib turuvchi, bir so'z bilan aytganda, butun koreys turmush tarzining asosi, koreys jamiyatini tashkil etish prinsipi, qolaversa, kishilarning xatti-harakatlarini boshqarishning haqiqiy usuli sifatida namoyon bo'ldi.

Aksariyat olimlar konfutsiychilikni "etikaning asosi" deb hisoblashadi. Zero, "Konfutsiy, uning eng yaxshi shogirdlari va izdoshlari har bir inson doim o'z so'zlariga katta e'tibor qaratishiga, mulohaza bilan so'zlashga da'vat etgan. Shuningdek, ular boshqalarning nutqlariga ham juda katta ahamiyat berishgan" [2; 45-b.].

Umuman, "Konfutsiychilikka asoslangan Sharqning namunalaridan biri – o'zini kamtarona tutish va boshqalarni yuksaltirishdir, buni Konfutsiyning "hamma narsani oqilona qilish" so'zlarida topish mumkin" [3;45-b.]. Shuning uchun Koreyada insonga munosabat ko'p jihatdan suhbatdoshlar xatti-harakatining nutqiy etiket va odob-axloq qoidalariga qanday mos kelishiga bog'liq bo'ladi. Aksariyat xalqlarning madaniyatida insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi yoki bilimiga qarab baho berilsa, koreys madaniyatida suhbatdoshning xulq-atvori etiket qoidalariga, xususan, nutq etiketi qoidalariga rioya qilishiga qarab munosabat qilinadi.

Koreys jamiyatida mavjud bo'lgan murakkab iyerarxik tizim shaxslararo munosabatlar, birinchi navbatda, madaniy va tarixiy omillar tufayli tilda yaqqol tarzda namoyon bo'ladi. Tilda tajassum topgan shaxslararo munosabatlarning pog'onali tizimi o'zining kelib chiqishiga ko'ra, an'anaviy, sanoatlashuvga bo'lgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u Koreyada u yoki bu shaklda juda uzoq vaqt davomida mavjud bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, koreys lisoniy muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun koreys tili muloqot maydonidagi har qanday so'zlovchi doimo o'zini va suhbatdoshining yoshi, jamiyatdagi mavqeyi, suhbatdoshlar orasidagi psixologik masofa, shuningdek, "o'ziniki va begona" tamoyillarini yodda tutishi lozim [4;4-b.]:

- 1) kattalar ↔ voyaga yetmaganlar;
- 2) katta ↔ kichik ↔ tenglar;
- 3) yuqori tabaqa ↔ past tabaqa;
- 4) o'ziniki ↔ begona.

Keltirilgan qarama-qarshiliklarning oxirgisiga alohida to'xtab o'tish kerak bo'ladi. "O'ziniki va begona" tamoyili arxaik jihatlarini o'zida saqlab qolgan koreys etnopsixologiyasining o'ziga xos xususiyatini namoyon qiladi. Koreyalik uchun suhbatdoshning "o'ziniki" toifasiga tegishli bo'lishi juda muhim sanaladi. Nutqiy etiket nazariyasida "o'ziniki" tushunchasi ostida bir oilaga mansub bo'lgan yoki yaqin munosabatlar ichida bo'lgan jamoa tushuniladi.

"O'ziniki" – bu ota-onalar va bolalar, er va xotin, aka-uka va opa-singillar, do'stlar va dugonalar, ishdagi hamkasblar va boshqalar. "O'ziniki" bo'lmagan suhbatdoshlar esa "begona" hisoblanadi.

"Tenglar" deganda ijtimoiy iyerarxiyada mavqeyi bir xil yoki egallagan lavozimi yaqin bo'lganlar tushuniladi. "Tenglar" – bu tengdoshlar, kursdoshlar, taxminan bir xil yoshdagi notanish yo'lovchilar, ayni muassasada taxminan bir vaqtda bir xil lavozimda xizmat qiladigan xodimlar.

"Katta" va "kichik" ijtimoiy iyerarxiyada teng bo'lmagan suhbatdoshlar, ya'ni yoshi va rasmiy mavqeyi bo'yicha sezilarli darajada farq qiladigan kishilardir. Kattalik belgisi psixologik masofa bilan bir qatorda koreys jamiyatidagi eng muhim ijtimoiy belgidir.

Nutq xulq-atvori nuqtayi nazaridan bu odob-axloq qoidalariga doimo rioya qilish zarurligini anglatadi. Ikkinchisi, o'z navbatida, har bir vaziyat ishtirokchilarining ijtimoiy-yosh maqomiga muvofiq bo'lgan ijtimoiy yo'nalishning tegishli darajasini mos ravishda tanlashni nazarda tutadi.

Xullas, "koreys jamiyati va oilasi pog'onali (iyerarxik) munosabatlar asosida qurilgan bo'lib, ular "oliy-yuqoriroq-yuqori-me'yorda-quyi-quyiroq-eng quyi" singari darajalarni o'z ichiga oladi. Kishining yoshi, jinsi, ma'lumoti va mansabi iyerarxik munosabatlarning bosh omilidir. Kishining yoshi qanchalik katta yoki mansabi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik hurmatga sazovor bo'ladi. Oliy ma'lumotlilar va mansabdor shaxslar ko'proq imtiyoz va obro'ga egadirlar. Iyerarxik munosabat koreys tilining nazokat va hurmat shakllariga favqulodda boy ekanligi bilan ham yaqqol namoyon bo'ladi [5;50–51-b.].

Koreys madaniyatida 예절 [yejeol], 예의 [yeui] (xulq-atvor qoidalari, etiket) kabi tushunchalar asosiy o'rin tutadi. Shu bois 예의가 바르다 [yeuiga bareuda] "odobli, tarbiyali", "xulq-atvor me'yorlariga mos keladigan", "etiket qoidalariga to'g'ri rioya qiladigan" iborasi maqtov (kompliment)ning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, koreys madaniyatining asoslarini bilmasdan turib, koreys xalqi tomonidan adekvat qabul qilinib bo'lmaydi hamda koreys madaniyati vakili bilan muvaffaqiyatli aloqa o'rnatish mumkin emas.

Chet elliklarning nutq etiketi me'yorlarini bilish darajasi koreyslar tomonidan koreys tilini bilish darajasiga tenglashtiriladi. Xususan, koreys tilini bilish xalqaro imtihoni Test of Proficiency in Korean – TOPIK imtihon topshiriqlarida etiket qoidalarini bilish bo'yicha savollar bo'lishi shart.

Koreys tilshunosligida 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlari bo'yicha tadqiqotlar xushmuomalik so'zlarini aniqlash va ularning turlarini batafsil ko'rsatishdan tortib, koreys tili sohiblarining xushmuomalik so'zlarini amalda qo'llashlarini o'rganish, ularni boshqa tillardagi xushmuomalik so'zlari bilan qiyoslash, umuman, koreys nutqiy etiketi qoidalarini qiyoslash va chog'ishtirishgacha bo'lgan turli yo'llar bilan tadqiq qilingan.

Koreys tilshunosligida nutqiy etiket nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar XX asrning oxirlarida boshlandi. Xususan, 1992-yilda Koreys tili tadqiqotlari milliy instituti 국립국어연구원 [gungnipgugeoyeonguwon] tomonidan 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlari bo'yicha nutqiy etiket standartlari taqdim etildi. Keyinchalik, 2011-yilda institut xalq orasida so'rovnomalar o'tkazish va mutaxassislar bilan maslahatlashish orqali ushbu tarkibni qayta ko'rib chiqdi va to'ldirdi. Tadqiqot natijalari asosida 표준 언어 예절 [pyojun eoneo yejeol] "Nutqiy etiket standarti" asari nashr etildi [6;16-b.].

Koreys tilida 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlarini atroflicha tadqiq etgan tilshunos olimi Hwang Byeongsun (황병순) bu sohada amalga oshirilgan ishlardagi xushmuomalik so'zlarini tasniflash standartlarini tanqid qildi. Olim koreys nutqiy etiketidagi xushmuomalik so'zlarini mazmuni va shakllarini o'rganib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdi va ularni 일상의 인사말 [ilsangu insamal] "kundalik xushmuomalik so'zlari" va 특정 상황의 인사말 [teukjeong sanghwangui insamal] "aniq vaziyatlardagi xushmuomalik so'zlari" singari jami 6 turga ajratib, tasniflab berdi [7;1–25-b.].

Koreys tilshunos olimi Seo Hyeonseok (서현석) 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlarini insoniy munosabatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qilgani uchun ularning do'stlik vazifasini bajarishiga e'tibor qaratdi. Shu bois kechirim so'rash, maqtash va minnatdorchilik bildirish iboralarini xushmuomalik so'zlari turkumiga kiritish mumkinligini taklif qildi. Bundan tashqari, tadqiqotchi boshlang'ich sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida salomlashishning qo'llanish uslublari bo'yicha so'rovnomalar o'tkazib, yosh avlodda "Salomlashish" vaziyatida nazokat, buyruq hamda xorijiy yoki elektron aloqa tillardan olingan salomlashish uslublari qo'llashga moyillik borligini aniqladi [8;129–152-b.].

Koreys tilshunosi Na Yunjeong (나윤정)ning "Ijtimoiy muloqot uchun til sharoitlarini o'rganish" nomli tadqiqotida nutqiy etiket nazariyasiga sotsiolingvistik nuqtayi nazardan yondashildi. Tadqiqotda koreys tili murojaat birliklari va hurmat kategoriyasi misolida oddiy xalqning til vaziyatidan va bu vaziyatga mos keladigan nutqiy etiket standartlaridan foydalanishi masalasi o'rganilib, nutqiy etiket, xususan, 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlarini rivojlantirish zaruriyatiga e'tibor qaratildi. Olim Koreys tili tadqiqotlari milliy instituti tomonidan "Nutqiy etiket standarti" asari nashr etilgandan beri ijtimoiy o'zgarishlarga ko'ra, yangi nutqiy etiket me'yoriga ehtiyoj ortib borganini alohida ta'kidladi. Binobarin, ijtimoiy o'zgarishlar munosabati bilan jamiyat a'zolarining ongi o'zgardi, o'z navbatida, murojaat birliklari va hurmat kategoriyasi birliklarining ham qo'llanish shakli o'zgardi. Umuman, Na Yunjeong (나윤정)ning mazkur tadqiqoti koreys xalqining ko'pchiligi xayrixoh bo'lgan kundalik lisoniy hayotidagi noqulayliklarni aniqlashga, yangi atamalarni ishlab chiqishga va standart nutqiy etiketni qayta ko'rib chiqish yo'nalishini belgilash uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim eta oldi [9;3-b.].

Sotsiolingvistik yo'nalishlardagi yana bir tadqiqot sifatida Kim Taegyeong (김태경)ning "Jamoat joylaridagi nutqiy etiket" nomli izlanishini qayd etish mumkin. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "so'nggi paytlarda yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi, vertikal ijtimoiy tuzilmaning qayta tashkil etilishi munosabati bilan jamiyat a'zolarining tushunchasi o'zgardi. Shu sababli hozirgi standart nutq etiketida tavsiya etilgan aksariyat iboralar kamdan kam qo'llaniladi yoki hozirgi jamiyat a'zolarining xarakteriga mos kelmaydi". Tadqiqotda qayd etilishicha, "Ertalabki odatdagi salomlashish: 안녕? [annyeong?] Salom! 안녕하세요?! 안녕하십니까? [annyeonghaseyo?! annyeonghasim-nikka?] Assalomu alaykum! 안녕히 주무셨어요?! 안녕히 주무셨습니까? [annyeonghi jumusyoesseo-yo?! annyeonghi jumusyotseumnikka?] Yaxshi uxlingizmi?, 좋은 아침(입니다) [joeun achim(imnida)] Xayrli tong! kabi iboralar orasida 좋은 아침! [joeun achim!] Xayrli tong! iborasi chet tilidan to'g'ridan to'g'ri tarjima qilingan bo'lib, 표준 언어 예절 [pyojun eoneo yejeol] "Nutqiy etiket standarti" (2011) asarida bu iborani ishlatmaslik maqsadga muvofiq deyilgan. Lekin o'tkazilgan so'rovnomaning natijalari buning aksini ko'rsatadi va 좋은 아침(입니다) [joeun achim(imnida)] Xayrli tong! iborasini qanchalik ko'p ishla-



dagi xushmuomalalik ifodalarini xitoy, yapon, ingliz tillari bilan qiyosladi. Tahlillar natijasida koreys va yapon tillarining xushmuomalalik ifodalarida juda ko'p o'xshash tomonlarning borligi, ingliz tilidan esa farqli jihatlarning ko'pligi aniqlandi.

Bak Yeongsun (박영순)ning "Koreys va yapon tillarida salomlashish aktining sotsiologiyistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida maktab o'quvchilari, talabalar va ishchi xodimlarning nutqi asosida salomlashish aktining ijtimoiy-lisoniy jihatlari o'rganildi [18;9-b.]. Tadqiqotda har ikkala lisoniy hamjamiyatdagi "salomlashish" vaziyatining farqli va o'xshash jihatlari aniqlandi. Shuningdek, salomlashish aktidagi noli-soniy vositalarning o'rni ham ochib berildi.

**Xulosa.** Yuqorida bevosita Koreya Respublikasida nutqiy etiket nazariyasi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Qayd etilgan tadqiqotlarning barchasida nutqiy etiket tushunchasi va mazmuni ijtimoiy o'zaro aloqa orqali o'sib borayotgan shaxs uchun etiket ijtimoiy munosabatlarda rioya qilinishi kerak bo'lgan turmush tarzi sifatida qimmatli me'yor o'laroq e'tirof etildi. Nutqiy etiketni sotsiologiyistik va ta'lim nuqtayi nazaridan o'rganish asosida unga turli muloqot vaziyatlariga mos ravishda rioya qilinishi kerak bo'lgan muloyim gapirish usuli va til harakatlari qoidasi sifatida qaraldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Кым Джантэ. Конфуцианство в Корее. Кым Джантэ; пер.: Ко Ен Чоль, Д.Е.Мартынов. Казань, Казанский университет, 2022, 182 с.
- (2). Конфуций. У истоков мудрости [пер. с древнекит.; сост., пер., коммент. И.И.Семененко]. М., Эксмо, 2008, 544 с.
- (3). Post P. Emily post's etiquette (16th ed). Harper Collins Publishers. 1997, 845 p.
- (4). Васильев А.А., Гурьева А.А. Как правильно общаться по-корейски: язык социального статуса в Корее. СПб., С.-Петербург. ун-т, 2017, 120 с.
- (5). Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari. International Journal of Central Asian Studies, Vol. 9, Seoul, 2004, p. 48–60.
- (6). 이대성 외. 남북 언어예절 비교 연구. 국립국어원. 2013, 120 p.
- (7). 황병순. 국어 인사말 연구. 배달말 25, 배달말학회, 1999, 25 p.
- (8). 서현석. 표준화법 개선을 위한 '인사말' 사용 실태와 개선 방안, 화법연구, 15, 한국화법학회. 2009. – P. 129-152.
- (9). 나윤정. 사회적 소통을 위한 언어 실태 조사. 서울: 국립국어원, 2017, 241 p.
- (10). 김태경. 일반 사회 (공공장소)에서의 언어 예절. 한양대학교 한국어문화원. 특집 4, p. 73–87.
- (11). 장원호. 만 5세 유아를 위한 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과. 중앙대 학교 대학원. 박사학위논문. 2022, 408 p.
- (12). 김정화. 청소년 언어 예절 교육 방안 연구. 중앙대학교 교육대학원. 석사학위논문. 2015. – 94 p.
- (13). 이동민. 청소년 화법의 사회언어학적 연구. 공주대학교 대학원. 박사학위 논문. 2013. – 166 p.
- (14). 진주희. 그림책 읽기에 기초한 화법 교육이 유아의 화법 사용 능력, 또래 상호작용 능력, 자기조절력에 미치는 효과. 중앙대학교 대학원 석사학위논문. 2014, 135 p.
- (15). 장원호. 만 5세 유아를 위한 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과. 중앙대학교 대학원. 박사학위논문. 2022, 408 p.
- (16). 서정수. 한국어, 일본어, 영어 및 중국어의 인사말 비교 연구 = A Comparative Study of Greeting Expressions in Korean, Japanese, English, and Chinese, 비교한국학, 4, 국제비교한국학회. 1998, p. 13–36.
- (17). 문금현. 한국어 인사 표현의 유형과 특징, 세계한국어문학, 1, 세계한국어문학회, 2009, p. 93–122.
- (18). 박영순. 한일 양국인의 인사행동에 관한 사회언어적 연구. 계명대학교 대학원. 박사학위논문. 2003, p. 217.

Shamsiyeva Manzura Bababekovna (ToshDO'TAU dotsenti v.b., (PhD); [vasiya06@mail.ru](mailto:vasiya06@mail.ru))  
BADIY PEYZAJ KONSEPSIYASI

*Annotatsiya.* Badiiy peyzaj muallif badiiy havolalarining makon elementlari bilan kesishuvi natijasida yuzaga keladi. Badiiy peyzaj mental idrok bo'lib, xotira va moddiylikni o'z ichiga olgan jarayonda subyektning adabiyot haqidagi bilimlari doirasida shakllanadi. Maqolada badiiy peyzajga doir tadqiqotlar umumlashtirilgan, badiiy peyzaj tavsiflari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, peyzaj, retsipiyent, badiiy turizm, muallif, interpretatsiya.

Шамсиева Манзура Бабабековна (и.о. доцент ТГУУЛ (PhD); [vasiya06@mail.ru](mailto:vasiya06@mail.ru))  
КОНЦЕПЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕЙЗАЖА

*Аннотация.* Художественный пейзаж возникает в результате пересечения художественных связей автора с пространственными элементами. Художественный пейзаж – это ментальное восприятие, которое формируется в рамках знаний субъекта о литературе в процессе, включающем память и материальность. В статье обобщены исследования по художественному пейзажу, представлены описания художественного пейзажа.

**Ключевые слова:** текст, пейзаж, репрезентант, художественный туризм, автор, интерпретация.

Shamsieva Manzura Bababekovna (Associate professor of TSUULL (PhD); [vasiya06@mail.ru](mailto:vasiya06@mail.ru))  
THE CONCEPT OF AN ARTISTIC LANDSCAPE

*Annotation.* An artistic landscape arises as a result of the intersection of the author's artistic connections with spatial elements. An artistic landscape is a mental perception that is formed within the framework of the subject's knowledge of literature in a process involving memory and materiality. The article summarizes the research on the artistic landscape, provides descriptions of the artistic landscape.

**Keywords:** text, landscape, representative, art tourism, author, interpretation.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslik markazida matn, uning ontologik va gnoseologik xususiyatlari turadi. Tuzilmalilik, ijtimoiylik, psixologiklik va yana ko'plab jihatlarni o'z ichiga oluvchi matn "integratsiyalovchi xususiyatlarga ega, eng avvalo, uni yaratuvchi Ego – lisoniyat tilning turli jihatlari, lingvistik fanning turli paradigmal tarkib toptiruvchilarini o'rganuvchi sifatida mujassamlashadi" (1;109-b.). Zamonaviy adabiyotda peyzaj asar strukturasi muhim komponentiga aylandi. U shakliy-mazmuniy kategoriya bo'lib, matnning makon-zamon, g'oyaviy-tematik darajasini shakllantirishga xizmat qiladi, uslubiy-mazmuniy polifunksionalligi bilan farqlanadi.

Yevropada XIX asrning oxiriga kelib, peyzaj konseptiga nisbatan kapitalistik iqtisodiy tartib konsepsiyasiga zid ravishda insonning tabiat bilan munosabatlariga bo'lgan kapitalizmdan oldingi qarashlarini saqlab qolishga harakat boshlandi [2;45-b.]. Shu nuqtayi nazardan, peyzaj ahamiyatli fenomenga aylanadi, chunki u insonning intim subyektivligi nuqtayi nazaridan idrok etiladi, inson faoliyati esa uning mavjudligi shartidir. Peyzaj funksional foydalanishdan tashqariga chiqib, fenomenologik nuqtayi nazardan tushunilishi kerak. Estetik san'atlar, aynan tasviriy san'at va badiiy adabiyot subyektning olam go'zalligiga nisbatan yangicha munosabati, hissiy kechinmalarining dastlabki ifodachisi bo'lgan. Shu tariqa, peyzaj subyekt nuqtayi nazarida yaratiladi va subyekt qarashi ham badiiy matnlar hamda yozuvchilarning biografiyasi haqidagi ma'lumotlarga yo'nalishi mumkin. Bunday vositachilikdan so'ng, badiiy peyzaj konstruksiyasi adabiyot bilan kesishganida jismoniy geografiya sohasidagi individual tajriba mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matnlar "reprezentatsiya fayllari" bo'lib, subyekt qarashlarini o'zgartirishi va makonga nisbatan yangi mazmun berishi mumkin [3;53-b.]. Ular idrok, talqin qilish va makon haqidagi xabarni samarali o'zgartirishi mumkin. Shu jihatdan, badiiy peyzaj ushbu "fayllar"dan reprezentativ badiiy elementlarni (hatto ramziy elementlar) biz kuzatayotgan narsalarga o'tkazishni va ko'rayotgan narsalarimizga yangi qiymat berishni nazarda tutadi. Bu jarayon makonni qayta anglash va "hamkorlik" harakatini nazarda tutadi, chunki badiiy peyzaj subyektning makon bilan badiiy filtrlangan o'zaro ta'siridan so'nggina yuzaga keladi. Bu yerda individual reaksiya va sahifadagi qora nuqtalar interpretatsiyasiga diqqatini yo'naltiradigan retsipiyent reaksiyasiga asoslangan tanqidga parallel bo'lish foydalidir [4;56-b.]. Har bir retsipiyent tomonidan kechiriladigan ushbu jarayondan so'nggina badiiy matn yuzaga keladi, ya'ni, retsipiyent matnda o'qiganlari, o'zining oldingi badiiy bilimlari, o'z madaniy orientirlari, mafkurasi, kayfiyati va shaxsiy tajribasi bilan bog'liq ravishda unga yetarlicha ahamiyat beradi. Shu nuqtayi nazardan, matn sahifadagi so'zlar va retsipiyent nuqtayi nazari o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladi. Shundan kelib chiqqan holda, badiiy peyzaj

muallif badiiy havolalarining makon elementlari bilan kesishuvi natijasida yuzaga keladi. Badiiy peyzaj mental idrok bo'lib, xotira va moddiylikni o'z ichiga olgan jarayonda subyektning adabiyot haqidagi bilimlari doirasida shakllanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Margaret Drabbl "Britaniya yozuvchilari" (2009) kitobida bu jarayon haqida gapirib, shuni ta'kidlaydiki, "ba'zi peyzajlarni ularni kashf etgan yozuvchilarning ko'zlari bilan ko'rmaslik" mumkin emas, chunki yozuvchilarning ijodiy xotirasi bu joylarning moddiyligiga singib ketgan.

Jahon tajribasida badiiy peyzaj turizmni rivojlantirishning bir omili sifatida qaraladi. Yapon olimi S. Ivashitaning ta'kidlashicha, sayyohlarning qayerga borishi to'g'risida qaror qabul qilishlarida badiiy adabiyotning ta'siri turizm sanoati uchun dolzarb masala sanaladi. Haqiqatan, badiiy asar matnida hududning mavjudligi uni o'ziga xos qiladi, tasavvurimizni rag'batlantiruvchi obraz yaratadi. Shu tariqa, madaniy mahsulot doirasida jozibador hududning mavjudligi yoki bu hududni o'ziga xos personajlar bilan assotsiatsiya qilish imkoniyati, ular real yoki to'qima bo'lishidan qat'i nazar, u yerni borib ko'rishda hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin [5;60-b.].

Barselona universiteti (Jordi Arcos-Pumarola, Eugeni Osacar Marzal), Lleida universiteti (Ispaniya) (Nayra Llonch-Molina) olimlarining tadqiqotlari ham badiiy turizmga bag'ishlangan. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, badiiy turizmga qiziqish, aslida, uning murakkabligidir. Bunday murakkablik bir necha omillardan kelib chiqadi [6;78-b.]. Masalan, badiiy adabiyotda yaratilgan har qanday madaniy peyzajning qiymatini o'lchash uchun formulani topish qiyin, chunki har bir muallif o'z idrokidan kelib chiqib, hududni tasvirlaydi. Bundan tashqari, har bir asar uchun xos bo'lgan madaniy masofa va til to'siqlari tashrif buyuruvchilar uchun peyzajning ramziy teranligini uzoq haqiqatlardan yashirishi mumkin. Shuning uchun badiiy peyzaj kuchini jamoatchilikka yanada samarali yetkazish uchun chuqur mulohaza yuritish zarur.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Peruji chet elliklar universiteti (University for Foreigners of Perugia) olimlarining ta'kidicha, turizm nuqtayi nazaridan, barcha tashrif buyuruvchilar ham ma'lum bir makonni tavsiflovchi peyzaj matnini talqin qilishga imkon beradigan adabiy "zaxira"ga ega emaslar. Shu sababli peyzaj har bir shaxs tomonidan o'ziga xos tarzda talqin etilishi va yaratilishini hisobga olgan holda, tobora ko'proq kishilar peyzajni his qilishi va yarata olishlari uchun turizm sanoati ularning qarashlarini boshqaradi, adabiy belgilarga ishora qilish yoki turizm sanoatidagi voqealarni so'zlab berish orqali makonni qayta tasavvur qiladi. Bu shuni anglatadiki, turizm sanoati, ko'pincha, peyzajni tashkil etuvchi badiiy makonlar haqida xabar beradi. Bunday badiiy makonlar ikki turga ajratiladi: real va tasavvur qilingan [7;90-b.]. Birinchisi moddiy meros obyektlari bilan bog'liq (masalan, muallifning tug'ilgan joyi, qabri yoki muzeyi), ikkinchisiga badiiy asarlar bilan bog'liq to'qima makon yoki qisman xayoliy joylar kiradi, chunki ko'plab badiiy matnlar haqiqiy geografik ma'lumotlardan chiqib ketadi.

D.Uestonning fikricha, badiiy peyzajni fizik geografiya va subyekt o'z ichida olib yuradigan yoki ongida yaratadigan makon haqidagi tasavvurlari o'rtasidagi uchinchi bo'shliq sifatida ham ta'riflash mumkin. Bu konkret va mavhum, haqiqiy va xayoliy, o'qilgan yoki eshitilgan xotiralar hamda hikoyalarni birlashtirgan konstruksiya bo'lib, u subyekt nuqtayi nazari bilan mos keladi. Bu "reprezentatsiya hamda tajribaning doimiy va o'zaro ta'siri makonni nafaqat joylashuv, balki jarayon sifatida ham nazarda tutadi" [8; 86-b.]. Ijtimoiy fanlardagi makonga nisbatan o'zgargan qarashlar Viskonson universiteti professori, geografiya fanlari doktori Yi-Fu Tuanning joy harakatsizligi borasidagi qarashlariga mos keladi (ya'ni makon – bu harakat, joy–bu pauza). Makonga nisbatan o'zgargan qarashlardan so'ng peyzaj shunchaki ot (joy) emas, fe'lga (jarayon) aylanadi.

Badiiy peyzaj – bu ishonchsiz va beqaror bo'lgan til tizimi doirasida obyektivni subyektiv idrok etish natijasi. Agar Yi Fu Tuan ta'kidlaganidek, harakat har doim shaxsiy talqinni nazarda tutsa, peyzajni tasvirlash va talqin qilish uchun ishlatiladigan til uning idrokini aniqlashini tushunish muhimdir. Ushbu nuqtayi nazar badiiy geografiya masalasini keltirib chiqaradi, chunki bu "geografik tushunchalarga murojaat qilgan holda badiiy matnlarni o'qish va talqin qilish jarayonidir" [9;73-b.], ya'ni, badiiy matnlarda topografik va geografik havolalarni aks ettirishdir. Badiiy peyzaj konsepsiyasini ko'rib chiqayotganda, ushbu tuzilmani birgalikda yaratish jarayonidagi subyektlarning rolini unutmaslik kerak. Aslida, odamlar bu makonda ularga berilgan ma'noni passiv ravishda sezmaydilar, aksincha, ular bu makonda topgan ma'nosini faol ravishda yaratadilar.

Adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik doirasida peyzaj badiiy matnlarda jismoniy muhitni aks ettirish toifasiga ham kirishi mumkin. Badiiy matnlarda peyzaj – bu harakatlar va fikrlarni qo'llab-quvvatlovchi semantik tuzilma, shuningdek, badiiy matnni tashqi dunyoga ochadigan referent. Badiiy matnlarda peyzaj orqali hikoyalarni o'qish va aytib berish mumkin. Adabiyotshunoslik tadqiqotlari va ekologik dis-

kurs kesishuviga intilib, badiiy asarlar tabiatni qanday tasvirlashini tahlil qilishni boshlagan ekotanqidda bo'lgani kabi peyzaj yozish predmeti ham bo'lishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Dunyo tilshunosligida "Inson va tabiat" masalasi, dastlab, Yevripidning "Ippolit" tragediyasida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi (er.ol.5-asr). Biz tadqiqotimiz mobaynida ushbu masalaning ildizini topish uchun eng qadimgi yozma manba, uch ming yillik tarixga ega bo'lgan "Avesto"ga murojaat qildik. Asarda ko'plab peyzaj matnlari uchraydi. Masalan: "Qahrli qahratonon burun suvlar shiddat bilan oqqan bu sarzaminlarda giyoh va o't-o'lanlar g'oyat serob bo'ladi. Ammo qahraton oyog'i yetib, u butunlay kirib kelgach, qorlarning quturishini ko'rsang. Endi bu zaminda suruvlarning hayratbaxsh oqimidan nom-nishon topolmaysan" matnida fasllarga xos bo'lgan xususiyatlar badiiy teran ifodalangan bo'lsa, quyidagi matnda tabiatning bir elementi bo'lmish "yer" konsepti o'xshatishlarga boy tarzda go'zal ifodalanganining guvohi bo'lamiz: "Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog'at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand ko'rish va yaxshi yostiqdoshga intiqdir" [10;34-b.]. Umuman olganda, badiiy asar matnini peyzaj tasvirisiz tasavvur etib bo'lmaydi, inson tabiatda mavjud ekan, uni tabiatsiz tasvirlash imkonsizdir.

Buyuk dramaturglar ba'zan dramaning badiiy maydonini kengaytiradilar; ba'zi hollarda badiiy asarda tabiat parametrlari va tarkibiy qismlari ustunlik qiladi, bu asarlarning sarlavhalarida namoyon bo'ladi, masalan: A.Navoiyning "Lison ut-tayr", "Sab'ayi sayyor", "Fusuli arba" (To'rt fasl): "Fusuli arba"da Sulton Husayn Boyqaro madhidan so'ng "Bahor", "Saraton", "Xazon" ("Kuz") va "Day" ("Qish"), "Sab'at ul-abhur" (Etti dengiz), "Nasim ul-huld" (Jannat nasimi), V.Shekspirning "Bo'ron", "Yoz kechasidagi tush" I.A. Krilovning deyarli barcha masallari, L.N.Tolstoyning ertak va masallari, A.N.Ostrovskiyning "Bo'ron", E.Xemingueyning "Chol va dengiz", G.X.Andersen va Y.Shvarsning "Qor malikasi" va h.k.

Rus adabiyotida N.M.Karamzin tabiatning kuzgi so'lishi va u bilan bog'liq qayg'u, yo'qotish, hayot bilan xayrlashish kayfiyatlarini aks ettiruvchi elegik (g'amgin) peyzajni tasvirlash asoschisi edi. Unga erashgan romantik shoirlar kamdan kam hollarda kuz tabiatining go'zalliklaridan zavqlanishdi, ular "bo'ronli" va ma'yus peyzajni tasvirlashni afzal ko'rishdi. Rus milliy peyzaji kashfiyotchisi Pushkin kuzni, uning "xayrlashuv go'zalligi", "uning o'layotgan va tinchlantiruvchi jozibasi"ga tegishli holatlarni ifodalagan.

Tabiat, go'yo xalqning yuzini belgilaydi, deb ishoniladi. Pushkin, "iqlim, boshqaruv qiyofasi, imon har bir xalq she'riyat oynasida ozmi-ko'pmi aks etadigan o'ziga xos fizionomiyani beradi... Agar boshqarish tarzi va e'tiqod mohiyatan o'zgaruvchan, xalq fizionomiyasi xususiyatlari tarixiy harakatchan bo'lsa, u holatda iqlim, landshaft, flora va fauna unga tug'ma iz qoldiradi", deya ta'kidlagan.

O'zbek adabiyotida Cho'lpon o'z she'rlarida tabiat manzaralari orqali kishi ruhiyatiga go'zallik va ezgulik hislarini olib kirgan. Tabiat tasvirini berish jarayonida badiiy tasvir vositalari va ramzlardan unumli foydalangan. "Barg", "Binafsha", "Ko'klam qayg'usi", "Chechak", "Xazon", "Yana ko'klam", "Boychechak" kabi qator she'rlarida tabiatning go'zal va nafis tasviri orqali o'z ijodiy niyatini, aniqrog'i, xalq taqdiri – milliy ozodlik va hurriyat g'oyalarini ilgari surgan.

Oybekning "Chimyon daftari" turkumiga kirgan she'rlarining ko'pchiligini tabiat manzaralaridan ilhomlanib yaratgan she'rlari tashkil etadi. Shu orqali Oybek o'z ichki kechinma va tuyg'ularini turli ohanglarda yorqin ifodalay olgan. Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko'rinishlari syujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi faktor sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish badiiy asarda eng ko'p uchraydigan hodisadir [11;56-b].

G.D.Gachevning fikricha, aynan tabiat xususiyatlarida "milliy madaniyatning obrazli zaxirasi (arxetiplar, ramzlar), adabiyot metaforasi, san'at syujetlari – barchasi nihoyatda barqaror" ildiz otadi. Bu inson va tabiat, hayvonot dunyosining birligi haqidagi eng qadimgi g'oyalar bilan bog'liq: inson va hayvonlar yagona buyuk bir butunlik, bir olam, inson esa hayvonlarni o'ldirish va yeyish orqali bu dunyoning uyg'unligini buzadi. Uzoq vaqt davomida hayvon odamlar uchun "ham jismoniy, ham axloqiy ko'plab insoniy fazilatlarining o'lchovi" bo'lib keldi, bu tilda maqol, matal, frazeologizmlar, aforizmlar shaklida mustahkam o'rnashgan. Ingliz metaforik frazeologiyasi tizimiga kiradigan *black beast nom tuzilishining differensial belgisi, black "qora" sifatining ot – beast "o'zini yomon tutadigan odam" (beast otining dastlabki metaforizatsiya holati – hayvon, beast)* hayvon belgilari odamga nisbat berilgan) ma'nosi bilan qo'shiluvdir. Bunday so'z va iboralarni yaratish qadimgi davrlarga borib taqaladi, o'sha davrlarda animalizm dunyoqarashning asosi bo'lgan, shu asosda "birinchi umumlashmalar shakllana boshladi – biror-bir hayvon obrazida konkretlashtirilgan ramzlar, natijada hayvonlarning nomlari o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'no, ba'zi hollarda bir nechta ma'noga ham ega bo'la boshladi. Hayvonlarning nomlaridan majoziy foydalanish to'g'ridan to'g'ri milliy urf-odatlar, mamlakatning geografik joylashuvi, odamlarning urf-odatlari va e'ti-

qodlari bilan bog'liq. Shu sababli bunday til materiallari nafaqat ma'lum lingvistik hodisalar haqida ma'lumot berishi, balki ma'lum bir xalqning hayoti va madaniyatini to'liq aks ettirishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Tabiat, tabiat hodisalari, turmush, folklor, til, she'riyat obrazlilik, makon va vaqtning nisbati va ularning koordinatalari – bularning barchasi, G.D.Gachevning so'zlariga ko'ra, "milliy qadriyatlar, orientirlar, ramzlar, arxetiplarning asosiy fondi, fikrlash tarzini, millat logotipini ham belgib beradi". Ramzlar lug'atlarida osmon va yer, hayvonot va o'simliklar ramzlariga keng o'rin berilgan. Xalq ertaklarida inson hayoti tabiatdan tashqarida, u bilan o'zaro aloqasiz mumkin emas, degan fikr o'ziga xos shaklda ifodalangan. Bu bilan odamning tabiat bilan qanday aloqasi borligi va qanday munosabatda bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Ertaklardagi ijobiy qahramonlar nafaqat tabiatni sevadi, uning go'zalligi va boyligidan zavqlanadi, hatto u bilan o'zaro munosabatga kirishadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Тураева З.Я. Лингвистика текста и категория модальности. "Вопросы языкознания", 1994, № 3.
- (2). Cosgrove, D.E. (1988). Social formation and symbolic landscape. Barnes and Noble Books.
- (3). Rojek C. J.Urry (Eds.). (1997). Touring cultures. Transformations of travel and theory. Routledge.
- (4). Rosenblatt, L.M. (1978). The reader, the text, the poem: The transactional theory of the literary work. Southern Illinois University Press.
- (5). Iwashita, C. Media representation of the U.K. as a destination for Japanese tourists: Popular culture and tourism. Tourist Studies, Vol 6, № 1, 2006, pp. 59–77; ISSN 1741-3206.
- (6). Marzal, Eugeni & Llonch Molina, Nayra & Arcos-Pumarola, Jordi (2020). Revealing the literary landscape: research lines and challenges of literary tourism studies. Enlightening tourism a pathmaking journal. 10. 179-205. 10.33776/et.v10i2.4781.
- (7). Smith, K.A. (2003). Literary enthusiasts as visitors and volunteers. International Journal of Tourism Research, 5(2), p. 83–95; <https://doi.org/10.1002/IJTR.419>
- (8). Weston, D. (2016). Contemporary literary landscapes. The poetics of experience. Routledge.
- (9). Thacker, A. (2005). The idea of critical literary geography. New Formations, 57, p. 56–73.
- (10). "Авесто". Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. "Шарқ", 2001, Т., 384-бет.
- (11). Иззат Султон. Адабиёт назарияси. "Ўқитувчи", Тошкент, 1996.

**Raxmanova Albina Xodjaevna (filologiya fanlari doktori, Navoiy davlat Pedagogika instituti; [alva211@list.ru](mailto:alva211@list.ru))**

#### **RUS ADABIYOTI TARAQQIYOTIDA QUR'ONNI IDROK ETISHDAGI TARIXIY VA ADABIY JARAYON**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rus adabiyoti va madaniyatida Qur'onni o'rganish muammolari ko'rib chiqiladi, uni o'rganish bosqichlari tahlil qilinadi va rus madaniyati estetik merosida Qur'on ma'nolari mujassamlanishining xususiyatlariga oydinlik kiritiladi. Qur'on islom dini ma'naviy-axloqiy, diniy, fuqarolik, siyosiy va huquqiy normalarining she'riy tuzilishiga ko'ra noyob to'plam bo'lib, o'zida turli xil ma'nolar majmuyini mujassam etgan, ko'pchilik ularning mohiyatini tushunishga urinib ko'rgan va harakat qilgan. Maqolada 17-asrdan boshlab Muqaddas Bitikni rus tiliga tarjima qilishda turlicha yondashuvlar ko'rib chiqiladi, Qur'on ma'nolarini talqin qilishga salmoqli hissa qo'shgan nomlar sanab o'tiladi va ularning tarjimalarining xususiyatlari tahlil qilinadi. Bizningcha, bu muammoni adabiyotshunoslikning ko'plab imagologik muammolari kontekstida ko'rib chiqish mumkin. Tahlil metodologiyasi o'rganilayotgan materialga tizimli-konseptual yondashuv nazariyasi bilan belgilanadi, bu bizga Qur'on tarjimalarini nafaqat rus oriyental adabiyoti namunasi sifatida, balki bu mavzuni hal qilishda o'ziga xos yondashuvni shakllantiradigan hodisa sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Maqolaning maqsadi V.Postnikov, D. Kantemir, M.Veryovkin, A.Kolmakov, J.Sale, K.Nikolayev, A.Kazimirskiy, N.Boguslavskiy, G.Sablukov, I. Krachkovskiy, I.Poroxova va boshqalar kabi tarjimonlarning Qur'onning rus tiliga she'riy tarjimasini xususiyatlarini aniqlash, nutq shakllarini tuzish mexanizmlari va yagona bir yaxlitlikni yaratish qonuniyatlarining tavsifidan iborat. Maqolaning dolzarbligi nafaqat Qur'on tarjimalarini o'rganish zarurati bilan, balki Muqaddas Bitik matniga badiiy yondashuvning metafizik komponentining muhimligini ta'kidlaydigan yangi konsepsiyani shakllantirishga urinish, musulmonlikka oid diniy motivlarining tarjimalarda mujassamlanishining o'ziga xos xususiyatlarining tadqiq etilganligi, tarjimonlarning Muqaddas kitobning asosiy ma'nolarini mujassamlantirishlari ahamiyati ochib berilganligi bilan ham belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** sharqshunoslik, imagologiya, Qur'on materiali, tarjima tafsirlari, bag'rikenglik, muqaddas musulmonlar kitobi.

**Рахманова Альбина Ходжаевна (доктор филологических наук, кафедра русского языка и литературы, Навоийский государственный педагогический институт, Узбекистан; alya211@list.ru)**

### **О ПЕРЕВОДАХ КОРАНА НА РУССКИЙ ЯЗЫК**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы изучения Корана в русской литературе и культуре, анализируются этапы его изучения и выясняются особенности воплощения смыслов Корана в эстетическом наследии русской культуры. Являясь уникальным по стихосложению сводом морально-нравственных, религиозных, гражданских, политических и юридических норм мусульманства, он несет в себе комплекс различных смыслов, дойти до сути которых пытались и пробовали многие. В статье рассматриваются разные подходы к переводам Писания на русский язык, начиная с XVII века, перечисляются имена, внесшие заметный вклад к толкованию смыслов Корана, анализируются особенности их переводов. Как нам представляется, данная проблема может быть рассмотрена в контексте многих имагологических проблем литературоведения. Методология анализа определяется теорией системно-концептуального подхода к изучаемому материалу, позволяющего рассматривать переводы Корана не просто как образец ориентальной русской литературы, а как явление, формирующее специфический подход к решению данной темы. Цель статьи – выявление особенностей поэтического переложения Корана на русский язык такими переводчиками, как В.Постников, Д.Кантемир, М.Верёвкин, А.Колмаков, Дж.Сэйль, К.Николаев, А.Казимирский, Н.Богуславский, Г.Саблуков, И.Крачковский, И.Порохова и др., описание механизмов структурирования речевых форм и закономерностей создания единого целого. Актуальность статьи определяется не только необходимостью изучения переводов Корана, но и попыткой формирования новой концепции, где подчеркивается важность составляющей метафизики художественного подхода к тексту Священного Писания, исследуется специфика воплощения религиозных мусульманских мотивов в переводах, выявляется ценность воплощения переводчиками главных смыслов Священной книги.

**Ключевые слова:** ориентализм, имагология, коранический материал, интерпретации перевода, толерантность, Священное Писание мусульман.

**Rakhmanova Albina Khojaevna (Doctor of Philology, Department of Russian Language and Literature, Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan; alya211@list.ru)**

### **ABOUT TRANSLATIONS OF THE KORAN INTO RUSSIAN**

**Annotation.** This article examines the problems of studying the Koran in Russian literature and culture, analyzes the stages of its study and clarifies the features of the embodiment of the meanings of the Koran in the aesthetic heritage of Russian culture. Being a unique set of moral, religious, civil, political and legal norms of Islam in its versification, it carries a complex of different meanings, which many have tried and tried to get to the essence of the article examines different approaches to translations of Scripture into Russian, starting from the 17th century, lists the names that made a significant contribution to the interpretation of the meanings of the Koran, and analyzes the features of their translations. It seems to us that this problem can be considered in the context of many imagological problems of literary criticism. The methodology of analysis is determined by the theory of a systemic-conceptual approach to the material being studied, which allows us to consider translations of the Koran not just as an example of oriental Russian literature, but as a phenomenon that forms a specific approach to solving this topic. The purpose of the article is to identify the features of the poetic translation of the Koran into Russian by such translators as V.Postnikov, D. Kantemir, M.Verevkin, A.Kolmakov, J.Sale, K.Nikolaev, A.Kazimirsky, N.Boguslavsky, G.Sablukov, I.Krachkovsky, I.Porokhova and others, a description of the mechanisms of structuring speech forms and the patterns of creating a single whole. The relevance of the article is determined not only by the need to study translations of the Koran, but also by an attempt to form a new concept, which emphasizes the importance of the metaphysical component of the artistic approach to the text of the Holy Scripture, explores the specifics of the embodiment of religious Muslim motifs in translations, and reveals the value of translators' embodiment of the main meanings of the Holy Book.

**Key words:** orientalism, imagology, Koranic material, translation interpretations, tolerance, Muslim Holy Scripture.

**Kirish.** Rossiya uchun Sharq kelajakka alohida munosabatda bo'lgan mintaqadir va XVII asrning oxirida Buyuk Pyotrning tashabbusi bilan Rossiyada Sharqning islom madaniyatiga chuqur qiziqish uyg'ondi. Yangi madaniy qatlamlar, o'ziga xos dunyosi, o'ziga xos falsafasi, qiziqarli dini bilan hali chuqur o'rganilmagan bu mintaqa rus madaniyatining diqqat markazidan o'rin egalladi. Sharq dini – islom va uning muqaddas kitobi Qur'oni karim, uning tushuncha va tamoyillarini anglash nuqtayi nazaridan puxta o'rganil-

gan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa madaniyatining islom dunyosiga munosabati har doim turlicha bo'lgan. Yevropa juda uzoq vaqt davomida takabburona, o'ziga xos snobizm bilan Sharqqa qaradi va uning yangi dinini jiddiy qabul qilmadi. Ammo urushlar natijasida Shimoliy Afrika va Ispaniya hududlari Arab xalifaligi tarkibiga kirganda, bu fakt xristian olamini yangi qo'shniga e'tibor berishga majbur qildi. Bu vaqtga kelib, xristian va musulmon dunyolari o'rtasidagi aniq chegara ikki dunyo bir-biridan qanchalik uzoqlashganini ko'rsatdi: salib yurishlari muqaddas va ozod etuvchi deb e'lon qilindi, musulmonlar shaytonning malaylari yoki yagona haqiqiy nasroniylik dinining mutlaq dushmanlari sifatida qabul qilina boshladilar va yangi e'tiqod payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ni esa yolg'onchi va fitnachi deb atay boshlashdi. Bu tasavvur yevropaliklarning ongi va shuurida uzoq vaqt saqlanib qolgan va o'sha davrning ko'plab asarlarida o'z aksini topgan. Bu tasavvur Dantening "Ilohiy komediya" sini ham chetlab o'tmadi. "Ilohiy komediya" da davrni his etish tuyg'ulari eng to'laqonli tarzda ifodalangan bo'lib, bu o'sha zamon va Dante ijodining ziddiyatli mohiyatini ochib bergan. Komediya sunisi bilan qiziqarliki, asarda tarixiy vaziyatning o'ziga xosligi haqida qimmatli ko'rsatma mavjud bo'lib, lekin, shu bilan birga, unda islom dinining ichki xususiyatlarini anglash yo'q edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiq va nazariy tushunish va tahlil qilish, tizimlashtirish va tasniflash, izohli va konseptual tahlillar.

**Mavzuga oid materiallarning tahlili.** O'rta asrlarda nasroniylikning yagona to'g'ri va haqiqiy e'tiqod ekanligi haqidagi g'oya ta'sir tufayli Yevropada musulmonlarning diniy e'tiqodlariga salbiy munosabat shakllandi. So'zsiz, bunday pozitsiya bag'rikenglik va Sharq bilan yaxshi munosabatlarni rivojlantirishning istisno qilinishiga olib keldi. Ikki dunyoqarash, dunyo qadriyatlariga ikkita eng muhim mafkuraviy yondashuv tushunchalarning bir-birini istisno qilishiga olib keldi. Xristianlik islomning mavjud bo'lish huquqini rad etib, uni bid'atda va haqiqiy, yagona chin e'tiqoddan ataylab chetlanishda aybladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu va u bilan bog'liq bo'lgan ko'plab holatlar salbiy oqibatlariga olib keldi va muloqot boshlanmay turib, tomonlarning qadriyatlariga oid g'oyalarini ochiqdan ochiq rad etish tomon yuz tutdi. Islom, nasroniylikdan farqli o'laroq, bu muammoni hal qilishda turlicha yondashuvlarga ega edi. Musulmonlar yahudiylik va nasroniylik bilan qarindoshlikdan voz kechmadilar, bu ta'limotlarda haqiqiy e'tiqod shakllanishining ibtidosini ko'rdilar va bu diniy tizimlar bilan genetik qarindoshlikni musulmonlik ta'limoti haqiqiyli-  
g'ining isboti sifatida qabul qildilar. Bu dinlarning barchasida islom musulmonlikka xos yakkaxudolik g'oyasining islomdan oldingi va unga hamroh, zamondosh bo'lgan ko'rinishlarini va o'zini esa bu an'ananing mantiqiy davomi va intihosi sifatida ko'rgan.

Qarama-qarshiliklarning murakkab kurashi, islom g'oyalarini rad etish Yevropadan rus madaniyatiga o'tadi, ammo shuni ta'kidlash kerakki, sharqiy slavyanlarning Rusi turli xil diniy e'tiqodlar va an'anaviy politeizmning birgalikda mavjudligi tufayli diniy bag'rikenglikka moyil edi. Islomni faol rad etish mo'lg'ul-tatar istilosi bilan bog'liq voqealar tufayli ortdi, bu esa islom qiyofasining keskin va salbiy idrok etilishiga olib keldi. U aqidalardagi tafovutlar bilan emas, balki siyosiy holatlar tufayli shakllangan, islomning bunday o'ziga xos qiyofada ko'rilishida ruslarning milliy-vatanparvarlik noroziligi ham ifodalangan.

Qarashlarning siyosiy va diniy tizimidagi o'zgarishlar rus madaniyatida Pyotr I davridan boshlab ro'y bera boshladi. Sharqda ko'plab strategik muammolarning ijobiy yechimini ko'rgan Pyotr I bu qo'shnichilikka munosabatni o'zgartirishni va hamkorlarni yaxshiroq tushunish maqsadida musulmonlarning muqaddas kitobi – Qur'onni rus tiliga tarjima qilishni buyurdi.

Aynan shu davrda arab-musulmon madaniyati diqqat markazida bo'ldi. Keng savdo aloqalari, madaniyatning ekzotikligi va betakrorligi, tilning o'ziga xos xususiyatlari islohotchi Pyotr I da bu mentalitetning noyobligini anglash istagini uyg'otdi. Arab tilida so'zlashuvchi madaniyatning asosini tashkil etuvchi islom nafaqat din sifatida, balki davlat me'yorlari va qoidalarining, falsafa va ilm-fanning izohi sifatida ham qiziq edi.

**Tahlil va natijalar.** Taxminan, 1697-yilda Qur'onni rus tiliga tarjima qilish bilan birinchi bo'lib shug'ullangan kishi diplomat, shifokor va poliglot P.Postnikov (1666–1703) bo'lgan. Bu odamning taqdiriga tibbiyot va falsafa fanlari doktori bo'lish bitilgan edi. Slavyan-yunon-lotin akademiyasida tahsil olgani uni bilimli shaxs bo'lib yetishishiga sabab bo'ldi. Eng yaxshi talabalar qatorida podshohning maxsus farmoni bilan chet elga yuborilgan. Tabiatan aqllilik va zukkolik unga o'z davrining eng yaxshi odamlaridan biriga aylanish imkonini berdi. Keng va chuqur tibbiy bilimlar uni tibbiyot fanlari doktori darajasiga ko'tardi va tillarni bilishi uni diplomatlikka, keyinchalik, tarjimonlikka olib keldi. Shunday qilib, Qur'oni karimning rus tiliga "Muhammad haqidagi Alqoran yoki Turk qonuni" («Алкоран о Магомете, или Закон Турецкий») nomi ostida birinchi tarjimasini fransuz tilidan o'g'irilgan bo'lib, Qur'onning arab tilidan fransuz tiliga

tarjimasi muallifi esa Andre Dyu Riye edi. Andre Dyu Riye (taxminan, 1580–1650) fransuz diplomati va sharqshunosi, Qur'on tarjimasi bilan bir qatorda «Turk tili grammatikasi», Sa'diyning «Guliston» rivoyatlar to'plamining tarjimasi muallifi. U muqaddas kitobning asl nusxasiga ancha erkin yondashgan va Qur'onning ko'p ma'nolarini yetkazishda o'ziga erk berib, ko'plab noaniqliklarga yo'l qo'ygan. Qur'onni arab tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan britaniyalik sharqshunos J.Sale (taxminan, 1697–1736) Dyu Rie haqida shunday xabar beradi: «...arab va turk tillarini ancha sayoz bilgani holda, Qur'onni o'zining fransuz tiliga tarjima qilish bilan mashg'ul bo'ldi, lekin uning tarjimasi hali aniq va to'g'ri tarjima deb atalishdan yiroq, chunki unda deyarli har bir sahifada xatolar ko'rinib turadi, bu hali alohida gaplar va tushirib qoldirishlar hamda o'zi tomonidan qilingan qo'shimchalar aytilmagan holda, tarjimalarda esa, ayniqsa, bu turdagi tarjimada bunaqa xatolar kechirilmaydi. Eng muhimi, bu tarjimada ayrim qiyin, izohlarsiz mutlaqo tushunarsiz joylarda, hatto bu joylar, iloji boricha, aniqlik bilan berilgan bo'lsa ham, hech qanday izohlarning yo'qligi ushbu tarjimaning to'liq bo'lishiga monelik qiladi. Tarjimonning o'zi buni juda yaxshi his qilgan va shuning uchun ham u o'quvchini arab tafsirchilariga murojaat qilishga chaqirgan, ammo ularning asarlarini asl nusxada o'qish imkoniyatiga ega kishilar juda kam» [2;62-b.]. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tarjimaning sifati Pyotr Postnikovning ishini shubha ostiga qo'ydi, ammo aynan shu asar rus jamiyati Qur'on mazmuni bilan tanishgan birinchi kitob bo'ldi. Arab yozuvi, adabiyoti, tarixi va dinining birinchi va eng muhim yodgorligi bo'lgan Qur'on musulmonlar hayotining qonunchilik hujjati ham bo'lgan. Arab tilida so'zlashuvchi dunyoning nafis adabiyoti, islom olami olimlari tomonidan amalga oshirilgan astronomik va matematik kashfiyotlar, geografik hisob-kitoblar va kashfiyotlar, ilm-fan va dinning rivojlanishi Yevropani larzaga soldi va islom diniga yanada katta qiziqish uyg'otdi. Qur'onga qiziqishning ortib borganligi sababi shunda.

Qur'on bo'yicha ikkinchi asar 1722-yilda Peterburg shahrida nashr etilgan bo'lib, bu Pyotr I ning Sharq bo'yicha maslahatchisi D.K.Kantemiring (1673–1723) tarjimasi edi. Uning «Sistema de religione et statu Imperii Turcici» («Turk diniy tuzumi») asari, asosan, Kantemirning o'zining «Curanus»i [3] lotincha matnidani tarjima qilingan. Bu asar Qur'on tarjimasi emas, balki musulmon dini va u bilan bog'liq bo'lgan barcha tushunchalarning bayoni edi. Musulmon e'tiqodi asoslarining bu bayoni ham diniy bag'rikenglikdan yiroq bo'lib, Kantemirning musulmon diniga nisbatan o'ta salbiy munosabati bilan ajralib turdi. O'ylaymizki, bunday salbiy munosabat ham o'sha davrning imperiyaparastlik dunyoqarashiga bo'lgan hurmat belgisidir, chunki o'sha paytda tarfakashlikda ayblanmaslik uchun boshqa diniy e'tiqodlarni qoralash kerak edi. Ilm-fan uchun ushbu tarjima, shubhasiz, rus jamiyatining muqaddas kitobga bo'lgan cheksiz e'tibori tufayli ahamiyatli bo'lib, jamiyatning Muqaddas kitob ma'nolari va tushunchalarini yanada aniqroq yetkazilishiga qiziqishi haqida so'zlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1787-yilda Rossiya Fanlar akademiyasi a'zosi M.I.Veryovkin (1732–1795) Qur'on matni tarjimasini o'z zimmasiga olganida Muqaddas kitob jamiyat diqqati markazida bo'lgan kuchli obyekt edi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu tarjima oldingilardan yaxshiroq emas edi va Qur'onning Dyu Rie (1647) tomonidan fransuz tiliga muvaffaqiyatsiz tarjimasidan o'girilgan bo'lib, keyinchalik, 18-asrda paydo bo'lgan yana ikkita ruscha tarjima uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Veryovkinning ushbu ishi natijasida «VI asrda o'zini Xudoning payg'ambarlarining oxirgisi va eng ulug'i deb tanitgan arab Muhammadning uni o'ziga osmondan nozil etilgan deb taqdim etgan Alkoran kitobi» [9] («Книга Алкоран, аврлянина Магомета, который в шестом столетии выдал оную за ниспосланную к нему с неба, себя же последним и величайшим из пророков Божьих») paydo bo'ldi. M.Veryovkin ushbu kitobida o'z zamonadoshlari va Yevropa sharqshunoslarini islom diniga nisbatan noxolis munosabatda bo'lganlikda jiddiy ayblab, tarjimada bunday turdagi kitoblarga nisbatan o'ylab topilgan to'qimalardan uzoqlashish zarur, deb hisoblaydi. M.Veryovkin tarjimasi rus madaniyati tarixidagi qiziqarli hodisa sifatida rus adabiyoti tarixida sezilarli siljishlarning boshlanishi bo'ldi va A.S.Pushkinning mashhur «Qur'onga taqlidlar» asari uchun manba bo'lib xizmat qildi. Muhim jihati shundaki, aynan shu tarjima Pushkinni muhim hayotiy haqiqatlarni oydinlashtirishga undagan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu «davr Qur'onning rus tiliga tarjimalarining boshqa versiyalariga juda boy» [6]. 1792-yilda shoir A.V.Kolmakovning «Алкоран Магомедов» [4] kitobi Peterburgda nashr etildi. Bu tarjima J.Salening Qur'onning ingliz tiliga yaxshi tarjimasidan qilingan. Ushbu tarjima o'zining yangiligi bilan ajralib turmas edi, unda cherkov-slavyan leksikasining o'zgacha ifodalanishi hollari (parafrazalari) ham mavjud bo'lib, o'sha davrning ko'plab tarjimalari singari, haqiqiy arabcha manbadan uzoq edi.

Undan besh yil oldin, 1787-yilda, Yekaterina II ning buyrug'i va ko'rsatmalariga binoan, «Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida birinchi marta Qur'onning arabcha matni nashr etildi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ishlar uchun islomning eng yaxshi xattotlaridan birining yozuvi aks etgan maxsus quyma arab

shrifti ishlab chiqarilgan” [9]. Muqaddas kitobga qiziqish shunchalik yuqori bo‘ldiki, olti yil ichida u besh marta qayta nashr etildi. Bibershteyn-Kazimirskiyning Qur‘onning arab tilidan fransuz tiliga tarjimasini K. Nikolaev tomonidan «Muhammadning Qur‘oni. Fransiyaning Forsdagi elchixonasi tarjimoni Kazimirskiy tomonidan arab tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan, eslatmalar va Muhammadning tarjimayi holi bilan» [9] asariga qayta ishlanib, XIX asrning ikkinchi yarmida uslubning qulayligi tufayli kitobxonlar diqqatini o‘ziga jalb eta boshladi va bir necha marotaba nashr etildi.

Tarjima borasida obro‘li mutaxassislardan bo‘lmagan kishilar tomonidan amalga oshirilgan va asl nusxadan qilinmagan bunday tarjimalar ilmiy ahamiyatga ega emas va “ma‘rifiy” nashrlar edi. Ammo aynan shu tarjimalar musulmonlar hayot tarzining me‘yorlari va qoidalari haqida asosiy bilim manbalari bo‘lib, muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tarjimalar rus jamiyatining musulmonlarning asosiy muqaddas qadriyati bo‘lmish Qur‘onga qiziqishini oshirdi va islom haqidagi bema‘ni tasavvurlardan uzoqlashib, uning g‘oyalarini to‘g‘ri talqin qilishga hissa qo‘shdi, musulmon Sharqi hayoti va madaniyatining xususiyatlarini axborotli tarzda ochib berdi.

19-asrda rus jamiyatida musulmonlarning Muqaddas kitobiga bo‘lgan qiziqish susaymaydi, aksincha, oshib boradi. Deyarli bir vaqtning o‘zida D.N.Boguslavskiy va G.S.Sablukov Qur‘on tarjimalarini birlamchi manba – arabcha asl nusxadan amalga oshirishga kirishadilar. Sharqona ma‘lumotga ega bo‘lgan, uzoq yillar Istanbulda xizmat qilgan iste‘dodli ofitser, general D.N.Boguslavskiy (1826–1893) Qur‘onning uslubi va tilini arab tilidan rus tiliga aniq ko‘chirishni birinchi bo‘lib o‘z zimmasiga oldi. Muqaddas kitobga qiziqish uning Kalugada uy qamog‘ida bo‘lgan Imom Shomilga nozir etib tayinlanganligi bilan bog‘liq edi. Imom bilan muloqotlar va islom dini haqidagi suhbatlar generalda Qur‘onni rus tiliga tarjima qilish istagini uyg‘otdi. Uning tarjimasini Qur‘onning asl tili – arab tilidan qilinganligi va tarjimadan tarjima emasligi bilan boshqalardan keskin farq qilar edi. Tilning yuksak badiiyligi, Qur‘onning eng mavhum joylarining mustaqil sharhlanishi va talqini Boguslavskiy tarjimasiga alohida jiddiylik baxsh etgan. Ammo, afsuski, D.Boguslavskiyning tarjimasini nashr etilmay qoldi va faqat 1995-yilda bu asar saqlanib qolgan qo‘lyozma bo‘yicha nashr etildi.

Muqaddas kitobning rus tiliga tarjimalari tarixida, umuman, qur‘onhunoslik tarixida iz qoldirgan yana bir tarjima qozonlik mashhur sharqshunos olim G.S.Sablukovnikidir (1804–1880). Tarjima 1878-yilda nashr etilgan va uning nashr etilishi o‘z davrining muhim ilmiy voqeasi bo‘ldi. Tarjimaning asl tildan qilinganligi va arab tilidagi matn tarjima matni bilan birga keltirilgani muhimligini hisobga olib, Kitobning nashri 1894 va 1907-yillarda takrorlangan. Mazkur tarjimon muqaddas kitobning asl matniga alohida e‘tibor bilan qaraydi, Qur‘onning botiniy ma‘nolarini chuqur tahlil qilib, «Qur‘onni o‘rganishga oid ikkita yirik: “Qur‘on tarjimasiga ilovalar” hamda musulmon ulamolari tomonidan Qur‘onga bag‘ishlangan tadqiqotlarning tizimli to‘plamini, shuningdek, Muqaddas kitobning ichki xususiyatlari tahlilini o‘z ichiga olgan kitobi «Muhammad diniy ta‘limotining qonun-qoidalari kitobi Qur‘on haqida ma‘lumot» [6] asarlarini tayyorladi. Ta‘kidlash joizki, qariyb bir asr davomida, ya‘ni, 1963-yilgacha ushbu tarjima Qur‘onning bevosita arab tilidan o‘girilgan yagona va muhim manbasi bo‘lib qoldi. Sablukov tarjimasini, qayta nashr etilganiga qaramay, darhol bibliografik noyoblikka aylandi va Qur‘onni karim muxlislarining keng doirasi uchun kam-yob bo‘lib qoldi.

Sharqshunoslik va arabshunoslikning rivojlanishi bilan Muqaddas bitik tarjimasidagi noaniqliklar ko‘proq sezila boshladi. Sablukov tarjimasini murakkab bo‘lib, Muqaddas bitikning ba‘zi qismlarida matnning haddan tashqari ko‘p arxaizmlar borligi, tushunchalarning noaniqligi tufayli tushunarsiz edi, bu ko‘plab iboralarning chalkashligiga olib keldi. Bundan tashqari, tarjima qilinayotgan matnning o‘ziga xosligi va chuqur ma‘noliligi tufayli Sablukovga ilohiy ma‘no ifodasiga ega joylarni uddalash qiyin bo‘ldi va tarjimon ularni Injilning o‘ziga xos iboralari yordamida yetkazishga harakat qiladi. Sablukov buni ehtiyotkorlik va andisha, yuksak darajada mas‘uliyat va hurmat bilan amalga oshiradi. Arabshunoslar buni kamchilik deb bilishgan va ushbu holat Qur‘on kabi madaniy yodgorlikning ichki mazmuni haqida birmuncha buzib ko‘rsatilgan tassavvurni beradi deb hisoblashgan.

Insoniyatning muqaddas kitoblari matni tili doimo allegorikligi va ramziyligi bilan ajralib turadi. Ulardagi ilohiy ma‘no chuqur ezoterik xususiyatga ega, ilohiy bilim – ma‘nolar teranligini anglashning boshlanishi bo‘lib, bashoratlar ajablanarli, ilmiylik esa nihoyatda hayratlanarlidir. Yuzaki talqindan uzoqlashib, o‘ziga xos ma‘noni anglay borib, odamlar siymolarning hozirgi davrga mos dekodlash va talqin qilishni talab qiladigan g‘ayrioddiy chuqurligi va yuksak metaforik tabiatini kashf etadilar.

Bu borada Qur‘onning muqaddas matnlari alohida qiyinchilik kasb etadi. Ko‘p asrlardavomida tadqiqotchilar shunchaki qayta bayon etish mavzular va timsollarning barcha ilohiylikini ochib bera olmasliklarini tushunib, Qur‘onga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishadi. Qur‘on ma‘nolarini ushbu kitob-

ni boshqa tillarga tarjima qilish orqali yetkazishga urinishlar shuning uchun ham qiyinki, uning chuqur ma'nolari asl tili – arab tilida ham to'liq ochib berilmagan. Tadqiqotchilarning ushbu kitobni to'g'ri tarjima qilishning aql bovar qilmaydigan daraja murakkabligi va imkonsizligi haqidagi bayonotlari shundan.

Qur'on suralari yozilgan til bizning davrimizda ham alohida qiziqish uyg'otadi. Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab bir yarim milliarddan ortiq musulmon Qur'onni asl tilda o'qish uchun arab tilini o'rganmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, klassik arab adabiy tili o'zining so'zlashuv variantlaridan farq qiladi, chunki turli davlatlarda yashovchi arablar o'rtasida, ayniqsa, og'zaki nutqda, har doim ham bir-birlarini tushunishmaydi, shuning uchun millatning chekka hududlardagi vakillari o'zaro muloqotning namunasi Qur'on bo'lgan mumtoz til me'yorida qilishni afzal ko'radilar. Bizning fikrimizcha, Qur'onning Sablukov tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi afzalligi shundaki, tarjimon o'sha davrdayoq, ilk bora, insoniyatning Buyuk kitoblari uzviy birligini, ilohiylikning Ko'hna Ahd, Yangi Ahd va Qur'onndagi bu birlashtiruvchi ibtidosini his qila olgan.

19-asrda Sharqni o'rganishni asrning bosh g'arbshunosi, rus faylasufi va vatanparvari P.Y.Chaadaev (1794–1856) davom ettirdi. U musulmon dinini «Ilohiy qonunning eng ajoyib ko'rinishlaridan biri» [1,48] deb ta'riflab, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ni «eng ulug' inson» deb ataydi. Aytish kerakki, Chaadaev Sharqning alohida o'rni, mavqeyini ko'ra oladi. Islomning Sharqdagi tarixiy missiyasi va roli haqida gapirar ekan, faylasuf bu madaniyatning qimmatli hissasini nafaqat Yevropa uchun eng buyuk bilimlarni yetkazish, balki nasroniylik bilan pinhoni va sirli tarzda aloqador bo'lgan eng buyuk ilohiy Vahiy dinini yaratish sifatida belgilaydi.

Slavyanofil A.S.Xomyakov (1804–1860) ham islomni xristianlikka yaqin din deb hisoblagan. U islom dinining tez yoyilishining asosiy sababini islom diniga e'tiqod qiluvchilarning yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlari deb bilgan. Buyuk rus faylasufi V.S.Solovyov (1853–1900) Qur'oni karim Sharq dunyoqarashida ulkan o'rin tutishini anglab, o'z ijodining ko'p sahifalarini ushbu ilohiy Vahiyi o'rganishga bag'ishlagan. Shuni tushunish kerakki, Solovyov davrida islom bo'yicha obyektiv tadqiqotlar deyarli yo'q edi, bu dinga nisbatan noxolis munosabat Yevropa yondashuvining normasi edi. Shunga qaramay, Solovyov islomni juda qadrlaydi: «Qur'onning ma'naviy suti hali ham insoniyat uchun zarurdir» [7;121-b.]. Solovyov o'zining mashhur «Muhammad: uning hayoti va diniy ta'limoti» (1896) asarida «islom, nasroniylik va iudaizm o'rtasidagi farqlar axloqiy emas, balki diniy va metafizik sohadadir, bu esa mazkur e'tiqodlar izdoshlari orasidagi o'zaro bir-birini anglash va ijobiy muloqot o'rnatish imkoniyatini nazarda tutadi» [7;212-b.].

20-asrda Qur'on arabshunos olimlarning diqqat markazida bo'lishda davom etdi. 1921-yilda filologiya fanlari doktori, Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi I.Y.Krachkovskiy (1883–1951) Qur'onni rus tiliga tarjima qilishni o'z zimmasiga oladi. Krachkovskiy arab tilshunosligi bo'yicha tan olingan nufuzli shaxs sifatida Qur'on tarjimalari bo'yicha mavjud adabiyotlarni tizimli tahlil qilishga kirishadi. Uning tarjimasining o'ziga xosligi shundaki, u Qur'onda musulmonlar hayotiga oid me'yor va qoidalarning diniy-falsafiy va qonunchilik manbasini emas, balki arab madaniyatining nasrda yozilgan adabiy yodgorligini ko'rgan. I.Y.Krachkovskiy Muqaddas bitik ustida ishlash metodikasini o'ziga xos tarzda hal etib, uni an'anaviy diniy talqinlardan ozod qiladi va unga o'z davri, o'z muhiti yodgorligi sifatida yondashadi. Muqaddas bitik matniga adabiy yodgorlik sifatida yondashish g'oyasi, albatta, o'sha davr talabidir. Bizningcha, Qur'onga bunday samarasiz yondashish tamoyillarini hozirda aniq belgilab bo'lmaydi. Ehtimol, buning zamirida partiy a'zosi bo'lgan akademikning o'z hayoti uchun qo'rquvi, mafkuraviy sabab tufayli Muqaddas bitik matniga boshqa yo'l va yondashuv bo'lmasligini anglagani yotgandir. Ammo, afsuski, bu mashaqqatli ishni I.Y.Krachkovskiy oxiriga yetkazolmadi. Materialni yakuniy muvofiqlashtirish va tahrirlash amalga oshirilmadi, ko'plab tarjima joylari satr osti yozuvi shaklida qoldi va ularga adabiy ishlov berilmadi. Olimning shogirdlari matnni chop etishga tayyorladilar, hatto tugallanmagan shaklda ham I.Krachkovskiy tarjimasi o'z davrining o'ta muhim voqeasi, insoniyatning ushbu muhim va qiziqarli obyekti ustida yanada chuqurroq ishlash uchun ishonchli asos bo'ldi.

XX asrning oxirgi choragida, (1985), Valeriya Mixaylovna Poroxova musulmonlarning Muqaddas bitiklari tarjimasi bilan shug'ullangan. Tarjima bilan tanish bo'lgan deyarli har bir kishi Moskva Lingvistika universiteti bitiruvchisining iste'dodi mahsuli bo'lmish mazkur ishining benazirligini ta'kidladi. 1991-yilda «Qur'on. Ma'nolar tarjimasi va izohlar» kitobi nashr etildi va u mamlakatda ham, xorijda ham bir necha marta nashr etildi. Islom dinini qabul qilgan Poroxova Qur'on materialini yuksak she'riy uslubdan foydalanган holda taqdim etishning o'ziga xos shaklini tanladi. Albatta, bunday yondashuv Poroxova matniga muqarrar adabiy tus beradi, lekin bu holat matnning o'ziga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, tarjimon

matni arabcha matn va unga batafsil eslatmalar bilan birga olib boradi. Qur'on matni tadqiqotchilari bu hol Qur'onning semantik segmentida o'z aksini topganligini ta'kidlaydilar. «Наука и религия» jurnali Poroxovaning murakkab adabiy ishiga taqrizni e'lon qiladi, unda «V.Poroxova ko'plab suralar poetikasini, ularning go'zalligi va nafisligini, baytning tantanavorligini, ularning mohiyatidan chetga chiqmagan holda rus tilida yetkazishga muvaffaq bo'lgan»ligini ta'kidlaydi [10;21-b.]. Taqrizda qayd etilishicha, Muqaddas bitik matni ustida ishlay turib, «V.Poroxova doimo Suriya, Saudiya Arabistoni, Misrdagi filologlar, tarixchilar, taniqli din arboblari bilan doim maslahatlashib turdi» [10;21-b.]. Poroxovaning o'zi tarjimasining so'zboshisida shunday yozadi: «Qur'on oyatlarining tarkibiy tuzilishi va ularning semantik ahamiyati shunchalik mukammal, o'ziga xos va ko'pqirrali bo'lib, uni so'zma-so'z tarjima qilishning iloji yo'q va faqat bu Muqaddas bitikning semantik talqini mumkin, deb an'anaviy tarzda qabul qilingan. Shu sababli ingliz akademik nashri uni «The Quran Interpreted» («Qur'on tafsiri») (London, Oksford universitet Press, 1969) nomlanishi bilan chop etdi hamda bunday nomlanishning to'g'riligini ta'kidlaydi va men quyida keltirilgan ruscha tarjima muallifi sifatida xuddi shu nuqtayi nazarni qo'llay turib, o'zim uchun «Qur'on. Ma'nolarning tarjimasini» sarlavhasni tanlayman».

Albatta, ko'plab odamlar Allohning Kalomini qaytadan anglab yetishga, minglab tadqiqotchilar Qur'on mazmunini she'riy tilda idrok etishga va yetkazishga harakat qilmoqda. Allohning payg'ambari Muhammad (s.a.v) tomonidan yigirma ikki yil davomida insoniyatga yetkazilgan musulmonlarning muqaddas kitobi «ma'naviy-axloqiy, diniy, fuqarolik, siyosiy va huquqiy me'yorlarning she'riy tuzilishi jihatidan betakror to'plami» [10;21-b.] bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kungacha Qur'onning rus tiliga tarjimalari bo'yicha zamonaviy adabiyotlarda T.A.Shumovskiy (1995), professor M.O.Osmonov (1999), B.Shidfar (2003) kabilarning ihlarini ko'rsatib o'tish kerak. Aytish joizki, bugungi kunda MDH mamlakatlari sharqshunos olimlari Qur'on tarjimasida ulkan rol o'ynadilar. Qur'onga oid tarjima qilingan adabiyotdagi qiziqarli hodisalar sifatida tojik filologi A.G.G'ofurov (2000), ozarbayjon islomshunosi E.Kuliyev (2002) kabilarning ishlarini, shuningdek, Ch.Guseynovning o'rta asr olimi Ibn Hasan Qur'oni matni tarjimasini (2000) aytilish mumkin.

**Xulosa.** Rus adabiyoti Qur'onga uning o'ziga xos murakkabligi tufayli juda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Qur'onning M.I.Veryovkin tomonidan birinchi tafsiri nashr etilganidan yuz yil o'tgachgina, rus she'riyatida A.Pushkinning «Qur'onga taqlid» to'plami yaratiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, rus shoirining qo'lida 1790-yilda Sankt-Peterburgda nashr etilgan Qur'on tarjimasini bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, rus adabiyotida Qur'onni o'zlashtirish va uning motivlari kabi o'ta muhim hodisa aynan shu davrdan boshlanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu ishlarning boshlanishi rus adabiyoti tarixida rus adabiyoti Qur'onning g'oyalari, axloqiy va badiiy qadriyatlarini orqali Sharq milliy (keng ma'noda) mentalitetining o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirib, anglay boshlashiga va shuning negizida madaniyatlararo muloqotga asos soldi. Shunisi muhimki, aynan Pushkin Sharq, xususan, jamiyatda islom haqidagi mustahkam o'rnatilgan an'analarni keskin o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. U o'z davrining buyuk shoiri va rus adabiyotining asoschisi sifatida mutlaqo o'zgacha, lekin bir-biriga nihoyatda zarur bo'lgan bu ikki madaniyat o'rtasida muloqot o'rnatilishning ahamiyati va zarurligini angelaydi. Bu chuqur falsafa rus adabiyotida musulmonlarning Muqaddas bitiklarining idrok etilishi va tasvirlanishida madaniy parametrlarning ikki barobar ortishiga olib keldi. Sharq madaniyatining identifikatsiya kodlari orqali rus adabiyoti Qur'on stilistikasining individual xususiyatlarini poetik jihatdan aniq aks ettirdi va shu bilan musulmon madaniyati xususiyatlarining chuqur mohiyatini ochib berdi. Aynan shu rus va Sharq adabiyotlarining boshqa madaniyat va e'tiqodlarni bag'rikenglik bilan hurmat qilishga asoslangan adabiy o'zaro ta'sirlarining katta va murakkab majmuasi debochasi bo'ldi. Rus madaniyatiga Qur'on motivlarini aks ettirgan holda, rus adabiyoti vakillari Sharq madaniyati timsollari dunyosi rus o'quvchisiga yaqinroq va tushunarli bo'lishiga hissa qo'shadilar va shu bilan turli madaniyatlar muloqotining yanada chuqurroq rivojlanishi uchun asos yaratdilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Chaadaev P. Falsafiy xatlar. M., 2002.
- (2). Gusterin P.V. Qur'on o'rganish ob'ekti sifatida. Saarbrücken, LAP LAMBERT Akademik nashriyoti, 2014.
- (3). Kantemir D.K. Sistima kitobi yoki Muhammadiy dinining holati. SPb., 1722; P.Gusterin. D.Kantemirning islomshunoslikka oid ishlari haqida. <https://centrasia.uz>.
- (4). Rus she'riyatida Qur'on obrazi yoki madaniyat dialogi haqida. <http://articlekz.com>
- (5). Kolmakov A.V. Al-Qur'on. СПб., 1792.
- (6). Sablukov G.S. Qur'on haqida ma'lumot. Muhammad aqidasi qonun-musbat kitobi. Qozon, 1884.
- (7). Solovyov V.S. Muhammad: uning hayoti va diniy ta'limotlari. M., «Bahodirlar», 2004.

(8). Qur'on. Imon Valeriya Poroxova tomonidan ma'no va sharhlar tarjimasini. M., 2001.

(9). Qur'onning rus tiliga tarjimasini: tarixi, hozirgi holati, rivojlanish istiqbollari. <http://elibrary.ru/inde/item.asp?id=25098723>

(10). Qur'onning rus tiliga tarjimasini haqida Poroxova I.V. "Fan va din", 7-son, 1989.

(11). [https://ru.wikisource.org/wiki/Индекс:Аль-Коран\\_аравлянина\\_Магомета\\_\(пер. М.Веревкина,1790\), часть 1-2.pdf](https://ru.wikisource.org/wiki/Индекс:Аль-Коран_аравлянина_Магомета_(пер. М.Веревкина,1790), часть 1-2.pdf).

**Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna ("Iqtisodiyot va pedagogika universiteti" NOTM, Andijon, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.)**

### **HALIMA AHMEDOVA SHE'RLARIDA LIRIK KECHINMANING BADIY IFODASI**

***Annatsiya.** Lirik kechinma badiiy asar asosini tashkil qilgan ekan, o'z navbatida, kechinmaning o'ziga xos tabiati mavjudligi haqida to'xtalish lozim. Bu o'ziga xoslik har bir ijodkor asarida alohida voqea bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.*

***Kalit so'zlar:** lirik kechinma, poetik obrazlar, ohang, peyzaj, badiiy tasvir va ifoda vositalari, poetik lahza, lirik qahramon.*

**Салохиддинова Нигорахан Иномжонова («Университет экономики и педагогики» НОТМ, Андижан, доктор философских наук по филологии, н.о. доцента)**

### **ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЛИРИЧЕСКОГО ОПЫТА В СТИХОТВОРЕНИЯХ ХАЛИМЫ АХМЕДОВОЙ**

***Аннотация.** Поскольку лирический опыт составляет основу художественного произведения, следует отметить, что он имеет свою природу. Уникальность каждого лирического опыта важна, поскольку работа каждого художника – это особенное событие.*

***Ключевые слова:** лирический опыт, поэтические образы, тон, пейзаж, художественный образ и выразительные средства, поэтический момент, лирический герой.*

**Salokhiddinova Nigorakhan Inomjonovna ("University of Economics and Pedogogy" NOTM, Andijan, Doctor of philosophy in philological sciences, associate professor, etc.)**

### **ARTISTIC EXPRESSION OF LYRICAL EXPERIENCE IN HALIMA AHMEDOVA'S POEMS**

***Annotation.** As the lyrical experience forms the basis of the artistic work, it should be noted that the experience has its own nature. This uniqueness is important because each artist's work is a special event.*

***Keywords:** lyrical experience, poetic images, tone, landscape, artistic image and means of expression, poetic moment, lyrical hero.*

**Kirish.** Bugungi kun she'riyatida insonni yangidan anglash, uning ichki dunyosidagi murakkab va yashirin tomonlarni qamrab olish jarayoni kuchaydi. Ruhiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni poetik sintez qilish she'riyatning asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Ijodkor dunyosida sodir bo'layotgan bunday o'zgarish, o'z navbatida, voqelikni badiiy mushohada qilish, so'ng uni hislar bilan to'yintirish barobarida, hissiy-ruhiy, ijtimoiy-falsafiy mushohadalar bilan ham boyib borishiga zamin hozirladi.

Albatta, adabiyotda bunday o'zgarishlarning bo'lishi "san'atkorning boy va murakkab zamonaviy voqelik dialektikasini, uning ichki mazmunini badiiy haqqoniy aks ettira olishi, hayotiy jarayon va voqeahodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borishi, ijtimoiy-axloqiy va falsafiy muammolarni ilg'or dunyoqarash asosida idrok qilishi..." bilan ham xarakterlanadi (4;3-b.).

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi davr o'zbek she'riyatida lirik kechinma poetik obrazlar, ohang, peyzaj, badiiy tasvir va ifoda vositalari orqali qabariq ifodalarda bayon qilinayotgan ekan, badiiy so'z imkoniyatlarining naqadar cheksiz ekanligi namoyon bo'lmoqda. B.Turdimov lirik kechinma tabiati xususida mulohaza yuritgan ekan, uning badiiy ifodasida, asosan, to'rt unurni ko'rsatadi": 1. She'ning asosiy poetik g'oyasini ifodalovchi biron-bir obraz orqali. 2. She'ning yetakchi poetik mazmunini belgilovchi kechinma obrazi orqali. 3. Poetik peyzaj yoxud poetik vaziyat tasviri orqali. 4. Poetik ohang, she'riy ritm, poetik ko'chmalar orqali [5;13-b.].

Badiiy asar tahlilida bu usullarning birini ikkinchisidan ustun qo'yib bo'lmaydi, balki ular bir-birini to'ldirgan holda, poetik mazmunni yanada sayqallaydi. Professor B.Sarimsoqov quyidagicha yozadi: "Hayotdagi xarakterli voqea va hodisalar ijodkorning diqqat-e'tiborini tortib, qalb-u shuuriga o'rnashib oladi, unga orom bermaydi, uning hayoti va faoliyatidagi o'y surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. San'atkorning qalбини zabt etgan, uning oromini, huzur-halovatini buzgan ruhiy holat lirik kechinma deb ataladi. Lirik kechinma ba'zan oniy ruhiy holat sifatida kechib, estetik qimmat kasb etuvchi mahsul beradi va yo'qoladi [2;85-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Lirik kechinma asarda obrazlar yordamida yanada konkretlashadi yoki kechinma ijodkor o'ylab topgan poetik obrazlarda mazmun-mohiyat kasb etadi. Ya'ni, kechinma obrazlarda o'zining badiiyatini, she'rni harakatlantiruvchi asos ekanligini ma'lum qiladi. Ijodkor o'zini o'rab turgan borliqni turli me'yor va ranglarda, turli ohanglarda idrok etadi. So'ng ko'rgan-kechirganlari, eshitib-uqqanlari, olamning go'zalligi yoxud ziddiyatlarini muhokama va tahlildan o'tkazadi. Uni ifodalashda munosib obrazlarni topishga harakat qiladi. So'ng bu obrazlar o'quvchida turfa xil hissiyot va taassurotlar uyg'otadi. Ana shu jarayonda kechinma o'z kuchini ko'rsatadi. Ya'ni, kitobxon poeziya ta'sirida ruhan eziladi yo quvonadi, lirik qahramon taqdiridan havotirga tushadi yoki qo'rqadi. Qo'yingki, insoniy hissiyotlari junbushga keladi.

Ayni shu hol, avvalo, ijodkorni yozishga undaydi. Ba'zan u o'z qalbi bilan, shuningdek, obyektiv olam bilan murosa qilolmayotgandek ko'rinadi. Buni o'zi yaratgan asarlari orqali o'quvchiga yetkazmoqqa intiladi. Ana o'sha jarayonda ijodkorning badiiy niyati to'la yetiladi va shunga mos konkret obraz tug'iladi. Bu obraz ijodkor dardini o'zida mujassamlashtirgani holda, oniy lahza bilan kitobxon qalbiga kirib bora oladi. Qachonki, shu tuyg'uni ifoda etish va tasvirlashda mos obrazning sifati berilar ekan, u o'zida qalb evrilishlarini akslantirmog'i lozim bo'ladi.

Hozirgi adabiy jarayonda qalam tebratayotgan ayol shoirlar uslubi davr she'riyatining taraqqiyot tamoyillariga xos ana shunday xususiyatlarni aks ettirishi bilan umumiylik kasb etadi. Shuningdek, ular lirik kechinma tasvirini berishdagi o'ziga xos individual uslubga ega bo'lib, bu albatta poetik obraz yaratishdagi o'ziga xoslik asosida oydinlashadi.

Hayot mohiyatini teran anglashga intilgan va uni ijodida badiiy ifodalay olgan, she'rlarining o'ziga xosligi, inja tuyg'ularga boyligi bilan bugungi davr o'zbek she'riyatida o'z o'rniga ega bo'lgan shoirlardan biri bu Halima Ahmedovadir. "Halima Ahmedova she'rlarida daf'atan sezilmaydigan, ko'ngil tubida ko'milib yotgan hissiyot, kechinmalar ifodalanadi, chuqur g'amginlik hissi, nola, iztiroblar aniq aks etadi. Ularni shoiraning hayosevar qalbi qandilidan taraladigan nur yoritib turadi. Ayni jihat Halima ijodining o'ziga xos xususiyati sanaladi" [6;179-b.].

**Tahlil va natijalar.** Dunyo yaralibdiki, muhabbat va nafrat tuyg'usi, hayot va o'lim mavzusi insoniyatning ko'hna va umumbashariy hamrohlaridan biri. Shoiraning "Yarim tunda qochdi yuragim..." deb boshlanuvchi she'ri ham azim ruhning silsilasida vujudga kelgan tug'yonlarning jarangi sifatida bo'y ko'rsatadi.

*Yarim tunda qochdi yuragim,  
Yarim tundan oshdi yuragim.  
Kimga sirin ochdi yuragim,  
Peshonamni o'qib ber, Tangri.  
Men yillarning ortidan ochman,  
O'lim uchun asralgan bojman,  
Na ixtiyor, na bir ilojman,  
Peshonamni o'qib ber, Tangri.*

Shoira ushbu she'rda Tangri va taqdiri azal qismati arxetipi asosida hayot – inson – o'lim mohiyatini anglashga intilgan inson kechinmalarini ifodalaydi. Ramzlar tilini to'g'ri anglasakkina, lirik qahramon holatini tushunamiz. Sirlarni ochayotgan yurak "yarim tundan"–qayg'u aralash shodlikdan yaralgan dunyoning qayg'usidan ketmoq, qochmoq istaydi. Lekin lirik qahramon bu kelishu ketishning mohiyatini anglab-anglamay, Tangriga qismatini bilmoq istagidan nola qiladi. Aslida, kelmoq-ketmoq oralig'idagi har bir jonning taqdiri azaldan hammaga ma'lum. Ammo umr sarhisobida omonatini Yaratganga qayta topshiruvchi bandaning bu vaqtda o'zida na ixtiyori, na iloji bo'ladi. Shunday esa-da, inson hayotga, yashashga to'y-maydi. Bu holat esa shoira tilidan *yillarga ochman* tarzida izohlanadi. She'rning poetik kashfiyoti ham shu o'rinda o'zining isbotini topgandek ko'rinadi.

*Nigoh dilning so'nggi qatidir,  
Azob ishqning mamlakatidir.  
Umr kimning yirtiq xatidir,  
Peshonamni o'qib ber, Tangri [1;101-b.].*

Halima Ahmedova she'riyatining yetakchi xususiyati shundaki, ishq uning ko'ngil olamida ilohiylashadi. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, shoira she'rlarida ilohiy kechinmalar yanada chuqurlashib borayotganligi uning Yaratganga – Tangriga qayta-qayta murojaat qilayotganida ko'rinadi. Aslida, "ilohiyot haqidagi kechinmalar bizning she'riyatimizda lirik qahramon tuyg'ularini uyg'otgan yangi hodisa bo'l-

may, u azaliy tuyg'ularning yangilanishi, yangi davrning yangi ijtimoiy voqelik zaminida qayta his etilishi-dir" [3;86-b.].

Insonning goh qahrli, goh samimiy nigohi uning ichki olamini, ko'nglini ko'rsatib turuvchi yo'ldir. Nigohlar orqali anglangan haqiqat sabab insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabati oydinlashadi. Azob esa lirik qahramon nazarida ishqning soyasida yuruvchi, undan ajralmaydigan bo'lak tasavvuridan butun bir mamlakatga qiyos etiladi. O'xshatish san'ati bilan ishq obrazi shoira nazdida azoblar mamlakatiga aylana-di. Umrni esa "yirtiq xat"ga taqqos etgan ijodkor bu o'rinda juda chiroyli ramzga murojaat etgan. "Yirtiq xat", demak, kimgadir jo'natilishi kerak bo'lgan maktub. Ya'ni, Allohning bandasiga tuhfa etgan, in'om qilgan umridir. Faqat u yirtiq. Bu yirtqlik falsafiy ma'no kasb etgan holda, bir kami to'lmagan dunyoga ishora hamdir. Umrning insonga xoh mukofot, xoh sinov tariqasida berilishidan qat'iy nazar, baribir, u odamzod uchun bir kam dunyoligicha qolaveradi. Chunki insonga hamisha "nimadir" yetishmaydi va u "nimanidir" izlash bilan go'zal umrining sarhisobini ham bilmay qoladi.

**Xulosa.** Shoiraning ifoda uslubi, ijodining mohiyati balandparvoz, jimjimador fikrlarga yo'g'rilma-ganligi bilan ajralib turadi. She'rlarini o'qir ekanmiz, o'zligini izlab yurgan, dunyo mohiyatini anglamoqqa uringan, kelish-u ketishning orasidagi mantiqqa o'zicha yechim topmoqqa tutingan "men"ni ko'ramiz. Shundanmi, uning she'rlari falsafiy ruhga yo'g'rilgan ramzlarga, timsollarga boy. Mavzu o'quvchiga tanish bo'lsa-da, she'rning mohiyatini yoritishda ijodiy fikrlash, teran mushohada yuritish, yangicha poetik kash-fi-yotlar orqali obraz yaratish uning ijodiga xos asosiy xususiyatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Ahmedova H. Erk darichasi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996, 101-bet.
- (2). Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent, "Fan", 2004, 85-bet.
- (3). Suvonova. J. Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy izlanishlar (Usmon Azim ijodi misolida). Fil.fan.nomz...diss., Toshkent, 2000, 86-bet.
- (4). Sharopov A. Olamlar ichra olamlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 3-bet.
- (5). Turdimov Sh. Lirik kechinma tabiati. Fil.fan.nom....diss. ...avtoref., Toshkent, 1999, 13-bet.
- (6). Ulug'ov A. Qalb qandili. Toshkent, "Akademnashr", 2013, 179-bet.

G'oyipova Sohiba Rustamboyevna (O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: sohiba.rustambekovna@mail.ru)

**INQIROZLI VAZIYATLARDA KOMMUNIKATSIYA MODELLARINING AYRIM JIHATLARI**

**Annotatsiya.** Inqiroz va imkoniyat o'rtasidagi dialektik munosabat zamonaviy gumanitar tadqiqotlarning muhim va bahsli mavzulardan biridir. Inqirozli vaziyatlar, bir tomondan, mavjud tizimlarning barqarorligiga destruktiv ta'sir ko'rsatsa, boshqa tomondan, yangi rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish uchun katalizator vazifasini o'tashi ham mumkin. Bu holat ko'plab nazariyotchi va tadqiqotchilar e'tiborini jalb etgan bo'lib, uning uchun turli konseptual modellari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** inqirozli kommunikatsiya nazariyasi, muammoli menejment nazariyasi, kommunikatsiya modellari, situatsion kommunikatsiya, korporativ apologiya modeli, manfaatlar muvozanati.

**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ КОММУНИКАТИВНЫХ МОДЕЛЕЙ В КРИЗИСНЫХ СИТУАЦИЯХ**

**Аннотация.** Диалектическая связь между кризисом и возможностью—одна из важных и спорных тем современных гуманитарных исследований. Кризисные ситуации, с одной стороны, оказывают деструктивное воздействие на устойчивость существующих систем, а с другой—могут выступать и в качестве катализаторов формирования новых направлений развития. Это обстоятельство привлекло внимание многих теоретиков и исследователей, для которых были предложены различные концептуальные модели.

**Ключевые слова:** теория кризисной коммуникации, теория проблемного управления, модели коммуникации, ситуационная коммуникация, модель корпоративной аполгии, баланс интересов.

**SOME ASPECTS OF COMMUNICATION MODELS IN CRISIS SITUATIONS**

**Annotation.** The dialectical relationship between crisis and opportunity is one of the important and controversial topics in modern humanitarian research. Crisis situations, on one hand, have a destructive impact on the stability of existing systems, while on the other hand, they can serve as catalysts for forming new directions of development. This phenomenon has attracted the attention of many theorists and researchers, and various conceptual models have been proposed for it.

**Key words:** crisis communication theory, problem management theory, communication models, situational communication, Corporate apology model, balance of interests.

**I. Kirish.** "Inqiroz" tushunchasining ilmiy-nazariy ta'rifi murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, u turli qarashlar doirasida o'ziga xos talqinlarga ega. Biroq umumlashtirilgan holda, inqiroz hodisasini quyidagicha ta'riflash mumkin: inqiroz – bu murakkab tizimning (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa) barqaror holatidan keskin chetga chiqishi bo'lib, u tizimning o'z-o'zini muvozanatda saqlash mexanizmlariga buzg'unchi ta'sir ko'rsatadi va uning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

**II. Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy jamiyatning murakkablashuvi va globallasuvi natijasida ijtimoiy muammolar soni ham ko'lam ortib bormoqda. Bu holat boshqaruv nazariyasi va amaliyotida yangi yondashuvlarni keltirib chiqardi va "muammoli menejment" konsepsiyasini vujudga keltirdi. U ijtimoiy muammolarni samarali hal etishga qaratilgan innovatsion boshqaruv paradigmasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jamoatchilik bilan aloqalar sohasining yetakchi nazariyotchilaridan biri Xovard Cheyz muammoli menejmentga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu strategik va siyosiy rejalashtirishning murakkab funksiyalarini kompleks tushunish, muvofiqlashtirish va boshqarish hamda jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi ko'p qirrali kompetensiyalarni integratsiyalash qobiliyatidir" [1;279].

Kommunikatsiyalar nazariyasida bu innovatsion yo'nalish shu qadar muhim ahamiyat kasb etmoqdaki, uning metodologik asoslari, konseptual apparati va amaliy vositalarini chuqur o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, muammoli menejment nazariyasi va amaliyotini yanada rivojlantirish uchun keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Zero, muammoli menejment jamoatchilik bilan aloqalar sohasi mutaxassislariga keng qamrovli imkoniyatlar taqdim etadi. Bu usullar yordamida mutaxassislar nafaqat har bir murakkab vaziyatni chuqur tahlil qila oladilar, balki uning kelib chiqish sabablarini ham atroflicha o'rgana oladilar.

**Tahlil va natijalar (Analys and results).** Inqirozli vaziyatlarda kommunikatsiya modellarning

o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida, ushbu sohaning nazariy asoslariga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjud. Inqirozli kommunikatsiya nazariyasi (Crisis Communication Theory) XX asrning so'nggi o'n yilliklaridan boshlab jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Ushbu nazariyaning yetakchi tadqiqotchilaridan Timoti Kumbs va Sherri Xolledey inqirozli kommunikatsiyaga quyidagicha ta'rif beradilar: "Bu inqiroz arafasida, inqiroz davomida va undan keyingi davrda axborot hamda bilimlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish jarayonidir"[2; 20]. Bu ta'rif inqirozli kommunikatsiyaning ko'p bosqichli va uzluksiz tabiatini ochib beradi.

Inqirozli kommunikatsiya nazariyasining taraqqiyoti bir qancha muhim omillar ta'sirida kechdi. Bu jarayonni quyidagi uch asosiy yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin:

1. Global miqyosdagi o'zgarishlar. Jahon miqyosida yuz bergan integratsiya jarayonlari va raqamli texnologiyalarning shiddatli rivoji inqirozli holatlarning yanada tezroq va kengroq yoyilishiga zamin yaratdi. Bu esa, o'z navbatida, inqirozlarga tezkor va samarali munosabat bildirish zaruratini keltirib chiqardi.

2. Ijtimoiy omillarning kuchayishi. Jamoatchilik fikrining korporativ faoliyatga ta'siri sezilarli darajada oshdi. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi tufayli tashkilotlar o'z faoliyatlari haqida yanada ochiqroq va shaffofroq bo'lishga majbur bo'ldilar.

3. Inqirozlarning transformatsiyasi. Zamonaviy inqirozlar tobora murakkablashib, ko'p qirrali tus olmoqda. Bu esa ularni boshqarishning an'anaviy usullari samaradorligini pasaytirib, yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Zamonaviy inqirozli kommunikatsiya nazariyasi bir qator konseptual modellarni o'z ichiga oladi. Jumladan, inqirozdagi situatsion kommunikatsiya nazariyasi (Situational Crisis Communication Theory) va imijni qayta tiklash nazariyasi (Image Restoration Theory) kabi yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nazariy modellar inqiroz vaziyatlarida samarali kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Inqirozli kommunikatsiya nazariyasining amaliy ahamiyati shundaki, u tashkilotlarga inqiroz vaziyatlarida strategik qarorlar qabul qilish, manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot o'rnatish va reputatsion xatarlarni minimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu nazariya doimiy ravishda yangi empirik ma'lumotlar asosida takomillashtirib borilmoqda, bu esa uning zamonaviy boshqaruv amaliyotiga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Situatsion inqirozli kommunikatsiya nazariyasi zamonaviy tashkiliy boshqaruv amaliyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi konseptual model sifatida e'tirof etiladi. Ushbu nazariya, dastlab, T.Kumbs tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u inqiroz vaziyatlarida kommunikatsiya strategiyasini tanlashga tizimli yondashuvni taklif etadi. SIKNning asosiy g'oyasi shundan iboratki, "tashkilotning inqiroz vaziyatidagi kommunikativ strategiyasi inqirozning o'ziga xos xususiyatlari va tashkilotning javobgarlik darajasiga mutanosib bo'lishi lozim" [3;163–176]. Bu nazariya to'rt asosiy tamoyilga tayanadi: inqiroz turining ahamiyati, tashkilotning javobgarlik darajasi, imijga ta'sir va moslashuvchan yondashuv. SIKN doirasida inqiroz vaziyatlari uch asosiy klasterga ajratiladi: qurbon klasteri (bunda muassasa inqirozning qurboni hisoblanadi. Masalan, tabiiy ofatlar), tasodifiy klaster (inqiroz muassasaning xatosi tufayli yuzaga keladi, ammo bu tasodif natijasi hisoblanadi) va oldini olish mumkin bo'lgan klasterlar (inqiroz muassasaning atay sodir etgan xatti-harakatlari hosilasi o'laroq yuzaga keladi).

Har bir klaster uchun T.Kumbs turli kommunikatsiya strategiyalarini taklif etadi, jumladan, inkor qilish, mas'uliyatni kamaytirish, muloqotni qayta qurish va kuchaytirish strategiyalari. SIKN modeli nazariy va amaliy nuqtayi nazaridan yuqori samaradorlikka ega bo'lishiga qaramay, har bir inqirozli vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini inobatga olgan holda, bu modelni qo'llashda individual yondashuv talab etiladi.

Korporativ apologiya modeli inqirozli kommunikatsiya nazariyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu model zamonaviy tashkilotlar, kompaniyalar, davlat idoralari faoliyatida yuzaga keladigan turli inqirozli vaziyatlarda samarali muloqot strategiyalarini ishlab chiqish va qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Korporativ apologiya modeli dastlab fransuz olimi U.Benua tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u tashkilotlarning obro'sini tiklash va saqlab qolish uchun qo'llaniladigan strategik yondashuvlarni tizimlashtiradi.

Benua tomonidan taklif etilgan model besh asosiy strategiyani o'z ichiga oladi. Har bir strategiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin:[4;197]

– *inkor qilish*. Bu strategiya doirasida tashkilot inqiroz holati yoki uning sabablarini to'liq rad etadi. Bu yondashuv tashkilotning aybi yo'qligini isbotlash imkoni mavjud bo'lgan holatlarda samarali bo'lishi mumkin. Inkor qilish strategiyasi ko'pincha tashkilot, haqiqatan ham, inqiroz bilan bog'liq bo'lmagan ho-

latlarda qo'llaniladi;

– *javobgarlikdan qochish*. Ushbu strategiya tashkilotning inqirozdagi rolini kamaytirishga qaratilgan. Bunda tashkilot o'z harakatlarini oqlash uchun turli sabablarni keltirishi mumkin, masalan, yetarli ma'lumotga ega bo'lmaganligi yoki boshqa omillar ta'siri. Javobgarlikdan qochish strategiyasi tashkilotning inqirozdagi ishtirokini to'liq inkor qilmasdan, uning rolini kamaytirishga qaratilgan. Bu strategiya inqiroz vaziyatida tashkilotning harakatlari tashqi omillar ta'sirida yuzaga kelgan hollarda samarali bo'lishi mumkin;

– *harakatning salbiy ta'sirini kamaytirish*. Bu strategiya doirasida tashkilot inqirozning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga harakat qiladi. Bunda tashkilot o'z harakatlarining ijobiy tomonlarini ta'kidlashi yoki zararning unchalik katta emasligini ko'rsatishga urinishi mumkin. Ushbu strategiya inqiroz oqibatlarini yumshatish va tashkilotning ijobiy tomonlarini ko'rsatish orqali jamoatchilik fikrini yaxshilashga qaratilgan. Bu yondashuv, ayniqsa, inqiroz oqibatlari kutilganidan kam bo'lgan hollarda samarali bo'lishi mumkin;

– *inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga harakat*. Ushbu strategiya tashkilotning inqiroz oqibatlarini tugatish va kelajakda shunga o'xshash holatlarning oldini olish uchun amalga oshiradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu strategiya doirasida tashkilot nafaqat mavjud muammolarni hal qilish, balki kelajakda shunga o'xshash vaziyatlarning oldini olish uchun chora-tadbirlar ko'radi;

– *xatolarni tan olish*. Bu strategiya doirasida tashkilot o'z xatosini tan oladi va kechirim so'raydi. Bu yondashuv tashkilotning ochiqligi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligini namoyish etadi. Xatolarni tan olish strategiyasi, ko'pincha, eng samarali hisoblanadi, chunki u tashkilotning ochiqligi namoyish etadi va jamoatchilik ishonchini tiklashga yordam beradi. Biroq bu strategiyani qo'llash huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Benuaning korporativ apologiya modeli inqirozli vaziyatlarda tashkilotlarga moslashuvchan va ko'p qirrali yondashuvni taklif etadi. Bu model har bir inqiroz vaziyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng maqbul strategiyani tanlash imkonini beradi. Model tashkilotlarga inqiroz vaziyatlarida tezkor va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi, bu esa tashkilot obro'sini saqlab qolish va tiklash uchun muhim ahamiyatga ega.

Inqirozli vaziyatlardagi kommunikatsiya nazariyasida J.Grunig va T.Xant tomonidan taklif etilgan ikki tomonlama simmetrik model alohida o'rin tutadi. Mualliflarning fikricha, "Bu model tashkilot va uning auditoriyasi o'rtasida o'zaro muloqotni va tushunish muhitini o'rnatishga qaratilgan. U inqiroz paytida ham samarali bo'lib, tashkilotga o'z auditoriyasi bilan konstruktiv munosabatlarni shakllantirishga imkon beradi"[5;22].

Ushbu model jamoatchilik bilan aloqalar (PR) sohasida muhim konseptual yondashuv hisoblanib, tashkilotlarning jamoatchilik bilan o'zaro aloqalariga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirdi. Ikki tomonlama simmetrik model PR amaliyotining to'rt modelidan biri sifatida taqdim etilgan bo'lib, u boshqa uch modeldan (matbuot agentligi modeli, jamoatchilikni xabardor qilish modeli va ikki tomonlama asimmetrik model) farq qiladi. Bu model PR faoliyatini yanada samarali va axloqiy jihatdan maqbullashtirishga qaratilgan. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Avvalo, o'zaro tushunish muhitini yaratishda model tashkilot va jamoatchilik o'rtasida o'zaro anglashuvni rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu jarayonda har ikki tomon bir-birining nuqtayi nazarini tinglash va o'zaro manfaatli yechimlarni topishga intiladi. O'zaro tushunish orqali tashkilot va jamoatchilik o'rtasida ishonch va hurmat muhiti shakllanadi[6;11–30].

Shuningdek, model ikki tomonlama muloqotni tashkil etish maqsadida nafaqat tashkilotdan jamoatchilikka, balki jamoatchilikdan tashkilotga yo'naltirilgan aloqani ham nazarda tutadi. Bu jarayonda axborot oqimi bir tomonlama emas, balki doimiy ravishda ikki yo'nalishda harakatlanadi. Tashkilot o'z xabarlarini yetkazish bilan birga, jamoatchilikning fikr-mulohazalarini ham tinglaydi va ularga javob beradi.

Uchinchidan, model manfaatlar muvozanatiga rioya qilishni shartlab qo'yadi. Bu yondashuv tashkilotning faqat o'z manfaatlarini ko'zlab emas, balki jamoatchilik manfaatlarini ham hisobga olgan holda faoliyat yuritishini nazarda tutadi. Natijada har ikki tomon uchun foydali bo'lgan yechimlar topiladi[7].

To'rtinchidan, ushbu konsepsiya davomli, uzoq muddatli aloqalarni shakllantirishga qaratilgan. Model qisqa muddatli natijalardan ko'ra, uzoq muddatli va barqaror munosabatlarni ustuvor deb biladi. Bu yondashuv tashkilotning jamoatchilik bilan ishonchli va mustahkam aloqalarini o'rnatishga yordam beradi.

Beshinchidan, model nafaqat jamoatchilikning, balki tashkilotning ham o'zgarishga tayyorligini taqozo etadi. Bu jarayonda tashkilot jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda, o'z faoliyatini o'zgartirishga tayyor bo'lishi kerak. Bu moslashuvchanlik tashkilotning jamiyat talablariga javob bera olish qobiliyatini

oshiradi.

Inqirozli vaziyatlarda ikki tomonlama simmetrik model tashkilotlarga jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning fikrlarini tinglash va tushunish hamda o'z faoliyatini mos ravishda moslashtirish imkonini beradi. Bu model inqiroz sharoitida tashkilotning nufuzini saqlab qolish va tiklashda muhim rol o'ynaydi. U tashkilotga inqiroz vaziyatida ochiq, shaffof va samimiy muloqot olib borish imkonini beradi, bu esa jamoatchilikning ishonchini qozonishga yordam beradi.

Yuqoridagilarini umumlashtirgan holda, inqirozli kommunikatsiya modellarining bir qator o'ziga xos jihatlari ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, inqiroz sharoitida jamoatchilik ishonchini saqlab qolish uchun tezkor va aniq axborot tarqatish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu yondashuv inqirozni boshqarishning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, tashkilot obro'sini asrashda muhim o'rin tutadi. Aks holda, kechikkan yoki noto'g'ri axborot jamoatchilik orasida ishonchsizlik va salbiy qarashlarni keltirib chiqarish ehtimoli yuqori. O'z vaqtida va to'g'ri ma'lumot berish orqali tashkilot nafaqat jamoatchilikni zarur axborot bilan ta'minlaydi, balki vaziyatni nazorat qila olishini ham ko'rsatadi.

Ikkinchidan, inqiroz davrida kommunikator hamdardlik va tushunishni namoyish etishi lozim. Bu jarayonda kommunikator vaziyatning nozikligini anglab, jamoatchilikning his-tuyg'ularini e'tiborga olishi shart. Hamdardlik bildirish orqali kommunikator insonlarning qiyinchiliklarini tushunishini ko'rsatadi va bu, o'z navbatida, ishonch muhitini yaratishga yordam beradi.

Uchinchidan, hozirgi raqamli texnologiyalar asrida inqiroz sharoiti vujudga kelganida turli aloqa vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul xilma-xil guruhlarga ta'sirchan tarzda murojaat qilish va axborotni keng yoyish imkonini yaratadi. Bunday ko'p qirrali yondashuv favqulodda vaziyatlarda ma'lumotni shiddat bilan yetkazishni kafolatlaydi va aholi bilan samarali muloqot o'rnatishga ko'maklashadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation).** Xulosa qilib aytish mumkinki, inqirozli kommunikatsiya usullari tashkilotlarga inqiroz oqibatlarini yumshatish, o'z nufuzini saqlab qolish va manfaatdor tomonlar bilan ishonchli munosabatlarni qayta tiklash imkonini beradi. Globallashtirish va ijtimoiy medianing o'sib borishi sharoitida inqirozli kommunikatsiya sohasidagi tadqiqotlar innovatsion yondashuv va texnologiyalar bilan boyib borishi, tabiiy. Yangi aloqa kanallarining paydo bo'lib, axborot tarqatish tezligi oshib borar ekan, tadqiqotchilar va amaliyotchilar ham ushbu o'zgarishlarga moslashish va ularni zamona-viy strategiyalarga integratsiya qilish yo'llarini izlamoqda. Natijada inqirozli kommunikatsiya sohasida yangi usullar va vositalarning yanada rivojlanishi kutilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- [1]. Паблик рилейшнз. Связи с общественностью в сфере бизнеса. М., Ассоциация авторов и издателей «Тандем», изд. «Экмос», 2001, с. 279.
- [2]. The handbook of crisis communication. Edited by W.Timothy Coombs and Sherry J.Holladay. Chichester. Blackwell Publishing Ltd. 2010, p. 20.
- [3]. Coombs T. Protecting Organization Reputations During a Crisis. The Development and Application of Situational Crisis Communication Theory. Corporate Reputation Review, 2007, 10(3), p. 163–176.
- [4]. William L. Benoit. Accounts, Excuses, and Apologies: A Theory of Image Restoration Strategies. N.Y., State University of New York Press, 1995, 197 p.
- [5]. Grunig, J., Hunt, T. Managing public relations. N.Y., Holt, Rinehart and Winston. 1984, p. 22.
- [6]. Grunig, J.E. Two-Way Symmetrical Public Relations: Past, Present, and Future. In R.L.Heath (Ed.), Handbook of Public Relations. L., Sage. 2001, p. 11–30.
- [7]. Dozier, D.M., Grunig, L.A., & Grunig, J.E. Manager's guide to excellence in public relations and communication management. Lawrence Erlbaum Associates, Inc, 1995.

Raxmatova Mexrinov Majitovna (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti, PhD)

**YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING MA’NAVİY YUKSAKLISHIDA TARBIYAVIY JARAYONLARNING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlar, ularning dunyoqarashi, tafakkuri, jamiyat hayotida faolligi, ma’naviy yuksakligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ta’lim va tarbiya jarayonining uzviyligi ekanligi ochib berilgan. Sohaga oid huquqiy asoslar xronologik tarzda keltirilgan. Mazkur maqolani yoritishda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan. Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi real muammolar sanab o‘tilgan. Shuningdek, muammolarni bartaraf etishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar keltirilgan. Bugungi kunda yoshlar tafakkuri, fe‘l-atvori, sa’y-harakatlarida yangi qadriyatlar qaror topmoqda. Yoshlarda hayotga munosabat tizimi o‘zgarib, ularning qiyofasida yangi jihatlar shakllana boshladi. Bu esa bevosita siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarida tub yangilanishlarga asos bo‘lishi xulosa qismida keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** yoshlar, ma’naviyat, ma’naviy salohiyat, siyosiy, ma’naviy ijtimoiylashuv, ta’lim va tarbiya jarayoni, fuqarolik pozitsiyasi, milliy va umumbashariy qadriyat, ilmiy salohiyat, tarixiy sharoit, an’anaviy jamiyat, strategiya, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy-siyosiy voqelikni idrok etish, yoshlarning ijtimoiy-madaniy, falsafiy-huquqiy qiyofasi, ijtimoiy ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.*

**ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ДУХОВНОМ РОСТЕ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

***Аннотация.** В данной статье выявлено, что целостность образовательно-воспитательного процесса является одним из основных факторов, обеспечивающих молодежь, мировоззрение, мышление, активность в жизни общества, духовное возвышение. Правовые основы отрасли представлены в хронологическом порядке. При освещении данной статьи использовались такие научные методы, как комплексный подход, систематизация, обобщение, аналогия. Перечислены реальные проблемы повышения духовного потенциала молодежи. Также перечислены задачи, которые следует выполнить для устранения неполадок. Сегодня в мышлении, характере и усилиях молодых людей утверждаются новые ценности. Изменилось отношение молодых людей к жизни, и в их образе стали формироваться новые аспекты. Это основа фундаментальных реформ в политической, экономической и духовной сферах, говорится в заключении.*

***Ключевые слова:** молодежь, духовность, духовный потенциал, политическая, духовная социализация, образовательно-воспитательный процесс, гражданская позиция, национально-универсальные ценности, научный потенциал, исторические условия, традиционное общество, стратегия, осознание национальной идентичности, восприятие исторической и политической действительности, молодежная социально-культурный, философско-правовой образ, общественное производство, социально-экономическая категория.*

**THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL PROCESSES IN THE SPIRITUAL GROWTH OF YOUNG PEOPLE OF NEW UZBEKISTAN**

***Annotation.** In this article, it is revealed that the integrity of the education and training process is one of the main factors that ensure youth, their worldview, thinking, activity in the life of society, and spiritual elevation. The legal bases of the field are presented chronologically. Scientific methods such as comprehensive approach, systematization, generalization, analogy were used in the coverage of this article. The real problems of raising the spiritual potential of young people are listed. Also, the tasks that should be performed to eliminate the problems are listed. Today, new values are being established in the thinking, character, and efforts of young people. Young people’s attitude towards life has changed, and new aspects have begun to form in their image. This is the basis for fundamental reforms in political, economic and spiritual spheres, it is stated in the conclusion.*

***Key words:** youth, spirituality, spiritual potential, political, spiritual socialization, education and upbringing process, citizenship position, national and universal value, scientific potential, historical conditions, traditional society, strategy, national identity awareness, perception of historical and political reality, social and cultural, philosophical and legal image, social production, socio-economic category.*

***Kirish.** O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatori strategik jihatdan mustahkam davlat qurish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Mamlata*

katimizda yoshlarning har tomonlama barkamol, bilimli, mehnatsevar, sog'lom va vatanparvar bo'lib o'sishlarida ularning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish muhimdir. Yoshlarimiz orasidan intiluvchan, ilm o'rganishga chanqoq, iqtidorli va iste'dodlilarning tarbiyalanishi, o'z orzulari yo'lida olg'a qadam tashlashi, izlanishi, ilmning yuksak cho'qqilarini egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yoshlar ma'naviy hayotida ta'lim va tarbiya jarayonining uzviy-ligi – taraqqiyot kafolatiga oid manbalar T.Alimardonovning “Jamiyatda siyosat va axloq muvozanati muammolari”, R.Galeevning “Духовный потенциал как объект исследования и управления”, O.Muxammadjanov, F.Muhiddinovaning “O'zbekistonda yoshlar huquqi: qonun va imtiyozlar”, I.Saifnazarovning “Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat”, M.Quronovning “Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim” asarlarida o'z ifodasini topgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani tayyorlashda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-qarori asosida qabul qilingan dasturning V bobidagi “Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot tadbirlari”ning [1] rejasi yoshlarimiz ma'naviy salohiyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan navbatdagi muhim qadam deyish mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimiz yoshlarining ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda nodavlat tuzilmalari tarmog'ining roli kengayib bormoqda. Mustaqillik yillarida “Bolalar”, “Sog'lom avlod uchun”, “El-yurt umidi” jamg'armalarining faoliyati keng yo'lga qo'yilib, “Yoshlar” teleradiokanali, “Yoshlar” markazlarining faoliyati tashkil etildi.

**Mazmuni.** Asrlar davomida yoshlarning ijtimoiy-madaniy, falsafiy-huquqiy qiyofasi ham jamiyat bilan bog'liq holda o'zgarimoqda. Agar bu mezonlar, fuqarolar, ayniqsa, yoshlar manfaatlaridan kelib chiqsa, siyosiy manfaatlar insonparvarlik xarakteriga ega bo'ladi. Bu masala mamlakatimizning demografik holati bilan ham bog'liqdir. Yoshlar ma'naviyatining siyosatda aks ettirilishi tor iqtisodiy darajadan, ya'ni yoshlarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganligini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadan siyosiy muammo darajasiga ko'tarildi. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki, g'oyaviy-mafkuraviy dunyoqarashning takomillashganligi, ularning siyosiy ong va madaniyati, eng avvalo, manfaat va qiziqishlari, qarashlari, intilishlarini namoyon etadigan ijtimoiy-madaniy, siyosiy qiyofasidagi o'zgarishlar mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omilga aylanadi.

I.Saifnazarov bu xususda “Biz umummilliy aspektdagi komillik tushunchasini umuminsoniy aspekt-dagi komillik tushunchasiga uyg'unlashtirib, chinakam zamonaviy, ma'rifiy insonni tarbiyalashga kirishdik”, deb ta'kidlaydi [2;16–17-b.].

Jamiyatning demokratlashuvi jarayonida yoshlar qobiliyati, cheksiz imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratildi. Hozirgi kunda yosh avlod o'zini erkin his etishi, mustaqil faoliyat ko'rsatishi, yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirishi, tom ma'noda o'zining taqdirini o'zi belgilashi lozimligini anglamoqda. Jamiyatning demokratlashuvi bilan uyg'unlikda yoshlarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy qiyofasining takomillashuvi mamlakatning yanada rivojlanishiga poydevor yaratadi hamda taraqqiyotning asosiy tayanchi vazifasini o'taydi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda yoshlarga oid kuchli davlat siyosatining ilg'or xalqaro andozalarga mos bo'lgan mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. Mazkur huquqiy asoslar, avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu sohaga oid 20 dan ortiq qonunlarda va bir qator qonun osti hujjatlarda o'z aksini topgan.

Tizimli ishlar natijasida 2008-yilda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni ushbu sohada normativ-huquqiy bazani xalqaro andozalarga moslashtirishga xizmat qildi. Bola huquqlari sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo'li bilan bolalarni, shu jumladan, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilishning amaldagi tizimi samaradorligini oshirish mazkur qonunning asosiy maqsadi etib belgilandi. Mazkur qonunda yoshlarning huquq va manfaatlarini barcha jabhalarda kafolatini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qatorida bolaning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilish, yoshlar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash kabi muhim vazifalar sifatida belgilandi. Bu borada 2010-yilda tatbiq etilgan “Barkamol avlod” davlat dasturi muhim ahamiyat kasb etdi. Bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni barkamol rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish mazkur hujjatning asosi hisoblanadi. Bunda xalqaro huquqiy hujjatlar va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, amaldagi hujjatlarga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritib yoshlarning ijtimoiy ta'minoti va mehnat qilish huquqini ta'minlashga e'tibor qaratildi.

O'quvchi va talaba-yoshlarga zamonaviy axborot texnologiyalari asosida axborot-kutubxona, internet xizmati ko'rsatishni yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-aprelda "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-289-qonuni qabul qilindi.

Huquqiy islohotlarning davomi sifatida "2016-yildan viloyat va tuman hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimi joriy qilindi" [3]. Shundan kelib chiqqan holda, "yoshlarga oid davlat siyosatining samradorligini oshirishda Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi tuzildi" [4].

Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi muammolarni yechishda quyidagi vazifalarni belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi:

- yosh avlod konsepsiyasi shakllanishining nazariy-metodik asoslarini aniqlash;
- O'zbekistonda yoshlarning jamiyat siyosiy hayotidagi o'rni va rolini prognozlash;
- yoshlar siyosati va yoshlar muammolarining o'zaro munosabati va mohiyatini ochish;
- yoshlar ijtimoiylashuvining hozirgi jarayondagi xususiyatlarini aniqlash va undagi an'anaviy hamda innovatsion shakllarning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlashga erishish;
- nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida yoshlar masalasiga berilayotgan e'tiborning o'rini alohida baholash;
- yoshlar siyosiy faolligining shart-sharoitlari, omillarini siyosiy institutlar xilma-xilligi bilan bog'liq holda asoslash;
- yoshlar o'rtasida ijtimoiy so'rovlar tashkil etish asosida ularning qiziqish va ehtiyojlarini o'rganish, siyosiy-ijtimoiy faollik darajalarini aniqlash, respublikamizda yoshlar siyosatining shakllanishi bosqichlarini tariximiz va jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlardagi yoshlar siyosati bilan taqqoslash orqali o'rganish;

▪ jamiyatimiz rivojlanishining bugungi bosqichida yoshlar siyosatini amalga oshirishda ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarni tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning istiqboli haqida nazariy tavsiyalar berish. Bu maqsadni amalga oshirishda yoshlarning siyosiy-ijtimoiy faollik darajasini, shuningdek, ularning muammolarini o'rganuvchi psixologik-diaagnostik markazni tashkil qilish va bu ishga tajribali, bilimli mutaxassislarni jalb etish.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"i, "Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi"ning hayotimizga tatbiq etilayotgani yoshlarimizning ta'lim tizimidagi barcha huquq va manfaatlarining himoyasiga xizmat qilmoqda.

Yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida, ya'ni, madaniyat unsurlarini o'zlashtirishida tashqi omillar (oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy va siyosiy institutlar, din, OAV va alohida siyosiy voqealar)ning ta'siri muhimligini qayd etib o'tish lozim. Ularning yoshlar tarbiyasiga ta'sir etishining bir nechta sabablari bor. Yoshlarning yosh xususiyati, ichki dunyosi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga kirishuvdagi layoqati, mavjud funksiyalarni bajara olish qobiliyati, shuningdek, tarixiy sharoit muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, an'anaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida oila va dinning ta'siri ko'proqdir. Zamonaviy demokratik davlatlarda ta'lim va kommunikativ tizimlarning ta'siri kuchlidir. Sababi, bunday davlatlarda yoshlarning intellektual salohiyati yuqoriligi tufayli, siyosat dunyosini yoshlar tomonidan individual tarzda idrok etish faol kechadi. Yoshlar ta'lim jarayoni natijasida to'plagan tajribasi asosida televideniya va boshqa OAV orqali tarqatilayotgan reklama, xabar va axborotlardan xabardor bo'lish mobaynida siyosiy jarayonlarda ishtirok etib boradi. Natijada yoshlarning siyosiy ong va madaniyati shakllanib, ularning siyosiy jarayondagi faolligi oshadi.

Siyosiy ijtimoiylashuv ikki bosqichdan iborat. Dastlabki ma'naviy ijtimoiylashuv – yoshlarning siyosiy kategoriyalarni anglash orqali siyosiy tizimda individual tanlov munosabatlarini shakllantirishdir. Amerikalik olimlar D.Iston va I.Denisonlarning fikricha, bu erda ijtimoiylashuv jarayonining to'rt jihatini farqlash lozimdir: yoshlarning siyosiy hayotdagi voqea-hodisalarni o'z ota-onalarining munosabatidan kelib chiqib, bevosita qabul qilishi orqali siyosiy tizimga munosabati yaxshilanadi. Mazkur siyosiy obrazlarni ideallashtirish natijasida yoshlarda siyosatga nisbatan barqaror munosabat shakllanib, ularda shakllantirilgan xususiyatlarning o'ziga xos institutsionallashuvi, siyosat to'g'risidagi fikrlarini kengaytirib, siyosiy jarayonlarda mustaqil ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Ma'naviy ijtimoiylashuvning ikkinchi bosqichi yoshlar faoliyati mobaynida qabul qilgan axborotlarni qayta ishlashi hamda har qanday guruh tomonidan ko'rsatilayotgan ta'sirga mustaqil individual mafkuraviy pozitsiyasini bayon qilishi, madaniy me'yor va an'analarni qayta baholashi bilan xarakterlanadi. Darhaqiqat, jamiyatda yoshlarning ma'naviy ijtimoiylashuviga to'g'ri yondashuv va munosabat ularning ijti-

moy-siyosiy faollashuvini ta'minlaydi. Binobarin, ma'naviy ijtimoiylashuv yoshlarning ma'naviy olamini shakllantirishning muhim shartidir.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda yoshlar tafakkuri, fe'l-atvori, sa'y-harakatlarida yangi qadriyatlar qaror topmoqda. Yoshlarda hayotga munosabat tizimi o'zgarib ularning qiyofasida yangi jihatlar shakllana boshladi. Bu esa bevosita siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda tub yangilanishlarga asos bo'lmoqda:

1. Yoshlarning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda olg'a intilishi, demokratik islohotlarning maqsad va mazmunini chuqur anglashi, yangi munosabatlarga qiziqishi, izlanishi, tarixiy-siyosiy tafakkurining shakllanishi, o'zligini tanishi, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi uchun harakat qilishi, o'zi va idrokiga ishonchining ortishi, o'z salohiyatini jamiyatning demokratlashuvi uchun sarflashga tayyor turishi, shaxs sifatida komillikka intilishi, o'z kamolotini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'lashi, bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etishi, hayotga ochiq nazar va sofdillik bilan qarashi ularning ijtimoiy-madaniy, ma'naviy qiyofasida demokratik islohotlarning ijobiy natijasi mavjudligini ko'rsatadi.

2. "Yoshlar orasida bir qolipga tushib qolish, hayotdan zerikish, boqimandalik, befarqlik, davlat hokimiyati boshqaruviga ishochsizlik, o'z huquq va erkinliklarini bilmasligi natijasida, o'z ijtimoiy holatidan noroziligi, "davlat inson uchun barcha sharoitni yaratib berishi lozim" degan fikrni ilgari suruvchi, boylik ortidan quvish oqibatida yengil daromad topishga ishtiyoqmandlik, o'z manfaatini ustun qo'yuvchi, ma'naviy qashshoq, faqat bugungi kun dardi bilan yashashi natijasida kelajagini tasavvur qila olmaslik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga loqaydlik kabi sotsial-madaniy, siyosiy-madaniy, siyosiy qiyofalarning tushkun kayfiyatlarini bartaraf etish lozim" [5;47-b.]. Bunday yoshlarning ijtimoiy-madaniy qiyofasini birdaniga o'zgartirib bo'lmaydi. Yoshlarning ijtimoiy-madaniy va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlarni bevosita milliy o'zlikni anglash, tarixiy-siyosiy voqelikni idrok etish orqali amalga oshirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Literatura/References):**

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-qarori //https://lex.uz/docs/4320700.

(2). Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. Toshkent, "Sharq", 2001, 16–17-betlar.

(3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrda "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2691-qarori //https://www.lex.uz/docs/3101493?ONDATE = 19.07.2017.

(4). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-sentabrda "Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi to'g'risidagi nizomni hamda Yoshlar masalalari bo'yicha hududiy idoralararo kengashlar to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 774-qarori //https://lex.uz/docs/-3367438

(5). Fazilova D. Yoshlarning sotsial-ma'naviy, siyosiy qiyofasi. "Jamiyat va boshqaruv", 2009, 1-son, 47-bet.

**Sapayev Umidbek Abdullayevich (Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD);**

**[umidbek.sapayev@inbox.ru](mailto:umidbek.sapayev@inbox.ru))**

#### **UNIVERSITETLARDA INNOVATSIYALARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada universitetlarda innovatsiyalarni shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, axborot texnologiyalarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdagi ijobiy va salbiy ta'sirlari, innovatsiyalarni yaratilish jarayoniga va uni amaliyotga joriy qilish bosqichlarida axborot xavfsizlik tushunchalarining ahamiyati to'g'risida qisqacha ilmiy tahlillar olib borilgan.*

***Kalit so'zlari:** axborot xavfsizligi, innovatsiya, ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyatga tayyorlash, ilmiy faoliyat.*

**Сапаев Умидбек Абдуллаевич (старший преподаватель Ургенчский государственный университет, д.ф.п.н. (PhD); [umidbek.sapayev@inbox.ru](mailto:umidbek.sapayev@inbox.ru))**

#### **ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИЙ В ВУЗАХ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА**

***Аннотация.** В данной статье дан краткий научный анализ факторов, влияющих на формирование инноваций в университетах, положительное и отрицательное влияние информационных технологий на проведение научных исследований, а также значение концепции информационной безопасности в процессе создания инноваций и ее реализации на практике. было проведено.*

***Ключевые слова:** информационная безопасность, инновации, научные исследования, инновационная деятельность, подготовка к инновационной деятельности, научная деятельность.*

Sapayev Umidbek Abdullayevich (senior lecturer of Urganch State University, PhD;  
[umidbek.sapayev@inbox.ru](mailto:umidbek.sapayev@inbox.ru))

## FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIONS IN UNIVERSITIES AND ITS SIGNIFICANCE IN THE LIFE OF SOCIETY

**Annotation.** *In this article, a brief scientific analysis of the factors influencing the formation of innovations in universities, the positive and negative effects of information technologies in conducting scientific research, and the importance of information security concepts in the process of innovation creation and its implementation in practice has been carried out.*

**Key words:** *information security, innovation, scientific research, innovative activity, preparation for innovative activity, scientific activity.*

**Kirish (Introduction).** Davlatimizning oxirgi yillarda amaliyotga joriy qilayotgan islohotlari natijasida, jamiyatimizning barcha sohalarida ijobiy tamonga o'zgarishlar kuzatilyapti. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz birorta sohaning rivojlanishi mumkin emas" [1;85-b.]. Hozirgi kunda O'zbekiston yoshlari zamonaviy sohalarida katta yutuqlarga erishishmoqda. Eldoshlarimizni dunyoqarashlari, tabiyat va jamiyat borasidagi ilmiy tushunchalari, intellektual saviyalari va innovatsiyalarga nisbatan munosabatlari kundan kunga ijobiy tamonga o'zgarib bormoqda. Yoshlarimizda juda katta va ulug'vor tariximizga bo'lgan hurmatning oshib borishi va dunyoda takrorlanmas madaniy va moddiy meroslarni asrab-avaylashga nisbatan jarayonlar rivojlanmoqda. Jamiyatimizda bo'layotgan yangicha o'zgarishlar va innovatsiyalarning sodir bo'lishi insonlarimiz ongida dunyoga yangicha qarashlarni shakllantirmoqda [2]. Jamiyatimizda innovatsion fikrlaydigan va innovatsiyalarga qiziqishi baland qatlamning shakllanishida universitet va institutlarning hissasi juda katta hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O.A.Latuxa iqtisodiy inqiroz va cheklangan byudjet sharoitida ham innovatsion dasturlarni amalga oshirish uchun universitetni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor kuchayishi munosabatlari to'g'risida ilmiy izlanishlarini olib bordi [3]. Muallif universitetlarda innovatsion rivojlanishning ikkita asosiy yondashuvini tahlil qiladi. Birinchidan, tadqiqot universitetlarida innovatsiyalarni yaratishni jadallashtirish, ikkinchidan, "yetakchi universitet" konsepsiyasini ishlab chiqish. Tadqiqotchi innovatsion rivojlanish omili sifatida oliy ta'limning qadriyatlarini asrab-avaylash zarurligini ta'kidlaydi.

"Tadqiqot universiteti" va "yetakchi universitet" konsepsiyasida quyidagi tartibda ularni uyg'unlashtirish zarurligi to'g'risida ta'kidlab:

- birinchidan, davlatning iqtisodiyotini va barqaror rivojlantirishning ustuvor strategiyalarini belgilash;

- ikkinchidan, davlatning dunyo reytinglarida belgilangan ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiluvchi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatlarini kuchaytirish;

- uchinchidan, davlatning barcha universitetlarini tahlil qilish va ilmiy innovatsion faoliyat jihatidan yetakchilarini aniqlash natijasida maqsadli moliyalashtirishni amalga oshirish.

Innovatsiyalarni shakllanish va yuzaga chiqishi jarayoniga axborot xavfsizligining ta'siri taraqqiyotining hozirgi bosqichining xarakterli belgilaridan biridir. Masalan, ilmiy faoliyatda yaratilayotgan innovatsiyalarni yoki qayta ishlanayotgan ma'lumotlarni raqobatchilarga tarqalib ketishi, ya'ni, ilmiy faoliyatning axborot xavfsizligi bilan bog'liq xavflarni hamda axborotlarni xavfsizligiga bo'lgan turli tahdidlarni vujudga kelish omillarini Y.M.Brumshtein ilmiy izlanishlarida o'rganib chiqdi [4].

U shuni ta'kidlaydiki, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarning universitet uchun "tijoriy ahamiyatga ega" ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan "axborot xavfini" aniqlash zarur deb hisoblaydi.

Axborot xavfsizligi, umuman, hududiy universitetlar uchun bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ilmiy faoliyat uchun muhim ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq oloymaslik;

- ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar, ilmiy hodimlar, talabalar bilan oliy o'quv yurtlari ma'muriyati xodimlarining harakatlarini muvofiqlashtirishning yomonligi va buning natijasida nazoratsiz ichki raqobatning paydo bo'lishi;

- ilmiy tadqiqot mavzulari, grantlar va boshqalar;

- ilmiy-amaliy ahamiyati past bo'lgan mavzularga ishlab chiqishda mablag'larni samarasiz sarflanishi;

- universitetlarda ilmiy ishlarning o'z vaqtida nashr etilmaganligi sababli ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'z o'rnini yo'qotish;

- universitetda o‘tkazilishi rejalashtirilganlar ilg‘or tadqiqot va ishlanmalar haqidagi ma’lumotlarning oliy o‘quv yurtlariga ruxsatsiz tarqalish;
- universitetda olib borilayotgan ilmiy faoliyat natijalarini “ilmiy obro‘si”ni pasaytiradigan ma’lumotlarni “tashviqot” qilinishi;
- hududiy oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari tomonidan plagiatning aniqlanishi;
- mintaqaviy universitetlarda ma’lumotlarni to‘plash va uzatish qiyinligi;
- mintaqaviy universitetlar tomonidan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mulk huquqidan foydalanishning murakkabligi.

Y.M.Brumshteynning ilmiy izlanishlarida universitetlarda olib borilayotgan ilmiy innovatsion faoliyatlarining natijalariga va raqobatli ilmiy faoliyatni ta’minlashga hamda uning samaradorligini oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri bu axborot xavflari deb xulasaga keladi. Shuning uchun ham talabalarining informatsion texnologiyalarni va kompyuter dasturlarini bilishi hamda ulardan samarali foydalanish malakalariga ega bo‘lishi, shuningdek, texnologik jarayonlarni boshqarish, ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni saqlash, uzatish, chop qilish, yangi texnika va texnologiyalarni yaratish jarayonlarida unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllangan bo‘lishi zarur hisoblaniladi [5;22-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotning metodologikasosini universitetlarda innovatsiyalarni shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar va uni jamiyat hayotidagi ahamiyatini ilmiy tahlil qilishning yangi mexanizmlarni shakllantirish va ularni amalga oshirishda qo‘llaniladigan metodlar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-metodologik tahlil, pedagogik kuzatuv, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, umumlashtirish kabi usullardan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** V.M.Volodin tomonidan olib borilgan ilmiy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, innovatsiyalarga yo‘naltirilgan universitetlarni davlatning milliy dasturlarini bajarishga integratsiyalanishi davlatning iqtisodiyotini ijobiy tomonga o‘zgarishi mumkinligi to‘g‘risida o‘zining ilmiy xulosalarini keltirib o‘tadi [6]. Shuningdek, hududiy joylashgan universitetlar o‘zi joylashgan hududning muammolarini o‘rganish va ularning innovatsion yechimlarini topish, mahalliy hududni rivojlanishiga xizmat qiluvchi innovatsion ishlanmalarni taklif qilishi va hududiy joylashgan ishlab chiqarish va texnik xizmat ko‘rsatish sektorlari bilan integratsiyalshgan holda hududning barcha sohalari bo‘yicha yuzaga kelgan masalalarni yechishni amalga oshirish zarur hisoblaniladi.

Ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish hamda pedagogik kuzatishlarimiz natijasida shu narsa aniqlandiki, texnika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi maxsus ilmiy jihatdan o‘rganilmagan. Lekin talaba-yoshlarda innovatsion fikrlash qobiliyatlarini ilmiy-metodik tamonlarini takomillashtirish, texnik yo‘nalishdagi fanlarini o‘qitish texnologiyalarini va usullarini yangilash, asosiy ta’limiy maqsad va yo‘nalishlarni aniqlash ishlari samarali ravishda yo‘lga qo‘yilmoqda. Hozirgi zamon talablariga, asosan, texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni innovatsion faoliyatga jalb qilish mexanizmlarini yaratish muhim sanaladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Individual yundashuvlar asossida ularning shaxsiy va kasbiy sifatlariga qarab o‘qituvchi va murabbiylar tomonidan ish faoliyatlarini amalga oshirishlariga yo‘llanmalar va tavsiyalar berish, davlatning muhim strategiyalariga asosan va jamiyatning kelajagi uchun zarur va yuksak darajada foyda keltiradigan malakalarni berish, jamiyatda unga nisbatan bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi, ish faoliyatining mazmun va mohiyatini, inson faoliyatidagi qanchalik ahamiyatli ekanligini tushuntirishi zarurdir. Talabalarga beriladigan kasbiy maslahatlar qanchalik to‘g‘ri bo‘lsa, talabalarda innovatsion faoliyatni shakllantirish shu darajada yuksaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Mirziyoev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” 1-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017, 592-bet.
- (2). Sapayev U.A. “Mechanisms of cultural innovation activity of students in higher educational institutions”, Research Article, Anglisticum Journal Impact Factor (IJLLIS), V. 10 (Issue:9). <https://doi.org/10.5281/zenodo.5585984>, September 2021. E-ISSN:1857-8189, p. 28–33.
- (3). Латуха О.А. Инновационная деятельность современного вуза. Вестник Новосибирского государственного педагогического университета, 2012, № 4, с. 44 – 51.
- (4). Брумштейн, Ю.М. Научная деятельность в региональных вузах: анализ вопросов информационной безопасности. Известия Волгоградского государственного технического университета, 2012, № 5, с. 113 – 120.
- (5). Aliyarov A.D. “Oliy ta’lim muassasalarida talabalarida ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirish”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss., Toshkent, 2020, 161-bet.

(6). Володин В.М. Некоторые аспекты современного видения инновационной работы в вузе. Известия высших учебных заведений, Поволжский регион, 2013, № 2, с. 155–163.

**Rahmonov Oydin Bahriddinovich (Navoiy shahridagi 18-umumta'lim maktabi direktori)**  
**TA'LIMNING PEDAGOGIK SHARTLARI ORQALI O'QUVCHILARNI 4K MODELI ORQALI**  
**SHAXSLARARO MULOQOTGA TAYYORLASH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxslararo munosabat madaniyatining falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari, milliy tarbiya asosida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish masalalari, o'quvchilarning shaxslararo muloqot ko'nikmalari jarayonida muloqot madaniyatining me'yor va qoidalari, o'quvchilar jamoasida shaxslararo muloqotlarni shakllantirish usullari, muloqotlarni shakllantirish mumkin bo'lgan pedagogik sharoitlar aniqlangan. Shuningdek, 4K tamoyili asosida shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, kommunikatsiya, milliy tarbiya, shaxslararo munosabat, kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya, shaxsiy pozitsiya.

**Рахмонов Ойдин Бахриддинович (директор общеобразовательной школы № 18 г. Навои)**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБУЧЕНИЯ, ПОДГОТОВКИ К МЕЖЛИЧНОСТНОМУ**  
**ОБЩЕНИЮ, ГДЕ СОБИРАЕТСЯ МОДЕЛЬ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ В ФОРМАТЕ 4К**

**Аннотация.** В данной статье определены философские, психолого-педагогические основы культуры межличностных отношений, вопросы формирования культуры межличностных отношений на основе национального воспитания, нормы и правила культуры общения в процессе межличностных коммуникативных навыков учащихся, методы формирования межличностных диалогов в коллективе учащихся, педагогические условия, при которых возможно формирование диалога. Также представлена информация о приоритетных направлениях развития навыков межличностного общения на основе принципа 4К.

**Ключевые слова:** коммуникация, национальное воспитание, межличностное отношение, критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникация, личностная позиция.

**Rakhmonov Oydin Bahriddinovich (Director of secondary school № 18 in Navoi)**  
**PEDAGOGICAL CONDITIONS OF LEARNING, PREPARATION FOR INTERPERSONAL**  
**COMMUNICATION, WHERE THE MODEL OF RESEARCHERS IN 4K FORMAT IS**  
**ASSEMBLED**

**Annotation.** This article defines the philosophical, psychological and pedagogical foundations of the culture of interpersonal relations, issues of forming a culture of interpersonal relations based on national education, norms and rules of communication culture in the process of interpersonal communication skills of students, methods of forming interpersonal dialogues in a group of students, pedagogical conditions under which it is possible to form a dialogue. Information is also provided on priority areas for the development of interpersonal communication skills based on the 4K principle.

**Keywords:** communication, communication, national education, interpersonal attitude, critical thinking, creativity, cooperation, communication, personal position.

**Kirish (Introduction).** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasida: "XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko'nikmalar, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish" masalalariga alohida e'tibor qaratish va "...darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganishi" zarurligini ta'kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o'qituvchilar majburiyatlari haqida "...bugun darsliklar o'zgaryapti. Shunga yarasha o'qituvchilar ham o'zgarishi kerak" [1], deb aytgan fikrlari 4K tamoyili asosida ingliz tilidan o'quvchilarning nutqiy qo'ilyatnini rivojlantirish jarayonini yana da kuchaytirishni talab qiladi. 2023-yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish ta'limni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkillashtiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Respublikamizda shaxslararo munosabat madaniyatining falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari, milliy tarbiya asosida shaxslararo munosabat


bat madaniyatini shakllantirish masalalari bo'yicha E.Y.Agzamova, Z.Azimova, M.Bekmurodov, M. Davletshin, E.G'oziyev, R.X.Dushanov, O.Musurmonova, S.Nishonov, M.Quronov, R.Safarova, Z. Saliyeva, A.Ochildiev, N.Safayev, Sh.Shodmonova, A.Xoliqov, F.Mirzayeva, U.Ibragimov, I.X.Kalonov, V.M.Karimova, L.Y.Olimov, B.N.Sirliyev, Y.A.Farfiev, F.A.Shigakova, S.X.Shomirzaev, M.S.Qodirov kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi pedagogik amaliyotda shu paytgacha o'spirinning ijtimoiy-psixologik moslashuvining ajralmas qismi sifatida shaxslararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi o'rganilmagan, bu esa ushbu turdagi ko'nikmalarni maqsadli rivojlantirish tizimining etishmasligiga olib keladi.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishidi [2]. Bu inson hayotining barcha jabhalarida ma'lim ahamiyatga ega. Odam qayerda muloqot qilishiga qarab, ikkita asosiy turni ajratish mumkin: rasmiy va norasmiy. Birinchisining asosiy farqi, odamni hukm qilishda cheklaydigan va kesib o'tib bo'lmaydigan ma'lum bir ramkani bildiradigan turli xil munosabatlarning mavjudligi [3].

O'quvchilarning shaxslararo muloqot ko'nikmalari jarayonida muloqot madaniyatining me'yor va qoidalariga amal qilish talab etiladi. Chukni mazkur jamiyatning ijtimoiy-madaniy, shaxsiy-tipologik xususiyatlari, umummadaniy munosabatlar, umuminsoniy qadriyatlar, taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklari bilan bog'liqlikda shaxslararo muloqot ham o'zgarishlarda sodir bo'ladi.

A.S.Zolotnyakova muloqotni nafaqat shaxsiy, balki amalga oshiriladigan ijtimoiy va shaxsga yo'naltirilgan jarayon sifatida tushundi munosabatlar, shuningdek, ijtimoiy me'yorlarga munosabat" [4] deb tushuntirib o'tgan. Ammo Shaxsning atrofdagilar bilan o'zaro muloqoti nafaqat ichki quvvatlarni rivojlantirishga, balki insonning fikri nuqtayi nazardan ham foydalanish imkonini berishi mumkin. Mazkur jarayonda shaxsning his-tuyg'ulari, fikrlarini o'zaro qiyoslashiga imkoniyat yaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)** Biz shaxslararo muloqot ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shaxslararo o'zaro ta'sirga hissa qo'shadigan ongli kommunikativ faoliyatning avtomatik ravishda bajariladigan komponentlari sifatida aniqlaymiz va ularning tuzilishiga shaxslararo muloqot mazmuniga ko'ra, ajratib o'tdik (1-rasm).



Muloqot jarayon sifatida quyidagi o'ziga xosliklarga ega: yaxlit, kooperativ faoliyat, informatsion aloqa, o'zaro ta'sir ko'rsatish, o'zaro munosabat, o'zaro bir-birini tushunish. Muloqot jarayonida har bir inson doimiy ravishda obyekt va subyekt rolini bajaradi. Subyekt sifatida u muloqot jarayonida boshqa kishilar haqida ma'lumotga ega bo'ladi, unga nisbatan ijobiy munosabat bildirishi yoki befarq bo'lishi mumkin. O'z navbatida, shaxs muloqot jarayonida bilish obyeksi sifatida xizmat qiladi.


Ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga qo'shilishi, ijtimoiy-madaniy, axloqiy-tipologik munosabatlari yordam beradi.

O'quvchilarning shaxslararo muloqot davomida umuminsoniy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, xalq an'analari orqali jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini o'rganadilar, shaxslararo o'zaro muloqot ko'nikmalari rivojlantiradi. Ushbu maqolada insoniyatning o'z tarixida to'plangan qadriyatlar to'plami, ta'lim mazmunining muloqot madaniyatga yo'naltirilganligi maktab o'quvchisini inson madaniyatining yaratuvchisi sifatida qarashga imkon beradi.

Tadqiqotimizda 4K tamoyili asosida ta'lim mazmunining asosini tashkil yetishi mumkin bo'lgan asosiy masalasi shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash orqali ushbu muammoni hal qilishga qisman yondashishga qo'yidagilar imkon berdi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ushbu maqolada subyektlarning manfaatlarini munosabatlarni tartibga solish masalalari bo'yicha muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning yangi pedagogik algoritmi sifatida o'rganish, ijtimoiy sheriklikning ilmiy tashkil

etilgan faoliyati tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qiladigan shaxsni shakllantirishga yordam berish uchun ishlab chiqish masalalariga qaratildi. O'quvchilar jamoasida shaxslararo muloqotlarni shakllantirish usullari quyidagilardan iborat (3-rasm).



**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** O'quvchilar jamoasida shaxslararo muloqotlarni shakllantirish mumkin bo'lgan pedagogik sharoitlar aniqlandi:

Umumta'lim maktab o'qituvchilarini o'quvchilar jamoasida shaxslararo muloqotlarni shakllantirish bo'yicha pedagogik ishlarga tayyorlash;

- o'quvchilarni o'qitish jarayonini faollashtirish;
- o'quvchilar jamoasida shaxslararo muloqotlarni shakllantirish usullaridan foydalanish.

O'quvchilar jamoasida shaxslararo muloqotlarni shakllantirish usullaridan foydalanish o'quvchilar o'rtasidagi muloqotlar va o'quvchilar jamoasining faoliyati sohasidagi eng tipik muammolarni hal qilishga yordam berdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). [https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak\\_440060](https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060).
- (2). [Muloqot – Vikipediya](#)
- (3). [New Message! \(women-community.com\)](#)
- (4). Золотнякова, А.С. Личность в структуре педагогического общения [текст]. Пособие по спецкурсу. Ростов н/Д, РГПИ, 2014, 80 с.

**Saburov Davronbek Bazarbaevich (Ajiniyoz nomidagi NDPI o'qituvchisi)**

### **XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI BOSHLANG'ISH SINFI O'QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mavzusi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyatini o'rganadi. Ushbu mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar o'quvchilarga ertaklar, xalq qissalari, maqollar, hikmatlar kabi xalq og'zaki ijodi namunalari tanqidiy tahlil qilishni o'rgatish, ularning mantiqiy fikrlash va argumentatsiya qobiliyatlarini oshirishni maqsad qilgan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, o'quvchilar, ertaklar, xalq og'zaki ijodi, muammolar yechimi, metodlar, baholash, yaxshilik, yomonlik, ayyorlik.

**Сабуров Давронбек Базарбаевич (преподаватель НГПИ имени Ажинияза**

### **ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА**

**Аннотация.** Тема формирования навыков критического мышления младших школьников средствами устного народного творчества исследует значение устного народного творчества в развитии мыслительных способностей учащихся. Исследования по этой теме направлены на обучение студентов критическому анализу образцов устного народного творчества, таких как сказки, народные сказки, пословицы, поговорки, а также на улучшение их навыков логического мышления и аргументации.

**Ключевые слова:** критическое мышление, учащиеся, сказки, фольклор, решение задач, методы, оценка, хорошо, плохо, хитро.

**Saburov D.B. (is a teacher of NSPI named after Azhiniyaz)**

## **FORMATION OF CRITICAL THINKING SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ORAL FOLK ART**

**Annotation.** *The topic of the formation of critical thinking skills of younger schoolchildren by means of oral folk art explores the importance of oral folk art in the development of students' thinking abilities. Research on this topic is aimed at teaching students the critical analysis of samples of oral folk art, such as fairy tales, folk tales, proverbs, proverbs, as well as improving their logical thinking and argumentation skills.*

**Key words:** *critical thinking, students, fairy tales, folklore, problem solving, methods, evaluation, good, bad, cunning.*

**Kirish (Introduction).** 2022-yil 29-dekabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasida: “XXI asr kishisi uchun eng zarur bo‘lgan “4K” ko‘nikmasi bo‘yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko‘nikmalar, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish” masalalariga alohida e‘tibor qaratish kerakligi [1] va “...darsliklar quruq ma‘lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganishi” zarurligini ta’kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o‘qituvchilar majburiyatlari haqida “...bugun darsliklar o‘zgaryapti. Shunga yarasha o‘qituvchilar ham o‘zgarishi kerak” [2], degan fikrlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-metodik va ilmiy-metodik ta’minotini mustahkamlash, ularni o‘qitishda didaktik imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy qilishni yanada kuchaytiradi. Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** “Tanqidiy fikrlash” tushunchasi XX asr o‘rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo‘lib tanqidiy fikrlash atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko‘ra, har bir tirik organizm muammolarni “hal qiluvchi” vazifasini bajargan. Atrofdagi ma‘lumotlar dunyo tirik organizmning ma‘nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi.


Tanqidiy fikrlash masalasi bo‘yicha ish olib borgan xorijiy va MDH davlatlaridan V.S.Bibler, B. Burshteyn, A.V.Brushlinskiy, M.Vertgeymer, D.V.Vilkeev, Dj.Gilford, N.G.Dayri, A.Z.Zak, G.I.Ibragimov, A.A.Ivin, Z.I.Kalmikova, F.Klike, I.Y.Lerner, A.N.Luk, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov, S.O. Rubinsheyn, B.M.Teplov, O.K.Tixomirov, I.Frolov, V.S.Shubinskiy E.D.Bono, J.Daniya, M.Lipman, D. Halpern, D.Klouzlar tadqiq etgan.

A.E.Petrovning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, bunda inson o‘z tafakkurini va uning to‘g‘riligini o‘rganadi. A.Veretennikova tanqidiy fikrlashni belgilashda, uni baholashni shakllantirishga qaratilgan ruhiy holatlar, xususiyatlar va jarayonlar tizimi sifatida taqdim qiladi [3]. Rivojlanuvchi ta’lim konsyepsiyasiga tayangan holda, A.V.Korjuyev, V.A.Popkovlar ta’lim berishni faqat ma‘lumot olishga tenglashtirish mumkin emas, degan fikrni bildiradi.


Tanqidiy fikrlash – bu o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini-o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini-o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini-o‘zi to‘g‘iraydigan fikrlash shakli. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me‘yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egotsentrizmi yengib o‘tishni talab qiladi. Egotsentrizm negizida insonning o‘z nuqtayi nazariga qarama-qarshi qarashlar mavjud bo‘lishi mumkinligini tan olmasligi, tushuna bilmasligi hodisasi yotadi. Shaxsda o‘ziga haddan ziyod ishonch ustuvorligi tufayli u boshqalarning ruhiy holatlari, baholash tizimini o‘zini bilan aynan bir xil deb tasavvur qiladi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bu muammolarni hal qilish uchun ta’lim metodikasini takomillashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va xalq og‘zaki ijodini o‘quv dasturiga samarali kiritish zarur bo‘ladi.

Agar ma'lumot tanqidiy fikrlash mezonlarga mos bo'lmasa, u o'z tarbiyaviy ma'nosini yo'qotadi. Ular quyidagi mezonlarda amalga oshiriladi (1-rasm).



Shuningdek, N.I.Merzshkinaning dissertatsiyasida ba'zi yomon hodisalar avvaliga “yaxshi” deb qabul qilinadi, yaxshi hodisalarga esa avvaliga “yomon” deb qaraladi. Demak, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi (2-rasm).



Amerikalik olim J.Dyuining fikricha: «O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalar gina, ularda tanqidiy fikrlash paydo boladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ish nuqtasi hisoplanagan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bulgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishni anglatadigan savoldir. Faqatgina muayan muammo bilan kurashib, o'quvshi haqiqattan ham fikrlaydi» [5].

Tanqidiy fikrlash asosida o'quvchilarda baholash, bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi. Tanqidiy usullarni ko'rib chiqishda quyidagilarni alohida takidlash mumkin:

- o'quvchining o'qituvchi va hamkorlar bilan konstruktiv hamkorlar tuzishga intilishi;
- o'z g'alar fikriga tayanmagan holda o'z fikrini bayon eta olishi, yani ma'lumotlarni bilishga intilishi;
- qo'yilgan vazifalarni no an'anaviy usullar bilan yechishi;
- etkazilayotgan ma'lumotlarni har tomonlama o'rganish, u yoki bu hodisalarni sabablarini aniqlash.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi:

1. Boshlang'ich sin o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik mazmunini ochib berish.

2. O'quv jarayonida xalq og'zaki ijodi misolida boshlag'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash darajasini baholash mezonlarini aniqlash; va ularning pedagogik usullari rivojlantirish.

3. Xalq og'zaki ijodi misolida o'quvchilarining tanqidiy tafakkurini samarali shakllantirish bo'yicha ish tizimini nazariy jihatdan asoslash va ularni eksperimental ravishda sinab ko'rish.

4. Olingan natijalarni hisobga olgan holda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning maqbul modeli variantini ishlab chiqish, asoslash va amaliyotga joriy etish.

5. Pedagogik jarayonda o'quvchilar ongining tanqidiyligi va o'zini tanqid qilishining roli va o'rmini tushunishga qaratiladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Xalq og‘zaki ijodining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli juda muhimdir. Biroq bu jarayonda bir nechta muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. Xalq og‘zaki ijodining o‘quv dasturiga qanday integratsiya qilinishi va uning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qanday ta‘sir ko‘rsatishini aniq belgilash muhimdir. O‘quvchilarga qanday materiallar taqdim etilishi, ularni qanday tanqidiy yondashuv bilan ishlashlari kerakligi haqida aniq ko‘rsatmalar mavjud bo‘lishi zarur.

2. O‘qituvchilarning xalq og‘zaki ijodini tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali ishlatish uchun kerakli bilim va tajribaga ega bo‘lishi kerak. Ba‘zi o‘qituvchilar ushbu materiallardan qanday foydalanishni bilmasliklari mumkin, bu esa ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Har bir bolada tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish qobiliyati va qiziqishi har xil bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning turli yosh guruhlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

4. Xalq og‘zaki ijodining zamonaviy pedagogik maqsadlarga mos ravishda tayyorlangan materiallari yetishmasligi mumkin. O‘quvchilarga qanday tarzda va qaysi darajada fikr yuritishni o‘rgatadigan, ular uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lgan materiallarni yaratish zarur.

5. Xalq og‘zaki ijodining madaniy kontekstini to‘g‘ri tushunmaslik va bu bilan bog‘liq axloqiy qadriyatlarni hisobga olmaslik, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Biz tadqiqot ishimiz jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘quv vazifalari tizimini qurishda qo‘yidagi xulosa va takliflarga keldik:

a) fikrlash madaniyati va tanqidiy fikrlash madaniyatini ongli ravishda rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni ko‘paytirish;

b) o‘quvchilarga dars jarayonida qarama-qarshiliklar, xatolar va kamchiliklarni bilish va ochib berishga yordam berish;

d) konstruktiv tanqidni to‘g‘ri qabul qilishga va unga ishbilarmonlik bilan javob berishga o‘rgatish;

e) faol hayotiy pozitsiyani rivojlantirish zarur.

f) o‘quv materialining mazmuniga, dars jihozlariga, o‘qitishning individual xususiyatlariga, o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘qituvchining tayyorgarlik darajasiga qarab qo‘llanish kerak.

g) o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash fazilatlarini rivojlantirishni ta‘minlash zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodini ta‘lim jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini kuchaytirish, madaniy merosni saqlash va ularni axloqiy qadriyatlarga tayyorlashda samarali usul bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). [kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida](http://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida)

(2). [uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak](http://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak) 440060.

(3). Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление: технология развития. Пособие для учителя, СПб., Альянс «Дельта», 2003.

(4). Piaget’s Stages of Cognitive Development“. 9-may 2019-yilda asl nusxadan [arxivlandi](#). Qaraldi: 3-aprel 2018-yil.

(5). Дьюди Дж. Индивидуализация обучения школьников. Чикаго, 1991, с. 19.

(6). 4-sinflar uchun darslik. 123-bet.

#### **Shukurullaeva Sarbinaz Alliyar qizi (Ajiniyoz nomidagi NDPI doktoranti) BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING 4K KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

**Аннотация.** Ushbu maqolada umumta‘lim maktab o‘quvchilarining 4K ko‘nikmalari (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari tahlilga olingan. Shuningdek, XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganish zarurligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini 4K ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodologiya va uni amalda qo‘llashga qaratilgan metodikalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Калит so‘zlar:** kommunikatsiya, kommunikativ ko‘nikma, perseptiv, refleksiv, adaptatsion-aloqa, hamkorlik, raqobat, o‘z-o‘zini boshqarish.

Шукирлаева Сарбиназ Аллияровна (докторант НГПИ имени Ажинияза)

## ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ 4К У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация.** В данной статье особое внимание уделено вопросам развития навыков (критического мышления, креативности, коллаборации, коммуникации), критического мышления, творческого подхода, командной работы и коммуникативных навыков у учащихся, выработанных по наиболее необходимому для человека XXI века навыку “4К”. В нем также представлена информация о необходимости изучения как жизненных навыков, необходимых в XXI веке, так и методики, направленной на формирование у младших школьников навыков 4К, и методики, направленные на их практическое применение.

**Ключевые слова:** коммуникативный, коммуникативный навык, перцептивный, рефлексивный, адаптивно-коммуникативный, кооперативный, конкурентный, самоконтроль.

Shukirlyayeva Sarbinaz Alliyarovna (is a doctoral student at NGPI named after Ajiniyaz)

## QUESTIONS OF THE FORMATION OF 4K SKILLS IN YOUNGER STUDENTS

**Annotation.** In this article, special attention is paid to the development of skills (critical thinking, creativity, collaboration, communication), critical thinking, creativity, teamwork and communication skills among students, developed according to the skill “4K”, which is most necessary for a person of the XXI century. It also provides information on the need to study both the life skills needed in the 21st century, as well as methods aimed at developing 4K skills in younger schoolchildren, and methods aimed at their practical application.

**Keywords:** communicative, communicative skill, perceptual, reflective, adaptive-communicative, cooperative, competitive, self-control.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kunda ta’lim jarayonida kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida boshlang’ich sinf o’quvchilarini hayotga tayyorlash ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan bo’lib qolmoqda. Boshlang’ich ta’limni samarali tashkil qilish uchun o’quvchilarni maktabga qiziqishida ta’limi jarayoniga o’tishi hamda bilimlarni egallashi ahamiyatli bo’lib bormoqda.

Mamlakatimizda ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, uzluksiz ta’lim tizimining har bir bo’g’inini samarali tashkil etish, umumiy o’rta ta’lim maktablari boshlang’ich ta’lim o’quvchilarining o’quv materiallarini o’zlashtirish jarayonida natijaviylikka erishish muhim hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to’g’ri yo’lidir!” mavzusidagi Xalqaro kongress markazida qo’yidagi fikrlarni: markazida qo’yidagi fikrlarni: “...darsliklar quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o’qish-yozishni o’rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o’quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo’lgan hayotiy ko’nikmalarni ham o’rganishi” zarurligini ta’kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o’qituvchilar majburiyatlari haqida fikrlari boshlang’ich sinf o’quvchilarining kommunikativ ko’nikmalarini rivojlantirish mas’uliyatni talab qiladi (2).

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ta’lim tizimining bugungi vazifasi o’quvchilarni ta’lim jarayonida fanlarni to’g’ri o’zlashtirish, uzluksiz samarali ta’lim olish uchun maqbul muhit, sharoit yaratishda ko’proq kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ahamiyatli bo’lmoqda.

Psixolog S.L.Rubenshteyn [5] psixologik tadqiqotlar tahlilida til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati bu ta’limda kommunikativ rivojlanish darajasiga bog’liqlik ekanligi haqida ta’kidlagan. I.Y.Zimnyayaning [6] fikricha, “Ta’limda kommunikativ rivojlanishi” iborasi quyidagilarni ta’minlaydi:

- lug’at hajmi;
- nutq qoidalarini egallashning mohirlik darajasi;
- fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati, suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko’rsatkichlariga ega bo’lgan og’zaki muloqot shakllarini bilish darajasi;
- ko’rsatkichi o’qish sur’ati bo’lgan o’qish texnologiyasi darajasi;
- yozma nutq ko’nikmalarini shakllantirish darajasi, kognitiv qiziqishlarini shakllantirish darajasi;
- umumiy dunyoqarash.

Tadqiqotchi G.Bekimbetova “zamonaviy tadqiqotchilarda 4K ko’nikmalarining o’quvchi faoliyatida qo’llashda quyidagi universal ko’nikmalar shakllanish holatlari ko’zatilish holati mavjud. Ular insonning shaxsiy fazilatlarini quyidagilar aks ettiradi: ularning odamlar bilan muloqot qilish; vaqtini samarali tashkil yetish; ijodiy fikrlash; qaror qabul qilish va mas’uliyatni o’z zimmasiga olish qobiliyati [7]. Demak, o’quvchilarda kommunikativ ko’nikmalarni shakllantirishda pragmatik yondashuvga asoslangan o’quv

topshiriqlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda o‘zaro muloqotni shakllantiruvchi samarali usullari kognitiv-pragmatik ta’limning afzalliklarini o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda quyidagi individual-psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish kerak:


- o‘quvchining shaxsiy-faollik darajasi;
- o‘quv topshiriqlari orqali mustaqil ishlay olish ko‘nikmalari;
- o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va uni rivojlantirish ko‘nikmalari;
- mavzuga doir o‘quv materiallari va topshiriqlarning izchilligi;
- shaxslararo muloqotda emotsional o‘ziga xosligi;

– mavzuga oid dalillarning boyligi, rang-barangligi va hayotiyligi; – insonlar bilan muzokora o‘tkazish, muammolar qo‘ya bilish imkoniyatlari hisobga olinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)** Demak, kognitiv-pragmatik yondashuvlar va 4K tamoyillari asosida o‘quvchilardagi kommunikativ jarayonni amalga oshirishga to‘rtta pragmatik qiyamatli mezonga alohida e’tibor qaratganimiz ma’qul. Bu esa o‘quvchilari dars jarayonida taqdim etilayotgan materialni quyidagicha ifodalay olishi:

- 1) o‘qiy olish;
- 2) o‘qiganini tushina olish;
- 3) o‘qigan va anglaganlarini to‘g‘ri (xatosiz) yoza olishi;
- 4) berilgan ma’lumotlarni tinglay olish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lmog‘i zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan «tarbiyaviy ta’lim», o‘quv masalalarida uchraydigan, shaxsiy va hayotiy ahamiyatli mazmunga ega bo‘lgan qiyinchiliklarni tizimli yengish orqali o‘quvchining mobilligini (irodasini) rivojlantirish sifatida tushuniladi. 4K tamoyili asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchining metodik boshqaruv funksiyasi ahamiyatli sanaladi. O‘qituvchi bo‘lsa unda uni boshqa, xususiy funksiyalar ko‘rinishida ifodalash mumkin. Tadqiqotda 4K tamoyili asosida o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini quyidagicha belgiladik (1-rasm).



O‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi darslari orqali kommunikativ ko‘nikmalarining yil davomida tashkil qilish holati o‘rganildi (1-jadval).

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari orqali kommunikativ ko‘nikmalari shakllantirishga qaratilgan metodlar	1-chorak davomida	2-chorak davomida	3-chorak davomida	yil davomida
Kommunikativ didaktik o‘yinlar	17%	25%	58%	85%
Rolli o‘yinlar	27%	35%	67%	89%
Aqliy hujum	18%	24%	45%	80%
Ertakni aytib berish ko‘nikmasi	45%	59%	70%	90%
Mozayka metodi orqali gapirish ko‘nikmasi	30%	40%	54%	87%
Rasmni hikoya qilish ko‘nikmasi	35%	54%	70%	87%

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Demak, kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi quyidagi talablarni bilishi kerak:

- umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti (umumiy qoidalar), shuningdek, o‘qitilayotgan predmet bo‘yicha o‘quv dasturi talablarini bilishi;

- umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni o‘rganishi; boshlang‘ich sinflarga tegishli o‘quv anjomlari bilan jihozlash bo‘yicha talablar bilan tanishishi;

▪ boshlang'ich ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va sifatini ta'minlashga doir tamoyillardan foydalanishi; boshlang'ich sinf o'quv predmetlarining mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslarini bilishi;

▪ boshlang'ich sinf o'quvchilarning umumiy va yosh psixologiyasini ajratishi;

▪ boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanishni;

▪ boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga tarbiyalashni;

▪ sinfdan tashqari darsdan tashqari darslarda kommunikativ jarayonni tashkil etish va o'tkazishga doir metodikalarni tashkil etish kerak.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa sifatida biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil fikrlash, vaziyatga mos jummalarni topish ko'nikma va malakasi rivojlanadi. O'quvchilarning turli xalqlar tomonidan yozilgan badiiy adabiyotlar, risolalar, ilmiy tadqiqot namunalari o'qishga va tarjima qilishga imkoniyat yaratiladi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagi kommunikativ xususiyatlar, shaxsiy fazilatlar shakllana boshlaydi:

- 1) nutq faoliyatini mikro va makrovaziyatlari bilan tanishish;
- 2) sinov va xatolar orqali o'rganishga imkon berish;
- 3) o'qituvchi va o'quvchilari o'rtasidagi bo'shliqni bartaraf etish;
- 4) o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchi o'rtasida muloqot qilish;
- 5) uyatchan, tortinchoq, ikkilanuvchi o'quvchilarning darsda faol qatnashishiga imkon berish;
- 6) o'quvchining ruhlantirish va ijodga yo'naltirish;
- 7) o'quvchiga muloqot jarayondagi to'siqlarni yengish;
- 8) o'quvchi uchun atrof-muhit hodisalarini kashf qilish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги фармони. <https://lex.uz>
- (2). <https://www.researchgate.net/publication/318097450> Predicting Real-orld Outcomes Critical Thinking Ability is a Better Predictor of Life Decisions than Intelligence
- (3). XXI asr o'quvchisi uchun zarur ko'nikmalarini o'rgatuvchi model – 4K haqida (kun.uz)
- (4). Сергей Леонидович Рубинштейн. Основы общей психологии (изд. 2-е, 1946 г.).
- (5). Зимняя, Ирина Алексеевна. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке [текст]. Москва, “Просвещение”, 1978, 159 с.: граф.; 21 см. (Пособие для учителей средней школы).
- (6). Bekimbetova G.R. Qoraqalpoq tili fanidan o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy ahamiyati//International journal of recentli scientific researcher's theory. International scientific journal. ResearchBib Imfact Factor: 7.1, V 2, Issue: 2, February, 2024. ISSN: 2992-8885. uzresearchers.com. P.185–190. (13.00.00; №14).

#### Muhammadiyeva Dinara (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti; [dinara@gmail.com](mailto:dinara@gmail.com); UO'K 159.9(575.1) **O'QUVCHILARDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda nostandart topshiriqlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari keng yoritilgan. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonida nostandart topshiriqlar o'quvchilarning intellektual salohiyatini kengaytirish va ularning fikrlash qobiliyatini yangicha yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiylik faqat noodatiy fikrlashni emas, balki yangi g'oyalarni ishlab chiqish, masalalarga o'ziga xos yechim topish va yangi holatlar-ni amaliyotga tatbiq etishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda muammoli vaziyatlarda tezkor va ijodiy yechimlarni topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada nostandart topshiriqlarning mazmuni, ularni ta'lim jarayonida qo'llashning samaradorligi hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy faoliyat, nostandart topshiriqlar, ta'lim, o'quvchi, ijodiy tafakkur, qobiliyatlarni rivojlantirish.

#### Мухаммадиева Динара (Термезского университета Экономики и сервиса; [dinara@gmail.com](mailto:dinara@gmail.com)) **ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НЕСТАНДАРТНЫХ ЗАДАЧ ПРИ РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** В данной статье широко освещены уникальные аспекты использования нестандартных заданий в развитии творческой активности учащихся. В процессе развития творческой

деятельности важное значение имеют нестандартные задания, расширяющие интеллектуальный потенциал учащихся и направляющие их мышление в новых направлениях. Креативность включает в себя не только нестандартное мышление, но и разработку новых идей, поиск уникальных решений проблем и применение новых ситуаций на практике. Эти задания служат развитию у учащихся навыков самостоятельного принятия решений, формированию у них способности находить быстрые и творческие решения в проблемных ситуациях. В статье анализируется содержание нестандартных заданий, эффективность их использования в учебном процессе, а также их роль в развитии творческих способностей учащихся.

**Ключевые слова:** творческая деятельность, нестандартные задания, обучение, ученик, творческое мышление, развитие способностей.

**Muhammadiyeva Dinara (Termiz University of Economics and Service; dinara@gmail.com)**  
**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF USING NON-STANDARD TASKS IN DEVELOPING  
CREATIVE ACTIVITY IN STUDENTS**

**Annotation.** In this article, the unique aspects of using non-standard tasks in the development of creative activity of students are widely covered. In the process of developing creative activity, non-standard tasks are important in expanding the intellectual potential of students and directing their thinking in new directions. Creativity includes not only unconventional thinking, but also the development of new ideas, finding unique solutions to problems, and applying new situations to practice. These tasks serve to develop students' independent decision-making skills, to form their ability to find quick and creative solutions in problem situations. The article analyzes the content of non-standard tasks, the effectiveness of their use in the educational process, and their role in the development of students' creative abilities.

**Key words:** creative activity, non-standard assignments, education, student, creative thinking, development of abilities.

**Kirish.** Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar badiiy ijod qilishga katta qiziqish bilan yondashadilar. Bunday faoliyat ularning shaxsiyatini erkin ifodalash va ochib berish uchun muhim vositadir. Barcha badiiy faoliyat bolalarning faol tasavvuri va ijodiy fikrlashiga asoslanadi, bu esa ularga dunyoni yangicha, noodatiy ko'rinishda ko'rish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayon tafakkur va xotirani rivojlantiradi, bolaning individual hayotiy tajribasini boyitib, tasavvur va ijodiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich maktab yoshi bolalar hayotidagi muhim o'zgarishlar davri bo'lib, bu, odatda, ularning 6–7 yoshdan 9–10 yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Ushbu davrda bolalarning jismoniy va psixofiziologik rivojlanishi sodir bo'lib, ular uchun tizimli ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Ijodiy qobiliyatlarni samarali rivojlantirish esa ta'lim jarayonida foydalaniladigan vazifalar mazmuniga bevosita bog'liqdir [1; 25–26-b.].

Boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ulardagi ijodiy topshiriqlar, ko'pincha, "shartli ijodiy" shaklda bo'lib, ularning mahsuli insholar, bayonotlar, rasmlar, hunarmandchilik kabi amaliy ishlar bilan cheklanadi. Ba'zi topshiriqlar bolalarning intuitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki bir nechta yechim topishga yo'naltirilgan ijodiy vazifalar amaldagi o'quv dasturlarida kamdan kam uchraydi.

Mavjud topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini faqat intuitiv usullar orqali rivojlantirishni ko'zda tutadi. Masalan, variantlarni sanash, morfologik tahlil yoki o'xshashlikni topish usullari faol qo'llaniladi. Shu bilan birga, modellashtirish, resursga yo'naltirilgan yondashuv va xayolni rivojlantirishning ayrim usullari mavjud bo'lsa-da, ular asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish dasturlarida yetarlicha yoritilmagan [2;69–70-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi kunda maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun evristik usullarni ijodkorlikning algoritmik usullari bilan birlashtirish zarur. Tadqiqotlar va adabiyotlarni tahlil qilish natijasida (G.S.Altshuller, V.A.Buxvalov, A.A.Gin, M.A.Danilov, A.M.Matyushkin va boshqalar) ijodiy vazifalarga qo'yiladigan asosiy talablar aniqlangan [3;25–26-b.].

- **Ochiqlik.** Muammoli vaziyat yoki qarama-qarshilikning mazmuni aniq ko'rsatilishi lozim.

- **Shartlarning tanlangan ijodiy usullarga muvofiqligi.** Topshiriq ijodiy yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini ta'minlashi kerak.

- **Turli xil yechimlarni topish imkoniyati.** O'quvchilar bir nechta alternativ yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

- **Hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olish.** Vazifalar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalar darajasiga mos bo'lishi lozim.

• **Yosh xususiyatlarini hisobga olish.** Topshiriqlar bolalarning yoshiga mos va ularga qiziqarli bo'lishi kerak.

Ushbu talablar ijodiy vazifalar samaradorligini oshirishga hamda o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Ijodiy vazifalar tizimini shakllantirishda quyidagi ikki muhim omil inobatga olinadi:

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy faoliyati, odatda, jamiyat tomonidan hal qilingan muammolar doirasida amalga oshiriladi.

2. Boshlang'ich maktab fanlari mazmunining ijodiy imkoniyatlari mavjudligi.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy pedagogik shartlar quyidagilardan iborat:

• faoliyat mohiyatini o'zgartirish. O'quvchilarning faoliyatini ijodiy fikrlash va ijodkorlikka yo'naltirish;

• ta'lim jarayonida xayrixohlik muhiti yaratish. O'quvchilar o'zlarini erkin va qulay his qiladigan ijobiy o'quv muhiti;

• jamoaning shakllanishi. O'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish orqali ijodiy muhitni rivojlantirish.

Badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil qilishda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir strategiyasini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, amalda odatda ikki xil strategiya qo'llaniladi:

1. Tashqi tomondan rivojlanish. Bu usulda shaxsning ichki dunyosiga tashqaridan aralashiladi. Unga tayyor usullar, faoliyat normalari va xatti-harakatlar tizimi yuklanadi.

2. Ichki tomondan rivojlanish. Ushbu yondashuv shaxsning faolligini, mustaqilligini va mas'uliyatini rag'batlantirishga asoslanadi. Shaxsning ichki imkoniyatlarini ochib berish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va unga hurmat ko'rsatish bu usulning asosiy jihatlaridir.

Ushbu yondashuvlar ijodiy faoliyatni samarali tashkil qilishda va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega [4;55–58-b.].

**Tahlil va natijalar.** Ijodkor shaxsning shakllanishi samarali ta'lim muhiti va demokratik muloqot uslubiga bog'liq. O'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, tajribasini, ehtiyojlari va imkoniyatlarini e'tiborga olishi muhim. Shuningdek, u baholashda ob'ektiv, o'quvchilar bilan muloqotda tashabbuskor va ko'p qirrali bo'lishi kerak. Eng samarali muloqot usuli o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasida ijodiy faoliyatga bo'lgan birgalikdagi ishtiyok asosida shakllanadi. Ushbu yondashuvning asosini o'qituvchining yuqori professionalligi tashkil etadi.

Ijodiy faoliyat faqat kommunikativ faoliyat natijasi emas, balki o'qituvchining pedagogik yondashuvi bilan ham bog'liq. Maktab o'quvchilarining badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy shart sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

• **qiziqishni rivojlantirish.** O'quvchilarning nostandart yechimlarga intilishlarini rag'batlantirish;

• **ijodiy muhit yaratish.** O'quvchilarda yangi va noodatiy narsalarni idrok qilish, ulardan foydalanish va amaliyotda qo'llashga tayyorlikni shakllantirish.

Ijodiy faoliyatni tashkil etishda muhim yondashuvlar. 1–4-sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, innovatsion metodlardan foydalanish, shuningdek, samarali muloqot usullari o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bu esa bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim siyosati insonning intellektual, ma'naviy va axloqiy jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. O'quvchilarning konstitutsiyaviy huquqlari – bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish va intellektual jihatdan rivojlanish huquqi – ushbu ta'lim tamoyillarining negizida turadi.

Ijodiy ta'limning ahamiyati. Bugungi kunda butun dunyoda zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ijodiylikni rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar bilan uyg'unlashmoqda. Jahon pedagogikasi va psixologiyasi ta'limotlariga ko'ra, ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ijodiy ta'lim ijtimoiy tajriba bilan o'quvchilarni qurollantirish va ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ijodiy ta'lim jarayoni o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'zlashtirish bilan birga, ularni jamiyatning tarbiyalash siyosatiga muvofiq shakllantiradi. Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodkorlikning psixologik asoslari: Ijodkorlik psixologiyasi ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi omillar – tasavvur, sezgi va fikrlashni o'rganadi. Fikrlash nafaqat bilish jarayoni, balki yangi qiymatlar yaratish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Ijodkorlik nafaqat bilim olish, balki ularni yangi yondashuvlar bilan rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. "Ijodkor" tushunchasi insonning faoliyatini va uning natijasida yaratilgan madaniy qadriyatlarni anglatadi.

Ijodiy faoliyat insonning yaratuvchan salohiyatini namoyon etadi va bu salohiyat kashfiyotlar, san'at asarlari, ilmiy ishlanmalar orqali madaniyatga qo'shiladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida ijodiy salohiyatni rag'batlantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifasidir. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash, ularni samarali rag'batlantirish va ijodiy muhit yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijodiy ta'lim nafaqat o'quvchilarning intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantiradi, balki ularni ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishiga zamin yaratadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, usullar va muhit bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi [5;36–37-b.].

Inson miyasining imkoniyatlari hali to'liq o'rganilmagan va insonning ijodiy faoliyatidagi individual imkoniyatlarni tasavvur qilish juda murakkab. Shu sababli insonning ijodiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun qanday atrof-muhit sharoitlari zarurligi haqidagi savol dolzarb hisoblanadi. Ehtimol, ajoyib ijodkorlar oddiy insonlar bo'lib, ular o'z miyasining imkoniyatlarini to'liq ishga solishni bilganlaridir.

**Fikrlash jarayoni** – bu fikrlarni shakllantirish orqali yangi g'oyalar va innovatsiyalarni kashf etishga olib keluvchi ijodiy jarayon. Psixologik nuqtayi nazardan, fikrlashdagi muhim tushunchalardan biri – **muammoli vaziyat**. Bu holat shaxsning mavjud tajribasida masalani hal qilish uchun yetarli ma'lumot bo'lmaganida paydo bo'ladi va ma'lum psixologik reaksiyalar, masalan, g'azab, tashvish yoki hayratlanish bilan birga kechadi. Mazkur muammoli vaziyat shaxsning izlanish faoliyatini faollashtiradi va uni noma'lum narsalarni qidirishga, yechim topishga yo'naltiradi. Bu jarayon yangi g'oyalar va gipotezalarni shakllantirishga olib keladi. Bunday fikrlash kundalik fikrlashdan farqlanadi. Masalan, tor joydan katta hajmdagi narsani o'tkazishga urinayotgan odam bir nechta gipoteza va yechim variantlarini sinab ko'rishi mumkin.

**Pedagogik ijod** – bu o'qituvchilik faoliyatida yangi kashfiyotlar yaratish jarayoni. Bu jarayon o'quv muammolarini hal qilishning noodatiy usullarini ishlab chiqishni yoki yangi sharoitlarda o'qitishning mavjud usullaridan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Pedagogik faoliyatda kutilmagan ijodiy qarorlarni topish va ularni muayyan vaziyatlarda qo'llash **improvizatsiya** deb ataladi. Improvizatsiya pedagogik jarayonda tez-tez uchraydigan va zaruriy hodisa hisoblanadi.

**Ijod hodisasi** XX asrning 60–80-yillarida keng o'rganila boshladi. Ushbu jarayonni falsafa, psixologiya va pedagogika sohalarida ko'plab olimlar o'rgangan, jumladan:

- **ayllasufllar:** M.S.Kagan, P.F.Kravchuk;

- **psixologlar:** D.B.Bogoyavlenskaya, L.B.Ermolaeva-Tomina, Y.N.Kulyutkin, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev;

- **pedagolgar:** L.A.Darinskaya, I.P.Volkov, E.A.Gluxovskaya, A.I.Sannikov.

Falsafiy nuqtai nazardan, **ijodkorlik** tushunchasi insonning iqtidorini, faollik qobiliyatini, oliy axloqiy ideallarni amalga oshirishga intilishini ifodalaydi. Ijodkorlik – bu faqat yangi narsalarni bilish jarayoni emas, balki ularni yaratish, qo'llash va amaliyotga tatbiq qilish.

Ijodkorlik psixologiyasi insonning ijodiy faolligini rag'batlantiruvchi omillarni o'rganadi, masalan:

- tasavvur; sezgi; fikrlash.

**Fikrlash** ijodkorlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat bilish, balki yangi narsalarni yaratish jarayonida ham o'z aksini topadi. "Ijodkor" tushunchasi inson faoliyati va uning natijasida yaratilgan madaniy qadriyatlarni anglatadi, bu esa, keyinchalik, madaniyat omiliga aylanadi.

Inson miyasining imkoniyatlarini to'liq o'rganish hali davom etayotgan bo'lsa-da, ijodiy jarayonlarni shakllantirish va rag'batlantirish uchun muayyan atrof-muhit sharoitlarini yaratish muhimdir. Pedagogik

ijod muammolarni noan'anaviy usullarda hal qilish, mavjud yondashuvlardan yangi sharoitlarda samarali foydalanish va innovatsion qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon insonning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [6;91–92-b.].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'limning ustuvor talablarini aniqlash va ushbu talablar asosida izlanishga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish hamda texnologik yondashuvlardan foydalanish talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilar bilim olish poydevorini tashkil etar ekan, aynan shu bosqichdan boshlab, ularning ijodiy faoliyatini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish va ijodiy faoliyatga yo'naltirish bugungi kunda ta'lim sohasining dolzarb masalalaridan biri sifatida kun tartibida turibdi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga tizimli va innovatsion yondashuv zarurdir [7;24–26-b.].

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-1059-qaror. Toshkent, 2019-yil 31-dekabr.
- [2]. Abduqodirov A.A., Otabayeva F.T. Ijodiy tasavvur va uni rivojlantirishning intellektual qurollari. Namanagan, 2013, 116-bet.
- [3]. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi, Toshkent, 2003, 280-bet.
- [4]. Ismailov M.K. "Empirical analysis of the development of sanogen thinking in students on the basis of a reflective approach". *Academica. An International Multidisciplinary Research Journal*, 2021, 11(2), p. 592–599.
- [5]. Ismailov M.K. "Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish komponentlari va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari". *Oriental Renaissance. Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2021, 1(8), p. 509–522.
- [6]. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi, Toshkent, TDPU, 2001.
- [7]. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2005, 391 bet.

**Xasanova Gulnaza Raxatjanovna (Urganch davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti;  
[gulnoza.khasanova3110@mail.ru](mailto:gulnoza.khasanova3110@mail.ru); <https://orcid.org/0009-0003-9595-6514>)**

#### TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI AMALGA OSHIRISHNING INNOVATSION TEKNOLOGIYALARI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari, talabalarning mustaqil ishlarini baholash mezonlari, mustaqil ishlarni amalga oshirish mexanizmlarini ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, portfolio, loyihalash, keys study, taqdimot tayyorlash.

#### ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ И КРИТЕРИИ ЕЕ ОЦЕНКИ

**Аннотация.** В данной статье предпринята попытка раскрыть методы использования инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях в условиях кредитно-модульной системы, критерии оценивания самостоятельной работы студентов, а также механизмы осуществления самостоятельной работы.

**Ключевые слова:** инновационные технологии, портфолио, проектирование, кейс-стади, подготовка презентации.

#### INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR CONDUCTING INDEPENDENT STUDENT WORK AND CRITERIA FOR THEIR EVALUATION

**Annotation.** This article aims to explore methods of utilizing new innovative technologies in organizing students' independent work within the credit-module system in higher education institutions. It also attempts to elucidate criteria for evaluating students' independent work and mechanisms for implementing such work.

**Keywords:** innovative technologies, portfolio, project design, case study, presentation preparation.

**Kirish.** Talabalarning mustaqil ishi o'qituvchi va talabalarning faol va o'zaro aloqasini nazarda tutgan holda turli xil innovatsion ta'lim texnologiyalari doirasida amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida talabalar uchun shaxsan ahamiyatli bo'lgan ta'lim natijalariga erishish imkonini beradi. Ta'limda shaxs faolligining muammosi ta'lim maqsadlariga erishish, shaxsning umumiy rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligining asosiy omili sifatida ta'limning eng muhim elementlari, mazmuni, shakllari va usullarini chuqur tushunishni talab etadi. Bu muammo ta'limni faollashtirishning strategik yo'nalishi o'quvchining ta'lim mohiyatini anglab yetishi, unga nafaqat aqliy, balki shaxsiy va ijtimoiy faollik darajasida jalb qilinishi uchun didaktik va psixologik shart-sharoitlar yaratishdan iborat ekanligini ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Turli ta'riflarni tahlil qilib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta'limning faol usullari bu talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning shunday yo'llariki, ular talabalarda materialni o'zlashtirish jarayonida ijodiy fikrlash va amaliy faoliyatni rag'batlantiradi.

Rus tadqiqotchilaridan A.M.Matyushkin o'z tadqiqotlarida talabalarning barcha o'quv faoliyati tur-larida faol usullardan foydalanish zarurligini asoslab berdi. U "subyekt-subyekt" munosabatlari doirasida o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonlari mohiyatini, ularning o'zaro faolligini eng to'liq aks ettiruvchi tushuncha sifatida dialogik muammoli ta'lim tushunchasini kiritdi [2]. Bunday holda o'qituvchining vazifasi talabalarning faol bilish jarayonida bilimlarni tizimli ravishda mustaqil o'zlashtirishini tashkil etishdan iborat.

Faol o'qitish usullarining asosini o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi, shuningdek, talabalarning o'zaro muloqoti tashkil etadi. Muloqot jarayonida kommunikativ ko'nikmalar, muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyati rivojlanadi, talabalarning nutqi boyiydi. Bu o'qitish usullari talabalarni mustaqil bilim olish faoliyatiga jalb qilishga, o'quv vazifalarini yechishga shaxsiy qiziqish uyg'otishga va talabalarning olgan bilim-larini amalda qo'llash imkoniyatlarini rag'batlantirishga qaratilgan. Bunday o'quv mashg'ulotlarida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda nutq, xotira, tasavvur va boshqa barcha ruhiy jarayonlarning ishti-rok etishi muhim hisoblanadi.

A.M.Smolkin tomonidan taklif etilgan faol o'qitish usullarining tasnifi eng ko'p qo'llaniladi [4]. Bu tasnifda faol o'qitishning imitatsion usullari ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bunda o'quv-bilish faoliyati kasbiy faoliyatni taqlid qilishga asoslanadi, qolgan barcha usullar esa imitatsion bo'lmagan usullarga kiritiladi. Bunda bilish faoliyatini faollashtirish ma'ruza mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Imitatsion usullar o'yinli va o'yinsiz usullarga bo'linadi. O'yinlarga ishbilarmonlik o'yinlarini o'tkazish, o'yinlarni loyihalash va boshqalar, o'yinsizlarga esa aniq vaziyatlarni tahlil qilish, vaziyatli masalalarni hal qilish va boshqalar kira-di.

**Metodologiya.** O'tgan asrning yigirmanchi yillaridan boshlangan keys-usul ta'limda juda muvaffaqiyatli imitatsion usul hisoblanadi. Zamonaviy pedagogikada uni aniq vaziyatlarni tahlil qilish usuli deb atash mumkin. Uning mohiyati shundan iboratki, ta'limni tashkil etish uchun talabalarga idrok etish taklif qilinadigan aniq vaziyatlarning tavsiflari (inglizcha case holat, vaziyat)dan foydalaniladi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan vaziyatlarning tavsifi bir vaqtning o'zida nafaqat biron-bir amaliy muammoni aks ettiradi, balki aniq yechimga ega bo'lmagan ushbu muammoni hal qilishda o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ma'lum bilimlar majmuasini ham aktuallashtiradi.

O'qitishning interfaol usuli bo'lgan keys metodi talabalar tomonidan ijobiy munosabatga ega bo'lib, ular unda tashabbus ko'rsatish, nazariy qoidalarni o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni egallashda mustaqillikni his qilish imkoniyatini ko'radilar. Muhimi shundaki, vaziyatlarni tahlil qilish talabalarning professi-onallashuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning o'sishiga yordam beradi, o'qishga qiziqishni shakllantiradi va motivatsiyasini oshiradi [3].

Keys-metod o'qituvchining fikrlash tarzi, uning boshqacha fikrlash va harakat qilish, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beruvchi o'ziga xos paradigmasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunga o'quv jarayonini keng demokratlashtirish va modernizatsiyalash, o'qituvchilarni erkinlashtirish, ularda ilg'or tafakkur tarzini, pedagogik faoliyat etikasi va motivatsiyasini shakllantirish ham yordam beradi. Keys-dagi harakatlar yo tavsifda beriladi, shunda ularni anglash talab etiladi (oqibat, samaradorlik) yoki ular mu-ammoni hal qilish usuli sifatida taklif qilinishi kerak. Ammo har qanday holatda ham amaliy harakat mode-lini ishlab chiqish ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida namo-yon bo'ladi.

Keysning harakati klassik hikoya qonunlari bo'yicha rivojlanishi kerak: ekspozitsiyaga ega bo'lishi, yechimga ega bo'lishi, bosh qahramonlarga hamdardlik hissini uyg'otishi kerak. Muammo tushunarli, tala-balarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lishi kerak. Keysda keltirilgan muammoni muhoka-ma qilishga o'qituvchi rahbarlik qiladi [1].

Keys usulning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- talabalarni faollashtirish va o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini oshirish;
- turli kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini egallash;
- axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini, shu jumladan, vaziyatni aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- qarorlarni modellashtirish, turli harakatlar rejalarini taqdim etish;
- vaziyatni jamoaviy tahlil qilish asosida eng samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'z pozitsiyasini og'zaki va yozma shaklda aniq va ravshan bayon etish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- turli nuqtayi nazarlarni tanqidiy baholash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini egallash.

Baholash vositasi sifatidagi keys tuzilmasi quyidagicha:

- dastur va o'quv mashg'uloti mavzusi, muammolar, savollar, topshiriqlarni taqdim etish;
- amaliy vaziyatlarning batafsil tavsifi;
- yondash faktlar, qoidalar, variantlar, muqobilalar;
- o'quv-uslubiy ta'minot;
- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar;
- ishlarni bosqichlar bo'yicha baholash mezonlari.

Keyslarni tuzish va yechish bu vaziyatli masalalarni qo'yish yoki yechish doirasida ma'lumotlarni tizimlashtirish bo'yicha talabalarning mustaqil ish turi hisoblanadi.

Vaziyatli vazifalarni hal qilish ularni yaratishga qaraganda biroz kamroq murakkab harakatdir. Ikkala holatda ham muammoni mustaqil izlash va uning yechimini topish talab etiladi. Mustaqil ishning bunday turi tafakkurni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, faol izlanish va muammolarni mustaqil hal qilish davomida olingan bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday bilimlar ancha mustahkam, ular talabaga, keyinchalik, kasbiy faoliyatda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan standart va nostandart vazifalarni ko'rish, qo'yish va hal qilish imkonini beradi.

Vaziyatli masalalarni yechishda muammoli savollar tizimini o'ylar ekan, talaba mavjud berilgan bazaga tayanishi kerak, lekin mavzu bo'yicha oldingi topshiriqlarda berilgan savollarni takrorlamalik muhim. Muammoli savollar aqliy qiyinchiliklarni aks ettirishi va maqsadga yo'naltirilgan aqliy izlanishni keltirib chiqarishi kerak.

Keyslarni yechish qisman izlanish usuliga tegishli bo'lib, uchinchi (qo'llash) va to'rtinchi (ijodkorlik) bilim darajalarini o'z ichiga oladi.

Vaziyatli vazifa uchun tanlangan muammoning tavsifi va uni hal qilish usullari ushbu turdagi ishlarining sifatini baholash uchun boshlang'ich nuqtadir. O'qitish dinamikasida muammoning murakkabligi ortib boradi, va uning yakunlanishiga dastlabki bosqichda kasbiy faoliyat tomonidan qo'yilgan vazifalarning murakkabligi mos kelishi kerak.

Keyslar yechimini baholash mezonlari quyidagicha:

- masala mazmunining mavzuga muvofiqligi;
- masala mazmunining muammoliligi;
- muammoni to'g'ri hal qilish, tahlil va ijodiy yondashuvlarni qo'llashni namoyish etadi;
- noaniqlik va noaniqlik vaziyatida ishlash ko'nikmalari namoyish etildi.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning interfaol usullari real o'quv faoliyatida hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlardan biri sifatida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'quv faoliyatidagi faol o'zaro ta'sirini ko'rsatish mumkin. Bunda o'zaro ta'sir "odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, ular o'zlari uchun umumiy bo'lgan vazifalarni hal qilish jarayonida bir-biriga ta'sir ko'rsatib, bir-birini to'ldirib, ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishlari" sifatida tushuniladi.

O'qitishning interfaol usullaridan foydalanish o'quv faoliyatining quyidagi mantig'ini nazarda tutadi: motivatsiya – yangi tajribani shakllantirish, uni qo'llash orqali anglash, refleksiya shakllanishini nazarda tutadi. Yangi tajribani shakllantirish oldindan mavjud yoki yuzaga keladigan ziddiyatlar asosida yuzaga keladigan muammoli dialogik vaziyatlarni yaratish va qiziqishlarning tug'ilishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning ustun omillaridan biri axborotlashtirish bo'lib, u nafaqat ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatiga, balki kundalik hayotga ham faol tatbiq etilmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoiti har qanday soha mutaxassislaridan kasbiy faoliyatda yangi texnologiyalar, global kompyuter tarmoqlari va

kompyuter telekommunikatsiyalaridan to'laqonli foydalana olish qobiliyatini talab qiladi. Ta'limning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasida amalga oshiriladigan axborot bilan ishlashning maxsus dasturiy muhitlari va texnik vositalarini qo'llashga asoslangan mustaqil faoliyatni tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi[4].

Masalan, taqdimot materiallarini yaratish talabalarining Microsoft PowerPoint multimediali kompyuter dasturi yordamida bajarilgan ko'rgazmali axborot qo'llanmalarini loyihalash bo'yicha mustaqil ishlari turi hisoblanadi. Ushbu ish turi talabaning axborotni to'plash, tizimlashtirish, qayta ishlash, uni o'rganilayotgan mavzuning asosiy masalalarini elektron shaklda qisqacha aks ettiruvchi materiallar to'plami ko'rinishida rasmiylashtirish ko'nikmalarini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shunday qilib, taqdimot materiallarini yaratish o'quv ma'lumotlarini qayta ishlash va taqdim etish usullari va vositalarini kengaytiradi, talabalarida kompyuterda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Taqdimotlar talaba tomonidan slaydlar shaklida tayyorlanadi, unda materiallar sifatida taqdimot rejimiga mos keladigan format bo'yicha auditoriyadan tashqari har qanday turdagi mustaqil ish natijalari taqdim etilishi mumkin.

Taqdimotlar materiallarini yaratishni baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- mazmunning mavzuga mosligi;
- axborotning to'g'ri tuzilganligi;
- bayon etilgan ma'lumotlarning mantiqiy aloqadorligi;
- dizaynning estetikligi, uning talablarga muvofiqligi.

Ushbu resurslarning muhim afzalligi shundaki, ular foydalanish paytida tayyor holda bo'ladi, bu esa o'qituvchining dastlabki didaktik va uslubiy tayyorgarlik uchun sarflaydigan vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Turli internet saytlari tegishli kompetensiyalarni, masalan, umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin, chunki ular boshqa jamiyat vakili bilan haqiqiy muloqotda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Ko'pgina kompyuter o'quv kurslari o'quv materialini elektron tashuvchida taqdim etishning yangi imkoniyatlaridan foydalanadi. Kompyuter dasturlari darsda o'rganilgan materialni mustahkamlash bo'yicha mustaqil ishlash, shuningdek, auditoriya mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish uchun juda qulay. Ular ham qat'iy dastur vositasidagi boshqaruv, ham o'qituvchi tomonidan moslashuvchan boshqaruv asosida kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish usuli sifatida yana bir loyihaviy ta'limga e'tibor qarata-miz.

Loyihaviy ta'lim talabalarni o'z faoliyatini qadriyatli yondashuv nuqtayi nazaridan anglash qobiliyatini namoyon etishga undaydigan pedagogik texnologiyadir: ijtimoiy, shaxsiy, bilishga qiziqish bilan bog'liq, hayotiy va kasbiy rejalar; muhim natijalarga yo'naltirilgan maqsadlarni belgilash; o'z-o'zini o'qitish va tashkil etish; turli manbalardan olingan ma'lumotlarni sintez qilish, integratsiyalash va umumlashtirish, shuningdek, muammoni ko'rish, gipotezalar ilgari surish, intellektual ko'nikmalarni namoyish etish, tanlash va qaror qabul qilishga undaydi.

Loyiha metodi asosida ta'lim oluvchilarning bilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish, axborot makonida mo'ljal olish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish yotadi. Loyiha metodi, agar u ma'lum bir fan doirasida qo'llanilsa, didaktika, xususiy metodika sohasiga tegishli bo'ladi. U didaktik kategoriya bo'lib, u amaliy yoki nazariy bilimning ma'lum bir sohasini, u yoki bu faoliyatni egallash usullari, operatsiyalari to'plami sifatida talqin qilinadi, bu bilish yo'li, bilish jarayonini tashkil etish usulidir. Shuning uchun, agar loyiha usuli haqida gap ketsa, u holda u yoki bu tarzda rasmiylashtirilgan, to'liq real, sezilarli amaliy natija bilan yakunlanishi kerak bo'lgan muammoni batafsil ishlab chiqish (texnologiya) orqali didaktik maqsadga erishish usuli nazarda tutiladi.

Loyiha tayyorlaydigan talabalar quyidagi huquqlarga ega:

- loyiha mavzusini mustaqil tanlash;
- loyiha vazifasini yechish usullarini mustaqil belgilash;
- ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish, faktlarni umumlashtirish, taqdimot tayyorlash.

Taqdimot asosida o'qituvchi talabalarining (umuman, guruh va har bir talabaning) ishini baholaydi.

Loyiha ustida ishlash to'rt bosqichga bo'linadi:

- 1) muammoni aniqlash (rejalashtirish);
- 2) materiallarni to'plash;
- 3) ma'lumotlarni umumlashtirish;
- 4) loyihani taqdim etish (taqdimot).

**Xulosa va tavsiya.** Mustaqil ish talabani o'quv yoki ilmiy bilimni shakllantirish vositasi sifatida ikki yoqlama xususiyatga ega. Bir tomondan, u o'qituvchi yoki uslubiy qo'llanma tomonidan beriladigan o'quv topshirig'i, ya'ni talaba faoliyatining obyekti hisoblanadi. Boshqa tomondan esa tegishli o'quv topshirig'ini bajarish bo'yicha faoliyatning muayyan usulini namoyon etish shaklidir. Shu sababli so'nggi yillarda ilmiy-pedagogik adabiyotlarda talabalarning mustaqil ishlariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunda nazariy jihatlar aniqlanmoqda, amaliy faoliyat tajribasi umumlashtirilmoqda, talabalarning vaqt taqsimoti, aqliy mehnatni samarali tashkil etish usullari va madaniyati o'rganilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, oliy ta'limning bosqichli tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ishi mazmun va sarflangan vaqt nuqtayi nazaridan ham, o'qituvchilarning ushbu faoliyat turiga munosabati nuqtayi nazaridan ham tubdan yangi ma'no kasb etmoqda.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim dasturining barcha fanlar majmuasi doirasida talabalarning mustaqil ta'lim olishini tizimli pedagogik boshqarish mavjud emas. Xususan, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni boshqarishda o'z ishtiroki darajasini turlicha tushunadi. Bu esa o'qituvchilar tomonidan o'quv rejalarida ajratilgan vaqt doirasida talabalarning mustaqil ta'limini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish tizimi yo'qligini ko'rsatdi [1].

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, talabalarning mustaqil ta'limini fundamental bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirishni ta'minlovchi yetakchi o'quv faoliyati shakli sifatida ko'rib chiqish lozim. Bizning fikrimizcha, oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimini amalga oshirishda mustaqil ta'limning asosiy xususiyati sifatida uning oliy o'quv yurtidagi har bir ta'lim bosqichida o'ziga xosligini, shu bilan birga, har bir darajada tarkibiy va mazmun jihatidan muvofiqligini e'tiborga olish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Топольский В.О. Проблема организации самостоятельной работы студентов вузов в процессе кредитно-модульного обучения. В.О.Топольский. Текст: непосредственный. "Молодой учёный", 2014, № 3 (62), с. 1039–1043. URL:<https://moluch.ru/archive/62/9549> (доступ к данным: 16.10.2023).

(2). Байназарова А.В. Использование информационно-коммуникативных технологий и организация самостоятельной работы учащихся. А.В.Байназарова, И.К.Проскурина. "Ярославский педагогический вестник", 2012, № 3, том II (Психолого-педагогическая наука), с. 170–174.

(3). Морозова Н.В. Инновационные средства организации самостоятельной работы студентов. Н.В. Морозова. "Молодой учёный", 2011, № 2, т. 2, с. 102–104.

(4). Мирошниченко Я. Анализ состояния организации самостоятельной работы студентов университетов в процессе кредитно-модульного обучения. Я.Мирошниченко, О.Троян. Osvita na Luganshini. № 2 (33), 2010, с. 60–65.

(5). Гессен С.И. Основная педагогика. Введение в прикладную философию. Отв.ред.и составитель П.В. Алексеев. М., "Школа-Пресс", 1995, с. 448.

#### **Sariyeva E'tibor Matchanboyevna (Urganch Innovatsion universiti o'qituvchisi)**

### **TA'LIM TURIZMI VA YOSHLAR: YANGI IMKONIYATLAR VA GLOBAL TAJRIBALAR**

**Annotatsiya.** Madaniy turizmning bir qismi bo'lgan ta'lim turizmi – bu tarix, madaniyat, ijtimoiy yoki til o'rganish kabi sohalarda ta'lim, kasbiy yoki shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan bilim va tajribalarni olishga qaratilgan turli yo'nalishlarga sayohat qilish usuli. Ta'lim turizmi konsepsiyasi boshqa yashash joyida bilim olishdan manfaatdor bo'lgan talabalar, xodimlar, o'qituvchilar, tadqiqotchilarning tajriba almashinuvi orqali amalga oshiriladigan barcha o'quv faoliyatini, o'qitish va kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Turli o'qitish usullarini o'z ichiga olgan holda, tajriba, urf-odatlar, an'analar, madaniy meros haqidagi bilimlarni egallashga o'rgatadi.

**Kalit so'zlar:** madaniy turizm, ta'lim turizmi, o'quv jarayonlari, barqaror rivojlanish, akademik mobillik, ta'lim dasturi, integratsiya, loyiha, xalqaro ta'lim tizimi.

**Сарыева Эътибор Матчанбоевна (преподаватель Ургенчского Инновационного университета)**

### **TURIZM OBRAZOVANIYA I MOLODEZH: NOVYE VOZMOZHNOСТИ I GLOBAL'NIY OPIYT**

**Аннотация.** Образовательный туризм, являющийся частью культурного туризма, представляет собой метод путешествия по различным направлениям, направленный на приобретение знаний и опыта образовательного, профессионального или личного характера в таких областях,

как история, культура, социальное или языковое изучение. Понятие образовательного туризма включает в себя всю образовательную деятельность, обучение и профессиональную подготовку, осуществляемую посредством обмена опытом студентов, сотрудников, преподавателей, исследователей, заинтересованных в обучении в другом месте проживания. Учит приобретать знания об опыте, обычаях, традициях, культурном наследии, включая различные методы обучения.

**Ключевые слова:** культурный туризм, образовательный туризм, образовательные процессы, устойчивое развитие, академическая мобильность, образовательная программа, интеграция, проект, международная система образования.

Sariyeva Etibor Matchanboyevna (Teacher of Urganch Innovation University; e.mail: [etiborsariyeva@gmail.com](mailto:etiborsariyeva@gmail.com); ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7196-640X>; UDK: 378.018.334.2)

## EDUCATION TOURISM AND YOUTH: NEW OPPORTUNITIES AND GLOBAL EXPERIENCES

**Annotation.** Educational tourism, which is a part of cultural tourism, is a method of travel to various destinations aimed at acquiring knowledge and experiences of an educational, professional or personal nature in areas such as history, culture, social or language learning. The concept of educational tourism includes all educational activities, training and professional training carried out through the exchange of experience of students, employees, teachers, researchers who are interested in learning in another place of residence. Teaches to acquire knowledge about experience, customs, traditions, cultural heritage, including various teaching methods.

**Key words:** Cultural tourism, educational tourism, educational processes, sustainable development, academic mobility, educational program, integration, project, international education system.

**Kirish (introduction).** Madaniy turizm – ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va integratsiya qilishda muhim rol o’ynaydi. Mamlakatimizda bu sohada yangi dasturlar va loyihalar amalga oshirilgan va ta’lim sifatini oshirish va xalqaro miqyosida dunyoga tanilish imkoniyatlari yaratilgan. Hech kimga sir emaski, xalqaro tajribaga ega bo’lgan bitiruvchilar ish beruvchilar tomonidan ko’proq qadrlanadi. Ular madaniy turizm orqali olingan tajribalar va ko’nikmalar orqali global ish bozorida raqobatbardosh bo’ladigan qadrlar bo’lib yetishmogi, shak-shubhasiz. Shu sababli madaniy turizm orqali talabalar ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasini takomillashtirish, nafaqat ularning shaxsiy va professional rivojlanishlariga xizmat qiladi, balki jamiyatda ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ta’minlashlariga ham hissa qo’shadi.

**Adabiyotlar tahlili va metod (Materials and methods).** So’nggi yillarda mamlakatlar o’rtasidagi akademik harakatchanlik (mobillik) sezilarli darajada oshgan. Globalizatsiya jarayonlari va xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida oliy ta’lim talabalariga turli davlatlarda ta’lim olish, ilmiy almashinuv dasturlarida ishtirok etish va tajriba orttirish imkoniyatlari yaratildi. Bunday akademik harakatchanlik talabalarga bir nechta muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Turli ta’lim tizimlarini o’rganish, madaniy tajriba almashish, kasbiy bilimlarni boyitish, yangi tillarni o’rganish shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, akademik harakatchanlik nafaqat talabalar uchun, balki ta’lim muassasalari va butun iqtisodiyot uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi, chunki u bilim almashinuvi, xalqaro hamkorlik va ta’lim sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Akademik mobillik, asosan, ta’lim sohasida ko’rib chiqilishi mumkin bo’lsa-da, uning iqtisodiy ta’siri universitetlar joylashgan shaharlarga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatgan. Akademik mobillik, ya’ni talabalar va o’qituvchilarning turli universitetlar yoki ta’lim muassasalarida o’qish yoki ilmiy almashinuv dasturlari doirasida harakatlanishi, shu bilan birga, bu shaharlar va mintaqalarga tashrif buyuruvchilar sonining oshishiga olib kelgan. Bunday mobillik, o’z navbatida, turizmning yangi bir turiga, ya’ni “ta’lim turizmiga” aylanib, ta’lim sohasida tub islohotlar yarata oladi [5].

Ta’lim turizmini o’rganish va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan sayohat turi sifatida ta’riflash mumkin. Bu mahalliy madaniyat, tarix, til, an’analar va atrof-muhit haqida bilim va tushunchaga ega bo’lish uchun turli manzillarga tashrif buyurishni o’z ichiga oladi. Ta’lim turizmining asosiy maqsadi sayohatchilarni bevosita tajribalar, turli jamoalar bilan uchrashish va ta’lim faoliyatida ishtirok etish orqali yangi bilimlarni o’rgatishdir.

**Muhokama (Discussion).** Ta’lim turizmining turli konsepsiyalarini tahlil qilishdan oldin, Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) tomonidan taqdim etilgan turizm ta’rifini eslatib o’tish lozim. JST (2019) tomonidan keltirilgan ta’rifga ko’ra, ta’lim turizmi – bu o’quv faoliyatida ishtirok etish va tajribaga asoslangan sayohat faoliyatini anglatadi. O’z yashash joyidan boshqa joyga o’qish yoki ilmiy faoliyat bilan shug’ullanish maqsadida ko’chib o’tuvchi shaxslar deb qaraladi. Ta’lim turizmi, o’z navbatida, mamlakatlar o’rtasida o’qish va ilmiy almashinuv dasturlari orqali amalga oshiriladigan xalqaro harakatlar majmuasidir.

Bu nafaqat milliy darajadagi universitetlar va ta'lim muassasalarining harakatini, balki turli mamlakatlar o'rtasida akademik mobillikni ham hisobga oladi.

Ta'lim turizmi turizmning tipologiyasida akademik harakatchanlikni o'z ichiga olgan yagona faoliyat sifatida qaralishi zarur. Akademik mobillik, o'zining keng qamrovli va diversifikatsiyalangan maqsadlari bilan, tajriba almashinuvi, madaniy o'zaro aloqalar, til o'rganish kabi faoliyatlarni qamrab oladi. Shuning uchun ta'lim turizmi nafaqat ilmiy faoliyat bilan cheklanishi kerak, balki kengroq ijtimoiy va madaniy jarayonlarni ham qamrab olgan kompleks turizm yo'nalishiga aylana oladi [7].

Akademik mobillik haqida ma'lumot. Akademik harakatchanlik zamonaviy ta'limning tendensiyasi bo'lgan, ammo uning tarixi XI asrda Yevropa Ittifoqi hududida boshlangan, u yerda tabalarning yirik shaharlarda o'qish uchun ziyorat qilishlari akademik ziyorat deb nomlangan va XXI asrda integratsiya elementlaridan biri sifatida ta'lim sohasidagi hamkorliklar o'rnatilgan. 1970-yilda Yapon va meksikalik mutaxassislariga har ikki mamlakatda bo'lish orqali o'z bilimlarini chuqurlashtirishga imkon beruvchi birinchi konvensiya yaratildi. Keyinchalik, 1980-yilda Shimoliy Amerika, 1990-yillarda Meksika universitetlari, asosan, Gvadaxara, Monterrey, Mexiko va Puebladagi chet ellik talabalarning diqqat markaziga aylandi. Oliy ta'limni xalqarolashtirish milliy rivojlanish rejasida belgilangan bo'lib, u xalqaro kontekstda ta'lim turizmini osonlashtiradigan dasturlarni sezilarli darajada oshirish bo'yicha harakatlar yo'nalishlarini nazarda tutadi. 2019, 2020 va 2021-yillardan boshlab, Yevropa dasturlari ijtimoiy hamjihatlikni, til o'rganishni va o'zaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish va ta'lim olish imkoniyatlarini yo'lga qo'ydi. Akademik mobillik orqali o'qitish maqsadi – ta'lim muassasalarining joriy majburiyatlari kognitiv, ijtimoiy, ko'p madaniyatli, lingvistik va texnologik ko'nikmalarga ega talabalarni tayyorlashdir.

**Xalqaro mobillik dasturlari. Erasmus + (Yevropa Ittifoqi).** Ko'plab mamlakatlarda talabalar uchun madaniy almashuv dasturlari mavjud. Masalan, Erasmus + dasturi Yevropa universitetlarida talabalarni turli madaniy muhitlarda o'qish va ishlash imkoniyati bilan ta'minlaydi. Xorijda talabalar madaniy turizm sohasidagi tadqiqotlarga jalb qilinadi. Bu ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va yangi g'oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu tajribalar, o'z navbatida, talabalar orasida madaniy ko'nikmalar, empatiya va global fuqarolik hissini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yevropa universitetlari o'rtasida talabalar va o'qituvchilar uchun almashuv dasturi. Talabalar boshqa davlatlardagi universitetlarda o'qish va madaniyat bilan tanishish imkoniyatiga ega.

Erasmus + dasturi 1987-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan tashkil etilgan va o'qitish, o'rganish, va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli dasturdir. Bu dastur orqali talabalar va o'qituvchilar uchun Yevropa mamlakatlari universitetlari o'rtasida almashuv imkoniyatlari yaratiladi. Erasmus+dasturi ta'lim, o'qitish, ijtimoiy xarakterdagi tajribalarni almashish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish maqsadida faoliyat yuritadi.

Erasmus+dasturi nafaqat talabalar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu dastur, ta'lim jarayonini rivojlantirish va talabalar o'rtasida madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston universitetlari ham bu dasturdan foydalanib, o'z talabalarini xalqaro tajriba orttirishga rag'batlantirib kelmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari madaniy merosni saqlashda madaniy turizmning rolini har tomonlama va nozik tushunish imkonini beradi. Madaniyat, ta'lim va turizm doimo uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Madaniy diqqatga sazovor joylar va tadbirlar sayohat uchun muhim turtki bo'lib xizmat qiladi va sayohatning o'zi madaniyatni rivojlantiradi. Ulardan olingan natija va tajribalar ta'lim tizimi uchun yangicha yondashuv bo'la oladi.

“Tadqiqot va amaliyot” loyihalari. O'zbekistonning bir qator oliy o'quv yurtlarida talabalar uchun tadqiqot va amaliyot loyihalari tashkil etiladi. Bu loyihalar doirasida o'quvchilar madaniy turizm bo'yicha tadqiqotlar olib borish, amaliy tajriba orttirish va o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

“**El-yurt umidi**” jamg'armasi – xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotganlar, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar tayyorlash maqsadida tuzilgan. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadigan Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha „El-yurt umidi“ jamg'armasi etib tashkil etilgan. Jamg'arma xorijda stipendiatlarning malaka oshirishi, stajirovkasi va o'qishini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Prezidentining „Iste'dod“ jamg'armasining hu-

quqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Prezidentimizning „Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmonida „El-yurt umidi“ jamg'armasi 2021-yilda ochiq stipendiya tanlovlari asosida yoshlarning nufuzli xorijiy mamlakatlarda bakalavriat dasturi bo'yicha ta'lim olishi uchun 100 ta o'rin, magistratura va doktoranturada o'qish uchun avvalgi yillarga nisbatan o'rtacha 5 barobar ko'p o'rin ajratilishi belgilangan.

Ta'kidlash joizki, madaniy turizmning ushbu turi jadal rivojlanyapdi, yo'nalishlar va uning madaniyatini o'rganishga bo'lgan moyillik dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni jalb qilypadi. Intellektual va shaxsiy o'sish sayohatning, tilni o'rganish yoki takomillashtirishning eng katta motivatsiyasi bo'lib, u talabalarda mustaqil bo'lish, o'zgarishlarga moslashish, hayot va madaniyatning boshqa shakllarini boshdan kechirish orqali hosil qiladi. Ta'lim turizmi talaba yoshidan qat'i nazar, boshqa mamlakatlarda o'rganish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Hozirgi kunda sayohatchilarning ta'lim olish maqsadlaridan kelib chiqib, ta'lim turizmini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- dam olish elementlari bilan ta'lim (chet el maktablari va universitetlarida o'qitish, til kurslari, ishlaydigan korxonalariga ekskursiyalar, muzeylar va ko'rgazmalarga tashriflar, tarixiy ekskursiyalar, dala o'quv kurslari, seminarlar va konferensiyalar);

- ta'lim elementlari bilan dam olish (turizmning barcha turlari – diniy, gastronomik, madaniy va boshqalar, shu jumladan, ta'lim va tarbiya motivlari);

- til safari – bu ta'lim turizmining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ta'lim turizmini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- xorijiy talabalarga qulayliklar yaratish va ularni jalb qilish maqsadida grandlar va stipendiyalar tashkil qilish;

- qo'shni respublikalar va xorijiy mamlakatlar oliy o'quv yurtlari bilan o'zaro almashinuv dasturlarini ishlab chiqish orqali chet ellik talabalarni O'zbekistonda ta'lim olishga jalb qilish. Bu hamkorlik talabalar va professor-o'qituvchilarga turli joylarda turli fanlar bo'yicha bevosita bilim olish imkoniyatini taqdim etuvchi o'quv sayohatlari, tilni o'rganish dasturlari va madaniy almashinuvlarni o'z ichiga olishi mumkin.

- turistik yo'nalishlarda ta'lim infratuzilmasini, jumladan, muzeylar, tarjima markazlari va interfaol o'quv maydonlarini rivojlantirishga sarmoya kiritish, bu joylarning ta'lim ahamiyatini oshirish va ta'lim sayohatchilarni jalb qilish, talabalar uchun turar joylar qurishda xususiy sektorlar imkoniyatlaridan foydalanish;

- jahon standartlariga to'la javob bera oladigan zamonaviy qulayliklarga ega hamda bepul kutubxonalarini qurish, mavjudlarini qayta ta'mirlash;

- texnologiyani birlashtirish, ya'ni sayohatchilar uchun ta'lim tajribasini yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanish. Bunga virtual reallik sayohatlari, interaktiv o'quv ilovalari va tashrif buyurilgan manzillar haqida chuqur bilim beradigan multimedia resurslari kirishi mumkin;

- “Study in Uzbekistan” deb nomlangan qisqa videoroliklar tayyorlash hamda xorijiy mamlakatlar bilan shartnomalar asosida o'sha davlatlarning televideniyalari orqali qo'yib borish;

- “Travel to Uzbekistan and study” deb nomlangan maxsus va chiroyli stikerlar yaratish hamda xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an'anaviy milliy buyumlar, suvenirlar va turistlar tomonidan talab yuqori bo'lgan mahsulotlarga ushbu stikerlarni yopishtirish orqali ta'lim va sayohatni reklama qilish;

- O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti, Hadis ilmi maktabi, Mir Arab oliy madrasasi kabi oliy o'quv yurtlarda ilohiyot sohasida ta'lim beradigan xalqaro ta'lim yo'nalishlari tashkil etish;

- ta'lim olishda kengroq auditoriyani egallash uchun respublika oliy o'quv yurtlarida xorijiy talabalar uchun ham masofaviy onlayn ta'limni yanada rivojlantirish va mazkur yo'nalish bo'yicha beriladigan diplom, sertifikatning yuridik kuchga ega bo'lishini ta'minlovchi me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash choralari ko'rish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali mamlakatimizda ta'lim turizmi tajribasini boyitish, kengroq ta'lim oluvchi sayohatchilarni jalb qilish va turizm sanoatining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin

Ushbu talim turizmi madaniy turizmning ikki tomonlama tabiatini ta'kidlaydi–iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va madaniy almashinuv uchun kuchli vosita. Madaniy turizm va ta'lim o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni rivojlantirish orqali ta'lim tizimida yangicha imkoniyatlar eshigi ochiladi va jamiyatlar o'zlarining boy va xilma-xil madaniy meroslarini kelgusi avlodlar uchun mukammal saqlangan holda yetkazishlari mumkin. Madaniy turizmni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'zining madaniy turizm takliflarini oshirishga intilayotgan boshqa davlatlar uchun qimmatli qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatlar o'zlarining noyob madaniy merosini asrab-avaylash va targ'ib qilish orqali o'zlarining boy tarixi, an'analari va san'atini o'rganishga qiziquvchi sayyohlarni muvaffaqiyatli jalb etishlari mumkin. Ma'naviy-ma'rifiy ta'limni yuksaltirishda madaniy turizm ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim o'quv dasturlariga integratsiyalash, tajribaviy o'rganishni rivojlantirish, texnologiyalardan foydalanish va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning o'z va boshqalar madaniyati haqidagi tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilaydi, pirovardida ularning ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu strategiyalar madaniy turizmning ta'lim tajribasini boyitish va talabalar o'rtasida turli madaniyatlarni chuqurroq qadrlashni rivojlantirish vositasi sifatida muhimligini ta'kidlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199-farmoni. 2021-yil 6-aprel. //www.lex.uz
- (2). Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni". <https://lex.uz/>. Qaraldi: 2018-yil 25-sentabr.
- (3). Nafasov D.Sh. Turizmning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishning tarixiy pedagogik jihatlari. "O'zMU xabarlari", Toshkent, 2021, p. 109–112.
- (4). Umid Gaberli. "Cultural Tourism, Internet of Things, and Smart Technologies in Museums". Handbook of Research on Digital Communications, Internet of Things, and the Future of Cultural Tourism (p. 260–270). Publisher: IGI GLOBAL, 31 July, 2022.
- (5). Хасанбоев Ж.И. ва бошқалар. Педагогика. Ўқув қўлланма, Т., "Фан", 2006.
- (6). U.P.Jiyanov. Ta'lim turizmining mohiyati va uni O'zbekistonda rivojlantirish imkoniyatlari. «Smart-turizm: xorijiy tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari». Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2023.
- (7). Малика Иномова. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлар. Т., "Фан", 1995.

**Sharopov Farrux (Buxoro Neft va gaz sanoati kolleji; e-mail: farruxsharopov35@gmail.com)**

### PROFESSIONAL TA'LIMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqola professional ta'limda maxsus fanlarni o'qitishda sun'iy intellekt (SI) dan foydalanish metodikasi, zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar, o'quv jarayonini avtomatlashtirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan darsliklarni yaratish va o'quv natijalarini tahlil qilish imkoniyatlari haqida so'z boradi. Tadqiqotda sun'iy intellektning ta'limda qo'llanilishining asosiy yo'nalishlari, texnologiyaning kamchiliklari va afzalliklari, shuningdek, SI asosida maxsus fanlarni o'qitish metodikasining asosiy tamoyillari va usullari ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, tutorlar, virtual simulatsiyalar, avtomatlashtirilgan baholash, robot, o'qitish metodikasi.*

### ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРИ ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.** В данной статье описана методология использования искусственного интеллекта (ИИ) при преподавании специальных предметов профессионального образования, инновационные подходы, направленные на повышение эффективности современного образовательного процесса, автоматизацию учебного процесса, создание учебников, адаптированных к индивидуальным потребностям учащихся, студентов и говорит о возможностях анализа результатов обучения. В исследовании были рассмотрены основные направления использования искусственного интеллекта в образовании, недостатки и преимущества технологии, а также основные принципы и методы преподавания специальных предметов на основе СИ.*

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, преподаватели, виртуальные симуляции, автоматизированное оценивание, робот, методика обучения.

## THE PROFESSIONAL EDUCATION OPPORTUNITIES FOR THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE TEACHING OF SPECIAL SUBJECTS

**Annotation.** This article describes the methodology of using artificial intelligence (AI) in the teaching of special subjects in professional education, innovative approaches aimed at increasing the efficiency of the modern educational process, automating the educational process, creating textbooks adapted to the individual needs of students and it talks about the possibilities of analyzing the learning results. In the study, the main directions of the use of artificial intelligence in education, the disadvantages and advantages of the technology, as well as the main principles and methods of teaching special subjects based on SI were considered.

**Keywords:** Artificial intelligence, tutors, virtual simulations, automated assessment, robot, teaching methodology.

**Kirish (Introduction).** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 17-fevralda imzolangan farmonlari “**Raqamli O‘zbekiston – 2030**” strategiyasini amalga oshirish doirasida sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida mamlakatda sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratish, iqtisodiyotning turli sohalari ba-robarida, ta’lim samaradorligini oshirishda ham raqamli texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish ko‘z-da tutilgan. Sun‘iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, o‘qitish jarayonini raqamlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, professional ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishda neft va gazni qayta ishlash yo‘nalishida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘qituvchilarning meh-natini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini avtomatlashtirish va shaxsiylashtirishga zamin yaratadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Maxsus fanlarni o‘qitishda sun‘iy intellektning ahamiyati neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi maxsus fanida sun‘iy intellektidan foydalanish o‘quv jarayonini jonli vizuallashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘quvchilar nazariy bilimlarni bevosita amaliyotga qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi [3;52–56-b.].



### 1-rasm. Sun‘iy intellektning (SI) ta’limda vazifalari.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari – o‘quvchilar ishlarini tahlil qilish va baholashda, masalan, testlarni avtomatik tekshirishda yordam beradi.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlari – sun‘iy intellekt yordamida har bir o‘quvchiga mos ta’lim dasturi tuziladi, uning o‘quv faoliyatini va natijalarini tahlil qilib, moslashtirilgan tavsiyalar beriladi.

O‘quv materiallarini yaratish va yangilash – sun‘iy intellekt o‘quv materiallarini avtomatik ravishda yangilash va optimallashtirish imkonini beradi.

Virtual yordamchilar va tutorlar – o‘quvchilarni o‘qitishda yordam beruvchi virtual yordamchilar sun‘iy intellekt yordamida rivojlantiriladi, bu esa o‘quv jarayonini 24/7 rejimida qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini beradi [2;15-b.].

Sun‘iy intellekt texnologiyalarini neft va gazni qayta ishlash yo‘nalishida qo‘llashning afzalliklari:

- neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi jarayonlarini simulyatsiya qilish va model yaratish orqali, reaktorlar, issiqlik almashinish yoki distillatsiya jarayonlarini sun‘iy intellekt yordamida o‘quvchilarga modelashtirish va optimallashtirish imkoniyatini beradi;

▪neft va gazni qayta ishlashda jarayonlar va usullarni optimallashtirishda energiya samaradorligini oshirish va resurslarni tejash usullarini tushuntiradi;


▪o‘quvchilarni sun‘iy intellekt asosidagi virtual laboratoriyalar bilan ta‘minlash orqali, real hayotdagi texnologik jarayonlarni xavfsiz va arzon sharoitda o‘rganish imkoniyatini yaratad hamda neftni distillatsiya qilish yoki gazni tozalash jarayonlarini virtual ravishda o‘tkazish imkoniyatlarini ochadi;

▪sun‘iy intellekt yordamida turli murakkab masalalarni hal qilish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

Amaliy topshiriqlarni modelirovka qilishda neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi maxsus fanidan o‘quvchilar murakkab amaliy topshiriqlarni, sanoat robotlarini boshqarish yoki amaliyotlarni o‘rganish uchun sun‘iy intellekt bilan jihozlangan simulatorlardan foydalanib, maxsus kompetensiyalarga ega bo‘lishadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Sun‘iy intellekt texnologiyalarini neft va gazni qayta ishlash yo‘nalishida qo‘llash kurslarni individuallashtirishda har bir o‘quvchiga mos keluvchi ta‘lim materiallari va topshiriqlarni yaratish uchun sun‘iy intellekt yordamida o‘quvchilarning qiziqishlari, bilim daraja va o‘quv natijalarini tahlil qilishda keng foydalaniladi. Maxsus fan o‘qituvchilari ta‘lim jarayonining turli ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, o‘quv dasturiga kerakli o‘zgartirishlarni kiritishlari mumkin. Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi fanida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish ham ushbu sohaga oid murakkab masalalar va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, kreativ fikrlash orqali o‘quvchilar standart yechimlardan tashqariga chiqib, innovatsion texnologiyalar va jarayonlarni yaratish uchun motivatsiyaga ega bo‘ladila [4;33-b.].

Sun‘iy intellektdan foydalanish metodikasi ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi turli usullar va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Professional ta‘limda neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi maxsus fanlarni o‘qitishda sun‘iy intellektdan foydalanish metodikasi quyidagi rasmda asosiy bosqichlari berilgan (2-rasm).



**2-rasm. Sun‘iy intellektdan foydalanish bosqichlari.**

Professional ta‘limda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishda, avvalo, o‘quvchilar va o‘qituvchilarni ushbu ko‘nikmalarni egallashga tayyorlash zarur. Bu bosqich quyidagi faoliyatlarni bajarandagina o‘zini namoyon etadi:

▪sun‘iy intellekt texnologiyalarini tushuntirish va o‘qitish o‘quvchilar va o‘qituvchilarga sun‘iy intellekt asoslari, ularning imkoniyatlari va cheklavlari, shuningdek, sun‘iy intellekt yordamida ma‘umotlar almashinuvi, mavzu doirasida savol-javob qilish, ChatGPT botdan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha ta‘lim olish va ta‘lim berish usullari haqida o‘quv kurslari o‘tkazilganda;

▪texnologik vositalardan foydalanish bo‘yicha treninglar tashkil etish orqali sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan o‘quv dasturlari, simulatorlar va platformalardan foydalanganda.


Sun'iy intellekt asosida ta'lim resurslarini yaratish ta'lim jarayonini tashkil etish uchun maxsus fanlar bo'yicha, ya'ni, neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi fanidan sun'iy intellekt yordamida resurslar tayyorlanadi jumladan interaktiv o'quv materiallari, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keluvchi darsliklar, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma yaratiladi. Bu materiallar o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olib ishlab chiqiladi.

Simulatsiyalar va virtual amaliy mashg'ulotlar. Neft va gazni qayta ishlash yo'nalishlari uchun amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadida virtual muhit va simulatorlar yaratish, o'quvchilarni murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishga tayyorlash.

Virtual simulatsiyalar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradi. Ayniqsa, texnika va muhandislik sohasidagi simulyatorlar orqali o'quvchilar murakkab texnik vositalarni boshqarishni yoki sanoat jarayonlarini virtual muhitda o'rganishlari mumkin. Bu metod xatolarga yo'l qo'yish xavfi past va xavfsiz sharoitda amaliyot o'tkazishga yordam beradi [5 23–24-b.].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lajak mutaxassislarining neft gaz sanoati jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va optimallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, hozirda eng dolzarb masala hisoblangan o'quvchilar faoliyatini monitoring qilishda, darslarda qatnashish darajasi va topshiriqlarni bajarish natijalari kuzatib borish kabi-larda sun'iy intellektning samarasi yuqoridir.

O'quv jarayonini tahlil qiluvchi dasturlar orqali ta'lim platformalarida sun'iy intellekt o'quvchilarning darsga qatnashish faoliyati, topshiriqlarni bajarish tezligi va o'zlashtirish darajasini tahlil qilib o'qituvchilarga hisobot taqdim etishi bu esa o'qituvchilarga o'quvchilarning qaysi mavzularda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlashga yordam beradi.



**3-rasm. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi rivojlanishidagi o'rni.**

Yuqorida qayd etilgan sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari bilan birga, quyidagi ba'zi kamchiliklarga ham egadir:

- texnologiyaga bog'liqlik – texnologiyalarning tezkor o'zgarishi va yangilanishi sababli moslashuv talab etilishi;
- tayyorgarlik darajasi – o'qituvchilar va o'quvchilar sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga tayyor bo'lishi;
- axborot xavfsizligi – o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish ehtiyoji mavjudligi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va raqamli vositalarning jadal rivojlanishi o'qitish usullarini yanada o'zgartirib, ta'lim sifatini oshirish va shaxsiylashtirilgan ta'limning rivojlantirishga yordam bermoqda. Raqamli vositalar bilan ta'lim resurslarini boyitish: multimedia, videodarslar, interaktiv mashqlar va raqamli o'yinlarasosida o'quv jarayoni kreativ va samarali tashkil etiladi. Sun'iy intellekt va virtual reallik (VR) texnologiyalari ta'lim metodikasini sezilarli darajada o'zgartirdi xususan virtual va kengaytirilgan reallik simulatsiyalari muhandislik

sohalarda amaliy mashg'ulotlarni virtual muhitda o'tkazish, o'quvchilar xavfsiz sharoitda murakkab jarayonlarni yoki texnologik vositalarni o'rganish orqali mutaxassislikka oid kompetensiyalarini rivojlantirishlari mumkin.

Sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi professional ta'limda maxsus fanlarni o'qitishni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga imkon beradi. Metodika nafaqat ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirishga, balki o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ta'lim jarayoniga chuqurroq integratsiyasi natijasida o'qitish usullarini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Abdurahmonov I.Y., Turdiqulova Sh.O., Abduvaliyev A.A., Musayeva R.A., Barbu G.F. Sun'iy intellekt: prognozlar, tarmoqlar va istiqbollari bo'yicha dayjest.

(2). Q.A.Bekmuratov. Sun'iy intellekt. Oliy ta'lim muassasasi o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma, T., "Aloqachi", 2019.

(3). Искусственный интеллект (мировой рынок) // <https://www.tadviser.ru/index.php>

(4). Professional ta'lim maxsus fanlarni o'qitishdagi mavjud muammolar tahlili. international sciences, education and new learning technologies volume 1 (issue 9), 2024.

(5). Axrorjon, Y.L. (2022). Ta'lim tizimida axborot vositasining o'rni.

(6). Avlayev O.U., Mirzayeva S.R., Samarova Sh.R. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma,

(7). Yoldashev, A.E.O., Nishonqulov, S.F.O., & Yoldasheva, M.R.Q. Ta'limdagi axborot texnologiyalari. Scientific progress, 2021.

**To'raqulova Marjona (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, p.f.f.d (PhD);**

**E-mail: [marjonaturakulova79@gmail.com](mailto:marjonaturakulova79@gmail.com))**

### **INNOVATOR MUHANDISLAR TAYYORLASHDA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI MAZMUNI VA METODIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MODELI**

***Annotatsiya.** Innovator muhandislar tayyorlashda qo'yiladigan malaka talablari mazmuni va metodik kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish haqida batafsil yoritib beriladi. Metodikani shakllantirishda chuqurlashtirilgan modul dasturlari asosida magistrning innovatorlik qobiliyatini rivojlantirish. Bu qobiliyatlar ichiga qayta muhandislik, qiyoslash muhandisligi, tannarx muhandisligi kabilarni yuzaga chiqaruvchi kompetensiyalarni shakllantirish modelini ta'lim jarayoni va ishlab chiqarish sanoati muhandislariga qo'llash.*

***Kalit so'zlar:** innovator magistr, qayta muhandislik, tannarx muhandisligi, qiyoslash muhandisligi, modulli o'qitish, jadallashtirish, uzluksiz, individuallashtirish, kreativ, informatsiya.*

**Туракулова Марджона (Бухарский инженерно-технологический институт, доцент, к.т.н.;**

**e-mail: [marjonaturakulova79@gmail.com](mailto:marjonaturakulova79@gmail.com))**

### **МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ КВАЛИФИКАЦИОННЫХ ТРЕБОВАНИЙ И МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ИНЖЕНЕРОВ-ИННОВАТОРОВ**

***Аннотация.** Подробно будет раскрыто содержание квалификационных требований к подготовке инновационных инженеров и разработка модели формирования методических компетенций. Развитие инновационной способности магистров на основе углубленных модульных программ по формированию методологии. Применение модели формирования компетенций, включающей реинжиниринг, сравнительный инжиниринг, стоимостный инжиниринг и т.д., к инженерам образовательного процесса и производственной отрасли.*

***Ключевые слова:** инновационный магистр, реинжиниринг, стоимостной инжиниринг, сравнительный инжиниринг, модульное обучение, ускорение, непрерывное, индивидуализация, креатив, информация.*

**Turakulova Marjona (Bukhara Institute of Engineering and Technology, Associate Professor, (PhD);**

**E-mail: [marjonaturakulova79@gmail.com](mailto:marjonaturakulova79@gmail.com))**

### **A MODEL FOR THE FORMATION OF THE CONTENT OF QUALIFICATION REQUIREMENTS AND METHODOLOGICAL COMPETENCES USED IN THE TRAINING OF THE INNOVATIVE ENGINEERS**


***Annotation.** The content of the qualification requirements for the training of innovative engineers and the development of a model for the formation of methodical competencies will be explained in detail. Development of innovative ability of masters on the basis of in-depth module programs in the formation of*

methodology. Application of the model of formation of competences, which includes re-engineering, comparative engineering, cost engineering, etc, to the engineers of the educational process and production industry.

**Keywords:** innovative master, re-engineering, cost engineering, comparative engineering, modular training, acceleration, continuous, individualization, creative, information.


**Kirish (Introduction).** Oliy ta'lim muassasalarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos mutaxassislar yetkazib berish, xalqaro tajriba va standartlarni joriy etish bugungi kunning bosh maqsadiga aylanmoqda. Innovator muhandislar tayyorlashda bugungi kunda hamkor ishlab chiqarish korxonalar bilan kelishilgan holda o'quv rejalar, dasturlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish asoslari bo'lmish o'quv me'yoriy hujjatlarni mazmunan ko'rib chiqish masalalari hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Muhandislar tayyorlashda me'yoriy hujjatlar tizimini malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari tashkil etadi. Malaka talabi muhandislar tayyorlashda magistratura mutaxassisligi bo'yicha barcha oliy ta'lim muassasalar uchun talablar majmuyini ifodalaydi [2;25–26-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida salohiyatli kadrlarni tayyorlash, neft va gaz sanoatini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiyani yo'lga qo'yish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan to'g'ri tatbiq qilish, ishlab chiqarish korxonalar ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamonaviy talablar asosida xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq texnika va texnologiya yaratuvchi ilmiy kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, talabalarni amaliyotga keng jalb qilish hamda ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar mujassam. Innovator muhandislar tayyorlashda ularning loyihaviy-konstruktorlik kompetensiyalariga: neft va gazni qayta ishlash mahsulotlari va ular asosidagi materiallar konstruksiyalarini ishlab chiqish malakalariga ega bo'lish; namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lish; namunaviy texnologik jarayonlarda ishlatiladigan quilmalarni loyihalashda va tayyorlashda ishtirok etish.




**1-rasm. Innovator muhandislar tayyorlashda modulli o'qitish talablari.**

Ushbularga to'liq ega bo'lish uchun ta'limning chuqurlashtirilgan modulli dasturlar orqali erishiladi [5;56-b.]. Modulli o'qitishda ta'lim oluvchilarning bilim, malaka, ko'nikmasi qat'iy ravishda nazoratning kredit modul tizimida baholanishini zaruriyat qilib qo'yadi.



**2-rasm. Modulning tarkibiy qismlari.**


Muhandislik maktablarida kadrlarni o'qitish tizimida modulli o'qitishning joriy etilishi malakali yaratuvcchi-muhandis kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi.



**3-rasm. Modulli o'qitishning maqsadlari.**

Shunday qilib, modulli o'qitishda magistrarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Har bir modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to'plami tuziladi va ular talabaga mashg'ulotdan oldin beriladi. Modul tavsiya qilinadigan adabiyotlar bilan ta'minlanadi. Har bir talaba materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli talabalar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlaridan o'tishlari mumkin [1;98–101-b.].


**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi mutaxassisligi Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim: ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatda: ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy-texnik yangiliklarni kashf etish va yaratish, ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish [3;41–44-b.].



**4-rasm. Modul tizimida o'qitishning afzalliklari.**

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarni qo'llash lozim: fikrlarning shiddatli hujumi, paradoksal muammoli muloqotlar, evristik suhbatlar, scamper strategiyasi, o'quv o'yinlar va hokazo.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Innovator magistrnlarni yaratuvchilik qobiliyatini rivojlantiruvchi metodik kompetensiyalarni shakllantirishda modulli o'qitish materiallaridan oqilona foydalanish holda tashkil etilgan dars jarayoni magistrnlarning kasbga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, xotirani mustahkamlash, vaqtni tejash, qayta muhandislik, taqqoslash muhandisligi, tannarx muhandisligi kabi qobiliyatlarini ham rivojlantiradi [8;25-b.].



**5-rasm. Modulli o'qitishning asoslari.**

Ta'lim jarayonida yaratuvchilik (ijodkor) qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashdagi muvaffaqiyatga va tajribalarning natijalariga ham bog'liq. Buning natijasida, bo'lajak muhandis yetarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, o'quvga ham ega bo'ladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Innovator muhandislar tayyorlashda qo'yiladigan malaka talablari mazmuni va metodik kompetensiyalarni shakllantirish modelida modulli o'qitish, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Bu esa muhandisning faoliyatini inobatga olgan holda muayyan o'quv fani bo'yicha tuzilgan modullarni ketma-ket o'zlashtirishni ta'minlash fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini tashkil etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Avliyoqulov N.X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. Buxoro, 2001.
- (2). Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma, T., 2007.
- (3). Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda O'quv qo'llanma, T., "Fan va texnologiyalar", 2009.
- (4). Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T., Ta'lim markazi, 1999.
- (5). Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma, T., "Fan", O'zPFITI, 2006.
- (6). Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. Т., 1999.
- (7). Gibson, Robyn. (2010). The 'art' of creative teaching: Implications for higher education. Teaching in Higher Education.
- (8). Hicks, Kristen. (2018). Why Creativity in the Classroom Matters More Than Ever. Edudemic. August.

Narimbetov Muwsa (Nukus davlat Pedagogika instituti 1-kurs doktoranti)

## OLIIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH VA UNDA RAQAMLI TEXNOLOGIALARNING ROLI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'limda talabalarining mustaqil ta'lim jarayonini takomillashitish usullari, jumladan, raqamli texnologiyalardan foydalanish, mobil ilova va masofaviy birga ishlashishning afzalliklari va bu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar to'g'risida keng ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar, elektron tizimlar, mobil ilovalar.

**Нарымбетов Муўса (Нукусский государственный педагогический институт, докторант 1-курса)**  
**ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ САМООБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ И РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭТОМ ПРОЦЕССЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о способах развития процесса самостоятельного обучения с использованием цифровых технологий, мобильных приложений и преимуществах совместной работы на расстоянии. Кроме того, он включает информацию об исследованиях, проведенных в этой сфере.

**Ключевые слова:** высшее образование, самообучение, цифровые технологии, электронные сайты, мобильные приложения.

**Narimbetov Muwsa (Nukus state pedagogical institute, 1-year doctoral student)**

## **THE PROCESS OF ORGANIZING SELF-STUDY IN HIGHER EDUCATION AND THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THIS PROCESS**

**Annotation.** This article informs about developing the process of self-study in higher education as the use of digital technologies, mobile apps and advantages of distance cooperation. Moreover, it includes information about the researches that have been done in this sphere.

**Key words.** Higher education, self-study, digital technologies, electronic sites, mobile apps.

**Kirish.** Hozirgi zamonaviy dunyoda ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishda raqamli texnologiyalarning hissasi katta. Albatta, bu texnologiyalarni tog'ri yo'naltirish ta'lim sohasi rivojiga bo'lgan katta qadam bo'lishi, so'zsiz. Respublikamizda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida foydalanish va sifatli ta'limni tashkil etish boyicha bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida foydalanish va ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish bo'yicha G.J.Abilova, N.D.Mirzahmedova, U.Madaminov, A.J.Xurramov kabi olimlar tadqiqod ishlarini olib borganlar. Mustaqil ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning usullari va afzalliklari bo'yicha respublikamizda A.R.Sattarov, I.I.Hayitova, M.A.Tursunov kabi ko'plab olimlar o'z tadqiqod ishlarini amalga oshirganlar.

**Tadqiqod metodologiyasi.** Pedagog olim G.J.Abilova o'z tadqiqodlarida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, ta'lim jarayonini jadallashtirish va o'qituvchilarning motivatsiyani va kasbiy kompetentligini oshirish uchun Mobile Learning tizimi, Google class va Google forms kabi tarmoqli texnologiyalarni foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslagan.

Xususan, musiqa o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali jarayon modellarini loyihalash, baholash tizimini olib borish kabi ishlarni amalga oshirish va bunday onlayn ishlarni amalga oshirishda "Google class" va "Google forms" kabi tarmoqli texnologiyalardan foydalanish orqali jarayonni takomillashtirish borasida ishlar amalga oshirilgan. Shuning bilan birga, "Mobile learning" tizimidan foydalanish orqali musiqa o'qituvchilarining foal ishlash jaryonini va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilgan, onlayn formatda test, sorovnamalar va viktorinalar tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ham natijali ishlar amalga oshirilgan.

Bizning fikrimizcha, bu kabi raqamli texnologiyalarni natijali qo'llash orqali ta'lim sohasini muntazam ravishda takomillashtirish zarur, deb hisoblaymiz.

Yana bir pedagog olim N.D.Mirzahmedova o'z tadqiqodida raqamli ta'limning an'anaviy ta'limdan ustuvor taraflarini asoslagan va ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli kattaligi va bu jarayon ta'lim beruvchilar orasida ham sifatli ta'lim berishga bo'lgan raqobatni oshirishini ta'kidlab o'tgan.

Ta'lim olish jarayonini raqamli texnologiyalar orqali osonlashtirish mumkin, bunda har xil texnologiyalardan foydalanish orqali bilimlarni sifatli transformatsiya qilish mumkinligi ta'kidlab o'tilgan. Darsga qatnashish imkoniyati bo'lmagan paytda onlayn darslarni tashkil etish imkoniyatining yaratilishi kabi foydali jihatlarni ta'kidlab o'tgan. Raqamli texnologiyalarni foydalanish orqali talabalarda texnologiyadan foydalanish, internetdan o'rinli foydalanish kabi madaniyatlar shakllanadi. Vaqt va pul sarfini kamaytirish imkoniyatlari yaratiladi. Albatta, biz raqamli asrda yashab turib, bu kabi texnologiyalardan unumli foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishimiz lozim, bu tajribalarni talabalar ongiga singdirish orqali ularning bilim va konikmalarini oshirish mumkin bo'ladi.

Pedagog olim U.A.Madaminov shunday fikrlarni ilgari suradi, ya'ni, raqamli ta'limga o'tish o'qituvchilarga ta'lim berish jarayonini osonroq va samaraliroq olib borishiga yordam beradi. Audio va visual materiallardan foydalanish talabalarining yangi mavzularni yaxshi tushunib olishlariga zamin yaratadi. Talabalarining o'rganish qobiliyatini solishtiradigan bo'lsak, ko'plab talabalarining visual o'rganuvchi, ya'ni, ko'rish orqali o'rganish stiliga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu ilmda ham o'z tasdig'ini topgan statistika hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalarining yangi mavzularni o'qitishda ko'proq visual, ko'rgazmali materiallardan foydalanish orqali ular yangi ma'lumotlarni yaxshi qabul qilib olishlariga erishish mumkin. Mavzularni ko'rgazmali taqdim qilishda, albatta, raqamli texnologiyalarning roli beqiyos, bu orqali ko'rgazmali ma'lumotlarni rang-barang, talabalar e'tiborini tortadigan ko'rinishlarda tayyorlash va talabalarga taqdim etish mumkin bo'ladi. Albatta, audiomateriallardan foydalanish ham visual materiallar kabi samarali hisoblanadi.

Pedagog olim A.J.Xurramov o'z tadqiqotida raqamli ta'limni takomillashtirish bo'yicha, jumladan, internet infratuzilmasini yaxshilash, masofaviy o'qitish texnologiyalarining ko'lamini kengaytirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va turli xil raqamli ta'lim modellarini qo'llash bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan.

Masofaviy oqitishni takomillashtirish, albatta, zarur hisoblanadi, sababi talabalarining ko'proq mustaqil o'rganishiga urg'u berish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarining masofaviy kommunikatsiyasini yo'lga qo'yish dolzarb masaladir. Sababi, talabalar o'qituvchi bilan har doim alohida bo'lishi, maslahatlar olishi bu jarayonning sifatli tashkil etilishida, yangi bilimlarni egallashda zarur omillardan biri hisoblanadi. Albatta, masofaviy birga ishlashishni yo'lga qo'yish uchun pedagog kadrlarning ham malakalarini yetarli-sha oshirish orqali ta'lim sifatini, raqamli texnologiyalarni keng foydalanish koeffitsiyentini oshirish bo'yicha ta'kidlab otilgan.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ta'lim jarayoniga, mos ravishda, samarali mustaqil ta'limni tashkil-lashtirish quyidagi faktorlarni o'z ishiga oladi:

–zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, albatta, hozirgi paytta ta'lim jarayonini samarali tash-killashtirishni texnologiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi. Sababi, hozir ko'plab rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga qaraydigan bo'lsak, raqamlashtirish texnologiyalaridan keng foydalanilayotgan va talabalarni mustaqil ishlashga undovchi platformalar yaratilayotganining guvohi bo'lamiz. Albatta, bu tajribalarni ta'-lim tizimimizda qo'llash jarayonni rivojlantirishi aniq;

–kundalik ta'lim rejmidan farqli usullarni qo'llash, ya'ni, darsni tushuntirish va topshiriqlarni ish-kashtishdan ko'ra kreativ usullardan foydalanish demakdir;

–o'yin formatidagi jarayonni tashkil qilish, yuqorida aytilgan kreativ usulga bu misol bo'la oladi. Ko'pchilik yoshlardan tortib, yoshi kattalargacha hozirgi paytta o'z smartfonlaridan har xil oyinlar oy'-nashga qiziqadi va ta'lim jarayonini o'z ichiga oluvchi o'yinlarni talabalarga taklif qilish orqali ta'lim sifa-tini oshirishga erishish mumkin, deb hisoblaymiz;

–masofadan birga ishlashni tashkillashtirish, ya'ni, raqamli texnologiya orqali mustaqil ta'lim jara-yonini olib borishda, oqituvchi-talaba, talaba-talaba, formatini shakllantirish, ya'ni shunday imkoniyatni yaratib berish;

–masofadan, oqituvchidan maslahat olish imkoniyati va yarim topshiriqlarni masofadan birgalikda ishlash imkoniyatlarning mavjudligi, mustaqil ta'lim olish jarayonining samaradorligini oshirishi mum-kin.

Talaba bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, hamma talabaga yoppasiga bir xil emas, balki shun-day imkoniyat yaratish kerak, har bir talaba o'z bilim darajasidan kelib chiqib, topshiriqlar bajarsin. Bu ham, albatta, talabalar motivatsiyasini oshirishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Ko'plab pedagog olimlar talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishda zamonaviy raqamli texnolo-giyalarni foydalanishning samaradorligi bo'yicha bir qator tadqiqodlar olib borishgan. Jumladan, pedagog olim A.R.Sattorov o'zining "Innovatsion-metodik loyihalar asosida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda mobil o'qitish tizimidan foydalanish" mavzusida tadqiqot ishini olib borgan. Bu tadqiqodning aso-siy maqsadi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillash-tirish uchun mobil o'qitish tizimidan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdir. Asosan, quyidagi mobil texnologiyalarni mustaqil ta'lim berish jarayonida foydalanish, jumladan, Gameifikatsiya, M-Learning, M – Feed-back va boshqalar, shuning bilan birga, innovatsion loyihalar; Assessment, Pre-podcasting, Request Base, Exam Soft va boshqalardan foydalangan holda, mustaqil ta'lim jarayonidagi kreativlikni oshirish (1). Albatta, hozirgi zamon talabiga mos ravishda, rivojlangan mamlakatlarning oliy talim muassasalarida qo'l-lanilayotgan tajribalar asosida zamonaviy mobil texnologiyalardan mustaqil ta'lim jarayonida foydalanish samarali vositalardan biri. Bu jarayon zamon bilan hamnafas bo'lishga va innovatsion ravishda ta'limni olib borishga yordam beradi.

I.I.Hayitova o'zining tadqiqodlarida talabalarga mustaqil ta'lim berish jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, "Axborot ta'lim muhitida talabalarining mustaqil ishlarini masofadan tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari" axborot texnologiyalari misolida mavzusidagi tadqiqod ishida talabalar mustaqil ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun bir qator tavsiya-lar bergan. Jumladan, mustaqil ta'lim jarayonini webinar, virtual laboratoriya, multimedia ilovalari, ijodiy topshiriqlar ko'rinishida tashkil etishni taklif qilgan. Shuning bilan birga, modulli o'qitish indikatorlari va baholash mezonlaridan foydalanib, talabalar o'zlashtirish darajasini tekshirish bo'yicha takliflarini kiritgan. Bu tadqiqod ishida talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonidagi imkoniyatlari va baholash mezonlari xusu-

sida bir qator ma'lumotlar berib o'tilgan. Masofadan talabalar bilan ishlashish va talabalarining mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

M.A.Tursunov o'zining "Elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda, talabalar mustaqil ta'lim olish metodikasini takomillashtirish" axborot texnologiyalari fani misolida nomli dissertatsiya ishida talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun har xil elektron ta'lim resurslaridan foydalanish metodikalarini takomillashtirish bo'yicha ish olib borgan. Xususan, mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirish uchun multimedia taqdimotlari, imitatsion o'yinlar, kompyuter trenajorlari, krossvordlar va elektron testlar kabi talabalar motivatsiyasini oshiradigan resurslardan foydalanishning afzalliklari haqida aytib o'tgan. Bu kabi resurslar talabalarda virtual ta'lim muhitida mustaqil ishlash ko'nikmasini oshiradi va mustaqil ta'lim topshiriqlarini onlayn ishlashga muhit yaratadi. Albatta, bu kabi mustaqil ta'lim jarayonini takomillashtiradigan usullar, talabalarining yetuk bilim olishlariga turtki bo'ladi, deb hisoblaymiz.

**Hulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqodlar natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda talabalarining mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarning mavjudligi, jarayonning rivojlanishiga va talabalarining qiziqishlarining ortishiga turtki bo'la oladi. Shu sababdan ham raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida keng foydalanish zarur, deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

- (1). G.J.Abilova. Nukus davlat Pedagogika instituti. 13.00.02. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika). "Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy komponentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" nomli dissertatsiya avtoreferati, Nukus, 2022.
- (2). N.D.Mirzahmedova. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, scientific journal impact factor. Volume 2. Issue 5/2; ISSN 2181– 1784. SJIF 2022:5.947. ASI factor =1.7. "Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida qo'llanilishi". 2022, may. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545>
- (3). U.A.Madaminov. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. ISSN: 3030 – 3631. "Fanlarni o'qitishda innovation web texnologiyalardan foydalanish", 17-son, 3-to'plam, mart, 2024. <https://web-journal.ru/>
- (4). A.R.Sattorov. Falsafa doktori "Innovatsion-metodik loyihalar asosida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda mobil o'qitish tizimidan foydalanish", 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Chiqarilgan, 2021.
- (5). I.I.Hayitova. 13.00.02.PhD.03/04.06.2020.Ped.70.20.Qarshi davlat universiteti, pedagogika fanlari. Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqodlarda "Axborot ta'lim muhitida talabalarining mustaqil ishlarini masofadan tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari" nomli dissertatsiya avtoreferati, Qarshi, 2022.
- (6). M.A.Tursunov. 13.00.02.PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02-Qarshi davlat universiteti pedagogika fanlari "Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish asosida talabalarining mustaqil ta'lim olish metodikasini takomillashtirish" (Axborot texnologiyalari fani misolida) bo'yicha dissertatsiya ishi, Qarshi, 2022.
- (7). A.J.Xurramov. "Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati". Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi, Volume 4, CSPU conference, 1/2023.

**Tohirova Shohsanam Yunusovna (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti "Xorijiy tillar" kafedrası assistenti; [tokhirovashohsanam9420@gmail.com](mailto:tokhirovashohsanam9420@gmail.com); UDK:8.81.81-13.81'21)**

#### TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA UNING YUTUQLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kompetensiyaga asoslangan yondashuv va uning yutuqlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samaradorligini va uning jamiyat uchun keltirgan yutuqlari ilmiy tahlil qilingan va uning natijalarini amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ochib bergan. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan ta'lim yo'nalishining yutuqlari bilan birgalikda bir qancha kamchiliklari va cheklangan imkoniyatlari ham yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, tayanch ko'nikmalar, mehnat bozori, kognitiv, didaktik, integratsiya, innovatsion, muammoga asoslangan o'rganish, simulatsiya, shaxsga yo'naltirilganlik.

#### КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ОБРАЗОВАНИИ И ЕГО ДОСТИЖЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается компетентностный подход в образовании и его достижения. Также в статье научно анализируется эффективность компетентностного подхода в обучении и его достижения для общества, а также возможности применения полученных результатов в практической деятельности. Кроме того, наряду с успехами компетентностного подхода в образовании, обсуждаются его некоторые недостатки и ограниченные возможности.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, базовые навыки, рынок труда, когнитивный, дидактический, интеграция, инновации, проблемно-ориентированное обучение, симуляции, ориентированность на личность.

## COMPETENCY-BASED APPROACH IN EDUCATION AND ITS ACHIEVEMENTS

**Annotation.** This article discusses the competency-based approach in education and its achievements. The article also provides a scientific analysis of the effectiveness of the competency-based approach in teaching and its contributions to society, as well as the potential for applying the results in practice. Additionally, alongside the successes of the competency-based approach in education, its shortcomings and limited possibilities are also addressed.

**Keywords:** competency-based approach, core skills, labor market, cognitive, didactic, integration, innovation, problem-based learning, simulation, learner-centered.

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy pedagogik yondashuvlar ichida kompetensiyaga asoslangan ta'lim tushunchasi dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Kompetensiyaviy yondashuv bu o'rgatlayotgan nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, talabalarning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida kerakli bo'ladigan ko'nikmalarni rivojlantirishi ham ko'zda tutiladi. Bu yondashuv asosida talabalar nazariy bilimlarni amaliy qo'llay olishni, shu bilan bir qatorda, turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishlariga o'rgatishdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha bir qancha olimlar va tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar. Ulardan biri S.B.Qorayev bo'lib, u o'zining maqolasida kompetensiyaviy yondashuv haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim"[1]. Yuqorida keltirilgandek, kompetensiyaviy yondashuv orqali talabalar kasbiy va ijtimoiy sohalarida raqobatbardosh bo'lishlari uchun kerakli bo'lgan tayanch ko'nikmalarni o'zlashtirishlari tushuniladi. Bundan tashqari, bu yondashuv haqida yana bir qator olimlar va izlanuvchilar bir qancha maqola va dissertatsiyalarda o'z qarashlarini keltirib o'tganlar. Xususan, D.Qulibayevaning tadqiqoti kompetensiyaga asoslangan yondashuvga bag'ishlangan bo'lib, bu yerda muallif shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashga maqsadli tayyorlashning asosiy vositasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvda ta'lim jarayonining o'rnini haqida gapiradi. Shuning uchun ta'lim jarayoni shaxsning o'z hayot rejalarini mustaqil ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish uchun ichki sharoitlarni yaratishga qaratilishi zarur. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuv insonni doimiy o'zgaruvchanlik va rivojlanish sharoitida hayotga tayyorlashga imkon beradi va quyidagi ta'rifni taklif qiladi: "Kompetensiya—bu ma'lum darajadagi ta'limni tugatgan shaxsning sifati, uning asosida muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorlikni ifodalaydi"[2]. D.A.Ivanovning fikricha, kompetensiyaga asoslangan yondashuv ommaviy maktab va mehnat bozori ehtiyojlarini muvofiqlashtirishga urinish, ta'lim natijasiga yo'naltirilgan yondashuv, natijada esa o'rganilgan ma'lumotlar miqdori emasligini ta'kidlaydi, lekin insonning turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hisoblanadi[3].

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, O.E.Lebedev ta'rifiga ko'ra, ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari yig'indisidir. Ushbu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

▪ Ta'limning ma'nosi – o'quvchilarning ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli soha va faoliyatdagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, uning elementi o'quvchilarning shaxsiy tajribasi.


▪ Ta'lim mazmuni – bu kognitiv, mafkuraviy, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishning didaktik moslashtirilgan ijtimoiy tajribasi.

▪ Ta'lim jarayonini tashkil etishning ma'nosi o'quvchilarda ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratishdir.

▪ Ta'lim natijalarini baholash ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar erishgan ta'lim darajalarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi[4]. Keltirilgan ta'rifga ko'ra, bu yondashuvning ma'nosi o'quvchilarning shaxsiy tajribasini hisobga olib, ijtimoiy tajriba asosida o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratilgan.

**Materiallar va metodlar.** Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy maqsadlaridan biri talabalarni faqat bilim bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar, muammolarni hal qilish qobiliyati, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyatlari bilan ta'minlashdan iboratdir. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, bu ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini nafaqat nazariy bilimlar darajasi, balki amaliy faoliyatdagi yutuqlar orqali baholash belgilaydi. Shuningdek, bu yondashuvning asosiy tamoyillaridan dastlabkisi shaxsga yo'naltirilganlikdir. Ya'ni, har bir talaba o'z imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari asosida rivojlanishi kerak. Integratsiya esa bu yondashuvning asosiy tamoyillarining ikkinchisidir. Integratsiya orqali nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasida yaxlit va uzviy aloqa ta'minlanadi. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim metodlaridan biri bu muammoga asoslangan ta'lim hisoblanadi. Talabalar konkret muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini o'rganadilar.

**Tahlillar va natijalar.** Kompetensiyaga asoslangan ta'limda quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutiladi (1-diagramma).



**1-diagramma. Kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy natijalari.**

Ulardan birinchisi ta'lim sifatining oshishi. Kompetensiyaga asoslangan ta'limda tahsil olgan talabalar o'rgangan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilishda yanada faol va mustaqil bo'lganliklariga e'tibor qaratish lozimdir. Bundan tashqari, talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiya va ishtiyoqlarini o'sishini ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, ularga amaliy mashg'ulotlar va turli xil qiziqarli proyektlar taqdim etilganda, aniq ko'rish mumkin. Bu yo'nalish orqali tayyorlangan talabalar nafaqat akademik bilimlarni mukammal egallaydilar, balki jamiyatda faol, mas'uliyatli hamda innovatsion fikrlovchi shaxslar bo'lib yetishadilar.

**Analysis and results.** Being able to assess and analyze students' learning progress, and subsequently to decide on corresponding follow-up actions by both teacher and student to enhance student learning requires complex skills from teachers. In addition, increasing student involvement in their own learning progress, one of the core components of AfL, has been found to be among the more advanced teacher skills. The study aimed to assess the effectiveness of various pedagogical strategies in improving students' skills in analyzing literary texts. Data was collected through pre- and post-assessments, classroom observations, and student feedback across several instructional units [8]. The findings suggest that the implemented teaching strategies effectively improved students' skills in analyzing literary texts. The combination of guided discussions, Socratic seminars, and comparative assignments not only enhanced analytical abilities but also fostered a more engaging and supportive learning environment. These results underscore the importance of varied instructional approaches in literature education, as they can significantly influence students' confidence, attitudes, and engagement in literary analysis. Moving forward, the study recom-

mends the continued integration of these strategies in literature curricula to sustain and further develop students' analytical skills.

**Pre-Assessment Analysis.** Before the implementation of targeted strategies, a pre-assessment was conducted to evaluate students' baseline analytical skills. Results indicated that most students struggled to identify key themes, character motivations, and stylistic devices in literary texts. The average score on the pre-assessment was 55%, highlighting a significant need for intervention.

**Conclusion.** This study highlights the effectiveness of targeted pedagogical strategies in enhancing students' skills in analyzing literary texts. By implementing collaborative learning, scaffolding techniques, technology integration, and constructive feedback, educators can create an engaging and supportive environment that fosters critical thinking and deeper literary comprehension.

The significant improvement observed in students' analytical abilities, as evidenced by pre- and post-assessment results, underscores the importance of these approaches. Students demonstrated enhanced skills in identifying themes, analyzing character motivations, and recognizing stylistic devices. Moreover, the positive feedback from students indicates that these strategies not only improve analytical performance but also boost confidence and engagement in literary studies. As educators continue to navigate the challenges of teaching literature, this research provides a valuable framework for developing effective instructional practices. By prioritizing interactive and student-centered approaches, teachers can cultivate a lasting appreciation for literature, equipping students with the critical skills necessary for both academic success and lifelong learning. Future research could explore the long-term impact of these strategies and their applicability across diverse educational contexts, further enriching the field of literary education.

In conclusion, the initiative to enhance students' skills in analyzing literary texts through targeted teaching strategies has demonstrated significant positive outcomes. The integration of methods such as guided reading sessions, Socratic seminars, and comparative analysis has not only improved students' analytical abilities but also fostered a deeper engagement with literature.

The substantial increase in assessment scores, along with heightened student confidence and more positive attitudes toward literary analysis, highlights the effectiveness of these strategies in creating a dynamic learning environment. Additionally, the observed rise in student participation indicates that when learners are actively involved in their education, they are more likely to develop critical thinking skills and a genuine appreciation for literature.

As educators, it is crucial to continue implementing diverse instructional approaches that cater to different learning styles and encourage independent thought. By doing so, we not only enhance students' analytical capabilities but also prepare them for future academic and real-world challenges. This study underscores the importance of ongoing professional development for teachers to refine their instructional techniques and stay attuned to the evolving needs of their students. Ultimately, fostering strong analytical skills in literary analysis equips students with the tools necessary for effective communication, critical evaluation, and lifelong learning.

#### References:

- (1). Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and Classroom Learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), p. 7–74.
- (2). Johnson, D.W., & Johnson, R.T. (1999). *Learning together and alone: Cooperative, competitive, and individualistic learning*. Allyn & Bacon.
- (3). Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in society. The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
- (4). Chen, S. (2015). The impact of technology on student engagement in literary analysis. *Journal of Educational Technology*, 12(3), p. 45–58.
- (5). Applebee, A.N., & Langer, J.A. (2013). Literature instruction and student achievement: What works? *Educational Leadership*, 71(1), p. 34–38.
- (6). Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), p. 81–112.
- (7). Ladson-Billings, G. (1994). *The dreamkeepers: Successful teachers of African American children*. Jossey-Bass.
- (8). <https://ebooks.inflibnet.ac.in/engp12/chapter/teaching-english-language-through-movies/>

Mingbayev Raxim Xujayevich – Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi  
**EKOLOGIYA SOHASIDA XALQARO GUMANITAR HUQUQ NORMALARINI  
DETERMINLASH TIRUVCHI OMILLAR, HARAKATLANTIRUVCHI MOTIVLAR VA  
MEXANIZMLAR**

***Annotatsiya.** Maqolada ekologiya sohasida xalqaro gumanitar huquq normalarini determinlashtiruvchi omillar, harakatlantiruvchi motivlar va mexanizmlari xavfsizlik nuqtayi nazaridan yotib berilgan. Shuningdek, ekologiya sohasidagi xalqaro gumanitar huquq normalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinib, determinizm va indeterminizm tamoyillarining ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit soʻzlar:** ekologiya, ekologik munosabat, xalqaro gumanitar huquq, global ekologik muammo, konsensus.*

**МЕХАНИЗМЫ, МОТИВЫ, ФАКТОРЫ, ПРИВОДЯЩИЕ В ДВИЖЕНИЕ И  
ДЕТЕРМИНИЗИРУЮЩИЕ МЕЖДУНАРОДНЫЕ ГУМАНИТАРНЫЕ, ПРАВОВЫЕ  
НОРМЫ В ОБЛАСТИ ЭКОЛОГИИ**

***Аннотация.** В данной статье экология рассматривается с точки зрения определения норм международного гуманитарного права, мотивов и механизмов действия, безопасности. В социально-философском анализе норм международного гуманитарного права экология базируется на условиях детерминизма и индетерминизма.*

***Ключевые слова:** экология, экологическое отношение, международное гуманитарное право, глобальная экологическая проблема, консенсус.*

**MECHANISMS, MOTIVES, FACTORS DRIVING AND DETERMINING INTERNATIONAL  
HUMANITARIAN, LEGAL NORMS IN THE FIELD OF ECOLOGY**

***Annotation.** In this article ecology is considered from the point of view of defining the norms of international humanitarian law, motives and mechanisms of action, security. In the socio-philosophical analysis of the norms of international humanitarian law, ecology is based on the conditions of determinism and indeterminism.*

***Keywords:** ecology, environmental attitude, international humanitarian law, global environmental problem, consensus.*

**Kirish (Introduction).** Insoniyat taraqqiyotining rivojlanish tarixida bir-biriga tubdan va favqulodda qarama-qarshi xarakterga ega paradoksal hodisalar mavjudligini koʻramiz. Xususan, har qanday urushlarga, harbiy nizolarga, mahalliy, milliy, hududiy va global muammolarga munosabat masalasida gumanizm va antigumanizmning, ezgulik va yovuzlikning mohiyati namoyon boʻladi. Shunga mos ravishda, xalqaro gumanitar huquqning muqobil ekologik nazariyalari vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari, bir tomondan, urushlarga qarshi pusefistik harakatlarning mohiyatini, xarakterini va yoʻnalishlarini, ikkinchi tomondan, urush holati vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarda ham, umuman, gumanizm tamoyillariga, xalqaro gumanitar huquq normalariga, xususan urushlar ekologik muammolarning global oqibatlarini reallashtirayotgan sharoitda xalqaro gumanitar huquqning ekologik normalariga – tabiiy atrof muhit muhofazasiga doir xalqaro huquqiy hujjatlarning gumanistik mazmuni va demokratik talablariga rioya qilish uchun, uning qonuniy-huquqiy asoslarini yaratishni insoniyat ongli faoliyatini baholashga munosabat tarzida qarash kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ekologiya sohasidagi xalqaro gumanitar huquq normalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, determinizm va indeterminizm tamoyillari orasidagi bogʻliqlikni yoritish muhimdir. Determinizm, har bir hodisa va jarayon muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshishi mumkinligini tasdiqlaydi va bu tamoyil ekologik huquqni yaratishda ham muhim rol oʻynaydi. Shu bilan birga, indeterminizm esa tasodifiy jarayonlarni eʼtirof etib, har bir hodisa uchun sobit qonunlar boʻlmashligini koʻrsatadi. Ekologik muammolar, koʻpincha, tasodifiylik va ehtimoliy jarayonlar bilan bogʻliq boʻlib, bu yerda indeterministik yondashuv oʻz oʻrniga ega. Tabiiy ofatlar yoki iqlim oʻzgarishi kabi jarayonlarning natijasini aniq bashorat qilish qiyin va koʻp hollarda tasodifiy holatlar va oʻzgarishlar oʻrin oladi. Masalan, har qanday mamlakatda ekologik falokatlarning oldini olish uchun mos mexanizmlar ishlab chiqilgan boʻlishi mumkin, ammo ularning qaysi bir joydagi aniq qoʻllanishi yoki samaradorligi ehtimoliy omillardan kelib chiqadi.

Xalqaro ekologik huquqda ehtimol va tasodif tushunchalari koʻproq nazarga olinadi, bunda har bir holat uchun javobgarlikni shaxsiy yoki davlat darajasida aniq belgilash kerak boʻladi. Ekologik huquqda

determinizm va indeterminizm birlashgan holda amal qiladi. Determinizm ekologik qonunlarning izchil va sababiy aloqalari asosida ishlab chiqilishini ta'minlasa, indeterminizm insonning tabiatga ta'siridagi barcha tasodifiy va ehtimoliy omillarni hisobga oladi. Masalan, tabiatdagi ba'zi jarayonlar (hayvonlar populyatsiyasi yoki o'simliklar jamlanmasi) bevosita inson ta'siri ostida bo'lmasa-da, insonning bilvosita ta'sirlarini e'tiborga olish zarur. Shu bois ekologik huquq jarayonlarning to'liq qonuniyligini ta'minlashga harakat qiladi va barcha ehtimoliy holatlar va tasodifiy hodisalar uchun maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Ekologiya sohasidagi xalqaro gumanitar huquq normalarini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish "taraqqiyot", "madaniyat" va "sivilizatsiya" tushunchalari mavzusi bilan bog'liq. Bu atamalar chuqur falsafiy ildizlarga ega bo'lib, ular, ko'pincha, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Statik jihatdan madaniyat inson va jamiyat faoliyatini boshqaradigan g'oyalar va qadriyatlar tizimidir. Taraqqiyot leksik ma'noda oldinga harakatni bildiradi. Biroq taraqqiyotning falsafiy talqini, ayniqsa, 17-asrdan boshlab (F.Bekon, R.Dekart) ma'rifat va sanoatlashtirish davrigacha davom etgan fan-texnika taraqqiyotining asosi bo'ldi. Biroq chiziqli taraqqiyot g'oyasi 20-asrda, Xaydegger, Spengler va Ortega y Gasset kabi faylasuflar uning kamchiliklarini ko'rsatganlarida tanqid ostiga olindi. Xususan, global ekologik va ijtimoiy inqirozlarga olib kelgan texnologik taraqqiyotning halokatli oqibatlarini qayd etdilar [2;124-b.].

Xalqaro gumanitar huquqning ekologik normalarini texnologik taraqqiyot bilan bog'liq muammolarga javob sifatida ko'rish mumkin. Taraqqiyot g'oyasi ko'plab qadimgi falsafalarda hukmron bo'lgan regressiya tushunchasi bilan ham bog'liq. Aflotun va Aristotel tarixda taraqqiyot va regressiyaning tsiklik o'zgarishlarini ko'rdilar [3;859-b.]. Zamonaviy falsafiy yondashuvlar (masalan, sinergetika) ekologiya kontekstida, ayniqsa, muhim bo'lgan tartibsizlik va tartib o'rtasidagi muvozanat g'oyalarini o'z ichiga oladi. Xalqaro gumanitar huquqning ekologik normalari ana shu muvozanatni saqlash, ekologik ofatlarning oldini olish uchun huquqiy asos yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, biotexnologiya, genetik injeneriya va sun'iy intellekt ham ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi, ham ularni yanada kuchaytirishi mumkin. Stiven Xoking kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatarlarni ta'kidlaydi, bu esa tabiat va resurslar ustidan inson nazoratini yo'qotishiga olib kelishi mumkin [5;269-b.]. Taraqqiyot, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan ajralgan holda, insoniyat uchun xavf tug'diradi, bu cheksiz texnogen ambitsiyalarga cheklovlar qo'yadigan ekologik huquq normalarida ta'kidlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ekologiya sohasidagi xalqaro gumanitar huquqqa ijtimoiy-falsafiy yondashuv nafaqat huquqiy mexanizmlar, balki axloqiy ko'rsatmalarning ham muhimligini ta'kidlaydi. Ekologik standartlar inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklashga qaratilgan bo'lib, texnogen sivilizatsiyadan axloqiy jihatdan barqaror va insonparvar yondashuvga o'tishni aks ettiradi. Ekologiya sohasidagi xalqaro gumanitar huquq normalarining omillari, harakatlantiruvchi motivlari va mexanizmlarini aniqlash ushbu huquqiy konstruksiyalarni shakllantiruvchi falsafiy, axloqiy va amaliy jihatlarga chuqur kirib borishni taqozo etadi. Qurolli to'qnashuvlar vaqtida ekologik muhofaza qilish nafaqat qonuniy talab, balki ma'naviy majburiyat ekanini tan olish, sayyoramizni kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash bo'yicha kengroq majburiyatni aks ettiradi.

Xalqaro gumanitar huquq doirasida ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga bir qancha omillar yordam beradi. Ekologiya sohasidagi xalqaro gumanitar huquq normalarining determinatsiyasiga oid omillar, harakatlantiruvchi motivlar va mexanizmlar ijtimoiy-falsafiy tahlil bilan umumlashtirilganda, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday tahlil insonning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlarni anglashga xizmat qiladi [1;169-b.].

**Tahlil va natijalar.** Xalqaro gumanitar huquq normalari, asosan, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash zaruratidan kelib chiqqan. Bu yerda ikki asosiy omilni ta'kidlash mumkin.

Asosiy omillardan biri global miqyosdagi ekologik muammolar va tabiat resurslarining noto'g'ri iste'moli. Industrializatsiya jarayonida tabiatga nisbatan "texnogen" munosabat shakllangan, bu, o'z navbatida, ekologik iztiroblarga sabab bo'lgan. Natijada xalqaro hamjamiyat tabiatni himoya qilish zaruratini anglab yetgan.

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalaridagi axloqiy qadriyatlar ham muhit bilan munosabatni belgilovchi muhim omildir. Tabiatni himoya qilishga bo'lgan ehtiyoj, avvalambor, inson va jamiyatning ma'naviy inqiroziga qarshi kurashning bir qismi sifatida qaraladi.

Ekologiya sohasida xalqaro gumanitar huquq normalari ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilganda, quyidagi asosiy motivlar belgilanishi mumkin:

Inson hayoti va biologik muhitning yaxlitligi asrash zarurati insonning o'ziga bo'lgan qarashlarini qayta ko'rib chiqishga olib kelgan. Bu o'rinda tabiat faqat resurs emas, balki insoniyatning yashash manbai sifatida ko'riladi.

Jamiyatdagi o'zaro munosabatlar va axloqiy normalar atrof-muhit bilan munosabatlarga ham ta'sir qiladi. Fuqarolik jamiyatining tabiatga bo'lgan mas'uliyati va uni saqlashga bo'lgan intilishi muhim motivlardan biri bo'lib, bu xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Xalqaro gumanitar huquqning ekologiyaga oid normalari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan bir qator mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Tashkilotlar va davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalar va qonunchilik normalari orqali tabiat muhofazasiga oid qoidalarni joriy qilish asosiy mexanizmlardan biridir. Bu shartnomalarda ayrim davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida tabiiy resurslarni boshqarish, muhitni himoya qilish kabi masalalar muhokama qilinadi.

Jamiyatdagi ekologik bilimlarning kengaytirilishi va ularning madaniy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda qayta ko'rib chiqilishi muhim mexanizmdir. Inson ma'naviy madaniyatini rivojlantirish va uni tabiatga bo'lgan munosabati bilan uyg'unlashtirish, uzluksiz axloqiy va ma'naviy ta'limning o'rini oshirishga xizmat qiladi.

Ekologiya sohasidagi xalqaro gumanitar huquq normalari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinganda, insonning tabiat bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati va bu munosabatlarni belgilab beradigan axloqiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Texnogen sivilizatsiyaning tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun xalqaro hamkorlik va tabiatni himoya qilishga qaratilgan huquqiy va madaniy choralar zarur mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Qurolli to'qnashuvlar natijasida yuzaga kelgan ekologik halokatning tarixiy va davom etayotgan dillari hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Vetnamdagi o'rmonlarning kesilishidan Fors ko'rfazi urushidagi neftning to'kilishigacha bo'lgan aniq ta'sirlar bunday zararni kamaytiradigan huquqiy me'yorlar zarurligini ta'kidlaydi. Ekologik fan va texnologiya sohasidagi taraqqiyot ekologik zararning uzoq muddatli oqibatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Ushbu ilmiy bilimlar yanada samaraliroq va o'ziga xos huquqiy himoyani yaratish haqida ma'lumot beradi. Iqlim o'zgarishi bo'yicha faollik kabi harakatlar tufayli atrof-muhit muammolari haqida o'sib borayotgan global ong huquqning barcha sohalarida, shu jumladan xalqaro gumanitar huquqda ekologik mulohazalar ahamiyatini oshiradi. Inson va atrof-muhit salomatligining o'zaro bog'liqligi inson farovonligi atrof-muhit salomatligi bilan uzviy bog'liqligini e'tirof etish ekologik himoya zarurligini ta'kidlaydi.

**Tahlil va natijalar.** Xalqaro gumanitar huquqda ekologik me'yorlarni o'rnatish va amalga oshirishga turtki bo'lgan motivlar ko'p qirrali bo'lib, axloqiy, amaliy va strategik masalalarni uyg'unlashtiradi. Qurolli to'qnashuvlar paytida atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadi tabiiy dunyoni saqlash uchun axloqiy javobgarlikdan kelib chiqadi. Bu nafaqat odamlar populatsiyasi, balki hayotni qo'llab-quvvatlovchi ekotizimlar uchun keraksiz azob-uqubatlar va halokatlarning oldini olish majburiyatini o'z ichiga oladi.

Barqaror rivojlanish motivi ekologik me'yorlarni xalqaro gumanitar huquqga kiritishga undaydi. Mojarodan keyingi jamiyatlarning qayta tiklanishi va rivojlanishini ta'minlash ularning tabiiy resurslari va ekotizimlarini saqlashni talab qiladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish keng xalqaro barqarorlikka hissa qo'shishi mumkin. Atrof-muhitning buzilishi mojarolarni kuchaytirishi mumkin, bu esa resurslar tanqisligi va ko'chishiga olib keladi. Ekologik zararni yumshatish orqali xalqaro gumanitar huquq keyingi mojarolarni keltirib chiqaruvchi omillarni kamaytirishga qaratilgan. Ekologiyani XGHning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish, mojarolar paytida atrof-muhitni himoya qilishning huquqiy, falsafiy va ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi. Bu esa kelajakdagi xavfsizlik muammolarini hal etishda fanlararo yondashuvning ahamiyatini tasdiqlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Аванесова А.А. Международное гуманитарное право. Учебное пособие, Ставрополь, изд-во СКФУ, 2014, 169 с.
- (2). Некрасов С.И. Идеи детерминизма и глобального эволюционизма: антагонизм или взаимообусловленность? Москва, Акад. Естествознания, 2007, 124 с.
- (3). Платон. Политика. Наука об упр. государством. Платон, Аристотель. Москва, ЭКСМО, СПб., Terra Fantastica, 2003 (АООТ Твер. полигр. комб.), 859 с.
- (4). Свешников В.Г. Концепции современного естествознания: синергетика природы или как устроен окружающий мир. СПб., ТЕССА, 2005, 234 с.
- (5). Хокинг С. Краткая история времени: от Большого взрыва до черных дыр. Москва, АСТ, ОГИЗ, 2022, 269 с.

**Bobojonov Farhod (ToshDO‘TAU huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi QR hududiy bo‘linmasi rahbari, f.f.n., dots.; e-mail: [farxod.7272@gmail.com](mailto:farxod.7272@gmail.com))**  
**HUJJATCHILIK TIZIMI TUSHUNCHALARINING TAHLILI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada hujjatchilik tizimiga oid ish yuritish, hujjat, hujjatchilik kabi tushunchalarning lug‘aviy ma‘nosi, ish yuritish atamasi sifatidagi ma‘nosi, ularning ish yuritish jarayonidagi vazifasi xususida so‘z yuritilgan. Mazkur atamalrni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash bo‘yicha tahlillar o‘tkazilib, tavsiyalar taqdim etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ish yuritish, hujjat, hujjatchilik, hujjat tayyorlash, hujjat aylanishi, hujjat saqlanishi, ilmiy-texnika hujjatlari, huquqiy hujjatlar, boshqaruv hujjatlari.*

**Бабаджанов Фархад (руководитель регионального отделения РК Центра обучения основам делопроизводства на государственном языке и повышения квалификации при ТашГУУЯЛ, КФН, доц.; e-mail: [farxod.7272@gmail.com](mailto:farxod.7272@gmail.com))**

### **АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИЙ СИСТЕМЫ ДОКУМЕНТАЦИИ**

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются словарные значения таких понятий, как делопроизводство, документ, значение терминов и их роль в процессе делопроизводства. Был проведен анализ правильного и уместного использования данных терминов и даны рекомендации.*

***Ключевые слова:** делопроизводство, документация, подготовка документов, документооборот, хранение документов, научно-технические документы, юридические документы, управленческие документы.*

**Babadjanov Farkhad (Head of the KR Territorial Branch of the Center for Training in the Fundamentals of Business Administration and Advanced Training in the State Language under the TashSUULL, Candidate philological science, docent; e-mail: [farhod.7272@gmail.com](mailto:farhod.7272@gmail.com))**

### **ANALYSIS OF DOCUMENT SYSTEM CONCEPTS**

***Annotation.** This article discusses the lexical meanings of concepts related to the document management system, such as office management, document, and documentation. It explores their significance as office management terms and their functions in the office management process. An analysis was conducted and recommendations were provided for the correct and appropriate use of these terms.*

***Key words:** office management, document, documentation, document preparation, document circulation, document storage, scientific and technical documents, legal documents.*

**Kirish (Introduction).** Davlatchilikka asos solinishi va uning taraqqiy etishida hujjatchilik alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday davlat qonunlar, qoidalar, tartibotlar, farmonlar va boshqa huquqiy hamda boshqaruv hujjatlari asosida idora qilinadi. Ish yuritish tizimining asosini hujjatchilik tashkil etadi. Har qanday ish qog‘ozi boshqaruv faoliyatida muayyan qiymatga ega bo‘lgan hujjat hisoblanadi. Hujjatchilik tili, uslubi, matn qoliplari, ish yuritish terminologiyasi asrlar davomida sayqallanib, takomillashib keldi. Har bir davlatning o‘ziga xos hujjatchiligi, har bir tilning o‘ziga mos ish yuritish uslubi mavjud. Hujjatchilik va davlat boshqaruvining ish yuritish tizimi davlat tilida amalga oshiriladi. Davlat tili – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijro va sud hokimiyatlarida hujjatchilik hamda ish yuritish, davlat organlarida, idoralarda boshqaruv muloqoti olib borish uchun belgilangan rasmiy tildir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi va “Davlat tili haqida”gi qonunning 1-moddasiga muvofiq, o‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ish yuritish terminologiyasi haqida gap ketganda, avvalo, eng ko‘p uchraydigan *ish yuritish, hujjat, hujjatchilik* atamalarining izohlanishiga to‘xtalib o‘tish lozim. Ta’kidlash joizki, ish yuritish va hujjatchilik bilan bog‘liq tushuncha va atamalarning ko‘pchiligi rus tilidan kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan.

“Ish yuritish” atamasi o‘zbek tiliga rus tilidagi “делопроизводство” so‘zini kalkalash orqali kirib kelgan. Mazkur so‘z rus tili hujjatchiligida: “hujjatlarni rasmiylashtirish va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etishni ta’minlaydigan faoliyat sohasi”, deya izohlanadi. Zamonaviy ma’nodagi ish yuritish boshqaruvni hujjatlar bilan ta’minlash degan ma’noni bildirib, tashkilot, muassasa ma’muriy-boshqaruv faoliyatining mustaqil tarmog‘iga aylangan, bu tarmoq ishlarni hujjatlashtirish va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish, boshqaruv apparatining vazifalarini amalga oshirish jarayonida foydalanish uchun turli vositalarda qayd etilgan hujjatli axborot bazasini yaratish degan ma’noni bildiradi [4; 1-b.]. Huquqshunoslikda “Ish yuritish – hujjatlashtirishni ta’minlaydigan va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni uyushtiradigan faoliyat sohasi” [2; 7-b.], deya ta’rif beriladi. Iqtisodiyotchilar “ish yuritish” atamasini quyidagicha izohlashadi: “Ish yuritish – bu hujjatlar va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etishni ta’minlaydigan faoliyat sohasi” [1; 9-b.]. Ta’riflar bir-biriga ancha yaqin. Bizning nazarimizda, o‘zbek tilida “ish yuritish” atamasi ikki xil ma’-

noda qo'llaniladi: 1. Xususiy sektorda mulkdorning mulkini boshqarish, berilgan vakolatlar doirasida mulkdor nomidan faoliyat olib borish jarayoni *ish yuritish* atamasi bilan yuritiladi, mazkur jarayonga mas'ul shaxs ish boshqaruvchi (ba'zan ish yurituvchi) deb ataladi. 2. Tashkilot (korxonalar, muassasa, ofis) tizimida muayyan bir tilda (asosan, davlat tilida) ish qog'ozlarini rasmiylashtirib borish, hujjat aylanishini tashkil etish, hujjatlarning saqlanishini nazorat qilish jarayoni *ish yuritish* deyiladi. Mazkur jarayonni tashkil etuvchi shaxs *ish yurituvchi* deb nomlanadi.

O'zbek tilida "ish yuritish" atamasi, asosan, ikkinchi ma'noda, ya'ni, hujjat tuzish, hujjat aylanishini va saqlanishini tashkil etish jarayoni ma'nosida qo'llaniladi. Mazkur atama, ko'pincha, ish yuritishning birinchi bosqichiga nisbat berib, davlat tilida ish yuritish yoki o'zbek tilida ish yuritish shakllarida ifodalangani. Ish yuritish jarayoni uch xil bosqichda amalga oshadi: 1) hujjat tayyorlash; 2) hujjat aylanishi; 3) hujjat saqlanishi.

Xizmat faoliyati jarayonida hujjatlarni talab darajasida rasmiylashtirish bilan birga, ularning aylanishini to'g'ri tashkil qilish va belgilangan muddatga qadar saqlanishini ta'minlash e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Tashkilotning yoki ayrim xodimlarning ish faoliyati o'rganilganda, bajarilgan ishlar hujjatlarda to'g'ri aks etishiga e'tibor qaratiladi va shu asosda faoliyat baholanadi. Shu bois hujjatlarning yig'ma jildda saqlanishi va muddati kelganda arxivga o'tkazilishi ham ish yuritishda muhim ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Hujjatlar muhimlik darajasiga qarab turli muddatlargacha arxivda saqlanadi. Qaysi hujjatning qancha muddatga saqlanishi arxiv to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilab berilgan.

"Hujjat" atamasi ish yuritish tizimiga oid navbatdagi muhim atamadir. Mazkur atamaning ham mazmun-mohiyatini tushunib olish lozim. Hujjat axborotni qog'oz yoki elektron shaklda saqlaydigan vositadir. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni 8-moddasida: Axborot resurslarida saqlanadigan va ishlov beriladigan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan axborot elektron hujjat bo'lib, qog'oz hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega, deyiladi (7).

Ish yuritishga doir adabiyotlarda hujjatchilik deganda, asosan, idora hujjatlari nazarda tutiladi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da hujjat so'zi shunday izohlanadi: Hujjat [arabcha – dalil, isbot, sabab, bahona] 1. Kimsaning kimligini (shaxsiyatini), mashg'ulotini, biror tashkilotga a'ziligini tasdiqlovchi guvohnoma (pasport, guvohnoma, talabalik bileti, a'zolik bileti va h.k.). 2. Biror ish faoliyat yoki narsaga haq-huquq va shu kabilarni ko'rsatuvchi, tasdiqlovchi ish qog'oz. 3. Ilmiy, ijtimoiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yozuvlar, suratlar, asar yoki adabiyotlar [6;556-b.]. Lug'atdagi izoh hujjat atamasining qamrovini to'liq ochib berolgan emas. Huquqshunos S.M.Norbekov hujjatni "aynan o'xshatish (identifikatsiyalash) imkonini beradigan belgilar (rekvizitlar) bilan moddiy vositaga qayd etilgan axborot" [2;7-b.], deya ta'rifladi, I. Ergashev va Sh.Xusainovlar: "Hujjat–moddiy tashuvchida uni aniqlashga imkon beradigan tafsilotlar bilan qayd etilgan ma'lumotlar sanaladi" [1;9-b], deb izohlashadi.

Hujjat so'zi o'zbek tilida keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda davlat boshqaruviga oid normativ-huquqiy hujjatlar, boshqaruv faoliyatiga oida idora ish qog'ozlari va shaxsiy hujjatlarning barchasi hujjat hisoblanadi. Biroq qonun hujjatlari ko'pincha normativ-huquqiy hujjat atamasi bilan yuritiladi. Tor ma'noda esa boshqaruv faoliyatiga oid idora ish qog'ozlari va shaxsiy hujjatlarni tushunamiz. Lug'atda ko'proq hujjat atamasining tor ma'nosini izohlashga e'tibor qaratilgan.

Demak, hujjat atamasi arabcha bo'lib, *guvohnoma, isbot, dalil* [3;433-b.] ma'nolarini ifodalaydi va qayd etilgan axborotni zamon va makonda uzatish imkonini beruvchi moddiy obyekt hisoblanadi. Mazkur atama o'zbek tilida keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Vikipediya ma'lumotlarida hujjat shunday ta'riflanadi: Hujjat – keng ma'noda ma'lumotlar qayd etilgan moddiy buyumlar (*qog'oz, kinoplyonka, foto-plyonka, magnitofon lentasi, perfokarta va boshqalar*), *matn, tasvir, tovush* va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Mazmuniga ko'ra, hujjat *ilmiy-texnika hujjatlari* (maqolalar, kitoblar, patentlar, chizmalar, jadvallar va hokazo), *huquqiy hujjatlar* (qonunlar, nizomlar, qoidalar, farmonlar, qarorlar va boshqa davlat boshqaruvi hujjatlari), *boshqaruv hujjatlari* (buyruqlar, ko'rsatmalar, qarorlar va shu kabi idora hujjatlari) ga bo'linadi.

**Tadqiqotning metodologiyasi (Research Methodology).** Ish yuritish tizimida hujjat atamasi, asosan, matniy hujjatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Matniy hujjatlar huquqiy (normativ-huquqiy) va boshqaruv (idoraviy ish qog'ozlari) hujjatlaridan iborat.

Keng ma'noda davlat boshqaruviga oid normativ-huquqiy hujjatlar (qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlar), shuningdek, xo'jalik boshqaruvi faoliyatiga tegishli idora ish qog'ozlari va shaxsiy hujjatlarning barchasi *hujjat* deb ataladi. Biroq davlat boshqaruviga oid hujjatlar, ko'pincha, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun hujjatlari yoki qonunosti hujjatlar deya hujjat atamasi oldida sifatlovchi so'z bilan birga qo'llaniladi.

Tor ma'noda boshqaruv, biznes va shaxsiy faoliyatga oid rasmiy me'yorlarni tartibga soluvchi ish qog'ozlari *hujjat* atamasi bilan ifodalanadi. Hujjatlar munosabatlarni belgilashga va tartibga solishga, rasmiyatchilikni qayd etishga va tasdiqlashga, topshiriqlarni ijroga yo'naltirishga va nazorat qilishga, xabar va murojaatlarni rasmiy shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Hujjat atamasi ko'proq tor ma'noda qo'llanilishi kuzatiladi. Hujjat so'zi yakka holda yoki hujjatchilik shaklida qo'llanilganda, asosan, idora ish qog'ozlari, boshqaruv va shaxsiy hujjatlarga ishora qilinadi.

Hujjatlar bilan shug'ullanadigan faoliyat turi, soha *hujjatchilik* deb yuritiladi. Hujjatchilik ish faoliyatini qog'ozlarda aks va tartibga solib borish ettirish jarayonidir. Shuningdek, ish yuritish tizimida *hujjatlashtirish* atamasi ham faol qo'llaniladi. Mazkur atamaning ruscha muqobili "документирование": hujjatlarni yaratish va qayta ishlash jarayoni deb izohlanadi [5;5-b.].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Hujjat va ish qog'ozlari atamalari, ko'pincha, bir-biriga yaqin ma'noda qo'llaniladi, biroq ular mazmun jihatdan biroz farqlanadi: Idoralarda qisqa muddatda vazifasini bajarib, ish yuritish jarayonidan chiqib ketadigan, bir martalik qo'llaniladigan va arxivlashtirishga zarurat bo'lmagan rasmiyatchilik qog'ozlarini *ish qog'ozlari* deb yuritish maqsadga muvofiq. Hujjat deganda esa bir necha marotaba qo'llaniladigan yoki qo'llanilish muddati tugagandan keyin ham muayyan muddat idorada yoki arxivda saqlanishi lozim bo'lgan rasmiy qog'ozlarni tushunamiz.

Rasmiy hujjatlar bu yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan yaratilgan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va tasdiqlangan hujjatlardir. Hujjat tushunchasi eng keng doiraga ega bo'lishi mumkin, masalan, Word matn muharririda har bir fayl hujjatdir. Hujjat to'liq rasmiylashtirilgandan keyingina, ya'ni kerakli ma'lumotlarni to'ldirgandan so'ng rasmiy bo'ladi [1;9-b.].

Davlat tilida ish yuritish va hujjatchilik sohalari, bir tomondan, huquqshunoslik, ikkinchi tomondan, tilshunoslik obyekti hisoblanadi. Chunki hujjatlar huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun qo'llaniladi. Ularning tili, uslubi, matn qoliplari esa tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tilshunoslikda hujjatchilikning tili va uslubi, har bir tilning ish yuritish tizimi muammolari, taraqqiyot tamoyillari doimiy ravishda tadqiq etib kelinadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)** Har qanday tilning hujjatchilik uslubi uning ijtimoiy mavqeyi, qayta ishlanganlik darajasi, og'zaki va yozma muloqotda xalq orasida qanchalik faol qo'llanilishi bilan bog'liq. Tilning ish yuritishga moslashishi hujjat turlarida, qoliplarida, ish yuritish terminologiyasida aks etadi. Ish yuritish tizimida hujjatchilik atamalarini tushunish va farqlash ish samaradorligiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- [1]. Ergashov I.X., Xusainov S.A. Davlat tashkilotlarida ish yuritish tizimi va uning iqtisodiy mohiyati. "Science and Education" Scientific Journal. September 2021, Volume 2, Issue 9.
- [2]. Norbekov S.M. Boshqaruv tizimida ish yuritish asoslari. "Science and Education", Scientific Journal. October 2020, Volume 1, Issue 7.
- [3]. O'zbek tilining izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2023, 6 jildlik, 2-jild.
- [4]. ГОСТ Р 51141–98. Делопроизводство и архивное дело. Термины и определения. М., Госстандарт России, 1998.
- [5]. Делопроизводство (Организация и технологии документационного обеспечения управления): Учебник для вузов. Кузнецова Т.В., Санкина Л.В., Быкова Т.А. и др., под ред. Т.В.Кузнецовой. М., ЮНИТИ-ДАНА, 2001, 359 с.; ISBN 5-238-00193-2.
- [6]. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, Т., O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriёти, 2020, 5-жилд.
- [7]. <https://lex.uz/docs/-83472>.

**Sheraliyeva Shirin Abdusalomovna (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti; E-mail: [shirin.3009@mail.ru](mailto:shirin.3009@mail.ru); ORCID: 0009-0009-1210-9189)**  
**ILMIY DISKURSDA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDAGI EHTIMOLIY MUAMMOLAR**

*Annotatsiya.* Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – ilmiy diskursda frazeologik birliklar tarjimasidagi ehtimoliy muammolarni yoritishdan iborat. Ushbu mavzu bo'yicha bir qator ilmiy ishlar tadqiq qilindi. Mazkur masalaga turli olimlarning qarashlari misol tariqasida keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* ibora, frazeologiya, turg'un birikmalar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, tarjima, ilmiy matn, ilmiy diskurs.

Шералиева Ширин Абдисаломовна (доктор философии по филологическим наукам (PhD);  
Узбекский государственный университет мировых языков)

## ВОЗМОЖНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В НАУЧНОМ ДИСКУРСЕ

*Аннотация.* Основная цель данного исследования заключается в выявлении и анализе специфических трудностей, возникающих при переводе фразеологических единиц в контексте научного общения. Задачи исследования включают теоретическое обоснование понятия фразеологической единицы и ее роли в научном дискурсе, выявление основных проблем, связанных с переводом таких единиц. На эту тему написан ряд научных работ. В качестве примера приведены взгляды разных ученых на эту концепцию.

*Ключевые слова:* словосочетание, фразеология, устойчивые сочетания, словосочетания, фразеологические единицы, перевод, научный текст, научный дискурс.

Sheraliyeva Shirin Abdisolomovna (Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD) Uzbekistan State  
World Languages University)

## THE POSSIBLE TRANSLATION PROBLEMS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN SCIENTIFIC DISCOURSE

*Annotation.* The main goal of this research is to identify and analyze specific difficulties that arise when translating phraseological units in the context of scientific discourse. The objectives of the study include theoretical justification of the concept of a phraseological unit and its role in scientific discourse, identification of the main problems associated with the translation of such units. A number of scientific papers have been written on this topic. As an example, the views of various scientists on this concept are given.

*Key words:* phrase, phraseology, stable combinations, word combinations, phraseological units, translation, scientific text, scientific discourse.

**Kirish.** Hammamizga ma'lumki, globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning zamonaviy dunyosida xalqaro munosabatlarning kengayishi, Yevropa davlatlari va butun dunyo integratsiyasining kuchayishi, fan va texnikaning rivojlanishi, ilmiy va madaniy aloqalarning doimiy ravishda almashinuvi kuchayganligi sababli ilmiy-texnikaviy o'zgarishlarni tarjima qilishda amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassis tarjimonlarga alohida ehtiyoj sezila boshladi.

Ilm-fan olamida ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklar olimlar va tadqiqotchilar o'rtasidagi bilim va axborot almashinish jarayonining muhim omili hisoblanadi. U o'ziga xos jihatlarga ega maxsus leksik guruh bo'lib, ilmiy diskurslarda fikr va mulohazalarni aniq va ravshan ifodalash maqsadida qo'llanilishi bilan boshqa birliklardan ajralib turadi. Biroq tadqiqotchilar ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarni tarjima qilishda tilning lingvistikxususiyatlari va madaniy farqlari, shuningdek, kontekst bilan bog'liq ma'lum muammolarga duch kelishadi.

Tilshunoslikda ilmiy matnlar bilim va axborot almashinishda asosiy o'rin tutganligi sababli, ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarni tarjima qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tadqiq qilish muhim va dolzarb hisoblanadi. Ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilish nafaqat ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligini saqlashga yordam beradi, balki turli tillardagi ilmiy matnlarni yaxshiroq tushunish va idrok etishga ham yordam beradi. Biroq ilmiy iboralarini tarjima qilishda muayyan terminologiya, kontekstual ma'nolar va madaniy kodlar kabi bir qator qiyinchiliklar va muvofiqliklar paydo bo'lishi mumkin. Shu bois tilshunoslikda ilmiy matnlarni tarjima qilish sifatini oshirishda ushbu muammolarni o'rganish, ularni hal qilish usullari va tamoyillarini ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada biz ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklar tarjimasi-dagi ehtimoliy muammolarini ko'rib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ma'lumki, Rossiya tilshunosligida XX asrning 50–70-yillarida shakllangan tarjimaning lingvistik nazariyasi A.V.Fedorov, L.S.Barxudarov, Y.I.Retsker, V.N.Komissarov, A.D.Shveyser va boshqa tilshunos olimlarning nomlari bilan bog'liq, chunki mazkur olimlar tarjimaning lingvistik nazariyasini yaratishga hamda rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishgan. Y.V.Breus, R.K.Minyar-Beloruhev, I.S.Alekseyeva, L.L.Nelyubin, S.V.Tyulenev va boshqa olimlar esa tarjima nazariyasi fanini sezilarli darajada kengaytirishgan. Jahon tarjimashunosligida E.Nida, I.Graham, P.Newmark, S.Bassnet, K.Malmkjer va W.Kevin va boshqalar, O'zbekiston tilshunosligida Y.Po'latov, G'.Salomov, Q.Musayev, O.Mo'minov, N.Qambarov va boshqa olimlar tarjima nazariyasi borasida tadqiqotlar olib borishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishida qo'yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni bajarishda hozirgi zamon tilshunosligida ilmiy diskursda frazeologik birliklar tarjimasidagi ehtimoliy muammolar masalasining murakkabligi, ko'p qirraliligidan kelib chiqib, ushbu birliklarni o'rganish va tavsiflash uchun ko'p aspektli fanlararo yondashuvga asoslanildi hamda quyidagi tilshunoslik va fanlararo tadqiqot metodlaridan foydalanildi: lisoniy tavsif metodi (frazeologik birliklarni ilmiy diskursning birligi sifatida tarjima qilishdagi ehtimoliy muammolarni tavsif va tahlil qilishda); semantik metod (ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarning tarjima qilishdagi ma'noviy tahlili va tasnifi amalga oshirishda); komponent tahlil metodi (ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarning tarkibiy xarakteristikasini yoritishda).

**Tahlil va natijalar.** Ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklar ilmiy matnning ajralmas qismi bo'lib, uning to'g'ri tarjimasini ilmiy tadqiqotni tushunish va izohlashga bevosita ta'sir qiladi. Bunday birliklarni tarjima qilishdagi xatoliklar har bir tadqiqotchida turli xil tushunmovchiliklarga, ma'noning buzilishiga, hatto noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolarini tadqiq qilish va hal etish tilshunoslari, tarjimonlar hamda ilmiy matnlar bilan ishlovchi har bir mutaxassis uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

Rossiya tilshunosi O.V.Brejnevaning ta'kidicha, "Ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – bu ilmiy tushuncha, hodisa va jarayonlarni aks ettiruvchi maxsus termin va atamalardan keng foydalanishidir. Ilmiy matnlarda ko'pincha ma'lum bir ilm-fan kontekstida maxsus ma'noga ega bo'lgan aniq terminlar va leksemalardan iborat lug'aviy qatlam mavjud bo'ladi. Masalan, tibbiyot matnlarida "клиническая картина", "лабораторные исследования", "диагностические методы" kabi frazeologik iboralar ko'p uchraydi [1]. Darhaqiqat, ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklar tilshunoslikning alohida yo'nalishi bo'lib, ilmiy matnlarda qo'llanadigan turg'un birikmalar, iboralar va birliklarni o'rganadi. Ilmiy frazeologiyaning asosiy vazifasi – bu umumiste'mol frazeologik birliklardan o'zining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi birliklarni tahlil qilish va tasniflashdan iboratdir.

Ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarning yana bir jihatlari xususida M.Y.Ilyushkina: "qat'iy qoidalar va me'yorlar bilan ifodalangan rasmiy birikma va iboralarni qo'llash"ni e'tirof etadi. Olima "ilmiy matnlarda ko'pincha ma'lum tushunchalar, nazariyalar va qonunlarni yetkazish uchun qo'llanadigan birikmalar mavjudligini, ya'ni, fizik matnlarda "закон сохранения энергии", "метод конечных элементов", "теория относительности" kabi frazeologik iboralar ko'p uchraydi ta'kidlaydi [3].

Shuni ham ta'kidlash joizki, ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklar o'zining yuqori ixtisoslashuv va tor yo'nalish bilan boshqa turg'un birikmalardan ajralib turadi, chunki har bir ilm-fanning o'ziga xos frazeologik birliklari mavjud bo'lib, ular ushbu bilim sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va maxsus tushuncha va terminlarni yetkazish uchun qo'llaniladi. Masalan, kimyoviy matnlarda *химический элемент, химическая реакция, молекулярная структура* kabi frazeologik iboralar ko'p uchraydi [2].

Terminlarning polisemiya faqat o'rganilayotgan muammoning konteksti va chuqur o'rganish doirasida aniqlash mumkin. Masalan, yuridik adabiyotda *agreement* (kelishuv) termini ko'pincha *treaty* (shartnoma) leksemi orqali ifodalanadi. Bir qarashda bu ikki tushuncha bir xil bo'lib tuyulishi mumkin, biroq, *agreement* kelishuv, qaror kabi ma'nolarga ham ega. Shu bilan birga, *treaty* (shartnoma) ayrim hollarda shartnoma yoki kelishuv emas, balki uni tuzishga qaratilgan muzokaralar tartibini anglatadi [4;123-124-b.]. Demak, bunday hollarda tarjimon ko'rib chiqilayotgan tarjima kontekstini atroflicha o'rganishga, shuningdek, ikki tilli lug'atlarga murojaat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Xullas, ilmiy matnlarni tarjima qilish jarayonida turli xil ehtimoliy muammolar yuzaga kelishi mumkin, xususan terminlarning polisemiya, umumiste'mol leksikaning yangi ma'nolari va turg'un birikmalarining metaforik hamda idiomatiklik belgilari bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarni tarjima qilish nafaqat til bilishni, balki mazkur diskursning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni ham talab qiladigan murakkab va mas'uliyatli vazifadir. Ilmiy frazeologiya tarjimaning eng murakkab sohalaridan biridir, chunki u ilmiy matnlarda qo'llanadigan o'ziga xos lug'at qatlami va iboralarni ifodalaydi. Ilmiy frazeologiya bilan ishlashda tarjimonning asosiy vazifasi ilmiy bayonning tuzilishi va uslubini saqlab qolgan holda, manbaning matn mazmuni va terminologiyasini to'g'ri yetkazishdan iborat. Ilmiy diskursda qo'llanadigan frazeologik birliklarni tarjima qilishda aniqlik, ravshanlik va uslubni saqlash muvaffaqiyatli tarjimaning asosiy jihati hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Брежнева О.В. Проблемы перевода фразеологизмов, имеющих эквивалент в языке перевода: корпусное исследование. Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017, №. 9–1 (75), с. 89–93.
- (2). Голева Г.С. Фразеологическая система современного персидского языка (фарси) и принципы составления Фарси-русского фразеологического словаря. Дис. ... д-ра филол. наук, М., 2005, 250 с.
- (3). Илюшкина М.Ю. Теория перевода: основные понятия и проблемы. Учеб. пособие, М.Ю.Илюшкина, Урал. Федер. ун-т, Екатеринбург, изд-во Урал. ун-та, 2015, 84 с.
- (4). Лобанова, Е.А. Полисемия как проблема в языке права [текст]. Е.А.Лобанова. Сборник работ 68-й науч. конф. студентов и аспирантов Белорусского госуниверситета, Минск, БГУ, 2011, с. 123–124.

Axmedova Shaxodat Maxmutovna (Termiz davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi katta o'qituvchisi)

### ZAMONAVIY TIBBIYOT SOHASIGA OID TERMINLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola tibbiyot sohasiga oid terminlarning lingvokulturologik jihatdan tahliliga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotning maqsadi turli tillardagi tibbiy atamalarning milliy va madaniy ta'sirini o'rganish, ularning ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy terminlar o'rtasidagi o'xshashliklar, farqlar, tarixiy va madaniy omillarning ta'siri ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xususiyat, tahlil, atama, tibbiyot, terminologiya, lingvokulturologiya.

### ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

**Аннотация.** Данная статья посвящена лингвокультурологическому анализу медицинских терминов, цель исследования – изучить национально-культурное влияние медицинских терминов в разных языках, проанализировать их социальные и лингвистические характеристики. В статье рассматриваются сходства и различия медицинских терминов на узбекском и английском языках, а также влияние историко-культурных факторов.

**Ключевые слова:** особенность, анализ, термин, медицина, терминология, лингвокультурология.

### LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF MODERN MEDICAL TERMINOLOGY

**Annotation.** This article is devoted to the linguistic and cultural analysis of medical terms, and the purpose of the research is to study the national and cultural influence of medical terms in different languages, to analyze their social and linguistic characteristics. The article examines the similarities and differences between medical terms in Uzbek and English, as well as the influence of historical and cultural factors.

**Key words:** feature, analysis, term, medicine, terminology, linguocultural science.

**Kirish.** Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichi ko'hna tarixning turli davrlaridagi dunyoqarashlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida va “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “tibbiyot” tushunchasi: “...kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui”[1] deb ta'riflangan. Tibbiyotning sinonimi sifatida *meditsina*, *tabobat* kabi terminlar keltirilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida tibbiy terminlar lingvomadaniy jihatdan endigina o'rganishga kirishildi. Xususan, N.Gaybullayevaning dissertatsiyasini [5] ko'rsatishimiz mumkin. Uning tadqiqotida o'zbek jamiyatiga xos tibbiy evfemalarning milliy-etnik, gender xususiyati, nutqiy zanjirdagi qiymati, mulqot jarayonida etnosotsial xoslanishi ijtimoiy sinf, ijtimoiy rol, ijtimoiy mavqei, ijtimoiy vaziyat kabi omillar doirasida voqelanishi asoslangan.

Tibbiy terminlarning metaforik modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda F. Abdulxairovaning tadqiqoti ahamiyatga molik. Unda tibbiy termin-metaforalarning o'zbek tilida paydo bo'lish davridan to hozirgi kunga qadar tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari, boshqa tillar bilan munosabati va bu jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazgan buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida foydalanilgan terminlar xususiyatlari ochib berilgan [5].

**Tahlil va natija.** Shu o'rinda lingvokulturologiya haqida kengroq ma'lumot berib o'tsak. Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan sohasi bo'lib, u tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki xalq madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini va an'analarini aks ettiruvchi mu-

him omil sifatida ko‘radi. Lingvokulturologiya sohasi til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni tushunishga va ularni o‘rganish orqali turli millatlarning ma‘naviy qiymatlarini anglashga yordam beradi.

Semantik jihatlar va madaniy mazmun. Semantik tahlil natijalariga ko‘ra, turli tillardagi tibbiy atamalardagi ma‘nolar o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi “shifo” yoki “tabobat” so‘zlari shifokorlikning ma‘naviy va diniy ahamiyatini ifoda etsa, ingliz va rus tillarida bu atamalar ko‘proq texniq va ilmiy ma‘nolarga ega [2]. Bu natijalar har bir tilda tibbiy atamalarning semantik mazmuni xalqlarning qadriyatlarini, shifokorlik an‘analari va ijtimoiy qarashlariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Kontekstual tahlil natijalari. Kontekstual tahlil natijalariga ko‘ra, har bir tilda tibbiy atamalarning qo‘llanish kontekstida o‘ziga xosliklar borligi aniqlandi. Masalan, o‘zbek tilidagi tibbiy atamalar xalq tabobatida, ko‘p qo‘llaniladigan bo‘lsa, rus va ingliz tillaridagi atamalar, asosan, ilmiy va tibbiy muassasalar kontekstida ko‘proq qo‘llaniladi. Bu, ayniqsa, yangi texnologiyalar va zamonaviy tibbiyot muassasalari ta‘sirida shakllangan kontekstda yaqqol ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalari tibbiyot sohasiga oid terminlar orqali turli xalqlar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni chuqurroq tushunish imkonini berdi. Tibbiy terminologiya milliy madaniyat, an‘analari va ijtimoiy omillar ta‘sirida rivojlangan va har bir tilda o‘ziga xos semantik va kulturologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Ushbu tadqiqot natijalari tibbiyot sohasidagi terminologiyaning madaniy, tarixiy va lingvistik omillar ta‘sirida shakllanganini ko‘rsatdi. Turli tillardagi tibbiy atamalar turli xalqlarning shifokorlik madaniyati, ijtimoiy qarashlari va an‘analariga bog‘liq holda rivojlanib, zamonaviy tibbiyot tiliga moslashgan. Bu bo‘limda asosiy natijalar tahlil qilinib, ularning tibbiyot terminologiyasi tadqiqotlariga qo‘shadigan hissasi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ahamiyati muhokama qilinadi.

Tibbiy terminologiyada tarixiy va madaniy omillarning ahamiyati. Tibbiy atamalarning tarixiy manbalari turli tillarda turlicha bo‘lgani uchun ularning madaniy aloqalari ham turli xildir. Misol uchun, lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan atamalar zamonaviy yevropa tillari uchun umumiy asos vazifasini bajarib, ularni umumiy ilmiy tilga aylantirgan. Sharq xalqlaridagi tibbiy atamalar esa arab va fors tillaridan kirib kelib, xalq tabobati an‘analariga tayangan. Bu tadqiqot tibbiy terminologiyaning tarixiy rivojlanishi qanday qilib umumiy ilmiy tillarni shakllantirganini va milliy madaniyatga moslashganini ko‘rsatadi.

Milliy xususiyatlar va ijtimoiy ta‘sirilar. Tadqiqot natijalari ko‘rsatganidek, tibbiy terminologiya turli tillarda turlicha ijtimoiy va madaniy ma‘noga ega. Masalan, o‘zbek tilidagi tibbiy atamalar xalq tabobatiga oid o‘zgacha mazmun va qimmatga ega bo‘lsa, rus va ingliz tillaridagi atamalar ko‘proq zamonaviy ilmiy yutuqlarni aks ettiradi [3]. Bu tibbiy atamalarning umumiy mazmunida milliy madaniyat va ijtimoiy omillarning ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Har bir tildagi tibbiy atamalarning semantik jihatdan farqli bo‘lishi xalqlarning tibbiyot sohasidagi qarashlari va qadriyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Globalizatsiya va umumiy terminologiya. Globalizatsiyaning kuchayishi bilan turli tillar o‘rtasida tibbiy atamalarning o‘zaro ta‘siri ortib bormoqda. Jumladan, ingliz tilidagi ko‘plab atamalar xalqaro tibbiyot tilida umumiy qabul qilingan va boshqa tillarga kirib kelgan. Bunday o‘xshashliklar xalqaro tibbiyot aloqalarini osonlashtirgan bo‘lsa-da, har bir tildagi milliy o‘ziga xosliklarni saqlab qolishdagi qiyinchiliklarni ham keltirib chiqardi. Masalan, “vaksina”, “diagnoz” yoki “terapiya” kabi atamalar turli tillarda bir xil ma‘noda ishlatilsa-da, ularning qo‘llanilishi va qabul qilinishida milliy madaniyatning ta‘siri sezilarli.

Cheklovlar va kelajak tadqiqotlar. Ushbu tadqiqot o‘zbek va ingliz tillariga asoslangan bo‘lib, ma‘lum bir cheklangan atamalar qiyoslab o‘rganildi. Kelajakda tibbiyot terminologiyasiga oid tadqiqotlarda boshqa tillarni ham qamrab olish va xalq tabobati atamalari bilan zamonaviy tibbiy terminlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni chuqurroq o‘rganish tadqiqotning ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, globalizatsiyaning tibbiyot terminologiyasiga ta‘siri va har bir tilda milliy o‘ziga xosliklarni saqlab qolish masalalarini yanada chuqurroq tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tibbiy terminologiyaning lingvokulturologik jihatdan tadqiqi madaniy, ijtimoiy va tarixiy omillar tibbiyot atamalari rivojlanishiga qanday ta‘sir etganini ko‘rsatadi [1]. Bu tadqiqot natijalari turli xalqlar o‘rtasidagi umumiyliklar va farqlarni aniqlab, tibbiyot terminologiyasi bo‘yicha kelajak tadqiqotlarga yangi yo‘nalishlar ochadi. Bunday tadqiqotlar tibbiyot sohasida umumiy ilmiy til shakllanishiga yordam berish bilan birga, milliy va madaniy o‘ziga xosliklarni saqlab qolishga ham xizmat qiladi.

Shu o‘rinda tibbiyot sohasiga oid terminlarning lingvokulturologik tadqiqi ularning madaniy, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganishni o‘z ichiga olishini ta‘kidlab o‘tish joiz. Quyida tibbiy terminologiyaning lingvokulturologik jihatlari va misollari keltiramiz:

Xalq tabobatidagi atamalar. Ba‘zi xalqlarda tabobat an‘anaviy shifokorlik tushunchalari bilan boyitilgan bo‘lib, bu terminologiya madaniyatga xos xalq tabobati yutuqlari bilan chambarchas bog‘liq. Masa-

lan, o'zbek tilidagi "devorash" yoki "demlamalar" (o'simliklardan tayyorlangan shifobaxsh ichimliklar) so'zlari xalq tabobatining an'analari aks ettiradi. Bu atamalar boshqa tillardagi tibbiyotga oid so'zlarga qaraganda ko'proq madaniy va milliy o'ziga xoslikka ega bo'lib, o'zbek xalqining tabobat an'analari tushunishga yordam beradi [4].

Zamonaviy tibbiy atamalarning xalqaro o'xshashliklari va farqlari. Zamonaviy tibbiyotda ingliz tilidan kirib kelgan ko'plab atamalar bor. Bu atamalar ko'p tillarda bir xil ma'noda ishlatiladi va global tibbiy terminologiyaning umumiy qismi hisoblanadi. Biroq bu atamalar milliy madaniyatga moslashtirilib, turli tillarda turlicha ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan, "vaksinatsiya" so'zi ayrim madaniyatlarda yoki davlatlarda alohida qarashlar, ijtimoiy yoki diniy omillar sababli turlicha qabul qilinishi mumkin.

**Xulosa.** Tadqiqotning ahamiyati shundaki, tibbiy terminologiya orqali turli xalqlarning shifokorlik madaniyati, ijtimoiy qarashlari va qadriyatlarini ifoda etiladi. Bu, o'z navbatida, tibbiyot sohasida umumiy ilmiy til shakllanishiga yordam berish bilan birga, milliy madaniyat va an'analarni saqlab qolish imkonini ham yaratadi. Kelajakda tibbiyot terminologiyasi bo'yicha tadqiqotlar kengroq tillarni qamrab olgan holda olib borilishi va xalq tabobati atamalarini zamonaviy tibbiy terminlar bilan qiyoslab o'rganish yanada boy ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Ўзбекистон миллий энциклопедияси. www.ziyouz.com кутубхонаси.
- (2). Абдулхайрова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс., Т., 2021, 132-бет.
- (3). Akbarxodjayeva F.A. (2022). Tibbiyot sohasiga oid o'zlashma terminlarning lingvostatistik tadqiqi (lotin tilidan rus va o'zbek tillariga o'zlashgan terminlar misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref., Toshkent, 54 bet.
- (4). Базарова Д.Х. Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках. Автореф. дис.канд. филол. наук, Т., 1967, 27 с.
- (5). Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемалар (тиббий даврий нашр материаллари асосида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф., Бухоро, 2019, 50 бет.
- (6). Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмларнинг лингвистик хусусиятлари. "Сўз санъати" халқаро журнали, 4-жилд, 3-сон, 2021, 202–211-бетлар.

#### Nurjanov Oybek Erkin o'g'li (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti)

#### TO'Y-MAROSIM NOMLARINI ANGLATUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR TASNIFI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek shevalarida to'y-marosim ifodalovchi leksik birliklarning tur-lari haqida so'z yuritilgan. Jumladan, nikoh marosimi bilan bog'liq nomlar leksikasi, yoshni bildiruvchi etnografizmlar, diniy marosim nomlarini ifodalovchi etnografizmlar bo'yicha fikrlar keng turda bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** etnografizm, nikoh marosim, qipchoq, o'g'uz shevalari.

#### КЛАССИФИКАЦИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ ПОНЯТИЯ СВАДЕБНЫХ ОБРЯДОВ

**Аннотация.** В данной статье говорится о типах лексических единиц, обозначающих свадебные обряды в узбекских диалектах. В частности, широко высказывались мнения о лексике имен, связанных с брачной церемонией, этнографиями с указанием возраста и этнографиями, выражающими названия религиозных обрядов.

**Ключевые слова:** этнография, брачный обряд, кыпчакский, огузский диалекты.

#### CLASSIFICATION OF LEXICAL UNITS DESIGNATING CONCEPTS OF WEDDING CEREMONIES

**Annotation.** This article talks about the types of lexical units representing wedding ceremonies in Uzbek dialects. In particular, opinions on the lexicon of names related to the marriage ceremony, ethnographies indicating age, and ethnographies expressing the names of religious ceremonies have been widely expressed.

**Key words:** ethnography, marriage ritual, Kipchak, Oguz dialects.

**1. Kirish.** O'zbek marosim leksikasi etnografik leksika bilan uzviy bog'liq bo'lib, ba'zi o'rinlarda marosim leksikasiga obyekt bo'lgan material etnografik leksikaning ham obyekt bo'lishi mumkin. Bu holat shu obyektning xarakter-xususiyatiga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklari leksikasi juda boy va rang-barang bo‘lib, o‘zining shakllanishi, taraqqiy topishi nuqtayi nazaridan tarixiylik kasb etadi. Shevalar leksikasida uchraydigan marosim ifodalovchi ayrim so‘zlar boshqa xalq shevalarida uchramasligi bilan xarakterlidir. Tugal gap tarzida **сыпра қакты** atamasi ham Xorazm o‘g‘uz shevalarida to‘ydan keyingi yakuniy marosim nomini ifodalaydi.

**2. Metodologiya.** Tilshunoslikda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-genetik, matnshunoslikni o‘rganish usullari kabi tadqiqot metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Qipchoq tiliga oid manbalarni o‘rganishda ham yuqoridagi usullar yordamida tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

**3. Natijalar.** Janubiy Qoraqalpog‘iston shevalaridagi nikoh marosimi leksikasi tasnifi ahamiyati, dolzarbligi, miqyosi, o‘z tarkibiga ko‘pgina kichik marosimlarni birlashtirib, tarkibiy qismi sifatida sheva va dialektlardagi ifodalaviyligi bilan ajralib turadi. Nikoh marosimi leksikasi urf-odat bildiruvchi so‘zlarga yaqin, ba‘zi o‘rinlarda sof etnografizmlar sirasiga ham kiradi. Xalqning moddiy, ma‘naviy turmush tarzini to‘laqonli aks ettiruvchi leksikaning bir qismidir. To‘y marosimlari leksikasi bevosita dialektizmlarga bo‘yligi bilan ham, tarixan shakllanishi bilan ham, tarix va etnografiya fanida o‘z yo‘nalishi bo‘yicha keng o‘rganiluvchi soha hisoblanadi. Xalq shevalari qanchalik rang-barang bo‘lsa, nikoh marosimi leksikasi ham o‘zining dialektlarda ifodalanishiga ko‘ra, rang-baranglik kasb etadi.

Aslida, qadimda to‘y marosimining boshlanishi irim-sirimlar asosida keng shakllangan bo‘lib, xarakter-xususiyatiga ko‘ra, etnografik xarakterga ega bo‘ladi. Lekin shu o‘rinda ikki do‘st yoki qarindoshlar teng farzand ko‘rib, biri qiz, biri o‘g‘il ko‘rsa, *қулақ тишләтмиш* marosimi o‘tkazilgan. Bu janubiy qoraqalpog‘iston shevalarida ayollar o‘rtasidagi kichik marosimni anglatib, qarindosh-urug‘chilikning mustahkamlanish belgisi sifatida qaralgan. O‘zining ma‘lum darajada marosimlik xususiyatidan kelib chiqib, to‘y marosim leksikasini tasniflab o‘rganishni joiz topdik.

**4. Muhokama.** 1. Nikoh marosimi nomlari leksikasi. Ushbu marosim nomi xalq shevalarida аташтирув, атақламоқ, адамақ, айтып қойылған, адағлы leksemalari bilan ham yuritilgan. Hozirgi paytda bu leksik birliklar deyarli iste‘moldan chiqqan.

*Эшигиңи әлдә меваль-бағлы,*

*Деймә жаным, мән шубалаға адағль.* (xalq qo‘shig‘i)

Nikoh to‘yining boshlanishi ancha mas‘uliyatli bo‘lib, shungacha o‘tkaziladigan marosimlar nomi sheva va dialektlarda anchagina miqdorni tashkil etadi [1;120–130-b.]. Masalan, *оғры пәти:р, уллы пәти:р, ойгөрәр, пәтйә той, хи:на йақар, тойлық аппарыш, хизмәта чақырық, геңәш той* kabi atamalarning har biri o‘z xarakteriga ko‘ra, etnografik leksikaning ham boy materiali hisoblanadi. Bu marosimlarni ifodalovchi atamalarning ko‘pchiligi hozirgi paytda qo‘llanilmaydi. Masalan, *ойгөрәр* marosimi deyarli unutilgan bo‘lib, kekxa avlod vakillari bilishi mumkin, xolos. Marosim leksikasi xalq tarixini eng musaffo saqlaydigan qismi. Bu leksikani o‘rganish jarayonida shu xalqning qadimdan qay tarzda va qanday holatda yashab kelayotganligi, qisqasi, uning ma‘naviyati, madaniyati hamda o‘zligini qay darajada saqlaganligi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. Tarix va etnografiya fani uchun ham ba‘zi o‘rinlarda qimmatli material vazifasini o‘tashi, shubhasiz.

To‘y marosimi leksikasi tarkibiga kiruvchi atamalardan biri *көрпә бичәр, көрпә и :мь, көрпә иммә* nomi bilan yuritiladigan marosimdir. Bu leksik birlik ifodalaydigan marosim to‘ydan oldin boshlanib, kelin uyini jihozlash uchun kekxa ayollar o‘rtasida o‘tkaziladigan marosim hisoblanadi. Qiz tomon tayorlaydigan narsalar o‘g‘uz shevalarida *sep*, qipchoq shevalarida *мүскәнә* deb yuritiladi.

Bundan ko‘rinadiki, marosim leksikasi xalq shevalari lug‘atiga anchagina qimmatli materiallar beradi va uning boyishida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. To‘y kuni yaqinlashgan sari turli marosimlar o‘tkazila boshlanadi. Deyarli har kuni bitta marosim o‘tkazilib, o‘zining xarakter-xususiyatiga ko‘ra nomlanadi. Shu o‘rinda ot va fe‘lning infinitiv shaklining birikuvi natijasida shakllangan marosim nomini ham keltirish mumkin. Marosim leksikasi tarkibidagi *ун әләр* leksemasi ikkita so‘z qo‘shilib, *унәләр* shakliga kelib, sinxronik jihatdan olib qaralganda, bir o‘zakdan tashkil topgan marosim nomini bildiruvchi atamalar sirasiga kiritish mumkin. To‘y marosimini bildiruvchi hamda u bilan bog‘liq marosim nomlari sheva va dialektlarda, ko‘pincha, ot+fe‘l tarkibli atama sifatida shakllangan. Bu holat uzoq asrlar osha shakllanganligini hisobga olib, ularni atamalashish jarayonini boshdan kechirmoqda, deb izohlash mumkin. Chunki ikki so‘zdan tashkil topgan marosim nomlarining sheva va dialektlarda qo‘llanishini e‘tiborga olsak, ikkala so‘z o‘rtasidagi, ya‘ni ikkinchi komponentning birinchi tovushi ancha zaiflashganligi kuzatiladi. Masalan, *унәләр, ойгөрәр* kabi. Asosan, bu birikmalarning talaffuz qilinishida ikki so‘z o‘rtasida deyarli pauza yo‘qligi seziladi. Nikoh to‘yidan oldin ba‘zi o‘g‘uzlar yashaydigan hududlarda *чайхалта қайтарыш* marosimi amalga oshiriladi. Bu marosim qipchoq shevalari leksikasida deyarli uchramaydi. O‘g‘uz shevalari leksikasida hozirga-

cha bu marosim nomi faol qo‘llanadi. Nikoh to‘yidan bir kun oldin qiz uyida bo‘ladigan marosim nomi o‘g‘uz shevalarida *хи:на йақар, қи:з йеңлар* atamaları bilan ifodalansa, qipchoq shevalarida *қыз жинар, қыз йиғын* nomi bilan yuritilib, o‘g‘uz shevalaridagi talaffuziga nisbatan fonetik jihatdan farq qiladi. Nikoh to‘yiga alohida tayyorgarlik ko‘rilishining o‘zi u bilan bog‘liq bir qancha marosimlarning o‘tkazilishiga sabab bo‘ladi. Bular qatoriga yuqoridagilardan tashqari ot+fe‘l shaklidagi *қарры чақырық, рейис чақырық* kabi ikki so‘zdan tashkil topgan atamalar ham mansub. Bir komponentli atamalar ham borki, marosim nomini bildirishda ular kam ishtirok etadi. Masalan: *отырышма, геңәш* kabi. Ba‘zi o‘rinlarda marosimga aytilgan mehmonlar hajmiga qarab ham atalish xususiyati seziladi: *уллы той, киччи той* kabi.

Etnografik xususiyatiga ega bo‘lgan, ya‘ni, to‘y boshlanishidan oldin qozon boshida oshpaz boshchiligida o‘tkaziladigan kichik marosimlar borki, ular o‘g‘uz shevalarida *жин қаиты*, qipchoq shevalarida *чопьмә*, aralash tip shevalarida *tuxumbash* deb yuritiladi [2;118-b.].

Nikoh to‘yi ertasiga o‘g‘uzlar yashaydigan qismida *гәли:н гөрәр* marosimi o‘tkazilib, ba‘zi hududlarda shu kuni pishiriladigan taom nomi bilan atalib, *гәли:н бәрәк*, qipchoq shevalarida esa *бет ачар/йүзачар* atamaları bilan ifodalanib, bu nomlar qo‘shma so‘z sifatida shakllanib, o‘g‘uzlar yashaydigan hududlarda to‘y ertasiga, qipchoqlar yashaydigan hududlarda to‘y kuni o‘tkaziladi. Tilshunos olim A.Ishayev o‘z tadqiqotida bu fikrni qayd qilib o‘tgan [3;118-b.]. To‘ydan keyingi davrda ham o‘tkaziladigan marosimlar borki, ular marosim leksikasining boyishi uchun xizmat qiladi. *Қуда данышма, чапан палав* kabi atamalar marosim nomini anglatishi bilan birga, xalq tarixining ham ma‘lum tomonini yoritib, o‘ziga xos milliy-ma‘naviy tomonini ko‘rsatadi.

M.Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida marosim leksikasiga oid so‘zlar ham uchraydi: *тойлык (ўғ.) – жуфуш (ДЛТ. 3-том, 18-бет); геңәш (ўғ.) – кенәш (ДЛТ. 3-том, 376-бет)* kabi.

Yuqorida keltirilgan marosim ifodalovchi atamalarning ko‘pchiligi faqat Xorazm o‘g‘uz shevalariga xos bo‘lib, deyarli boshqa o‘zbek shevalarida uchramasligi bilan xarakterlidir. Bundan tashqari, *гуйәв алыш, хатын хавары* kabi marosim ifodalovchi so‘zlar faqat Urganch tumanining G‘oybu, Qoromon, Bekobod qishloq shevalarida uchraydi.

Xorazimliklar bilan turkmanlar yonma-yon yashashlari, ularning urf-odatlaridagi mushtarakliklar ular leksikasida ham ko‘zga tashlanadi. Bu holat haqida ko‘pgina olimlar o‘z fikrlarini bildirganlar [4;92–97-b.]. Yuqoridagi *той, ника той, а:д қойыш, беишк той, сүннәт той, геңәш* kabi dialektizmlar turkman tillari uchun ham mushtarakdir.

2. Yosh bilan bog‘liq etnografizmlar. Inson yoshi bilan bog‘liq marosim nomlari xalq shevalarida paydo bo‘lgan keyingi hodisadir. Albatta, bu marosim nomlarining paydo bo‘lishiga ma‘lum darajada insoniyat tarixida yuz bergan sotsial ijtimoiy-siyosiy buhronlar sababdir. Buning natijasida Yevropa urf-odatlariga xos bo‘lgan marosimlar musulmon xalqlari orasida ham asta-sekin tarqala boshladi. Shungacha bo‘lgan davrda diniy nuqtayi nazardan faqat vafot etgan shaxsning qazo qilgan kuni ma‘lum bir kichik diniy marosim uyushtirilgan. Hozirgi davrda inson ma‘lum yoshga yetganini bildiruvchi marosimlar paydo bo‘ldi:

1) yosh bilan bog‘liq nomlar: *йубилей, қырқ йаш тойы, бър йаш тойы, мучәл тойы*. Bular, asosan, sifat+ot, son+ot, ot+ot tipida shakllangan bo‘lib, muayyan marosim nomini ifodalaydi;

2) diniy qarashlar asosida shakllangan yosh bilan bog‘liq marosim nomlari: *пейгәмбәр йашы тойы, минг ай гөрдә* kabi birikmali marosim nomlari ham mavjud. Bu marosim nomini ifodalovchi leksik birliklar ham tashqi ta’sirlar asosida keyingi davrlarda shakllangan bo‘lib, marosim leksikasi qatlamida neologism sifatida qaraladi.

3. Diniy marosim nomlarini ifodalovchi etnografizmlar. Bunday leksik birliklar sheva leksikasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Chunki arablar istilosidan so‘ng qancha vaqt o‘tgan bo‘lsa, shu davrdan boshlab shakllanib, xalq ongiga singib, ular leksikasida o‘zining mustahkam izini qoldirgan. Bunday marosimlar sirasiga, asosan, son bilan ifodalanuvchi, ya‘ni raqamlarga asoslangan *үчи, йеддәси, қырқы* kabilar kiradi. Bundan tashqari, musulmon oylari bilan bog‘liq *иптарлық, сә:рлик, қурванлық* kabilar ham marosim leksikasiga xos dialektizmlardir. Diniy marosimlar o‘zining asos e‘tibori bilan xalq shevalarida mustahkam o‘rin egallagan.

Diniy marosim nomlarini ifodalovchi dialektizmlar, asosan, barcha turkiy xalqlar shevalari uchun umumiydir. Shu nuqtayi nazardan, ayrim fonetik o‘zgachaliklarni hisobga olmaganda, ularning atalishi motivida deyarli o‘zgarishlar uchramaydi. Ba‘zi o‘rinlarda leksik o‘zgachaliklar bo‘lishi esa qonuniy holdir. Masalan, *йүз гүнлик, әлли икки гүнлик, жумалық* kabi leksik birliklar o‘g‘uz sheva vakillari leksikasi uchun butunlay begonadir.

**5. Xulosa.** Umuman, Janubiy Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari tarkibidagi to‘y marosimlar leksikasi o‘zining sohalararo bog‘liqligi, rang-barangligi, etimologik-semantik tabiati, derivativ asoslari nuqtayi nazaridan, maxsus o‘rganishni talab etadi. Bu hol xalq tarixi va etnografiyasi uchun ham qimmatlidir. Mazkur yo‘nalishni tasniflab o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Janubiy Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari leksikasi tarkibidagi to‘y marosim bilan bog‘liq leksik birliklarni tadqiq etish o‘sha hududning tarixiy turmush tarzi, urf-odatlarini va madaniyatini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi.

#### Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Sarimsoqov B. Beshik to‘ylari folklori. “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi”, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1990, 120–130-betlar.
- (2). Mirzayev N. O‘zbek tili etnografik leksikasi. AKD, Toshkent, 1971, 118-bet
- (3). Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. Toshkent, “Fan”, 1977, 118-bet
- (4). Arazquliyev T.S., Ataniyozov S., Berdiyev R., Saparova G. Turkman tilining qisqacha dialektologik lug‘ati. Ashgabad, “БЫЛЫМ”, 1977, 97-bet.
- (5). Махмуд Кошғарий. Девону луғот ит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Биринчи том, Тошкент, “Фан”, 1960.

**Abduqaxxorov Sardorbek Akramjon o‘g‘li (Andijon davlat Chet tillar instituti kengashi kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD))**  
**GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY URF-ODAT, AN‘ANA VA UDUMLARNING TILDA AKS ETISHI BORASIDAGI O‘ZIGA XOS MASALALAR**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada globallashuv davrida filologiya sohasiga oid bo‘lgan milliy urf-odat, an‘ana va udumlarning tilda aks etishi borasida masalalar ko‘rib chiqilgan va misollar orqali yoritilgan, tahlillar bilan dalillangan. Masalaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy urf-odat, an‘ana va udumlar, o‘sma idiomasi, non sindirmoq, etnografik leksika.

**Абдукаххоров Сардорбек Акрамжон угли (секретарь совета Андижанского государственного института иностранных языков, доктор философии по филологии (PhD))**

**ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВОГО ОТРАЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, ТРАДИЦИЙ И ТРАДИЦИЙ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

*Аннотация.* В данной статье были рассмотрены и разъяснены на примерах, доказанных анализом, вопросы, связанные с отражением в языке национальных обычаев, традиций и обычаев, относящихся к сфере филологии в период глобализации. Анализируются особенности вопроса.

**Ключевые слова:** национальная традиция, традиции и обычаи, этническая идиома, преломление хлеба, этнографический лексикон.

**Abdukakhkhorov Sardorbek Akramjon ugli (Secretary of the council Andijan State Institute of International Language, Doctor of Philosophy and Philology (PhD))**

**SPECIFIC ISSUES REGARDING LANGUAGE REFLECTION OF NATIONAL CUSTOMS, TRADITIONS AND TRADITIONS IN THE PERIOD OF GLOBALIZATION**

*Annotation.* In this article, the issues related to the reflection of national customs, traditions and customs related to the field of philology in the period of globalization in the language were considered and clarified through examples, proved by analysis. Specific features of the issue are analyzed.

**Key words:** national tradition, traditions and customs, ethnic idiom, break bread, ethnographic lexicon.

**Kirish (Introduction).** Til odamlarning yashash tarzi, tevarak-atrofini qurshab turgan tabiat va jamiyat hodisalari, o‘zaro munosabatlari – insoniyat olamining barcha qirralarini ular mansub bo‘lgan madaniyat fonida aks ettiradi hamda mana shularning barchasini o‘zida saqlab, avloddan avlodga yetkazadi. Shuning uchun ham til shaxs, milliy xarakter, etnik jamoa, xalq, millatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tilning milliy xususiyatga ega bo‘lgan qatlamida qadriyatlar, ijtimoiy axloq, dunyoga, odamlarga, boshqa xalqlarga munosabat tizimi saqlanadi. Uning, aynan, ana shu jihati har doim tilshunos olimlarning ham, chet tillarini o‘rganuvchilarning ham e‘tiborini tortib kelgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** “Til – madaniyat ko‘zgusi bo‘lib, u nafaqat insonni o‘rab turgan real dunyoni, real sharoitlarinigina emas, balki xalqning ijtimoiy o‘z-o‘zini anglashi, mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, an‘analari, udumlari, axloqi, qadriyatlar tizimi, axloqi, dunyoqarashi, olamni anglashini aks ettiradi” [1;14-b.]. Milliy ma‘naviyatimizning o‘zagi, xalqimiz mav-

judligi va tirikligining belgisi hisoblangan, xalq ruhiyatini o'zida mujassam etgan boy tilimiz xalq madaniyati, an'analari, urf-odatlarini ifodalovchi xazina hamdir.

Ma'lumki, inson bolaligidanoq o'z xalqining tilini, shu bilan birga, madaniyatini o'rganib, anglab boradi. Xalq madaniyatining barcha nozik jihatlari olamni, undagi shaxsni turli yo'llar bilan qamrab olganligi bilan o'ziga xos va takrorlanmas tilda namoyon bo'ladi. Lingvokulturologik tahlil tildagi ana shu noziklik jihatining shakllanish omillarini o'rganishi bilan tilshunoslarni tobora ko'proq o'ziga jalb etmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

“Olam haqidagi ma'lumot va tasavvurlarning aksariyati insonga lingvistik kanal orqali keladi, shuning uchun inson obyektlar va narsalar dunyosiga qaraganda intellektual, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlar uchun yaratilgan tushunchalar dunyosida ko'proq yashaydi: ma'lumotlarning katta ulushi unga so'z orqali keladi va insonning jamiyatdagi muvaffaqiyati uning so'zni qanchalik to'g'ri aytishiga bog'liq bo'lib, hatto nutq madaniyati nuqtayi nazaridan ham emas, balki til sir-asrorlariga singib keta olishiga bog'liq” [2;3-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Til inson olami va madaniyatini o'zida aks ettiribgina qolmay, uni avloddan avlodga yetkazuvchi ko'prik vazifasini ham o'taydi. Shuning uchun ham inson shaxsiyati milliy xarakteri, o'ziga xos dunyoqarashi, atrofidagi olamga va qadriyatlarga nisbatan munosabati uning tilida, til birliklarini qo'llashida yaqqol namoyon bo'ladi. Muayyan til jamoasi, aynan, tildan foydalanish asnosida milliy-madaniy o'ziga xoslikni, turmush tarzini, an'ana va urf-odatlarini majmui mohiyatini aks ettiradi. Bu vazifani milliy mentalitet bo'yog'ini yuzaga chiqaruvchi atamalar, frazeologizmlar, ideomalar kabi til birliklari bajaradi. Masalan, *Qizlar, kelinglar, o'sma qo'yamiz* jumlasini muayyan madaniyat doirasidagi til tashuvchilari uchungina estetik ahamiyatga ega, o'ziga madaniyatga oid milliy toifa uchun esa u tushunarsiz ifoda bo'lib qolishi mumkin. Chunki Yer yuzida hamma xalqlarning xotin-qizlari ham o'sma qo'yavermaydi. Qadimdan o'zbek xonadonlarida ayollar qosh-ko'zlariga qo'yish uchun hovlilarda o'stiriladi. *O'sma* idiomasi maqol va qo'shiqlarga ham ko'chganki, bu tushuncha milliy xususiyat ekanligining yaqqol isbotidir:

*O'sma ketar, qosh qolar.*

*Seni ko'rgan yana ko'ray desin, alla,*

*“Kimning qizi–bu? – deb so'rab kelsin, alla.*

*Sochlaringni mayda o'rib qo'yay, alla,*

*Qoshlaringga o'sma qo'yib qo'yay, alla.*

Shu tariqa, “idiomalarni ovqatga ehtiyotkorlik bilan, chimchilab, pichoq uchida qo'shiladigan zira-vorlarga o'xshatish mumkin, ya'ni, ularsiz nutqning o'zi butunlay boshqacha, u qadar o'tkir va yorqin bo'lmagan, oddiy neytral komponentlar – ideomatik xarakterga ega bo'lmagan so'z va iboralardan iborat” [3; 80-b.].

Muayyan xalqning ko'p asrlik hayoti, madaniyati, turmushi, ijtimoiy va ma'naviy faoliyati jarayonida yaratilgan har bir marosim, an'ana, udum va e'tiqodlarga oid so'z va terminlar borki, ular tilning lug'at tarkibida ma'lum leksik guruhni tashkil etadi. Bunday so'zlar guruhi tilshunoslikda “etnografik leksika”, “etnografik dialektizmlar”, “etnografizmlar” kabi terminlar bilan nomlanib keladi.

N.Mirzayevning “O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati”ga marosim, urf-odat, an'analari, rasm-rusumlarga oid 1300 dan ortiq so'z va birikmalar kiritilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** “Etnografik leksika va uning turli sohalariga oid so'zlarining ma'lum qismi umumiste'moldagi so'zlarni asl ma'nodan tashqari o'zgacha ma'noda qo'llash, unga yangi qo'shimcha ma'no yuklash asosida yuzaga kelgandir. Masalan, *tovoq, uloq, tugun, yirtish, aytimchi, yetti, qirq, yil* kabilar oddiy muomaladagi so'zlar bo'lib, ular etnografiya sohasining leksikasi sifatida o'zgacha ma'no kasb etadi (bunday ma'nolarga lug'atda izoh berilgan). Albatta, yuqoridagi kabi so'zlarning qanday ma'noda qo'llanishi so'zlovchining mo'ljaliga bog'liq holda, uning doimiy ma'nosidan tashqari, u yoki bu planda qaysi maqsad uchun mo'ljallanganligi bilan oydinlashadi” [4;3-b.]. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bunday leksik birliklar milliy mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqqib, aksariyat hollarda, so'zning ko'chma ma'nosi asosida paydo bo'ladi.

Samarqand tumanining mahallalaridan birida janozada qatnashganlarga *yirtish* – dastro'molga o'ralgan choy tarqatildi.

*Yirtish.* 1. Yirtmoq fe'lining harakat nomi shakli.

2. *etn.* Marhumni ko'mish marosimida qatnashgan kishilarga va uning yaqinlariga beriladigan bir bo'lak ro'molchabop mato; durra; oqlik [5;315-b.].

Demak, matoni *yirtish, bo'laklash* harakatining metonimik ma'no ko'chishi orqali aza marosimida ijro etiladigan udumning nomi kelib chiqqan.

Yana bir misol: *non sindirmoq* birikmasi o'z ma'nosida qo'llanganda, oddiy mazmun – nonni bo'laklamoq harakatini ifodalaydi. Idioma sifatida esa o'zbek mentalitetiga oid to'ydan oldingi udumlardan birini nomlab, chuqur mazmunga ega bo'lgan ikkilamchi nominativ birlik hisoblanadi.

**Non sindirish** – nikoh to'yi marosimlaridan. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan. *Non sindirish* otaning sovchi yuborgan oilaga qizini uzatishga rozi ekanligi, va'daning qat'iy va muqaddasligini, shuningdek, kuyov-kelin, quda oilalar ahil bo'lishiga bildirilgan istakni ifodalaydi. Non sindirish odati ayrim mahalliy tafovutlarga ega. Chunonchi, Farg'ona vodiysidagi o'zbeklarda qizning otasi rozi bo'lgach, bajariladi: sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, noni sindiriladi, so'ng to'y masalalari aniqlanadi. Surxondaryo vodiysida esa qalin miqdorini belgilashdan so'ng o'tkazilgan – non teng ikkiga bo'linib, kelin va kuyovning qarindoshlariga taqsimlangan [6;286-b.]. Marosimning bunday nomlanishiga esa nonning qadimdan e'zozlanib, muqaddas, aziz ne'mat sifatida qadrlanishi va mana shu qadr-qimmat tushunchasi yangi paydo bo'ladigan oila hamda bo'lajak qudalar orasida ham mustahkamlanishining niyat qilinishi asos bo'lgan.

*Yangi bo'lmish og'ayni-jamoa qoshiga bordi. Oymomo sukutini aytdi.*

*Sovchilar dasturxonga o'ralmish nonni o'rtaga qo'ydi.*

*Qalin aytish boshlandi.*

– *Xo'-o'sh...*

– *Elga qarab ayting-da.*

– *Xo'-o'p...*

– *Bo'ldi-ye, hech kim qiz uzatib boyigan emas.*

– *O'nta qo'y... shularga rozimisizlar?*

– *Qani, ilohi omin, ikki yosh qo'sha qarisin, Oллоh-akbar!*

*Yangasi qiz onasi o'rnida fotiha o'qidi.*

*Non sindirildi.*

*Sovchilar ohorli belqars o'rab ketdi.* (T.Murod. “Oydinda yurgan odamlar”)

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytish mumkinki, til madaniyatining natijasi emas, balki zaruriy shartidir. U barcha shartlarning asosi, poydevoridir. Albatta, madaniyat muayyan ichki qonuniyatlar, tamoyillar asosida shakllangan urf-odatlar, an'analar, katta-kichik rasm-rusmlar, me'yorlarni o'z ichiga oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- (1). Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. Москва, “Слово”, 2000, 14 с.
- (2). Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие, Москва, издательский центр «Академия», 2001, с. 3
- (3). Тер-Минасова С.Г. Язык и культурная коммуникация. Москва, “Слово”, 2000, с. 80.
- (4). Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. Toshkent, “Fan”, 1991, 3-bet.
- (5). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, Toshkent, O'zME, 2007, 315-bet.
- (6). O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “N” harfi. Toshkent, O'zME nashriyoti, 286.// <https://www.ziyouz.com/>
- (7). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild, Toshkent, “Universitet”, 2000, 293-bet.
- (8). O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild, Toshkent, O'zME, 2007, 542-bet.
- (9). O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. “S” harfi. Toshkent, O'zME nashriyoti. 2003.

**Madaminova Qunduz Alimboyevna (Urganch davlat universiteti 10.00.06. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishi 1-bosqich doktoranti)**  
**SIYOSAT TILI, SIYOSIY NUTQ VA SIYOSIY DISKURS**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada diskurs tushunchasi va u bilan bevosita aloqador bo'lgan siyosat tili, siyosiy diskurs, siyosiy nutq tushunchalari, o'ziga xos xususiyatlari, uning kelib chiqish tarixi, diskursga bo'lgan turli xil yondashuvlar va hozirgi zamon siyosiy diskursining ahamiyati hamda uni xorij va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilishi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *siyosiy lingvistika, diskurs, siyosat tili, muloqot, siyosiy nutq.*

#### **ЯЗЫК ПОЛИТИКИ, ПОЛИТИЧЕСКОЙ РЕЧИ И ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА**

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается понятие дискурса и непосредственно связаный с ним политический язык, политический дискурс, понятия политического дискурса, его отличительные особенности, история его возникновения, различные подходы к дискурсу, а также*

значение политического дискурса. Объясняется его настоящее в зарубежном исследовании узбекскими учеными.

**Ключевые слова:** политическая лингвистика, дискурс, политический язык, коммуникация, политический дискурс

## THE LANGUAGE OF POLITICS, POLITICAL SPEECH AND POLITICAL DISCOURSE

**Annotation.** In this article, the concept of discourse and the political language directly related to it, political discourse, concepts of political discourse, its distinctive features, the history of its origin, different approaches to discourse and the importance of political discourse in the present and the study of discourse by foreign and Uzbek scientists is explained.

**Key words:** political linguistics, discourse, political language, communication, political discourse.

**Kirish.** Oxirgi yillarda tilshunoslik sohasida ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bugungi kunda lingvistikaning asosiy o‘rganish obyekti insonning nutqiy faoliyati hisoblanadi, buning natijasi o‘laroq til birliklarini insonning nutq jarayonida qo‘llash va buning yordamida qanday qilib ko‘zlangan maqsadga erishish lingvistik tahlilning muhim muammolaridan biriga aylangan.

Siyosiy lingvistika tilshunoslikning ildam odimlayotgan va ko‘plab olimlarning diqqat markazida turgan sohalaridan biri hisoblanadi. Siyosiy lingvistika tilshunoslik va siyosatshunoslik fanlarining o‘zaro mushtarakligi asosida vujudga kelgan yangi, mustaqil fan tarmog‘i hisoblanib, uni ayrim adabiyotlarda lingvopolitologiya deb ham atashadi. Ko‘plab tilshunoslar siyosiy tilshunoslik, siyosiy nutq va siyosat tili tushunchalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, vazifalari, dolzarb masalalari borasida izlanishlar olib borilmoqda.

Bizning tadqiqotimiz obyekti – mamlakat, jamiyatimiz hayotida muhim ahamiyat kasb ertuvchi, siyosiy jarayonning ajralmas qismi – saylov oldi nutqlari hisoblanadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlariga nomzodlari tavsiya qilinganlarning saylov oldi nutqlari, ularning xalq vakili sifatida kelajakda amalga oshirmoqchi bo‘lgan istiqbolli rejalari va ularning davlatimiz rivojiga qo‘shadigan hissasini qanday shaklda xalqqa – saylovchilarga yetkazib berishi ularning saylovda raqiblariga qaraganda ko‘proq ovoz to‘plashiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot obyektimiz siyosiy nutq va uning diskurs tahlili hisoblangani uchun avvalambor, diskurs tushunchasi haqida to‘xtalsak. Diskurs atamasi “diskursus” ya’ni, “muloqot”, “suhbat”, “aylanish”, “harakat” ma’nolarini angalatadi. Diskurs nafaqat tilshunoslik balki falsafa, sotsiologiya, antropologiya, semiotika, psixologiya, psixolingvistik, pedagogika, logika hamda madaniyatshunoslik fanlari bilan bevosita bog‘liq fan hisoblanadi. Diskurs termini lingvistik atama sifatida ilk bor Z.Harris tomonidan tilga olingan bo‘lib, hozirgi zamon diskurs tushunchasidan ancha farqli atama sifatida yoritib berilgan. 1952-yilda, Z.Harris diskurs atamasini mustaqil tushuncha sifatida “Discourse Analysis” nomli kitobida tilga olgan va diskursni ma’lum bir vaziyatda biror inson yoki insonlar tomonidan aytilgan yoki yozilgan gaplarning o‘zaro mutanosiblikdagi ketma-ketligi, deya izohlagan” [1;12-b.].

Harris matn va uning ijtimoiy konteksti elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yoritib berishga harakat qilgan. Diskurs atamasi o‘tgan asrning 60–70-yillarida boshqa fanlardan alohida bilim sohasi sifatida ajralib chiqqan. Ushbu davrda tilshunoslar tilni ajralmas aloqa vositasi deb hisoblaganlari sababli matnlarni o‘rgana boshlaganlar. Tilshunoslik asta-sekin shakliy, formal-funksional doiradan chiqib, tilni mazmuniy, yaxlit, izchil o‘rganishi asnosida diskurs atamasi ham faol qo‘llanila boshladi [2;254-b.]. Diskurs atamasi bahsli va ko‘p ma’noli atama hisoblanib, atama fan sifatida qarala boshlaganiga yarim asrdan oshgan bo‘lsa ham, olimlar hali diskursning nima ekanligi borasida uzil-kesil to‘xtamga kela olishmagan.

Yurgen Harbermas diskursni ijtimoiy harakat nazariyasi va ijtimoiy-siyosiylik muammosi (bunda u muloqotni dialogik suhbat davomida erkin va shaxsni biron-bir xatti-harakat yoki tushunchalarni singdirishga yo‘naltirilgan mukammal kommunikativ jarayon deb qaraydi) bilan bog‘laydi [3;21-b.]. Shunday qilib, diskurs keng qamrovli tushunchadir. Y.S.Stepanov diskurs atamasini muqobil dunyo, fakt, sabab tushunchalari bilan bog‘laydi. U, shuningdek, diskursni alohida ijtimoiy borliq ko‘rinishida namoyon bo‘lgan “til ichida til” sifatidagi keng lingvofalsafiy izohini beradi [4;68-b.]. U o‘ziga xos leksik, o‘ziga xos grammatik va sintaktik xususiyatga ega fan tarmog‘idir. O‘zbek tilshunoslaridan Shahriyor Safarov diskurs borasida lingvistik tadqiqotlar olib borgan. Tilshunos diskursning matn bilan o‘zaro aloqasi haqida shunday fikrlarni bayon qiladi: “Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo‘lsa, ularni faqatgina zohiriy-formal ko‘rsatkichga asosan, “og‘zaki” va “yozma” sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko‘rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko‘rinishda tasavvur qilish qiyin masala” [5;246-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada diskurs tushunchasi, siyosiy jarayonlarda diskursning o'ziga xos jihatlari va siyosiy nutq va muloqotdagi uzviy roli va ahamiyatini yoritish maqsadida biz ushbu taqdiqot ishimizda tavsifiy metodga tayandik. Diskurs haqidagi fikrlar xilma-xilligi mavjudligi sababli, biz turli manbalardan ma'lumotlar izladik va tahlil qildik. Olimlarning o'z izlanishlari natijasi sifatida diskurs atamasiga va siyosiy diskurs tushunchasiga bo'lgan qarashlari va izohlarini tahlil qilgan holda qiyosiy aspectda o'rgandik. Bu tahlillarda esa qiyosiy metodga tayandik.

**Tahlil va natijalar.** Siyosat tushunchasi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan va siyosat haqidagi bilimlar Platon, Aristotel va Konfutsiy asarlarida uchraydi. Til va siyosat o'zaro bog'liq tushunchalar hisoblanib, siyosiy nutq insonlarga o'z kuchi orqali ta'sir qiladi va ularning siyosiy jarayonlarda qabul qiladigan qarorlariga bevosita bo'liq bo'ladi. Prezidentlik saylovi yoki Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylov jarayonida nomzodlar o'z nutqi va dasturida qo'llanadigan so'zlari va bildiradigan fikrlari insonlarda qanchalik yaxshi taassurot qoldira olsa, ularning saylovda ko'proq ovoz to'plagan holda, g'alaba qozonishiga zamin yaratib beradi. Insonlarning o'zaro muloqotida til juda qudratli kuchga ega quroldir. Norman Feyrlofning ta'kidlashicha, tilning kuchi boshqaruv huquqiga ega insonlarning quyi ishtirokchilar harakatini nazorat qilish va cheklash bilan bog'liq. Bu kuch siyosiy faoliyatda kimgadir o'z bilimi, kuchi yoki mafkurasini namoyon etishiga imkon beradi [6;28-b.]. Siyosiy diskurs siyosatning ajralmas qismi bo'lib, u siyosat vakillarining boshqalarni o'ziga ergashtirish va ishonitirishiga xizmat qiladi. Siyosat bilan shug'ullanuvchilar ritorika – notiqlik san'atini yaxshi egallagan shaxslar hisoblanadi. Ular tushunarli, soda va aniq jumalardan iborat ta'sir kuchiga ega ravon nutq sohibi bo'lgandagina jamiyatni siyosatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan fuqarolarni – saylovchilarni ergashtira oladilar. T.A.Van Dijk ta'kidlaganidek, siyosiy vaziyat o'z ishtirokchilarini ma'lum bir tarzda gapirishga majbur qilmaydi, aksincha, vaziyat va matn o'rtasida kognitiv bog'liqlik mavjud, bu esa ishtirokchilarning siyosiy vaziyatni qanday boshdan kechirishini, shahrlashini va ifodalashini belgilaydigan kontekstdir [7;116-b.]. Siyosiy diskursning ishtirokchilari insonlar va ular hosil qilgan jamiyat, davlat hamda siyosiy diskursning asosini ularning o'zaro suhbat, ya'ni muloqot jarayoni tashkil qiladi.

Siyosiy jarayonlarda ishonitirish faqatgina mantiqiy dalillar keltirish orqaligina emas, balki turli lingvistik vositalarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Insonlarga ta'sir o'tkazishning samarali vositalaridan biri o'xshatish, giperbola va metafora kabi lingvistik vositalardan samarali foydalana olish qobiliyatidir. Bular siyosat vakillariga o'z fikrlarini tasviriy shaklda hamda siyosiy tushunchalarni yorqinroq ifodalashlariga bevosita yordam beradi. Bundan tashqari, siyosatchilar o'z nutqlarida turli diqqatni jalb qilish maqsadida emotsional tildan foydalanadilar. Siyosat tilining o'ziga xos jihatlardan yana biri unda hamjihatlikni, siyosatchilarning xalq bilan birga, birdam ekanligini ifodalash maqsadida "we", "us", "our" kabi olmoshlarning ishlatilishidir. Siyosatchilar muayyan sohaning texnik atamalarini o'z nutqlarida qo'llash orqali ularning shu sohadan ham boxabar ekanligini, shu sohani kelajakda yana taraqqiy etishiga hissa qo'shmoqchiligini ifodalash maqsadida qo'llanilishi ham mumkin. Terminlarni siyosiy nutqda qo'llashning yana bir maqsadi – siyosatchining bilimdonligiga urg'u berish bo'ladi. Tarixdan ma'lumki, insonlar doim donolarga ergashganlar. Siyosatchilar o'zlariga shiorlar yaratadilar va ushbu shiorlar orqali xalqni o'zlariga ergashtirishga harakat qiladilar, bundan tashqari, ayrim jumalarni o'z nutqlarida bir necha bor takrorlash orqali o'z siyosiy g'oyalarini xalqqa singdirishga harakat qiladilar.

**Xulosa.** Siyosiy diskursning lingvistik tamoyillari, unda qo'llaniladigan lingvistik vositalar, atamalar, insonlar orasida bo'ladigan oddiy muloqot jarayonidan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Siyosiy diskurs siyosatchilarning ommani o'z g'oyalariga ergashtirish, jamiyat vakillarida o'zlariga nisbatan ishonch tuyg'usini hosil qilish, xalqni birlashtirish va ularga ong'iy ta'sir o'tkazish uchun yaratilgan vositalar yig'indisidir. Siyosiy nutqni tahlil qilish, o'rganish, siyosiy diskursni tushunish va undagi lingvistik vositalarni anglashga yordam beradi.

Siyosiy nutq siyosatning muhim bo'g'ini hisoblanib, siyosiy jarayonlarni amalga oshirish va siyosiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan. Shunday qilib, siyosiy nutqning ta'rifi, vazifalari va xususiyatlariga asoslanib, uning asosiy o'ziga xosliklari aniqlanadi. Siyosiy nutqning eng muhim jihatlari qatoriga shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqaning keng qamrovli aks ettirilishi, jamoatchilik ongiga ta'sir qilishga yo'naltirilganligi, ishtirokchilar bilan bevosita bog'liqlik, kelajakni ko'zlab ish tutish, baxs-munozaralar, aksariyat fuqarolarning siyosiy tajribasi kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Harris Z. Discourse Analysis. Papers on Syntax. Synthese Language Library. 1981, № 14, p. 1–30.
- (2). Чудинов А.П. Политическая лингвистика. Учеб. пособие, Москва, "Наука", 2006, с. 254.

(3). Русакова О.Ф. Основные теоретико-методологические подходы к интерпретации дискурса. Научный ежегодник Института философии и права Уральского отделения Российской Академии наук, 2007, № 7, с. 5–34.

(4). Stepanov Y.S. Alternative world, Discourse. Fact and the principle of Causality. Language and science of the end of the XX century: Collection of articles, p. 68.

(5). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008, 246-bet.

(6). Fairclough N. Language and power. Longman Group UK limited, 1996, p. 28.

(7). Van. Dijk.T.A. Ideology and discourse analysis. 2006. Journal of political ideologies.11(2), p. 116.

(8). Graber D. Political Languages. Handbook of Political Communication. London, 1981, № 14.

**Eshmuratova Dildor Urolovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi, f.f.f.d., (PhD), dotsent v.b.; UO'K: 811.5)**

## **TIL VA DIN MADANIYATNING ASOSIY TUSHUNCHALARI SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada til va din o'rtasidagi munosabatlar muhokama qilingan bo'lib, din va tining mushtarakligini tadqiq qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Shuningdek, dinva til o'rtasidagi munosabatlarga turli jahon olimlarining fikrlariga asoslangan holda ta'riflar berilgan. Maqolaning asosini diniy tilni o'rganishda ma'lum bir konseptlarga suyanish kerakligi muhim masla ekanligi ilmiy xulosalar bilan asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** diniy til, madaniyat, konsept, vahiy, iudaizm kontekstlarida, emotsional bo'yoqdorlik, diskret va aniq janr.*

### **ОБ ОСНОВНЫХ СВОЙСТВАХ КУЛЬТУРЫ ЯЗЫКА И РЕЛИГИИ**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается соотношение языка и религии, и главной задачей является запрет общности религии. Также даны определения взаимосвязи религии и языка, основанные на мнениях различных мировых ученых. В основу статьи положены научные выводы о том, что при изучении религиозного языка важно опираться на определенные понятия.*

***Ключевые слова:** религиозный язык, культура, концепция, откровение в контексте иудаизма, эмоциональная окраска, дискретный и специфический жанр.*

### **ON THE BASIC PROPERTIES OF THE CULTURE OF LANGUAGE AND RELIGION**

***Annotation.** The relationship between language and religion is discussed in this article, and banning the commonality of religion and religion is the main task. Also, definitions of the relationship between religion and language are given based on the opinions of various world scientists. The basis of the article is based on scientific conclusions that it is important to rely on certain concepts in learning the religious language.*

***Key word:** Religious language, culture, concept, revelation, in the context of Judaism, emotional coloring, discrete and specific genre.*

**Kirish.** O'tmishdan to bugungi kungacha til va din o'rtasidagi fikr va mulohazlar turli zamonlarda makonning diniy e'tiqodidan kelib chiqib o'zgarib brogan. Diniy til nima? degan savolga, avvalo, javob berishga harakat qilamiz. Turli tillarda diniy nuqtayi nazarlar mavjud. Ular orasida ikkita tushunchan muhokama qilish din va tining mushtarakligini taqiq qilishda asosiy ahamiyatga ega. Donovan fikriga ko'ra, birinchi qarashda, diniy til bu alohida til bo'lib, u ba'zi bir maxsus vaziyatlarda alohida qo'llaniladi. Masalan, yahudiylarda ibroniy, musulmonlar uchun arab va nasroniylar uchun xristian singari. Shu nuqtayi nazardan, barcha arab mamlakatlari, hatto yahudiylar ham o'zlarining kundalik ishlari uchun bir-birlari bilan suhbatlashganlarida dindorlik nuqtayi nzardan gaplashadilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Donovan fikriga ko'ra, yana bir nuqtayi nazar shundan iboratki, diniy til-da "Apokalipsis", "Inkarnatsiya", "Vahiy" kabi maxsus so'zlardan foydalaniladi. Bu avvalgi tushunchaga nisbatan ancha maqbuldir. Chunki dindor kishi, diniy va'z yoki diniy matn albatta mutaxassis so'zlarga muhtoj. Boshqa tomondan, oddiy odamlar aytilganlarga o'xshash maxsus so'zlarni qo'llashlari mumkin bo'lsa-da, ular o'z matnlarida va nutqlarida kerak bo'lmasa, maxsus so'zlarni ishlatishlari shart emas. Farqi shundaki, diniy kontekst va muhit maxsus so'zlarga muhtoj. Ya'ni, kontekstlar tilni va ma'no yaratishni cheklaydi. So'zlar tilning har bir uslubi va janrining eng muhim qurilish bloklari bo'lsa-da, ular diniy til va diniy kontekstni qurish uchun yagona manba emas. Kontekstning ahamiyatini batafsil ifodalash uchun yahudiy protokollaridan olingan parchani ko'rib chiqishga arziydi [1].

**Tahlil va natija.** Jamiyat tuzilishining boshlanishida ular shafqatsiz va ko'r-ko'rona kuchga duchor bog'lganlar; so'zlardan keyin, xuddi shu kuch bo'lgan qonunga faqat niqoblangan.

Diniy tilni o'rganishda ma'lum bir konseptlar doirasida taqiqni amalga oshirish muhim masladir. Masalan, iudaizm kontekstlarida "they", "law", "I" ba'zi so'zlarning madaniy, vaziyat va munosabat ma'nosi va tushunchasini osongina topib bo'lmaydi. Jumladan, "jamiyat tuzilishi", "Ular" va "Men" degan ma'lumot qaysi qonun va jamiyat nazarda tutilganligi begona odam tomonidan shubha ostiga olinga paytda vujudga keladi. Shundan birlash muminki, dinlar ham jamiyat bilan rivojlanadi. Tompson ma'lum bir kontekstda ma'nolarni yetkazish ko'pchilik tomonidan tilning asosiy funksiyasi sifatida ko'rishini aniqladi [2]. Jamiyatda turli janrlarni yaratishi mumkin bo'lgan ijtimoiy amaliyotlar yaratiladi. Ko'p turli sabablar janrlarni ishlab chiqarish jarayonini kuchaytirishi mumkin, ulardan biri so'zlardir. Bloor ta'kidlaganidek, janr ijtimoiy jihatdan kelishilgan tuzilmalarga ko'proq yoki kamroq bo'ysunadigan, madaniy tan olingan nutq shaklidir [3]. Masalan, "talaffuz" kabi bajaruvchi fe'l diskret va aniq janr hosil qiladi. Jamoatda ruhoni er-xotinni "er-xotin" deb talaffuz qilganda, u harakatni amalga oshirish uchun bajaruvchi fe'ldan foydalanadi.

Reyes va boshqalar ta'kidlaganidek, o'quvchilar va tinglovchilar sintaksis va semantikadan tashqari ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak, ya'ni majoziy til o'zining asosiy ma'nosini dekodlash uchun grammatik jihatdan ifodalanmagan ma'lumotni anglatadi [5]. Ular hazil-mutoyiba misolida ham ko'rsatiladi. Qiziqarli va istehzoli bo'lishiga ma'lumot beradigan bo'lsak, diniy tilni o'rganish kata qiyinchiliklarni keltirib chiqarishidir. Diniy tilni tadqiq qilishda chuqurroq yondshuv, qiyinchilik va majoziylikni ko'rsatish uchun qanday strategiyalar qo'llanildi degan savolga, diniy til, haqiqatdan ham, javob berish qiyin bo'lgan, diniy tilda qo'llaniladigan turli strategiyalar bo'yicha katta muhokamalar orqali javob berildi, deyish mumkin. Ko'rinib turibdiki, ba'zi hollarda diniy til o'zining chuqurligi va murakkabligini yetkazish uchun hamdardlik, kinoya, metafora va hokazolarga murojaat qiladi. Yana bir qiyinroq jihati, diniy tilning falsafa va majoziy til bilan bog'liq mummolari bo'lib, hatto ba'zida tilning ichki qismi uchun ham tushunib bo'lmaydigan jihatlari bor.

Ko'p sabablarga ko'ra, bu strategiyalar diniy yozuvchilar va ma'ruzachilar tomonidan qo'llaniladi. Buning sabablaridan biri odamlarning his-tuyg'ulari va mehrlarini jalb qilishdir, shunda ular o'zlarining his-tuyg'ulariga ta'sir qilishlari mumkin. Shuning uchun ham diniy tilni emotsional bo'yodkorlikka to'la til deb atash to'g'ridir. Yana bir sabab shundaki, *xudo, farishtalar* kabi mavjudodlar haqidagi tasavvurlar ham o'rganish uchun yetarli datajada dolzarbdir. Diniy tillarda tushunarsiz va tartibsiz gapirishga harakat qiladi hamda boshqa millat vakillari uchun religiya qatnashgan nutqlarni tushunish anchayin qiyinchilik tug'diradi. Odamlar ongida muhim talqinlarni qo'zg'atish uchun diniy belgilar tilni yanada ma'lumotli va ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi. Ushbu maqolani sarhisob qilar ekanmiz, biz quyidagi dalillarga murojaat qilishimiz kerkligini aytib o'tmoqchimiz. Ushu dalillar diniy tilning ishlarni qanday amalga oshirishini ko'rsatadi:

1. Tuyg'ularni uyg'otish va o'zgartirish kuchi: masalan, Qur'ondagi oyatlar, ko'pincha, o'zining poetik va ritmik til bilan o'quvchi va tinglovchilarda chuqur tuyg'ularni uyg'otadi. Masalan, "*Al-Fatiha*" surasi, Allohga maqtov va minnatdorchilik izhor etish bilan boshlanadi va o'quvchida e'tiqod va umid tuyg'ularini uyg'otadi. Yoki bo'lmasam Injildagi "Psalms 23" (Zabur. 23) surasi, "Rabbim mening cho'ponimdir; men hech narsaga muhtoj bo'lmayman" kabi iboralar bilan o'quvchiga tinchlik va xavfsizlik tuyg'ularini beradi. Ushbu matnlar o'quvchilarni tasalli va umid bilan to'ldiradi.

2. Markaziy shaxslarga sodiqlik va ularning takliflariga amal qilish. "*Therefore a wise prince must devise ways by which his citizens are always and in all circumstances dependent on him and on his authority; and then they will always be faithful to him*". Machiavelli o'zining "The Prince" (Hukmdor) asarida markaziy shaxsga sodiqlik va unga bo'ysunishning muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, dono hukmdor o'z fuqarolarini har doim va barcha holatlarda o'ziga va o'z hokimiyatiga bog'liq holda ushlab turish yo'llarini izlab topishi kerak. Bu orqali fuqarolar doimo unga sodiq bo'lib qoladi. Machiavelli bu fikrni hukmdorning hokimiyatni mustahkamlash va barqarorlikni saqlash uchun qanday yo'llarni tanlashi kerakligini ko'rsatish orqali asoslaydi.

3. Ijro etuvchi fe'llarning qo'llanishi. *And God spake all these words, saying, I am the Lord thy God, which have brought thee out of the land of Egypt, out of the house of bondage. Thou shalt have no other gods before me* (Exodus. 20:1-3-b.).

4. Ibadatlar bilan bog'liq ayrim diniy faoliyat qoidalari. "*For I have received of the Lord that which also I delivered unto you, That the Lord Jesus the same night in which he was betrayed took bread: And when he had given thanks, he brake it, and said, Take, eat: this is my body, which is broken for you: this do in remembrance of me. After the same manner also he took the cup, when he had supped, saying, This cup is the new testament in my blood: this do ye, as oft as ye drink it, in remembrance of me*" (Corinthians. 11:23-25 p.)

5. Tezkor soʻzlarning oʻrni (suvga choʻmish). “*Then cometh Jesus from Galilee to Jordan unto John, to be baptized of him. But John forbid him, saying, I have need to be baptized of thee, and cometh thou to me? And Jesus answering said unto him, Suffer it to be so now: for thus it become thus to fulfill all righteousness. Then he suffered him. And Jesus, when he was baptized, went up straightway out of the water: and, lo, the heavens were opened unto him, and he saw the Spirit of God descending like a dove, and lighting upon him: And lo a voice from heaven, saying, This is my beloved Son, in whom I am well pleased*” (Matthew. 3,13–17 p.).

6. Xudoni eslash yoʻllari va vositalari (soʻzlar va ramziy harakatlar va inson tilidagi kelishuvlar). “*Be careful for nothing; but in everything by prayer and supplication with thanksgiving let your requests be made known unto God. And the peace of God, which passed all understanding, shall keep your hearts and minds through Christ Jesus*” (Philippians. 4;6–7 p.).

7. Diniy til biror narsani yoki kimnidir tantana qilish, rasmiylashtirish va birdamlik berish. “*Go ye therefore, and teach all nations, baptizing them in the name of the Father, and of the Son, and of the Holy Ghost: Teaching them to observe all things whatsoever I have commanded you: and, lo, I am with you always, even unto the end of the world. Amen*” (Matthew. 28;19–20 p.).

8. Dindorlarga qoʻshilishga undaydigan va daʼvat etuvchi soʻzlar, aks holda odamlarni ogohlantiruvchi soʻzlar. “*Enter ye in at the strait gate: for wide is the gate, and broad is the way, that ledeth to destruction, and many there be which go in thereat: Because strait is the gate, and narrow is the way, which ledeth unto life, and few there be that find it*” (Matthew. 7;13–14 p.).

9. Diniy hikoyalar, tarixiy romanlar, drama, allegoriyalar, sheʼrlarning ruhiy kuchi. *This series features themes of sacrifice, redemption, and the battle between good and evil, with Aslan representing Christ.*

**Xulosa.** Qoʻshiqlar va notiqlik soʻzlari misol tariqasida buddist olim Ashvagosha (Donovan. 1976) ni koʻrsatishimiz mumkin, u shunday yozgan: “Har bir ishiga qatʼiy eʼtiborni yuklagan va shahar darvozasida darvozabondek hushyor boʻlib turgan odam, yaxshi qoʻriqlangan shahar dushmanlaridan omon boʻlgani kabi ehtiroslar tomonidan jarohatlanishdan xavfsizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). Donovan, P. (1976). Language religious. Sheldon Press, Marylebone Road, London =W1 4DU.
- (2). Thompson, G. (2004). Introducing functional grammar. New York, Oxford university press.
- (3). M. Bloor, T. (2007). The practice of critical discourse analysis. Oxford University Press Inc.
- (4). Clouston, M.L. (2010). Theology lectures as lexical environments: A case study of technical vocabulary use. Journal of English for Academic Purposes 9 (2010), 308–321.
- (5). A.Reyes, et al. (2010). From humor recognition to irony detection: The figurative language of social media. Data and Knowledge engineering. doi:10.1016/j. datak. 2012.02.005.
- (6). Coffin, C.&K,O.Halloran. (2005). Finding the global groove. Applied linguistics method, Published, 2010, by Rutledge.

**Turakulova Dilafruz Mamatsoli qizi (Oʻzbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti; [dilimturakulova1309@gmail.com](mailto:dilimturakulova1309@gmail.com))**

### INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDAGI EPISTEMIK SHUBHANI IFODALOVCHI MODAL BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola oʻzbek va ingliz tillaridagi shubha konseptini ifodalovchi epistemik modallik birliklarining qiyosiy tahliliga bagʻishlangan boʻlib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi modallik har bir til ichida qanday ifodalanganini lingvistik jihatdan tadqiq etish va madaniy jihatdan qanday talqin etilganligini aniqlashdan iborat. Lingvistik korpuslar tahlili va mutaxassislar bilan oʻtkazilgan suhbatlar yordamida, tadqiqot har ikkala til uchun ham farqli oʻlcham va qoʻllanish usullarini belgilaydi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslikda epistemik modallik tushunchasini yanada chuqurroq tadqiq etilishi uchun oʻz hissasini qoʻshadi hamda lingvistik nazariya uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit soʻzlar:** konsept, shubha, gumon, ishonchsizlik, epistemik modallik, qiyosiy tilshunoslik.

#### СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЭПИСТЕМИЧЕСКОЕ СОМНЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** Данная статья посвящена сравнительному анализу эпистемических модальных единиц, выражающих концепт сомнения в узбекском и английском языках. Основная цель данного исследования – лингвистически изучить, как выражена данная модальность в каждом языке, и определить, как она интерпретируется с культурной точки зрения. С помощью анализа лингвисти-

ческих корпусов и интервью с экспертами, исследование определяет различные размеры и способы применения для обоих языков. Результаты данного исследования вносят вклад в более глубокое изучение понятия эпистемической модальности в лингвистике и имеют важное значение для лингвистической теории.

**Ключевые слова:** концепт, сомнение, подозрение, недоверие, эпистемическая модальность, сравнительное языкознание.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF EPISTEMIC MODALITY UNITS EXPRESSING DOUBT IN UZBEK AND ENGLISH

**Annotation.** This paper presents a comparative analysis of epistemic modal expressions of doubt in Uzbek and English languages. The study aims to uncover how these modalities are linguistically constructed and culturally interpreted within each language. By analyzing linguistic corpora and conducting expert interviews, this research identifies distinct patterns and usage in both languages. The findings contribute to a deeper understanding of epistemic modality and its implications for cross-cultural communication and linguistic theory.

**Key words:** concept, doubt, uncertainty, epistemic modality, comparative analysis, linguistics.

**Kirish.** Tadqiqot davomida o'rganilayotgan subyektiv modallik va unga oid epistemik birliklar ko'p hollarda "ishonchlilik" semantikasiga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, "ishonchsizlik" masalasi hali to'liq o'rganilmagan masala hisoblanadi. O'zbek tilida epistemik modaliteler bo'yicha ilmiy ishlar yetarli emasligi sababli, bu tadqiqot yangi ma'lumotlar berish maqsadida olib borilgan. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida shubha tushunchasini ifodalashda foydalaniladigan xilma-xil usullar hamda bu usullarning tillar o'rtasidagi semantik va lingvistik farqlarni ochib berishini ko'rsatmoqda. Shubha va boshqa epistemik holatlar qanday ifodalanishi, subyektning ishonchlilik darajasiga qanday ta'sir qilishi kabi masalalar o'rganilgan. Maqolada, shuningdek, shubha ifodalashning ikki til kontekstidagi madaniy va lingvistik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida, ingliz va o'zbek tillarida shubha konseptini epistemik modal birliklar orqali qanday ifodalash mumkinligi va bu jarayonning ilmiy hamda amaliy ahamiyati muhokama etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslikda modallik kategoriyasi murakkab hodisa bo'lish bilan bir qatorda, markaziy til kategoriyalaridan biri hisoblanadi va turli tillarning turli tizimlarida turlicha namoyon bo'ladi. Lingvistikada modallik kategoriyasining murakkabligi umumiy qabul qilingan fikr hisoblanadi. Modallik tushunchasini aniqlash, bu kategoriyani chegaralarini belgilash va modallikning o'zi turlicha tushuniladi. Lingvistlar bu til hodisasiga bo'lgan qiziqishlari ortganiga qaramasdan, modallikning lingvistik maqomi hali yakuniy hal etilmagan. Modallik va uning semantik shakllari hamda turlarini tahlil qilish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. P.Portner modal ifodalarning semantikasini tushunish uchun kontekstga bog'liq yondashuvni talab qilishini ta'kidlaydi, bu esa turli lingvistik kontekstlarda modal ma'noning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi [8]. Epistemik modallik lingvistika sohasida muhim o'rin egallaydi, bu soha bilim, ishonch va kommunikativ harakatlar kesishmasini qamrab oladi. Pragmatika va semantika sohasida modallik, gapiruvchining aytilgan holatning imkoniyati, zarurati yoki tasodifiyligi haqidagi munosabatini bildiradi. Subyektiv modallikni turlarga bo'lish borasida olimlar turli qarashlarni taqdim etishgan va ulardan ba'zilar uni epistemik va deontik modallikka bo'lishgan.

Turli shakllari orasida, epistemik modallik xususan shubha, ishonch va ehtimollikni ifodalashga oid bo'lib, gapiruvchining taklif qilingan fikrning haqiqat qiymatiga bo'lgan bahosini aks ettiradi. Shubha tushunchasi, epistemik modallikka xos bo'lib, til orqali aniq ko'rinadi, chunki bu gapiruvchining ma'lum bir da'voga bo'lgan ehtiyotkor munosabatini o'z ichiga oladi. Bu ehtiyotkor munosabat faqat lingvistik qiziqish emas, balki madaniy idrok va insoniy mantiqning murakkab to'qimasini aks ettiruvchi ko'zgudir. Uning markaziy roli tufayli, shubhaning turli tillarda qanday ifodalanganligini tushunish nafaqat nazariy qiziqishga ega, balki madaniyaro kommunikatsiya, tarjima va til o'qitishda amaliy tushunchalarni ham taklif etadi. Epistemik holatlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganishda xalqaro ilmiy xarakterga ega bo'lgan mantiqiy tushunchalarga tayanamiz va bu tushunchalar etnomadaniy va etnolingvistik xususiyatlaridan xoli. Ana shunday asosiy tushunchalarni bu bo'limda tavsiflaymiz. Evidensiallik tillar ma'lumot manbasini qanday kodlashini tushunishda muhim rol o'ynaydi [1].

Biroq, epistemik holatlarni lingvomadaniy perspektivalardan tahlil qilishda, biz mos lingvomada-niy tushunchalarga tayanamiz, bu tushunchalar til belgilarining sindikatini shakllantiradi va katta yoki kichik etnomadaniy va etnolingvistik xususiyatga ega, asosiy tushunchaga yo'naltiriladi. Bu tushunchalarni keyingi bo'limlarda tavsiflaymiz. Tushunchalar va madaniy tushunchalar istalgan tabiiy yoki sun'iy til belgilari bilan belgilanishi mumkin, boshqa tomondan, lingvomadaniy tushunchalar faqat mos etnosning bel-

gilari bilan belgilanishi mumkin (masalan, “shubha” tushunchasini va ingliz tilidagi lingvomadaniy tushuncha “doubt”ni solishtiring) [2].

Ingliz tilida shubha ifodasi keng o‘rganilgan, modal fe‘llar, ravishlar va leksik tanlovlarni o‘z ichiga olgan turli lingvistik belgilar orqali noaniqlikning nozik jihatlari belgilanadi. Epistemik modallikni, ayniqsa, shubha ifodasi bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar lingvistika sohasida katta qiziqish uyg‘otgan. Bu soha semantika, pragmatika va sotsiolingvistika bilan kesishadi, bu esa gapiruvchilar tilni qanday qo‘llab, noaniqlikni qanday ifodalash va boshqarishni ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi epistemik modallikni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar, tilning boy modal fe‘l tizimi va turli leksik vositalar orqali ishonch va shubha darajalarini ifodalashni ta’kidlaydi. Lyons va Palmer [8] kabi tadqiqotlar ingliz tilida modallikning asosiy tushunchalarini yaratgan, “might”, “could” va “may” kabi modal fe‘llar epistemik pozitsiyalarni belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq o‘zbek tilida o‘n millionlab kishilar tomonidan so‘zlanadigan, ammo lingvistik tadqiqotlarda kam o‘rganilgan turk tilida, shubha qanday ifodalanishi haqida kam ma’lumot mavjud.

1980–1990-yillarda epistemiklik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, asosan, epistemik modallik va evidensiallikni grammatik va semantik nuqtai nazardan o‘rganishga qaratilgan. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar, ko‘pincha, Jennifer Coates, Michael Perkins va F.R.Palmer (ingliz tili) hamda Carmen Silva-Corvalan (ispan tili) kabi olimlarning ishlari kabi epistemik modallik bilan bir qatorda, turli modalliklar haqida muhokamalarni o‘z ichiga olgan. Evidensiallikni dastlabki o‘rganishlar ham shunga o‘xshash semantik prizmadan yondashgan, bu borada Wallace Chafe, Johanna Nichols va Thomas Willett kabi olimlar muhim hissalar qo‘shishgan. Keyingi tadqiqotlar grammatika va semantikaga asoslangan bo‘lishiga qaramay, masalan, Peter Collins, Paul Portner va Alexandra Y. Aikhenvald va R.M.W.Dixon hamda Werner Abraham va Elisabeth Leiss tomonidan tahrir qilingan jildlar kabi, pragmatik jihatlar haqida kuzatuvlarni ham o‘z ichiga olgan monografiya va to‘plamlarni kengaytirishni boshladilar. Bu jihatlar turli nutq harakatlari, ularning muloyimlikni ifodalashdagi vazifasi va ma’lum holatlarda ularning epistemik yoki evidensial talqinlariga ta’sir qiluvchi kontekstni o‘z ichiga olgan. Pragmatik ko‘rib chiqishlarni kiritish epistemik modal va evidensial ifodalarning roli va vazifasini to‘liq tushunish uchun muhim deb qaralmoqda [9]. E.I.Belyayev tomonidan ishlab chiqilgan epistemik modalitetning to‘liq klassifikatsiyasi quyidagi epistemik modal ma’nolarni o‘z ichiga oladi: ishonchlik modalligi bu modallik obyekt va uning belgisi o‘rtasidagi aloqaga bo‘lgan ishonchni bildiradi.


Logik zarurat modalligi so‘zlovchi tomonidan mavjud ma’lumotlar asosida, aniq faktlar va guvohliklarga tayanib, obyekt va uning belgisi o‘rtasidagi aloqani epistemik jihatdan baholashni anglatadi.

Ehtimollik modalligi bu modallik so‘zlovchining to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlariga asoslangan holda, haqiqatning ehtimol darajasini ifodalaydi.

Shubha modalligi so‘zlovchi obyekt va uning belgisi o‘rtasidagi aloqani yetarli darajada bilmasligi va bu aloqaning mavjudligiga shubha qilishini ifodalaydi. Shubha, bu shaxslarning o‘z qarorlarini, e’tiqodlarini yoki fikrlarining to‘g‘riligini baholash jarayonida boshdan kechiradigan, berilgan fikrga bo‘lgan qarorsizlikni bildiruvchi subyektiv noaniqlik sifatida belgilanadi va ishonchlik bilan kontrast tashkil etadi. Shubha tushunchasi, inson fikrlash va madaniyatlarining muhim tomonlarini aks ettirgan holda, turli tillar va madaniyatlar uchun keng tarqalgan g‘oya hisoblanadi. Shubha, odatda, bilimning yetishmasligi, ishonchsizlik va aniqsizlik holatlarini ifodalab, shaxslarning qarorlar qabul qilishdagi muhim rol o‘ynaydi. Shubha konseptini chuqurroq tushunish uchun, taqqoslash uchun tanlangan tillardagi leksikografik manbalarni o‘rganish foydali bo‘ladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi leksikografik manbalarini taqqoslash, har bir tilning madaniyati doirasida shubha qanday qabul qilinganligi, talqin etilishi va ifodalanishini yanada yaxshi tushunishimizga yordam beradi. Bundan tashqari, bu tahlil tillar madaniy kontekstlar bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishini va shu integratsiya natijasida shubha kabi abstrakt tushunchalar qanday shakllanganligini ko‘rishimizga imkon beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tavsiflovchi tahlil shubha ifodalarini tasniflash uchun qo‘llanilib, qiyosiy tahlil ikkala til o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rsatishda muhim vosita sifatida xizmat qildi va har bir til tizimida epistemik modalitetning qanday noyob shakllanishini tushunishga yordam berdi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjimalarda shubha qanday ifodalanganini tekshirish uchun tarjima tahlili amalga oshirildi, bu esa interlingval nozikliklar haqida tushunchalar berdi. Qiyosiy tuzilma modalitet belgilari, sintaksis va semantik kontekstlar kabi asosiy parametrlar atrofida qurildi. Tadqiqot shuningdek, epistemik modalitetning qo‘llanilishini shakllantiruvchi madaniy va lingvistik omillarni hisobga oldi, bu ifodalar vakuumda mavjud emas, balki kengroq madaniy va kommunikativ landshaftning bir qismi ekanligini tan oldi.

**Tahlillar va natijalar.** Bu tillarda shubha qanday ifodalanishini tushunish nafaqat kengroq lingvistik va kognitiv tushunchaga hissa qo'shadi, balki tarjima, madaniyatlararo muloqot va til o'qitish kabi amaliy qo'llanmalarga ham yordam beradi. S.S.Vaulina modallikning tuzilish va ma'no doiralari o'rtasidagi farqlarni ta'kidlaydi, ayniqsa, maqsadli va subyektiv ma'nolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni alohida qayd etadi. Uning fikricha, modallikning tuzilishi va mazmuni o'rtasidagi murakkab munosabatlar modallikni lingvistikada qanday o'rganilishi kerakligini ko'rsatadi. Vaulina modallik bo'yicha tadqiqotlar doirasida, maqsadli va subyektiv modallikni ajratish bo'yicha uch asosiy yondashuv paydo bo'lgan. Y.Cho grammatik bilim va pragmatik qobiliyat kesishmasini, ayniqsa, epistemik modallik orqali, "may" va "must" kabi modal fe'llar odamlarning mantiqiy fikrlashida imkoniyatlar va zaruratlar ifodalanishidagi rollarini tekshirish orqali ko'rib chiqadi, bu esa til tuzilmalari va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ta'kidlaydi [3]. Birinchi yondashuv tarafdorlari, N.Y.Shvedova tomonidan ta'kidlanganidek, modallikning maqsadli va subyektiv tabiatini alohida qayd etuvchi an'anaviy qarashni o'z ichiga oladi, bu nuqtayi nazar G.A.Zolotova, V.Z.Panfilov, B.E.Xaimovich va boshqalar kabi olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari modallikni maqsadli va subyektivga bo'lishga reaktiv qarshilik ko'rsatadilar, bu yondashuv T.I.Desheriyeva, A.V.Bondarko va boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Uchinchi yondashuv tuzilish komponentlarining dialektik birligini o'z ichiga olgan mo'tadillikni ifodalaydi [10]. T.I.Desheriyeva nuqtai nazariga ko'ra, modallikning maqsadli va subyektiv turlarini ajratib ko'rsatish muhimdir, chunki shaxsning o'z atrofi va o'zini qabul qilish jarayoni cheksizdir va olingan bilimlar nisbidir. T.I.Desheriyeva subyektiv modallikni gapiruvchining xabarining ma'nosiga munosabatini ifodalovchi kategoriya sifatida tan oladi va bayonotning haqiqatga munosabatini aniqlashda subyektivlikning inkor etib bo'lmaydigan mavjudligini ta'kidlaydi. Orexova topilmalari "taxmin" tushunchasi oldindan hukm chiqarish darajasini o'z ichiga oladi va bu gapiruvchining ishonch darajasini faollashtiradi, asosan ongli holda belgilanadi. "Imkoniyat"ni aniqlashda tashqi obyektiv shartlarga bog'liqlik hisobga olinadi, boshqa tomondan, "ikkilanish" yuqori darajada subyektivlik uchun qayd etiladi. Shuningdek, E.N.Orexova shubha obyektiv haqiqatlar tomonidan, asosan, belgilanadigan taxmin elementini o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi. Shubha va taxmin kesishmasi ikkilanish sohasida yuz beradi, bu esa ishonch shkalasining pastki chegarasiga moyillikni ko'rsatadi. Shubha epistemik holat sifatida o'rganilganda, gapiruvchining salbiy kognitiv pozitsiyasini ifodalovchi ma'lumotlar, shuningdek, noaniqlikni, turli ma'nolarning kesishuviga olib keladigan aniqlanmagan xususiyatlarni to'plamini ham ochib beradi. Shubha bilan ifodalangan bayonotlar inkor mazmuniga yaqinlashadi, lekin gapiruvchi yetarli dalil va asosga ega bo'lmaganligi sababli to'liq rad etish hissini bermaydi. Boshqacha qilib aytganda, voqealar sodir bo'lishi shubha ostida bo'lishi mumkin, ammo gapiruvchining skeptitsizm darajasi yuqori bo'lsa ham, ular to'g'ridan to'g'ri rad etilmaydi. Qabul qiluvchi modallik doirasida shubha imkoniyat va ehtimollik tushunchalari bilan bog'liq [5]. Ingliz va o'zbek tillaridagi epistemik modalitet ifodalarning qiyosiy tahlili har bir tilning noyob tuzilishi va madaniy konteksti tomonidan shakllantirilgan farqli lingvistik strategiyalarni ochib beradi. Ingliz tilida shubhani nozik ifodalash uchun boy modal fe'llar, ravishlar va shartli tuzilmalar qo'llaniladi. Aksincha, o'zbek tilida leksik va kontekstual belgilar birikmasi qo'llaniladi, bu esa noaniqlikni ifodalashda ehtimol boshqa madaniy yondashuvni aks ettiradi.




1-rasm. Ingliz tilida shubhani ifodalovchi epistemik modallik birliklari.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tilida epitemik modallikni ifodalashda asosiy vositalar sifatida ko'plab olimlar modal fe'llar va modal ravishlarni ko'rib chiqadilar. Shuningdek, mental predikatlar bilan kirishiladigan konstruksiyalar ham epitemik semantikaning ifodalanishida muhim o'rin tutadi. Kelajak zamon shakllarining epitemik potentsiali ham mavjud bo'lib, ko'plab tilshunos olimlar bu borada tadqiqot ishlarini ham amalga oshirmoqdalar. Ingliz tilidagi "as if", "as though", "if", "unless" singari so'zlar bilan kirishuvchi qo'shma jumlar, voqelikning irreal sohasiga tegishli bo'lgan ma'nolarni ifodalash kerakligi ta'kidlanadi, bu, o'z navbatida, obyektiv modallik kontekstida emas, balki subyektiv epitemik modal kontekstida o'rganilishi lozimdir.

O'zbek tilida modallik mazmunini ifodalovchi vositalarga modal so'zlar, modal fe'llar, performativ iboralar, tasdiq so'roq gaplar, olmoshlar hamda fe'lning zamon shakllari kiritilishi mumkin. Modal so'zlar va kirish so'zlar orasidagi farq shundaki, modal so'zlar morfologiya sohasida, kirish so'zlar esa sintaksis sohasida o'rganiladi. Kirish so'zlarining vazifasini bajaruvchi turli so'z turlari mavjud bo'lib, ular orasida modal so'zlar ham bor. Kirish so'zlar o'z asl so'z turkumlarining ma'no va grammatik xususiyatlarini saqlab qoladi, hatto ular kirish so'zi sifatida ishlatilganida ham. Biroq har bir kirish so'zi modal so'z bo'la olmaydi; ayrim so'zlar kirish so'zi sifatida qo'llanilganda, ularning asl so'z turkumiga xos xususiyatlarini yo'qotadi, lekin ularning ma'no va grammatik vazifalaridagi katta o'zgarishlar ularni o'z so'z turkumlaridan ajratib turadi [8]. O'zbek tilida epitemik modallik, ko'pincha, -dir affiksi orqali ifodalanadi, bu affiks shubha, gumon va noaniqlik ma'nosini anglatadi. Misollar orqali bu yuklama quyidagicha ifodalanishi mumkin.

So'roq olmoshlarga qo'shiladigan affikslar: ot so'roq olmoshiga *allakim, allanima*, sifat so'roq olmoshlariga *allaqanday, allaqaysi*, son so'roq olmoshiga *allaqancha, allanechanchi, allaqachon*; so'roq olmoshlariga *-dir* affiksi qo'shilishi orqali ham epitemik modallik ifodalanadi, masalan, kimdir, nimadir, qachondir, nimagadir, negadir, qaysidir, qandaydir. O'zbek tilida "nahotki" so'zi bilan ifodalangan shart mayli, voqea yoki hodisaga hayratlanish yoki gumon qilish ma'nosini beradi; misol uchun, "Nahotki, u shunday qilgan bo'lsa?"



**2-rasm. O'zbek tilida shubhani ifodalovchi epitemik modallik birliklari.**

**Xulosa.** Demak, shubha hodisasi keng lingvomadaniy kontekstda konsept sifatida, epitemik modallikning ishonchsizlik, gumon, ikkilanish, taxmin, gumon ma'nolarini ifodalab kelishi mumkin. Ushbu emotiv-epitemik holatning asosiy xususiyatlari, milliy-madaniy va milliy-lingvistik xususiyatlari aniqlangan, bu ingliz tilidagi nominativ, modal, oraliq va kommunikativ birliklar hamda morfosintaktik konstruksiyalar semantikasida ifodalanadi. Ko'rsatilishicha, shubha subyektning ko'rib chiqilayotgan holatga nisbatan salbiy ehtimoliy kognitiv pozitsiyasiga asoslangan va gradatsiyali xarakterga ega bo'lib, minimaldan deyarli yuz foizgacha (lekin hech qachon 100%ga etmaydigan) miqdorda o'zgaradi. Shubha bilan bog'liq (emotiv-) epitemik holatlar qatorida uning o'rni, kategorial xususiyatlari va turlari aniqlangan. Shubha hodisasi-ning paydo bo'lishi va mavjudligining tashqi (ijtimoiy, madaniy, psixologik) shartlari tavsiflangan. Misollar orqali ko'rsatilganidek, shubha nafaqat ifodalanadi, balki belgilanadi, anglatiladi, ma'lum qilinadi va etnoyozuv vositalari orqali tavsiflanadi, shuningdek, shubha formal va informallik vositalari bilan ifodalanishi mumkin va ba'zan formal ifodalovchi vositalar faktik ravishda shubhani ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Aikhenvald, A.Y., & Dixon, R.M.W. (Eds.). (2003). Studies in evidentiality. John Benjamins Publishing Company.
- (2). Carretero, M., Marín-Arrese, J.I., & Ruskan, A. (2022). Epistemicity and stance in English and other European languages: Discourse-pragmatic perspectives. *Journal of Pragmatics*, 190, p. 18–23. <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2022.01.001>
- (3). Cho, Y. (2003). Relationship between grammatical knowledge and pragmatic knowledge /ability. The case of epistemic modality (Order No. 3091238). Available from ProQuest Dissertations & Theses Global. (305336276). Retrieved from <https://www.proquest.com/dissertations-theses/relationship-between-grammatical-knowledge/doc-view/305336276/se-2>
- (4). Dasheriyeva, T.I. (1987). On the Relationship Between Modality and Predicativity. *Voprosy Yazykoznaniya*. Moscow, "Nauka", № 1, p. 30–40.
- (5). Orekhova, E.N. (2011). Subjective Modality of Utterance. Form, Semantics, Functions. Dissertation for Doctor of Philological Sciences: 10.02.01. Moscow, 419 p.
- (6). Palmer, F.R. Mood and Modality. 2nd edition. F.R.Palmer. Cambridge: Cambridge University Press, 2001, p. 236.
- (7). Portner, P. (2009). Modality. Oxford University Press.
- Sapayev, Q. (2009). Contemporary Uzbek Language (Morphemics, Word Formation, and Morphology). Educational Guide. Tashkent, pp. 199–201.
- (8). Silva-Corvalán, C. (1995). Spanish in four continents: Studies in language contact and bilingualism. Georgetown University Press.
- (9). Vaulina, S.S. (2016). Modality as a Scientific Phenomenon: Instead of a Preface. In the Category of Modality in Speech Communication. Collection of Scientific Works. Kaliningrad: Publishing House of the BFU named after I.Kant, p. 6–9.

**Matyakubov Hakimboy Xamidjanovich (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori)**

### **INGLIZ VA O'ZBEK ILMIIY ADABIYOTLARIDA TOPONIMIK TADQIQOTLAR TARIXIGA NAZAR**

**Annotatsiya.** Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlar bilan bog'liq ayrim manbalar tahlilga tortilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlar har xil til guruhlariga mansub bo'lsa ham, ulardagi o'xshashlik va umumiyliklar, farqli va alohida xarakterlari va strukturaviy jihatdan shakllanish tizimlari yaqqol aks etgan manbaalar misol tariqasida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** nomina, etnotoponim, antroponimiya, toponomik indikatorlar.

**Матякубов Хакимбай Хамиджанович (доктор философии по филологическим наукам)**

### **ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ТОПОНОМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

**Аннотация.** В статье анализируются некоторые источники, связанные с топонимами в английском и узбекском языках. Хотя топонимы в английском и узбекском языках относятся к разным языковым группам, в качестве примеров приводятся источники, ярко отражающие их сходство и общность разные и отдельные символы, системы структурного образования.

**Ключевые слова:** номина, этнотопоним, антропонимия, топонимический, индикаторы.

**Matyakubov Khakimboy Xamidjanovich (doctor of philosophy, PhD)**

### **THE ANALYSIS OF THE HISTORY OF TOPONYMIC RESEARCHES IN UZBEK AND ENGLISH SCIENTIFIC MATERIALS**

**Annotation:** In the following article, particular sources concerning toponyms in both Uzbek and English languages are analyzed. Although the toponyms in the Uzbek and English languages belong to various language groups, some sources are given as an example that show their similarities and common features, differing their own characters and structural aspects.

**Key words:** nomination, ethnotoponymy, anthroponymy, toponymic indicators.

**Kirish.** Inglizzabon ilmiy adabiyotlarda toponimik tadqiqotlar tahlili masalasi birinchi marta V.D. Belenkaya tomonidan o'rganilgan edi [1]. Keyinchalik, O.A.Leonovichning inglizzabon leksikografiyada onomastik lug'atlar haqidagi maqolasi e'lon qilindi [2;38–46-b.]. V.V.Alpatov onomastik tadqiqotlar jamlangan ko'plab axborot manbalari (masalan, Spittal, Field, 1990, 1–40, 58 – 59; Whitelock, 1972–1973; Armstrong et al., 1992–1993; Gelling, 1994–1995, 2002–2003; Coates, 1999) qaysidir sabablar bilan barchaga ochiq emasligini bayon qiladi [3;113-b.]. Britaniya toponimikasi bo'yicha har yili nashr qilingan ishlar "Journal of the English Place-Name Society" ("Angliya atoqli otlar jamiyati jurnali") hamda umumiy

onomastikaga oid “Nomina” (1977-yildan) jurnalida nashr qilib kelinadi. Shuningdek, toponimikaga bag‘ishlangan ishlar “The Year’s Work in English Studies” (“Ingliz tili bo‘yicha qilingan yillik ishlar”), “Onoma”, “International Council of Onomastic Sciences” (“*Onomastik tadqiqotlar bo‘yicha xalqaro kengash*”), “Society for Name Studies in Britain and Ireland” (Brinatniya va Irlandiya onomastika kengashi byulle-teni”, qisqartmasi SNS BI) [4] kabi davriy nashrlarda ham mutassil yoritilib boriladi. Inglizabon ilmiy adabiyotlarda toponimikaga oid 1980-yillargacha bo‘lgan tadqiqotlar V.D.Belenkaya tomonidan bir qadar o‘rganilgani uchun V.V.Altapov o‘z maqolasida [5;112–131-b.] “Ingliz toponimika jamiyati” (“English Place-Name Society”, qisqartmasi *EPNS*) tomonidan A.Mor (A.Mawer) rahbarligida 1923-yilda asos solinib, 1924-yildan nashr qilinib kelayotgan “Axborotnoma” doirasida juda ko‘plab ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladi. “Axborotnoma”ga A.Mordan keyingi F.Stenton (F.Stenton. 1942–1946), B.Dikins (B.Dickins, 1946–1951), X.Smit (H.Smith, 1951–1967), K.Kameron (K.Cameron. 1967–1993), V.Uots (V.Watts. 1993–2002) rahbarlik qilgan bo‘lsa, 2002-yildan beri R.Kouts (R.Coats) boshqarmoqda. Bugungi kunga qadar “Axborotnoma”ning 91 jildi chop etilgan bo‘lib, eng so‘nggisi 2016-yilda nashr qilingan “The Place-Names of Leicestershire. Part VII” sanaladi. Deyarli barcha inglizabon hududlar hech bo‘lmaganda qis-man so‘rovdan o‘tkazilgan va “Axborotnoma”ni yakunlash bo‘yicha ishlar davom etmoqda. Jamiyat butun mamlakatning joy nomlarini tadqiq qilish maqsadida tashkil etilgan. Asoschisi o‘sha paytda Liverpul uni-versitetining ingliz tili professori Allen Mor edi. A.Morni yetakchi akademiklar, jumladan, tarixchilar – Jeyms Tait va Frank Stentonlar qo‘llab-quvvatladi. Jamiyat yillik obuna evaziga yiliga bir marta nashr etilgan jild oladigan a‘zolari jalb qilishga intildi. 1924-yilda ikki qismda nashr etilgan birinchi jildi inglizcha joy nomlari tadqiqotiga kirish va ingliz joy nomlarida ishlatiladigan asosiy elementlardan iborat edi [6].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O‘zbekistonda toponimlarni o‘rganuvchi maxsus jamiyat tuzilgan bo‘lishiga qaramay, uning faoliyatini “English Place-Name Society” faoliyati bilan qiyoslash qiyin. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan nodavlat notijorat tashkilotlar tarkibida “O‘zbekiston toponimika jamiyati” ham mavjud. U O‘zbekiston Milliy universiteti Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti qoshida tuzilgan bo‘lib, tashkiliy huquqiy shakliga ko‘ra jamoat birlashmasi sanaladi. Joy nomlari tadqiqiga “O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti”ning “Toponimika va geografiya o‘qitish metodikasi bo‘limi” ajratilgan bo‘lib, unda toponimik tadqiqot natijalari berib boriladi [7; 123–126-b.]. “Axborot”ning 1955-yildan 2019-yilgacha nashr qilingan 55 jildining taqvimiy, mavzu va mualliflar tamoyili bo‘yicha ko‘rsatkichlari tuzilgan bo‘lib, undan toponimikaga oid har bir maqolani osonlik bilan topish mumkin [8;248-b.]. Shuningdek, toponimlar tilshunoslik obyekti sifatida unga aloqador maqolalar 1958-yildan beri nashr qilib kelinayotgan “O‘zbek tili va adabiyoti” (dastlabki nomi “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”) jurnalida ham muntazam nashr qilib kelinmoqda [9;192-b.]. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy axborot-resurs markazida “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha chiqqan ilmiy maqolalar va axborotlarning bibliografik ko‘rsatkichi J.Hamdamiy, E.Karamyan tomonidan tuzilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich orqali mazkur davrda toponimikaga oid chiqqan maqolalar haqida axborot olish mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda onomastikaning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Masalan, Respublikadagi har bir viloyat, shahar, tuman hokimliklari oldida toponimik obyektlarga nom qo‘yishni muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus komissiyalar ish yuritmoqda [10; 12-b.]. Joy nomlariga xalq mulki sifatida qarash, xususan, keyingi besh yillikda hukumat darajasida olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti tashabbusi bilan “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati” [11;624-b.] bugungi kunda joy nomlari ma’nolarini aniqlash, keng ommaga ma’lum qilish borasida qilinishi zarur bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldirishi bilan ahamiyatlidir. Garchi toponimika bo‘yicha ko‘plab fundamental tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, bir qancha mualliflarning ilmiy yutuqlarini umumlashtiradigan, hayotga tatbiq etadigan mana shunday manbalar nashr qilinmagan edi. “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”ning yuzaga kelishida bevosita hukumatimizning davlat tili va mamlakatimizda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning tillarini rivojlantirish va asrab-avaylash yo‘lidagi oqilona siyosati natijasidir [12;3-b.].

Bu davrda o‘zbek toponimikasi bo‘yicha olib borilgan ishlarning samarasi salmoqli bo‘ldi. Shu kunga qadar o‘zbek toponimikasi bo‘yicha 20 dan ortiq nomzodlik, uchta doktorlik (Z.Do‘simov, S.Qorayev, T.Enazarov) ishi himoya qilindi. O‘zbek toponimikasi bo‘yicha himoya qilingan nomzodlik ishlari Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Y.Xo‘jamberdiyev, X.Xolmo‘minov), Samarqand viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Bo‘riyev), Sirdaryo viloyati (N.Mingboyev), Toshkent viloyati (M.N.Ramazonova), Buxoro viloyati (S.Nayimov, A.Aslov), Navoiy

viloyati (O'.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg'ona viloyati (N.Oxunov, S.Gubayeva, J.Latipov), Xorazm viloyati (Z.Do'simov, A.Otajonova, Jizzax viloyati toponimiyasi tadqiqi bo'yicha B.O'rinboev [14;80-b], A.Zokirov, Q.Hakimovlarning tadqiqotlari yaratildi [15].

Bizda toponimikaga oid ilmiy davriy nashr endilikda yo'lga qo'yilmoqda. Bu borada N.Uluqov xizmatlarini e'tirof etish lozim.

Rossiyada esa 2004-yildan beri onomastika bo'yicha maxsus ilmiy jurnal – “Вопросы ономастики” chiqadi. Jurnal Rossiyada va xorijda onomastika muammolariga bag'ishlangan va keng tarqalgan Xalqaro jurnal sanaladi. Bugungi kunga qadar “Вопросы ономастики” Rossiyadagi yagona ixtisoslashtirilgan onomastika jurnalidir. Jurnal mazmuni onomastikaning nazariy muammolari va dolzarb masalalari, onomastik tadqiqot usullari; onomastik leksikografiya (eski, unutilganlar nomlarni jamlash va yangi lug'atlar loyihalarini muhokama qilish); onomastik manbashunoslik; onomastikaning turli sohalarini bo'yicha maqola va materiallarga asoslanadi. Xuddi shuningdek, xalq tilida, folklorda, badiiy adabiyotda, fan va ish tilida, yozma yodgorliklarda va boshqalar; tarixiy onomastika (toponimika, antroponimiya va boshqalar); onomastikaning boshqa fanlar (tarix, arxeologiya, etnografiya, etimologiya, etnolingvistika, dialektologiya, geografiya va boshqalar), shuningdek, o'lkashunoslik bilan aloqalari; onomastik materialni yig'ish va saqlash usullari; onomastik bilimlarni ommalashtirish muammolarini yoritib boradi. Jurnal materiallarida slavyan, fin-ugor, roman, german, kelt va turkiy onomastikaga alohida e'tibor beriladi.

**Tahlil va natijalar.** Ingliz toponimikasida minor names (kichik nomlar) va field-names (dala nomlari) farqlanadi: birinchisiga kichik xo'jaliklar, alohida binolar, mahalliy miqyosdagi relyef shakllari (tepaliklar va pasttekisliklar), o'rmonlar va ba'zan ko'chalar nomlari kiradi, ikkinchisi, ya'ni dala nomlari kichik o'rmonlar, suv havzalari va hokazolarni bildiruvchi atamalarni o'z ichiga oladi. O'zbek toponimiyasida esa bularning barchasi bir guruh – mikrotoponimlarni tashkil qiladi.

“Jamiyat”ning yana bir muhim loyihasi ingliz joy nomlari elementlari, ya'ni toponimik o'zak va formantlar, Angliya nomlarida uchraydigan geografik atamalar lug'ati masalalariga qaratilgan. Ushbu lug'atning uch avlodi allaqachon dunyo yuzini ko'rgan. Toponimik elementlarni tizimlashtirishga birinchi urinish EPNSning birinchi jildida, ingliz toponimlarini o'rganishga kirishning ikkinchi qismida [16]. Elementlar lug'atining navbatdagi, ikki jildli va eng to'liq nashri H.Smit tomonidan tayyorlangan [17]. O'zbek toponimiyasida joy nomlari tarkibida formantlar, elementlar, asosan, biror hudud yoki obyekt (badiiy asarlar) tarkibida nomlar tadqiqi bilan bog'liq holda berilgan. Toponomik indikatorlar masalasi alohida o'rganilgan [18;119-b.].

1997-yildan boshlab D.Parsons muharrirligida lug'atning “Vocabulary of English Place-Names” (“Inglizcha joy nomlari lug'ati”) deb nomlangan uchinchi nashri X.Smit lug'atiga qaraganda mikrotoponimiyaning kiritilishi tufayli ancha to'liq ko'rinish oldi. Lug'atda elementning tarixiy shakllari va uni toponimlarda, etimologiyada va iloji bo'lsa, motivatsiyada qo'llashning dastlabki misollari keltirilgan, shuningdek, so'zning turli funksiyalarda ishlatilishiga misollar keltirilgan.

Jamiyat 1969-yildan boshlab o'zining “Journal of the English Place-Name Society” yillik jurnalini ham nashr etadi. Bugunga qadar 43 soni (jumladan, bir nechta qo'sh sonlar) nashr etilgan. 1990-yillarning oxiridan boshlab “Jamiyat” nashrlik faoliyatini kengaytira boshladi. Ommabop seriyaning boshlanishi sifatida kengroq o'quvchilar doirasi uchun mo'ljallangan lug'atlarning yangi versiyasi yaratila boshlandi. Shunday qilib, bir jildlik “A Dictionary of Lincolnshire Place-Names” (“Linkolnshir joy nomlarining lug'ati”) [19] paydo bo'ldi. Ushbu okrug uchun lug'at allaqachon yetti jildga yetkazgan bo'lsa ham, hali tugallanmagan.

Keyinchalik, mintaqaviy yo'nalishda alohida ma'muriy birliklar va hududlarning toponimik lug'atlarini (masalan, “A Dictionary of Lake District Place-Names” – “Ko'llar mamlakati toponimlari lug'ati”) yaratildi.

“Jamiyat” tarixi davomida ingliz toponimistlarining nazariy va uslubiy munosabatlarining taraqqiyoti o'zbek toponimikasi uchun ham muhim bo'lgani bois to'xtalamiz. “Jamiyat” tarixida toponimlarga yondashuvda uch bosqichni ajratish mumkin. Uning vakillari turli avlod olimlari sanaladi. Asoschisi Allen Mor filologiya professori bo'lsa-da, toponimika rivojlanishining birinchi bosqichi “dogmatik” bosqich yoki “shakllanish bosqichi” (taxminan, 1950-yillargacha) sanalib, joy nomlariga nisbatan umumiy tarzda “tarixning xizmatkori” sifatida munosabatda bo'lish bilan xarakterlanadi. Bu davrda toponimlar hujjatli va ash-yoviy dalillari kam bo'lgan tarixiy davrlar haqida ma'lumot manbasi sifatida ko'rib chiqildi. Birinchi navbatda, Britaniya orollarining so'nggi antik va erta o'rta asrlar tarixi, anglo-sakslarning joylashishi davri, davlatlarining rivojlanishi va Skandinaviya istilosi tarixini yoritishda toponimlar muhim xulosalar asosi sanaldi.

O'zbek toponimikasida esa joy nomlarining tarixiy haqiqatni tiklashdagi o'rni e'tirof etilsa ham, ularga tarixiy hujjat sifatida qarash darajasiga ko'tarilmagan. Bizda toponimlarga tarixiy nuqtayi nazaridan qarash, asosan, A.Mamajonov[20], M.Is'hoqov [21;72-b.] ishlarida kuzatiladi. Bu birinchi bosqichda materialga yondashishda selektivlikka olib keldi: toponimistlarning asosiy e'tiborini qadimiy nomlar, jumladan, oykonimlar va gidronimlar jalb qildi.

Bundan tashqari, lug'atlarga fermer xo'jaliklari va boshqa kichik aholi punktlarining nomlari, ba'zan esa turli masshtabdagi oronimlar ham kiritilgan. 1950-yillarda, M.Gellingning fikricha, lug'atlarga kiritila boshlagan materiallar miqdori, 1960–70-yillarda esa toponimlarning tarixini izohlashda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Toponimika rivojining ikkinchi bosqichi (1960-yillardan to yangi asr boshlarigacha) geografiya va arxeologiya bilan birgalikda nazariy va uslubiy ko'rsatmalarni qayta ko'rib chiqish va "kompleks" tadqiqot paradigmasini shakllantirish bosqichi bo'ldi. U, birinchi navbatda, o'sha davr toponimikasining C.Kameron, M.Gelling va J.Dodjson kabi yetakchi olimlari asarlarida o'z ifodasini topdi. Bu birinchi avloddan farqli ravishda o'zini ko'p jihatdan belgilagan "revizionistlar" avlodidir. Ayni sohaga tilga olingan tadqiqotchilar bilan hamkorlikda ishlab, keyinchalik ingliz toponimiyasining "klassiklari" sifatida tan olingan V.Nikolayzen, J.Fild, J.Fellovs-Jensen, V.Uotts va boshqa ko'plab olimlar kirib keldi.

Navbatdagi uchinchi bosqich XXI asr boshlarida ilmga zabardast mutaxassislarining bosqichma-bosqich kirib kelishi bilan boshlandi. Ular o'zlarini nufuzli salaflari vorislari sifatida umume'tirof etilgan tamoyillar asosida, ammo yangi kun tartibi bilan belgilagan vazifalar ijrochisi deb bildilar. Endilikda *cot*, *burh*, *tun*, *ham*, *thorp*, *by* elementli va sun'iy landshaftni bildiruvchi elementlarga ega toponimlarni o'rganish kun tartibiga chiqdi. Bu "Sense of Place in Anglo-Saxon England" ("Anglo-Sakson Angliyada yer-joy hissi") to'plami mualliflari tomonidan ham qayd etilgan [22;4–5-b.]. Shu munosabat bilan, toponimistlarning hozirgi qiziqishlaridan biri VI – XI asrlardagi ilk o'rta asrlardagi aholi punktlarining joylashishi hisoblanadi. Ingliz toponimikasining hozirgi bosqichining yana bir xususiyati so'nggi yillarda oldingi tadqiqotchilar qanoatlanayotgan oddiy etimologiyadan farqli o'laroq, nomning motivatsiyasi va uning elementlariga havola izlashga moyillikdir.

Bu yo'nalish uchun taniqli zamonaviy tadqiqotchi K.Xofning maqolalaridan birining "Ommaviy joy nomlari" deb atalishi e'tiborni tortadi [23;101–120-b.]. Maqolada keng tarqalgan toponimlarni qayta ko'rib chiqish zarurati o'rta tashlanib, "janubiy", "pastki", "uzoq", "oq" va boshqalar u qadar oddiy emasligi, bunga R.Jons tomonidan *Upton* (<*up* 'yuqori' va *ton* 'mulk, turar joy') kabi joy nomlarini o'rganish [24; 301-315-b.] yaxshi misol bo'lishini aytadi.

Bugunga kelib "Ingliz joy nomlari jamiyati" sohada tashkil etilgan milliy organga aylangan. Onomastika instituti (INS) Nottingem universitetidagi joy nomlari va shaxs nomlari bo'yicha tadqiqotlar markazidir. Uning idoralari va kutubxonasi shu institutda joylashgan. Onomastika institutining "Perceptions of Place: English Place-Name Study and Regional Variety" ("Joyni idrok etish: ingliz joy nomlari va mintaqaviy xilma-xillik"), "Impact of Diasporas on the Making of Britain" "Britaniyaning shakllanishiga diasporalarning ta'siri" loyihalari, shuningdek, nominatsiya, jamiyat va mintaqaviy o'ziga xoslik [25] kabi mavzulari toponimika sohasi rivojida alohida o'rin tutdi.

Onomastika institutining ikkita loyihasini alohida ta'kidlash joiz. Ulardan biri "Key to English Place-Names" bo'lib, ilmiy natijalar sifatida <http://kepn.nottingham.ac.uk> saytida joylashtirilgan tarqatish xaritasi yaratildi. Unda 14000 dan ortiq joy nomi darj etilgan. Toponimik yoki toponimik element so'rovi uning joylashishini yoki Angliyada umumiy tarqalishini ko'rish imkonini beradi. Har bir nom bir nechta nufuzli toponimik lug'atlarga ko'ra etimologiya bilan birga keladi.

Institutning yana bir loyihasida EPNS jildlarida to'plangan barcha toponimlar, shu jumladan, ularning tarixiy shakllari internetda joylashtirilishi nazarda tutilgan.

**Xulosa.** Toponimika borasida, asosan, matnlar va manbalar bilan ishlashga odatlangan filologlar, turli tarix mutaxassislari mas'uliyati bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ularni, asosan, toponimlarda uchraydigan lug'aviy birliklar (ayniqsa, agar toponimik ma'lumotlar uning boshqa manbalarga qaraganda qadimiy holatini aniqlab beradi deb taxmin qilinsa) va apellyativ qo'llanishda mavjud bo'lmagan o'ziga xos toponimik modellar qiziqtiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Беленькая В.Д. Основная литература по топонимике Великобритании. Иностранная литература по топонимике. Библиографический обзор. Под ред. В.А.Никонова. М., "Наука", 1965; Её же. Топонимы в составе лексической системы языка. М., "Наука", 1969; Её же. Очерки англоязычной топонимики. М., "Высшая школа", 1977.

- (2). Леонович О.А. Англоязычные ономастические словари. Вопросы английской лексикологии и лексикографии. Пятигорск, ПГПИ, 1990, с. 38–46.
- (3). Алпатов В.В. Топонимические исследования в Великобритании (XX–XXI вв.). История, основные направления развития. “Вопросы ономастики”, 2013, № 1 (14), с. 113.
- (4). <http://www.snsbi.org.uk/Nomina.html>
- (5). Алпатов В.В. Топонимические исследования в Великобритании (XX–XXI вв.): история, основные направления развития. Вопросы ономастики. Екатеринбург, 2013, № 1 (14), с. 112–131.
- (6). <http://www.nottingham.ac.uk/ins/placenamesociety/epns-history.aspx>.
- (7). Эназаров Т.Д., Байкабилов Х.М. Жаҳон мамлакатларининг номларини топонимика методлари ёрдамида ўрганиш. Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 52-жилд, Тошкент, 2018, 123–126-бетлар.
- (8). Федорко В.Н., Курбонов Ш.Б. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. Мақолаларнинг хронологик, системали ва алифбо кўрсаткичи (1–55-жилд, 1955–2019). Масъул муҳаррир Ҳикматов Ф.Ҳ. Тошкент, 2019, 248-бет.
- (9). Муҳаммаджонов А. Самарқанднинг тарихий топонимлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2007, №4, 37–42-бетлар; шу муаллиф. Марғилон-Маргинон номининг маъноси ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2007, 5-сон, 39–42-бетлар; шу муаллиф. Фарғона номининг маъносига доир. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2007, 6-сон, 7–12-бетлар.
- (10). Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент, “Шарк”, 2006, 192 с.
- (11). Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий қўлланма. Самарқанд, СамДУ нашри, 2011, 12-бет.
- (12). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “Donishmad ziyosi”, 2022, 624-бет.
- (13). Mahmudov N., Primov A. Muqaddim. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “Donishmad ziyosi”, 2022, 3-бет (Umumiy atoqli otlar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar bu hisobga kiritilmadi).
- (14). O‘rinboyev B. Jizzax viloyati toponimlari. Jizzax, 1992, 54-бет; shu muallif. Asrlardek barhayot nomlar. Samarqand, “Zarafshon”, 2003, 264-бет; shu muallif. Jizzax toponimlari ta‘biri. Samarqand, 2007, 80-бет.
- (15). Закиров А. Топонимия Джиззакской области Узбекской ССР. Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. М., 1991; Hakimov Q. Jizzax viloyati geografik nomlari. Toshkent, 2009.
- (16). Mawer A. The Chief Elements used in English Place-Names, Being the Second Part of the Introduction to the Survey of English Place-Names. Vol. I (2), Cambridge, CUP, 1924.
- (17). Smith A.H. English Place-Name Elements: in 2 vols. Cambridge, CUP, 1956.
- (18). Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс., Тошкент, 2009, 119-бет.
- (19). Cameron K. A Dictionary of Lincolnshire Place-Names. Nottingham, EPNS, 1998.
- (20). Муҳаммаджонов А. “Даҳкат” ойконимининг этимони ва “кат” субстрати. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2000, 1-сон, 57-бет; шу муаллиф. Посира этнотопоними. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2000, 5-сон, 65-бет; шу муаллиф. “Андукон”, “Андигон” ва “Андижон” топонимлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2002, 2-сон, 31-бет; шу муаллиф. “Наманган” топонимиясининг этимологияси ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2003, 5-сон, 35 бет; шу муаллиф. Айрим топонимлар семантикаси (“маст” ёки “мас” морфемали жой номлари, дех, кўй, пул субстратлари ҳақида). “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2004, 2-сон, 39-бет; шу муаллиф. “Калобод”, “Калковуз”, “Калос”, “Миёнкол” гидронимлари ва “кал”, “кол”, “колот” субстратлари ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2004, 5-сон, 43-бет.
- (21). Исҳоқов М. Ҳазорасп “минг от”ми ёки...? “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1997, 1-сон, 72-бет.
- (22). Jones, R., Semple, S. (Eds). (2012). Sense of Place in Anglo-Saxon England. Donington: Shaun Tyas. – p. 4–5.
- (23). Hough C. Commonplace Place-names. Nomina, 30, p. 101–120.
- (24). Jones R. & S.Semple. Hunting for the meaning of the place-name Upton. Sense of Place in Anglo-Saxon England, 2012, p. 301–315.
- (25). Postles D. Naming, society and regional identity. Oxford: Leopard’s Head Press, 2002.
- (26). <http://englishplacenames.cerch.kcl.ac.uk/>

**Diyorova Mahliyo Shuhrat qizi (Qarshi davlat universiteti “Lingvistika” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi;  
E-mail: mahliyodiyorova7@gmail.com)  
TARJIMASHUNOSLIKDA MEDIAMATNI SEMANTIK-PRAGMATIK TAHLIL  
QILISHNING ASOSIY USULLARI**

*Annotatsiya. Bizga ma’limki, ingliz tili va o‘zbek tili ommaviy axborot vositalari nutqi materialida tasvirlangan ommaviy kommunikatsiya sohasidagi tilning ishlashini o‘rganish nazariyasi va usullari ularning markaziy tahlil obyekti ommaviy axborot vositalaridagi matn va uning strukturaviy elementlarini*

*ochib beradi. Tarjimashunoslikda mediamatnni semantik tahlil qilish o'ziga xos tahlil usullariga egadir. Maqolada ushbu usullar haqida batafsil yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *lingvistika, media, kognitiv tilshunoslik, nazariya, tarjima.*

**Диёрова Махлиё (независимый исследователь кафедры «Лингвистики», Каршинский государственный университет; E-mail: mahliyodiyorova7@gmail.com)**

### **ОСНОВНЫЕ МЕТОДЫ СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА МЕДИАТЕКСТА ПРИ ПЕРЕВОДЕ**

**Аннотация.** *Как известно, теория и методы изучения функционирования языка в сфере массовой коммуникации, изложенные на речевом материале английского и узбекского языков, раскрывают текст в средствах массовой информации и его структурные элементы как центральный объект их изучения. анализ. Семантический анализ медиатекста в переводоведении имеет свои методы анализа. В статье подробно описаны эти методы.*

**Ключевые слова:** *лингвистика, медиа, когнитивное лингвистическое исследование, теория, перевод*

**Diyorova Mahliyo (an independent researcher at the "Linguistics" department of Karshi State University; e-mail: mahliyodiyorova7@gmail.com)**

### **BASIC METHODS OF SEMANTIC PRAGMATIC ANALYSIS OF MEDIA TEXT IN TRANSLATION**

**Annotation.** *As we know, the theory and methods of studying the functioning of the language in the field of mass communication, described in the speech material of the English and Uzbek languages, reveal the text in the mass media and its structural elements as their central object of analysis. Semantic analysis of media text in translation studies has its own methods of analysis. The article describes these methods in detail.*

**Key words:** *linguistics, media, cognitive linguistics, theory, translation.*

**Kirish.** Mediadiskursning ko'plab zamonaviy tadqiqotlari "Muallif – matn – manzil" triadasi doirasida kommunikativ aktning modellarini tavsiflashga bog'ishlangan. Antropotsentrik paradigma pozitsiyasidan mediamatn mohiyatini keng ma'noda talqin qilishga harakat qilinadi va asosiy diqqat uning funksional tomoniga qaratiladi. Mediadiskursda auditoriya ongini manipulatsiya qilishni o'rganish sohasida kognitiv-pragmatik yondashuvdan foydalanish muhim sanaladi. Zamonaviy mediamatnlari funksiyalarining media makonida sezilarli o'zgarishlarning jadal rivojlanishi ularni o'rganishning umume'tirof etilgan usullari, o'rnatilgan tushunchalar bilan bir qatorda, allaqachon o'z xususiyatlarini yo'qotishiga olib keldi. Ularning yordami bilan bu sohadagi ichki va tashqi jarayonlarni o'rganish imkonsiz ko'rinadi. Ushbu vaziyatdan chiqish yo'llaridan biri sifatida muallif semiotika metodologiyasiga murojaat qiladi. XX asrdan boshlab ommaviy axborot vositalarining semiotik voqelikni qurishdagi rolini aniqlash, shuningdek, elektron media kanallari orqali ma'nolarni tarjima qilish jarayonlarini o'rganish jarayonida faol foydalanilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** E.G.Shestakovaning fikriga ko'ra [1], zamonaviy media makonining funksiyalarida sezilarli o'zgarishlarning jadal rivojlanishi kognitiv-pragmatik yondashuvdan foydalanish hisoblanadi. Zamonaviy madaniyat vizualikka burilish bilan tavsiflanadi, bu og'zaki va ishora-ramziy tabiatda, shuningdek, mediamatnning maqsad va funksiyalarida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi [2]. E.G. Kotorova pragmatikaning fan sifatidagi maqomini aniqlashga yondashuvlarni tahlil qilib, qiyoslab, ularning barchasini birlashtiruvchi umumiy xususiyatni ajratib ko'rsatib tildan foydalanish pragmatikasini talqin qiladi [3]. Muloqotning pragmatik konteksti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. U "ham til, ham ekstralingvistik komponentlarni: ijtimoiy etnik, ishtirokchilarning ramziy tabiatdagi biologik xususiyatlari, shuningdek, mediamatnning maqsadlari va funksiyalarini o'z ichiga oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi. Mavzuni yoritishda tavsiflash, komponent tahlil, tipologik tasniflash, madaniyatlararo chog'ishtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Pragmatikaning maqomini aniqlashga yondashuvlarni tahlil qilish va taqqoslashdan keyin E.G.Kotorova fan sifatida ularning barchasini birlashtiruvchi umumiy xususiyatni ajratib ko'rsatdi: pragmatika "ham lingvistik, ham ekstralingvistik komponentlarni o'z ichiga olgan holda talqin etiladi: pragmatika – ishtirokchilarning xususiyatlari, mavjudligini va ma'nosini tushunishga imkon beradi [4]". Muloqotning pragmatik konteksti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ijtimoiy, etnik, biologik aloqalar, ularning munosabatlari va boshqalardan iborat. Ommaviy axborot vositalarining nutqi davlatning

in'ikosi va zamonaviy tabiiy tilning o'z vazifalarini to'liq amalga oshirishda rivojlanishining omili bo'lib, u uchun qulay zamin bo'ldi. Ommaviy axborot vositalari matnlarini ularning adresatga ta'siri nuqtai nazaridan tadqiq qilish muhimdir. A.D.Vovchok ta'rifiga ko'ra, mediamatnlarning pragmatik yo'nalishi axborotni ijtimoiy baholashga dasturlashtirilgan munosabat bilan uzatishdir" [5]. Ularni yaratish jarayonida aktyor o'quvchilarni har qanday voqea haqida xabardor qilish va "unga nutq yoki og'zaki bo'lmagan (jismoniy yoki hissiy) harakat shakliga tegishli munosabat bildirish" uchun barcha vositalarni sinchkovlik bilan tanlaydi. U o'z matni bilan o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi, jumladan, uning ruhiyati va ijtimoiy xulq-atvori ma'lum qoidalar va muloqot strategiyalari bilan tartibga solinadi. Zamonaviy ilmiy paradigmaning shaxsga qaratilishi tabiatni o'zgartiradi. Lingvistik tadqiqotlarning muhim tarkibiy qismi kognitiv jihatdir. "Demak, agar ilgari u o'zini-o'zi ta'minlaydigan, o'z-o'zini tashkil etuvchi, o'z-o'zidan tuzilgan belgilar tizimi sifatida tavsiflangan bo'lsa, bugungi kunda til inson hayotining bir shakli, dunyo haqidagi bilimlarni ifodalash usuli sifatida tushuniladi. Bu ommaviy axborot vositalarida atrofda voqelik voqealarini idrok etish, talqin qilish va og'zaki shakllantirishda, shuningdek, qabul qiluvchi tomonidan olingan ma'lumotlarni dekodlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari matni muallif faoliyatining mahsuli va o'quvchi faoliyatining obyekt sifatida qarala boshlandi. Bu medianutqning asosiy ishtirokchilari (jurnalist va o'quvchi) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi modelini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu bir nechta prinsiplarga asoslanadi: o'zaro ta'sir tizimining ochiq tabiati va moslashuvchanligi, o'rtasidagi doimiy interaktiv aloqa, muallif va uning auditoriyasi, jurnalist shaxsiyatining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ommaviy axborot vositalari va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida ijodiy individuallikni (ham murojaat qiluvchi, ham adresat) hisobga olgan holda, mediamatn muallifi "monologik rivoyatni kognitiv jarayon sifatida tashkil qiladi, bunda ekstralingvistik haqiqat adresatning hajmi, uning taxminlari va baholashlari bilan bog'liq bo'ladi.

OAV nutqini kommunikativ-pragmatik aspektida ko'rib chiqayotganda, N.F.Alefirenko o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatadi. Avvalo, mediadiskurs – bu og'zaki dizayn, bilim va kommunikativ-pragmatik vaziyatning kombinatsiyasi, asosiy rolni "til shaxsining ichki dunyosining turli tomonlariga qaratilgan kognitiv shakllanishlar" ijtimoiy faoliyat turi, deydi [7].

Muallif va adresatning o'ziga xosligi OAV aloqasining asosiy subyektlari muallif va adresat bo'lib, zamonaviy mediamatnning o'ziga xosligini belgilaydi. Haqiqiy muallif va haqiqiy adresat, mos ravishda, mediamatn yaratuvchisi va oluvchisi va matnning o'zida lingvistik vositalar bilan shakllanadigan muallif/adresat obrazini farqlash kerak. Mediamatnning umumiy tavsifini berib, biz mediamahsulotning haqiqiy muallifi-ishlab chiqaruvchisi kollektiv subyekt ekanligini, lekin muallif obrazi (mualliflik tamoyili) mediamatn orqali turlicha tuzilishi mumkin. T.V.Shmeleva mualliflik tamoyilining stilistik xususiyatlarining uchta parametrini aniqlaydi: muallifni aniqlash, murakkablik darajasi va muallifning "men"ni ifodalash vositalarining o'ziga xosligi [8]. Tadqiqotchi, shuningdek, muallif ishtirok etadigan rollar ro'yxatini taklif qiladi: targ'ibotchi (tashviqotchi), polemist, muxbir, yilnomachi, rassom, tahlilchi, tadqiqotchi, ironist, informator ("kamtarona" va "baholovchi"), intervyu beruvchi (aniq va yashirin), muxbir, tahlilchi, matbuot kotibi (ko'pincha, bu funksiyada sharhlovchilar ishlaydi). Tabiiyki, bu turdagi mualliflar sof shaklda uchramaydi: bitta matn ichida muallif rollarni o'zgartirishi va voqealar ishtirokchisi yoki intervyu beruvchi yoki so'zlovchi yoki tahlilchi sifatida harakat qilishi mumkin. "Muallifni va uning rolini aniqlash sizga matnning janr mohiyatini ko'rishga, muallifning barcha ko'rinishlarini hisobga olishga imkon beradi – aniqdan tortib to ochiq ko'rinishgacha va muallifning prinsipini ifodalashning har bir usulini stilistik jihatdan baholashdan iborat". Muallifning matnda ifodalanishining murakkablik darajasini muhokama qilib, T.V.Shmeleva bir muallifning ovozli matnlari va polifonik matnlarni ajratib ko'rsatadi va quyidagiga e'tibor qaratadi: matnga boshqa odamlarning ovozi qanchalik ko'p kiritilsa, uning bevosita muallifi unchalik muhim emas. Tadqiqotchi bu hodisani "muallifga taqlid qilish" deb ataydi. Muallifni ifodalashning bunday usulini "mas'uliyatdan qochish" kommunikativ strategiyasini amalga oshirish deb hisoblash mumkin: muallif shaxsan tayinlangan bo'lsa-da, u xususiy shaxs sifatida emas, balki korporatsiya vakili sifatida harakat qilishini ko'rsatadi. Nihoyat, ommaviy axborot vositalari matnida mualliflik tamoyilining turli nisbati haqida gapirish mumkin.

**Xulosa.** Ko'rinib turibdiki, bu parametr janrlarni farqlash uchun juda muhim: muallif boshlanishining minimal o'ziga xosligi yangiliklar matnlarida, maksimal – tahliliy janrlarda ishtirok etadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari matnida, T.V.Shmeleva, paradoksal holat yuzaga keladi: sintaktik nuqtai nazardan, muallifning matnning boshlanishi tobora murakkablashadi, ammo semantik ma'noda muallifning pozitsiyasining o'zi "mikrofon taklif qilish"ga qisqaradi [9]. Qizig'i shundaki, bunday xulosa mutaxassislarining zamonaviy ommaviy axborot vositalarida subyektivlik ulushi ortishi haqidagi bayonotiga hech bo'li-

maganda zid emas: “o‘quvchi obyektiv ma‘lumotni olmaydi, balki jurnalistning sodir bo‘lgan voqealarga munosabati”, “muallif bugungi kunda axborot dirijori emas, o‘quvchi esa ma‘lumotni qabul qiluvchi emas, balki manipulatsiya obyektidir. Haqiqiy jurnalist borgan sari subyektiv bo‘lib boradi, lekin, shu bilan birga, kamroq individual nuqtayi nazarni ifodalaydi, muayyan ijtimoiy guruhlarining korporativ manfaatlarini takrorlovchi sifatida ishlaydi. Murojaat qiluvchining paradoksi shundaki, har qanday mediamatn har qanday iste‘molchi uchun potensial foydalanish mumkin bo‘lsa-da, ammo bu professional jurnalistga yaxshi ma‘lum, aslida, har bir mediamatni (shu jumladan, eng “ommaviy” yangiliklar) juda umumiy yosh guruhlari tomonidan birlashtirilgan juda aniq auditoriyaga qaratilgan, jinsi, ijtimoiy, konfessional, dunyoqarashi, didi va boshqalar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Шестакова, Э.Г. Парадоксы современного медиатекста в контексте методологии семиотики [электронный ресурс]. Медиалингвистика. 2019, № 6 (2), с. 180–195. Режим доступа: <https://medialing.ru/paradoksy-ovremennogo-mediamatna-v-kontekste-metodologii-semiotiki/>
- (2). Шестакова, Э.Г. Парадоксы современного медиатекста в контексте методологии семиотики [электронный ресурс]. Медиалингвистика. 2019, № 6 (2), с. 180–195. Режим доступа: <https://medialing.ru/paradoksy-ovremennogo-mediamatna-v-kontekste-metodologii-semiotiki/>
- (3). Которова, Е.Г. Прагматика в кругу лингвистических дисциплин: проблемы дефиниции и классификации. Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. 2019, т. 23, № 1, с. 98–115.
- (4). Которова, Е.Г. Прагматика в кругу лингвистических дисциплин: проблемы дефиниции и классификации. Вестник РУДН. Серия: Лингвистика, 2019, т. 23, № 1, с. 98–115.
- (5). Вовчок, А.Д. Прагматические особенности экспрессивно-стилистических средств в текстах современных онлайн-газет. Наука сегодня: вызовы и решения. Материалы международной научно-практической конференции. Научный центр «Диспут». Издательство ООО «Маркер», 2017, с. 75–76.
- (6). Алефиренко, Н.Ф. Медиадискурс и его коммуникативно-прагматическая сущность [Электронный ресурс]. Медиалингвистика. 2016, № 1 (11), с. 49–57. Режим доступа: <https://medialing.ru/mediadiskurs-i-egokommunikativnopragsmaticheskaya-sushchnost/>
- (7). Шмелева, Т.В. Медиатизация как феномен современной культуры и объект исследования [электронный ресурс]. Вестник НовГУ, 2015, №7 (90). Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatizatsiya-kak-fenomenovremennoy-kultury-i-obekt-issledovaniya>
- (8). Шмелева, Т.В. Медиатизация как феномен современной культуры и объект исследования [электронный ресурс]. Вестник НовГУ, 2015, №7 (90). Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatizatsiya-kak-fenomenovremennoy-kultury-i-obekt-issledovaniya>
- (9). Шмелева, Т.В. Медиатизация как феномен современной культуры и объект исследования [электронный ресурс]. Вестник НовГУ, 2015, №7 (90). Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatizatsiya-kak-fenomenovremennoy-kultury-i-obekt-issledovaniya>

**Karamatdinova Gavhar Tayirovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti; E-mail: [gauharkaramatdinova6@gmail.com](mailto:gauharkaramatdinova6@gmail.com))**  
**QORAQALPOQ TILIDA SO‘Z MA‘NOLARINING O‘RGANILISHI**

*Аннотация. Мақола тил билимининг лексикология соҳасида қорақалпоқ тили лексикасининг ривожланishi, бадиий, илмий ва нашр услубларида акс ettirilishi hamda so‘zlarning semantik funksiyalarini tahlil qilish jarayonini o‘z ichiga oladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, so‘z ma‘nolari dunyodagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘lanib, lingvistik vaziyatni yanada boyitadi. Ushbu tadqiqot qoraqalpoq tili leksikasi-da so‘z ma‘nolarining xususiyatlarini tadqiq etish va yangi metodologiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, bu esa tildagi o‘zgarishlarni va uning rivojlanish dinamikasini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

*Калит со‘злар: qoraqalpoq tili, so‘z ma‘nolari, semantika, etimologiya, lingvistik tadqiqot, madaniy kontekst, tarixiy o‘zgarishlar, tilshunoslik, so‘zlarning qo‘llanishi.*

#### ИЗУЧЕНИЕ ЗНАЧЕНИЙ СЛОВ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ

*Аннотация. Статья включает в себя развитие лексики каракалпакского языка в области лексикологии языкознания, отражение в художественном, научном и издательском стилях, а также процесс анализа семантических функций слов. Результаты показывают, что значения слов связаны с социальными и культурными изменениями в мире и обогащают лингвистическую ситуацию. Данное исследование служит основой для исследования особенностей значений слов в лексике ка-*

ракалпакского языка и разработки новых методологий, что способствует более глубокому пониманию изменений в языке и динамики его развития.

**Ключевые слова:** каракалпакский язык, значения слов, семантика, этимология, лингвистическое исследование, культурный контекст, исторические изменения, языкознание, использование слов.

## THE STUDY OF WORD MEANINGS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE

**Annotation.** The article includes the development of the lexicon of the Karakalpak language in the field of lexicology of linguistics, its reflection in artistic, scientific and publishing styles, as well as the process of analyzing the semantic functions of words. The results show that the meanings of words are related to the social and cultural changes in the world and enrich the linguistic situation. This research serves as the basis for researching the peculiarities of word meanings in the lexicon of the Karakalpak language and developing new methodologies, which contribute to a deeper understanding of changes in the language and the dynamics of its development.

**Keywords:** Karakalpak language, word meanings, semantics, etymology, linguistic research, cultural context, historical changes, linguistics, word usage.

**Kirish.** Qoraqalpoq tili, Oʻrta Osiyoda joylashgan Qoraqalpogʻiston Respublikasining rasmiy tili sifatida oʻziga xos xususiyatlarga ega. Bu til, nafaqat mahalliy aholi uchun muloqot vositasi boʻlib, balki oʻzining boy madaniyati, tarixi va anʼanalarini saqlab qolishda muhim rol oʻynaydi. Qoraqalpoq tilida soʻz maʼnolarining oʻrganilishi, tilning dinamikasini va rivojlanish jarayonini tushunish uchun zarurdir. Soʻz maʼnolari, tilning asosiy elementlaridan biri sifatida, lingvistikaning eng muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan birini tashkil etadi. Ular oʻzaro bogʻlangan, lekin kontekstdan kelib chiqib, har xil maʼnolar kasb etadigan elementlardir. Qoraqalpoq tilida soʻzlarning maʼnolarini oʻrganish, nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham oʻz ichiga oladi. Maqolada soʻz maʼnolarining tarixiy va madaniy kontekstdagi oʻzgarishi, sinonimlar va antonimlar, shuningdek, semantik maydonlar haqida maʼlumot beriladi. Ushbu tadqiqot, qoraqalpoq tilida soʻz maʼnolarining oʻrganilishi orqali, tilning oʻziga xos xususiyatlarini, shuningdek, uning taʼlim va amaliyotdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Maqolaning maqsadi, til oʻrganuvchilarga, tadqiqotchilarga va qoraqalpoq tiliga qiziqqanlarga soʻz maʼnolarining boyligini va ularning turli kontekstlarda qanday oʻzgarishini tushunishga yordam berishdir.

**Usullar.** Til bilimining leksikologiya sohasida soʻz maʼnosi va qoʻllanilishi oʻrganiladi. Qoraqalpoq tili XX asrning 30-yillaridan boshlab chinakam ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. N.A.Baskakovning “Qoraqalpoq tilining qisqacha grammatikasi” asarida leksikaga oid boʻlgan arab-fors tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlar haqida fikr uchraydi [6].

S.E.Malovning “Zametki karakalpakskogo yazika” asarida ham qoraqalpoq tili leksikasiga oid ayrim maʼlumotlar mavjud [4].

1962-yilda qoraqalpoq tili leksikasiga oid N.A.Baskakovning kitobi chiqdi. Kitobda qoraqalpoq tilining lugʻaviy tarkibi tarixiy kelib chiqishi boʻyicha oʻrganilgan. 1996-yili uning qoraqalpoq tili leksikasiga bagʻishlangan ushbu asari kitob holda nashrdan chiqdi [5].

Qoraqalpoq tili leksikasini tadqiq qilishda professor E.Berdimuratovning xizmatlari koʻp. 1964-yili Toshkent shahrida “Hozirgi qoraqalpoq tili leksikologiyasining ocherklari” degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Uning “Hozirgi zamon qoraqalpoq tili leksikasi” asari 1964-yilda Nukusda chop etildi. E.Berdimuratovning “Adabiy tilning funksional uslublari rivojlanishi bilan qoraqalpoq leksikasining rivojlanishi” monografiyasi doktorlik dissertatsiyasining yakuni edi. Kitobda publitsistik, badiiy adabiyot, ilmiy rasmiy ish qogʻozlari uslublari taraqqiyotiga mos ravishda, ularga xos leksik birliklarning mazmuniy taraqqiyoti, uning sabablari va taraqqiyot yoʻllari tadqiq etilgan.

Qoraqalpoq tilidagi sinonimlar M.Qalandarov tomonidan maxsus tadqiq etildi. Qoraqalpoq tiliga arab-fors tillaridan kirib kelgan soʻzlarning qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida qoʻllanilishi O.Bekbaulov tomonidan, sharq tillaridan kirib kelgan soʻzlarning tarixi J.Shamshetov tomonidan oʻrganildi va kitob boʻlib nashrdan chiqdi [10].

**Tadqiqot natijasi va muhokama.** Til – soʻz turkumi va uning asosiy birligi hisoblanadi. Soʻz tarkibida qoʻshma kategoriya sifatida eʼtirof etiladi, uni tizimli leksikologiya nuqtayi nazaridan baholash zarur. L.V.Sherbanning leksikologik gʻoyasiga koʻra, soʻz tarkibi, soʻz va uning maʼnolari haqidagi muammolar tizimli tashkil etilganlik va yaxlitlik nuqtayi nazaridan qaralishi lozim. Leksikaning qoidalari, yaʼni, lugʻat qoidalari bu soʻzning haqiqiy qoʻllanish qoidasi boʻladi, ular soʻzlarning oʻziga xos maʼnolari shaklida shakllantiradi.

Soʻz leksikologik nuqtayi nazardan, yakka birlik sifatida qaralganda ham, shu birlikning qoʻllanishda nutqdagi funktsionallik faoliyati jihatidan taʼriflanganda ham badiiy tasvirda uslubiy qoʻllanishiga koʻra taʼriflanganda ham, u, birinchidan, tashqi tomondan fonetik jihatdan fonetik soʻz, ikkinchidan, denotat, yaʼni, referent, uchinchidan, bizning ongimizda paydo boʻlgan mazmun-mohiyat sifatida baholanadi. Denotat sifatida soʻz oʻzi anglatgan narsa yoki hodisani bildiradi. Demak, soʻz atama sifatida funktsional butun soʻz, shuningdek, denotativ va signifikatli munosabatga asoslangan, tilda hosil boʻlgan qoʻshma birlikdir. Shuning uchun ham soʻz bu ifoda, unda material, sezgilar orqali ifodalangan narsa (holat, harakat) deb ataladi, tilda soʻzning tuzilishi bu munosabatlarning qoʻshma mazmunini, signifikat vazifasini ham bajaradi, ikkinchidan, u oʻz mazmuni, signifikati bilan narsa-buyumga aloqador denotata, uchinchidan, gapda butun kompleks (barcha semantik uch burchakli) yangi narsa-buyumning ifodasi boʻlishi ham mumkin.

Soʻzning leksik maʼnolarining asosiy uch turini ajratib koʻrsatish mumkin. Ular erkin, frazeologik bogʻlangan va funktsional-sintaktik cheklangan maʼnolardan iborat. Masalan, odam, chiroy, oʻyin kabi predmet, qurilish va ularning belgilari bilan bevosita bogʻliq leksik maʼnolarga ega. Ular boshqa soʻzlar bilan erkin va keng qoʻllanilishi mumkin. Masalan, kamtar odam. yaxshi odam, chaqqon odam, ishchan odam. uzun yogʻoch, uzun boʻyli, uzun koʻylak, uzun yogʻoch, toʻp oʻynash, shaxmat oʻynash, sekin oʻynash va hokazo.

*Bir toʻpli bola shod oʻynab yurar,*

*Haqiqatdan doimiy baxt* (A.Tajimuratov. “Paraxatchilik kaptarlari”)

Bu misollardagi soʻz zanjirlaridagi odam, chiroy, oʻynash degan soʻzlarning maʼnolari erkin maʼnolar hisoblanadi.

Baʼzi soʻzlarning maʼnolari esa faqat bir soʻz turkumi ichida koʻrinadi, boshqa soʻzlarning maʼnolari bilan erkin tarzda bogʻlanavermaydi, ularning maʼnolari qoraqalpoq tilining leksik sistemasidagi ayrim ichki qonuniyatlar bilan belgilanadi.

Soʻzning leksik maʼnolarining uchinchi tipi funktsional-sintaktik chegaralangan maʼnodan iborat. U sintaktik funktsiyalarga oid muayyan kontekstda qoʻllaniladi. Bu maʼno emotsional-ekspressiv xarakterga ega boʻlib keladi. Soʻzning dastlabki asl maʼnosi uning toʻgʻri maʼnosi boʻladi. Toʻgʻri maʼno deganda uning dastlabki maʼlum bir predmet, hodisa yoki ular orasidagi munosabatga va belgilarga bogʻliq holda paydo boʻlgan predmetlik maʼnosini tushunish kerak. Masalan, qoraqalpoq tilida burkut, torgay, gaz degan soʻzlarning dastlabki maʼnosi, yaʼni asosiy predmetlik-zatq maʼnosi – ular qushlarning maʼlum bir turlarini anglatadi. Mana bu shu soʻzlarning toʻgʻri maʼnolarda qoʻllanilishi hisoblanadi.

Qoraqalpoq tilida soʻzlar hamma vaqt ham asosiy maʼnolarida qoʻllanib kelavermaydi. Ammo, aksincha, ular bundan boshqacha oʻzgaragan maʼnoda ham qoʻllanilishi mumkin.

Lekin har qanday holatda ham soʻzning toʻgʻri maʼnosi uning boshqa maʼnolarini aniqlashda, tekshirib koʻrishda mezon boʻlib qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, biz ushbu misollardagi baʼzi soʻzlarning maʼnolarini tahlil qilib koʻraylik. Ularda ayrim soʻzlarni qaysi maʼnoda qoʻllanib turganini aniqlaylik:

*I. Togʻdan uchgan burgut boʻldim,*

*Qoʻnadigan joyim boʻlmagan.* (Berdaq. “Boʻlgan emas”)

Bu yerda burgut soʻzi oʻz maʼnosida qoʻllanilmayapti. Shoir burgutning qonliligi, shavq-zavqiga bogʻliq ravishda shunga suyanib, oʻzini shavqli, lekin qoʻnishga yeri yoʻq burgutman degan maʼnoda qoʻllanilgan. Mana, bu maʼno shu soʻzning ogʻishgan maʼnosi hisoblanadi. Soʻz ogʻishgan maʼnoda qoʻllanilganda, koʻpincha, u predmetni yo shunchaki taʼkidlabgina qolmay, unga qandaydir maʼnoviy oʻtkirlik berib, uni dastlabki lugʻaviy maʼnosi bilan solishtirib qaraganda, bu maʼnoviy oʻtkirlik yaqqol seziladi.

Shunday qilib, koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan soʻzlar, koʻpincha, maʼnosi jihatidan emotsional oʻtkirlikka ham ega boʻlib kelishi mumkin. Soʻzning toʻgʻri va noaniq maʼnolari, ular orasidagi bogʻlanishlar bu tarixiy davrlar davomida odatiy boʻlib turgan tildagi oʻzgarishlardan iborat. Shuningdek, tarixiy davrlar oʻtishi bilan baʼzi soʻzlarning dastlabki toʻgʻri maʼnolari batamom yoʻqolib, uning koʻchgan maʼnosi umumxalq tomonidan keng qoʻllanilishiga olib kelishi mumkin. Bunday oʻzgarishlarga ikki xil usul sabab boʻladi: 1) ekstralingvistik sabablar–ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ong va fanning rivojlanishi va h.k.; 2) lingvistik sabablar – til birliklari tizimi ichidagi munosabatlar. Leksemalarning leksik maʼnosining rivojlanish yoʻllari har xil: maʼnoning siljishi, kengayishi va torayishi.

Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turganidek, oʻrganilgan adabiyotlar orqali soʻzlarning etimologiyasi va ularning hozirgi kontekstdagi oʻrni haqida yangi maʼlumotlar keltirildi. Ushbu tadqiqot natijalari qoraqalpoq tilidagi soʻz maʼnolarining oʻrganilishi orqali tilning rivojlanishi, soʻzlarning dinamikasi va ularning madaniy kontekstdagi ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqotda qoraqalpoq tilida soʻz maʼnolarining oʻrganilishi muhim ilmiy natijalar va xulosalar keltirdi. Qoraqalpoq tili oʻziga xos tarixi, madaniyati va anʼanalari bilan boy boʻlib, uning soʻz maʼnolarini oʻrganish, tilning rivojlanishi va mantiqiy strukturasi tushunish uchun zarurdir. Tadqiqot davomida bir necha asosiy jihatlar aniqlangan. Tarixiy va madaniy omillar natijasida qoraqalpoq tilidagi soʻzlarning maʼnolari oʻzgarishi koʻrsatildi. Bu oʻzgarishlar, tilning dinamikasi va zamonaviy hayotdagi roli haqida yangi tushunchalar keltiradi. Oʻrganilgan sinonimlar va antonimlar, tilshunoslik va semantika sohasida tilning tuzilishi va ifodalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq tilidagi soʻz maʼnolarining oʻrganilishini chuqurlashtirish va yangi metodologiyalarni ishlab chiqish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Bu qoraqalpoq tilining rivojlanishi va saqlanishiga hissa qoʻshadi. Umuman olganda, qoraqalpoq tilida soʻz maʼnolarining oʻrganilishi, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi bilimlarni keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqot, qoraqalpoq tilining boyligini va oʻziga xosligini yanada ochib beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). Abdurakhmonova, N. (2021). Cognitive aspects of language: The case of the Karakalpak language. *International Journal of Linguistics and Literature*, 5(2), p. 150–162. <https://doi.org/10.1007/s41796-021-00120-4>
- (2). Baimukhanova, Z. (2018). The semantics of verbs in the Karakalpak language: A comparative analysis. *Journal of Language and Linguistic Studies*, 14(3), p. 456–467. <https://doi.org/10.17263/jlls.593683>
- (3). Berdimuratov E. *Hazirgi qaraqalpaq tili*. Noʻkis, 1994.
- (4). Shonazarov, M., & Yusupov, O. (2022). Exploring the semantic structure of the Karakalpak language: Methodological approaches. *Asian Journal of Research in Education and Social Sciences*, 4(1), p. 12–23. <https://doi.org/10.20091/ajress.2022.12.01>.
- (5). Баскаков Н.А. Состав лексики каракалпакского языка и структура слова. «Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков», Москва, 1962, с. 69–100.
- (6). Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Лексика. Нукус, “Билим”, 1996.
- (7). Бекбаулов О. Кахарманлык эпостын араб-парсы лексикасы хам онын тарийхий лингвистикалык характеристикасы. Нокис, 1979.
- (8). Календеров М. Каракалпак тилиндеги синонимлер. Нукус, 1979.
- (9). Пирниязов К., Пирниязова А. Каракалпак тилинин лексикасы, Нокис, 2004.
- (10). Шамшетов Ж. Каракалпак тилине шыгыс тиллеринен кирген созлер тарийхынан. Нукус, 1984.

**Sapayeva Feruza Norbayevna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali katta oʻqituvchisi; [sapayevaferuza778@gmail.ru](mailto:sapayevaferuza778@gmail.ru))**  
**OʻZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MIFONIM TARKIBLI IBORALAR VA ULARNING TARJIMASIGA OID MUAMMOLAR**

**Annotatsiya.** Maqolada Gʻarb va Sharq mifologiyasiga oid soʻzlar, oʻzbek tilida mifonim tarkibli ingliz iboralarining semantik frazeologik ekvivalenti, oʻzbek va ingliz mifonim tarkibli iboralar va ularni bir qator guruhlariga boʻlinishi, shuningdek, bir tildan boshqasiga tarjima qilganda uchraydigan muammolar keng muhokama qilinadi.

**Kalir soʻzlar:** mifologiya, semantika, frazeologik birliklar, ibora, tarjima.

#### **МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ВЫРАЖЕНИЯ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПЕРЕВОДА**

**Аннотация.** В статье широко рассматриваются слова, относящиеся к западной и восточной мифологии, семантический фразеологический эквивалент английских выражений с мифическим содержанием на узбекском языке, узбекские и английские выражения с мифическим содержанием и их деление на ряд групп, а также проблемы, возникающие при переводе с одного языка на другой.

**Ключевые слова:** мифология, семантика, фразеологизмы, выражение, перевод

#### **MYTHOLOGICAL EXPRESSIONS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES AND THE PROBLEMS OF THEIR TRANSLATION**

**Annotation.** The article discusses the words related to Western and Eastern mythology, the semantic phraseological equivalent of English expressions with mythic content in Uzbek, Uzbek and English expressions with mythic content and their division into a number of groups, as well as the problems encountered when translating from one language to another.

**Keywords:** mythology, semantics, phraseological units, expression, translation.

**Kirish.** Xalqaro aloqalar, tillararo, madaniyatlararo aloqalar kengayib borayotgan, badiiy asarlarni, ayniqsa, har ikkala xalqning jahon adabiyotining yorqin namunalari sanalgan asarlarni oʻzaro tarjima qilish-

ga e'tibor qaratilayotgan hozirgi davrda ingliz tili frazeologik tizimida alohida qatlamni tashkil etuvchi mifologik leksika o'zbek tilshunosligida qiyosiy jihatdan o'rganilmaganligini hal etishga ehtiyoj katta. Xalq ijodi mifologizm badiiy asarlar tilining asosiy stilistik atributlaridan biri bo'lsa-da, olimlar uni ko'proq tarixiy va tarixiy-madaniy jihatdan o'rganishga harakat qilganlar, Bu milliy va antik mifologiyaning ayrim masalalariga to'xtalib, ko'pincha, G'arb mifologiyasi, kelib chiqishi, tarixiy-semantikasi e'tibordan chetda qolgan. Jumladan, ingliz mifologizmlarining funksional jihatlari, semantik xususiyatlarini o'rganmagan, frazeologik birlik yaratish imkoniyatlarini ochib bermagan, frazeologizmlar tarkibida ishlash orqali ma'no-ga qo'shiladigan lingvistik-madaniy mohiyatning ayrim tomonlari nazardan chetda qolgan.

Tarjima va til o'rganish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'lgan ingliz tilining mifologik leksikasini tadqiq qilish, uni muloqot jarayonida qo'llash ham tilshunoslikning ham nazariy, ham amaliy masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega. O'zining yuksak obrazlilik va rang-barang semantik tuslari bilan ajralib turadigan mifologizm tarkibli frazeologizmlar ingliz tilining frazeologik-stilistik tizimida muhim o'rin tutadi va bu tildan boshqa tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida milliy madaniyat xususiyatlarini to'g'ri aniqlash uchun muhim birliklar majmuyini tashkil etadi. Shuning uchun tarjimada ularning adekvat va ekvivalent muqobillarini aniqlash va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mavjud materiallar shuni ko'rsatadiki, o'z ichiga mifonimlarni olgan majoziy iboralar va idiomalar ingliz tilida juda keng tarqalgan va bunday birliklar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmasdan, asl matnning to'g'ri tarjimasini berish va majoziy iboralarining stilistik funksiyasini to'g'ri yetkazish qiyin. Shuningdek, tarjimondan ingliz tilining milliy-madaniy qadriyatlariga oid ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan frazeologik birliklar ifodalagan ma'nolarni yaxshi bilishi, ularni o'z ona tilida berishi, to'g'rirog'i, uslubiy shaklda taqdim etishi talab qilinadi. Bunday obrazli ifodalarning uslubiy va emotsional sifatlarini saqlab qolgan holda, eng avvalo, ingliz diniy-mifologik leksikasini har tomonlama lingvistik o'rganishni taqozo etadi. Diniy-mifologik leksikani o'rganish masalasiga murojaat qilish metaforalarning funksional-semantik xususiyatlari, shuningdek, badiiy matnni semantik tahlil qilish tamoyillarining fundamental muammosi bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan e'tiborni tortadi [1].

**Adabiyotlar tahlili.** Milliy madaniyat har bir til leksikasi manbai sanalishi madaniyat va tilning o'zaro birligi, uning tilning leksik tizimiga ta'siri kabi masalalarni qamrab oladi. Bu borada A.A.Potennya, E.M.Vereshshagin, B.T.Kostomarov, J.Kramsh, Lakoff, M.Jonson va boshqalarning kontseptsiyalari haqida to'xtalib o'tish lozim. Tilning rivojlanishida madaniy omilning o'zi alohida o'rin tutadi, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, ingliz xalqi hayotida ham ikki jihat – leksika va frazeologiyasida madaniyatning bir tarmog'i sifatida namoyon bo'ladi. Tilning madaniyatning ajralmas qismi sifatidagi faoliyati har bir xalq tilida bo'lgani kabi ingliz tilining leksik qatlamida ham yorqin aks etadi [2].

Faqat ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar tillarida kuzatiladigan va boshqa tilda so'zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan mifonimlarni tarjima qilish va muloqot qilishda bir qator sezilarli qiyinchiliklar tilshunolar e'tiborini tormoqda.

Chog'ishtirma tilshunoslikda birinchi milliy madaniyat, boshqa tillarda leksik ekvivalenti bo'lmagan voqelik o'rganiladi. Tilshunoslikning ushbu sohasi tadqiqotchilari S.Vlaxov va S.Florinlar realni quyidagicha tavsiflaydilar: "Real – boshqa xalqlarning ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotida boshqa bir xalq turmushi (turmush tarzi, madaniyati va boshqa) bilan bog'liq bo'lgan narsa va tushunchalar, so'z va so'z birikmalaridir" [3].

O'zbek va ingliz tillaridagi mifonimlar ichida konnotativ (majoziy) ma'no kasb etadigan til birliklari katta guruhni tashkil qiladi. Kristin Denham va Yenn Lobek o'zlarining "Linguistics Everyone" ("Ommabop tilshunoslik") kitobida metaforalarning xarakterli xususiyatlari va turlarini tasvirlab berishgan. Ular birinchi turga tegishli bo'lgan metaforalar kundalik nutqda qo'llaniladigan turg'un birikmalarga aylangan metafora bo'lib, hamma uchun tushunarli iboraga aylangan. Masalan, He is blind to new ideas (so'zmaso'z "u yangi fikrlarga ko'r") gapdagi "ko'r" so'zi "tushunishga qodir emas" ma'nosida qo'llangani ma'lum.

**Natija.** Aralash metaforalarning semantikasi ona tilida so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lsa-da, boshqa tillarda so'zlashuvchilar uchun qo'shimcha tushuntirishlarni talab qiladi. Masalan, Hit the nail on the head (lafziy) ma'nosidan tashqari ("boshga mix urish"), majoziy ma'noga ega bo'lib, ingliz tilida "har qanday maqsadga erishish" ma'nosida ham qo'llaniladi. O'zbek tilida mifonim tarkibli ingliz iboralarining semantik frazeologik ekvivalenti bo'lmasa, uning ma'nosiga qo'shimcha tushuntirish beriladi. Bunda denotativ stilistik ma'no turli davrlarga oid ma'lumotlarni birlashtirishni talab qiladi. Masalan, Gog and Magog mifologik iborasi turg'un so'z birikmasi bo'lib, tilning frazeologik lug'atiga kiritilgan. Qadimgi afsonalarda, Rim ishg'oli davrida Britaniyada joylashgan ikki yirik irqni ifodalovchi bu tasvirlar "Injil"da Xudo

Shohligining kelajakdagi dushmanlari sifatida taqdim etilgan [4]. Ya'juj va Ma'juj haqida bor haqiqat "Qur'on"da bayon qilingan bo'lib, bu haqdagi tasavvurlar o'zbeklar orasida ham keng tarqalgan. Shu bilan birga, bunda o'zbek mumtoz adiblari, xususan, Alisher Navoiyning ham muhim o'rni bor. Ya'juj va Ma'juj haqida Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Saddi Iskandariy" asarlarida so'z boradi:

*Bu oyin uchun chu shahi purxirad.*

*Ki ya'juj daf'i uchun chekti sad.*

Yoki: "...ya'juj daf'i uchun sad bog'labdur va ya'juj va ma'juj sifatida dog'i mubolag'alar ko'rgu-zubdur" [5]. Aks holda, tarjima jarayonida (o'zaro muloqot vaqtida ham) ushbu iborani qarshi til sohibiga yetkazish aniq tasvirlash yoki tushuntirish orqaligina mumkin bo'ladi. Masalan, nasroniy mifologiyasida yeng kuchli yovuz kuchlardan biri hisoblangan devil ("iblis") ingliz tilida ko'plab so'z va iboralar yaratishda ishtirok etishi bilan birga, o'zining ko'p ma'noiligi bilan ham ajralib turadi. Misol uchun, ko'p hollarda devil o'zbek tilidagidek "yomon niyatli odam" ma'nosi yuzaga chiqadi: "O'sha iblis sizga zarar yetkazish uchun hamma narsani qila oladi" ma'nosida "That devil will do everything he can injure you" jumlasidagi kabi. Devil so'zi ba'zan "sarguzashtlar shaydosi" ma'nosida ham qo'llaniladi: "He is a devil with the ladies" – uning xotinlarga suyagi yo'q.

Aksariyat hollarda, turli darajada favqulodda qobiliyatlarga ega bo'lgan qahramonlarning nomlari ingliz tilida ana shu kuch va qobiliyatlarni ifodalashning emotsional-stilistik vositalariga aylanganini, bu inson tili mifologiyaning ajralmas qismi bo'lganligini ko'rsatadi. Uning kengayishida ingliz milliy madaniyati tilning leksikasini boyitish bilan bir qatorda, uning uslubiy ifoda vositalarining ham ahamiyati katta. Inson tabiat va jamiyat bilan bog'liq hodisalarning asl mohiyatini anglay olmaydigan, ularning oldida o'z bo'lgan kishilarning tasavvurlarini qamrab oladi, bu hodisalarni g'ayritabiiy kuchlar bilan bog'lab, afsonalar yaratadi. Turli-tuman marosimlardagi atamalar emas, ijtimoiy hayotda ham sodir bo'layotgan hodisalarning asl mohiyatini tushunmaslik va tushuntira olmaslik natijasida paydo bo'ladi.

**Muhokama.** Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, mifologiya va til parallel rivojlanish yo'liga ega bo'lgan va doimo bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan. Shuning uchun naturmifologlar, antropologik maktab vakillari, strukturalistlar va boshqalar. mifni tushunishda bir qancha fundamental tushunchalarni ishlab chiqdilar. Har ikkala tildagi mifonimlar, shuningdek, ulardan qo'shimchalar yordamida ulardan yasalgan ko'plab so'zlar, shuningdek, ular ishtirokida tuzilgan frazeologizmlar alohida bir tizimni tashkil qiladi. Masalan, Glamour ("sehrli", "afsunli") asl shotland tiliga mansubdir. Bu so'z ingliz frazeologiyasiga ham kirib kelgan: to cast a glamour over – "sehrlash" glamour girl – "chiroyli qiz" degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda, hatto O'zbekistonda ham Glamour tarkibli qator muassasa va joylar mavjud. Ingliz tilli jamiyatda qizlar o'zlari tuzgan biror rasmiy yoki norasmiy uyushmani The Glamour Girls (Chiroyli qizlar) deb nomlashi sharaflari hisoblanadi: "Also in 1987, Hart managed the WWF Women's Tag Team champions Judy Martin and Leilani Kai, known as The Glamour Girls", ya'ni "shuningdek, 1987-yilda Xart WWF ayollar jamoasi chempionlari – The Glamour Girls nomi bilan tanilgan Judi Martin va Leylani Kayni boshqargan" [6]. Xuddi shu kabi o'zbek tilida ham jodugar mifonimining bir ma'nosi "g'oyat go'zal, aqlini oladigan darajada chiroyli" degan ma'noda keladi. Shuning uchun ham eski o'zbek tili mahbuba sehgarg sanalib, unga sohira sifatida berilgan.

Bugungi ayrim ilmiy adabiyotlarda sohira so'zini G'arbdagi feya termini muqobili sifatida ishlatilmoqda. Masalan, "Avesto"dagi "payrika" – mifologik personaj nomi bo'lib, genetik jihatdan pari obrazining arxaik ko'rinishlaridan biri ekanligini mutaxassislar tomonidan yakdillik bilan e'tirof etilgan... Masalan, V.Gerterning fikricha, "Avesto"dagi "payrika" – g'ayritabiiy husn-u jamolga ega bo'lgan sohibjamol ayol, yovuz sohira, ya'ni feya ma'nosida qo'llangan".

G.Nazarova yozishicha, "Ingliz adabiyotida sohira obrazi juda ko'p asarlarda uchraydi. Sohiralar, hatto zamonaviy ingliz adabiyotida ham ko'p uchraydi, ammo bu mifologik obraz zamonaviy adabiyotda uzoq o'tmishdagi an'analar zamirida yaratilgan. Sohiralar o'rta asr ingliz adabiyoti namunalari boshlab, V.Shekspir asarlarigacha, Viktoriya davri adabiyoti namunalari ham mavjuddir" [7].

Shuning uchun ham o'zbek va ingliz mifonim tarkibli iboralarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

Har ikkala xalq vakillari uchun umumiy, aynan tarjima qilinishi mumkin bo'lgan iboralar: Masalan, *Noah's ark* – Nuh kemasi. Mazkur ibora rus tilida *Hoeb ковчег* shaklida bo'lib, uning kelib chiqishiga oid ma'lumotlar ham bir-biridan deyarli farqlanmaydi.

Judaskuss iborasi inglizcha Judas kiss (an act of betrayal; Judas Iscariot, the disciple who betrayed Jesus, after the Bible "And he that betrayed him gave them a sign, saying, Whomsoever I shall kiss, that same is he: hold him fast") – Iuda o'pichi – sotqinlik ramzi. Iuda Iso alayhissalomning eng yaqinlaridan bi-

ri bo'lishiga qaramay, uni sotgan. Shu asosda Evropa tillarining katta ko'pchiligida ushbu voqea bilan bog'liq frazeologizmlar shakllangan. Masalan, rus tilida *поцелуй Иуды*, chex tilida *Jidášův polibek*, slovak tilida *Judášov bozk* va hokazo [8]. "Xiyonatning bahosi" ma'nosida rus tilida *тридцать сребреников*, ukrainchada *тридцять срібняків*, belaruschada *трыццаць срэбранікаў*, bolgarchada *тридесет сребърника*, (laxcha) *trzydzieści srebrników*, chechxada *trícet stříbrných*, inglizchada *thirty pieces of silver*, nemischada *dreißig Silberlinge*, fransuzchada *30 pièces d'argent* iboralari kelib chiqishi ham mana shu voqea tafsilotlari bilan bog'lanadi [9].

**Xulosa.** Har bir mifonim biror tushunchaning ifodasi sifatida dunyoga kelgan bo'lsa, unga o'sha tushunchaga yondash xislatlar qo'shilib, rivojlanib borgan. Ingliz tilidagi mifonimlar ham, o'zbek tilidagi mifonimlar ham dunyoning boshqa xalqlari singari, ziddiyatga asosan, dunyoga kelib, rivojlagani bilan ajralib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Потебня А.А. Слова и миф. М., "Правда", 1989, с. 623; Rosenberg D. World Mythology. An Anthology of the Great Myth and Epics. Mc Graw Hill Glencol, 1999, 722 p.
- (2). Kramersch C. Language and Culture. Oxford University Press, 2009, 134 p
- (3). Влахов С., Florin S. Непереводимое в переводе. М., "Международные отношения", 1986, 416 с.
- (4). Яджудж и Маджудж. Пиотровский, М.Б. Мифы народов мира. Энцикл. в 2 т., гл. ред. С.А.Токарев. 2-е изд., М., "Советская энциклопедия", 1987, т. 1, А–К, с. 606.
- (5). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Toshkent, "Fan", 2000, 113-bet.
- (6). Paşayeva P.İ. İngilis dilində dini mifoloji leksikanin azərbaycan dilinə tərcüməsi problemləri. Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru elmi dərəcəsi almaq üçün təqdim olunmuş dissertasiyanın avtoreferati. Bakı, 2018.
- (7). Jumanov E. Ertaklardagi dev, pari, ilon, yalmog'iz obrazlarining mifologik asosi. "Jahon adabiyoti", 2022, 1-son.
- (8). Эльянова Н.М. Крылатые слова, их происхождение и значение. "Просвещение", 1971, с. 122.
- (9). Ваурамова Л.К. Эквивалентность библейских аксиологических фразеологизмов. "Филология и культура", 2013, №1 (31), с. 17.

**Карашук Виталий Александрович (профессор кафедры русского языка и литературы  
Андижанского государственного университета; УДК 81-13)**

#### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УЧЕБНОЙ ЛЕКСИКОГРАФИИ

**Аннотация.** *Статья посвящена описанию современного состояния метаязыка лингвистики и проблемам, связанным с составлением двуязычных учебных словарей, а именно словаря лингвистических терминов. Двуязычных словарей, используемых в учебных целях в школах и вузах нашей республики, недостаточно, что негативно отражается на оптимальном усвоении русского языка обучающимися. Исходя из этого, автор статьи разрабатывает учебный русско-узбекский тематический словарь лингвистических терминов, актуальных в языковедческих научных и учебных изданиях.*

**Ключевые слова:** *антропоцентрическая парадигма, металингвистика, языковая личность, лингвистическая терминология, лексикография, двуязычный словарь.*

#### TA'LIM LEKSIKOGRAFIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** *Maqola tilshunoslik metatiling hozirgi holati tavsifiga va ikki tilli o'quv lug'atlarini, ya'ni, lingvistik atamalar lug'atini tuzish bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan. Respublikamiz maktablari va oliy o'quv yurtlarida o'quv maqsadlarida foydalaniladigan ikki tilli lug'atlar yetarli emas, bu esa o'quvchilarning rus tilini optimal o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan kelib chiqib, maqola muallifi lingvistik ilmiy va o'quv nashrlarida dolzarb bo'lgan lingvistik atamalarning o'quv ruscha o'zbekcha tematik lug'atini ishlab chiqmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *antropotsentrik paradigma, metallingvistika, lingvistik shaxs, lingvistik terminologiya, leksikografiya, ikki tilli lug'at.*

#### CURRENT PROBLEMS OF EDUCATIONAL LEXICOGRAPHY

**Annotation.** *The article is devoted to the description of the current state of the metalanguage of linguistics and the problems associated with the compilation of bilingual educational dictionaries, namely, a dictionary of linguistic terms. There are not enough bilingual dictionaries used for educational purposes in schools and universities of our republic, which negatively affects the optimal acquisition of the Russian*

*language by students. Based on this, the author of the article develops an educational Russian-Uzbek thematic dictionary of linguistic terms that are relevant in linguistic scientific and educational publications.*

**Keywords:** *anthropocentric paradigm, metalinguistics, linguistic personality, linguistic terminology, lexicography, bilingual dictionary.*

**Введение.** Антропоцентрический подход к исследованию феномена языка, наметившийся на рубеже XX–XXI вв., привел к появлению в языкознании новых направлений и вызвал количественные и качественные сдвиги в метаязыке лингвистики. Среди фундаментальных наук лингвистика оказалась на переднем плане в развитии человеческой мысли, что вызвало повышенное внимание языковедов к поставленным проблемам и интерес у молодежи к изучению родного и иностранных языков.

**История и методология.** При описании языков возникает проблема, вызванная их расхождением при передаче различных способов устройства жизни национально-языковых сообществ.

Язык вместе с культурой стал описываться как духовная основа нации, как «дух народа» (6;44 с.). В.В.Виноградов отмечал, что «язык – это не только средство выражения мысли, но и форма ее становления, орган образования мысли – и вместе с тем сама сформировавшаяся мысль, изучение словаря немислимо без знания материальной и духовной культуры» (5;6 с.).

